

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI**

**JADIDLAR VA
BEHBUDIY MEROSINI
O‘RGANISHDAGI YANGI
YONDASHUVLAR**

Toshkent — 2025

KIRISH SO‘ZI



Assalomu alaykum, hurmatli hamkasblar, ustozlar, konferensiyamizda ishtirok etayotgan qadrli mehmonlar!

Avvalo, sizlar bilan bugungi “Jadidlar va Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini o‘rganishda yangi yondashuvlar” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyada uchrashib turganimdan juda xursandman! Bugun xalqimiz, millatimiz uchun ulug‘ kun, hatto bu kunni millatimizning bayrami, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan 150 yil ilgari shu kuni Turkiston jadidchilik harakatining tan olingan rahnamosi, din va jamoat arbobi, yangi usul maktablari, milliy matbuot va o‘zbek dramaturiyasi asoschi, muharrir va publisist, o‘z e‘tiqodi va adolatiga sodiq, ma‘rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy tavallud topgan. Barchamizga shu ulug‘ kun muborak bo‘lsin!

Yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorga imzo chekdi. Unda “Vatanimiz tarixida g‘oyat murakkab va sinovli davr bo‘lgan XX asr boshida maydonga chiqqan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi sifatida ilm-fan, ta‘lim va tarbiya, adabiyot va san‘at, matbuot sohalarini rivojlantirish, jahondagi ilg‘or taraqqiyot yutuqlarini o‘zlashtirish orqali xalqimizning ongu tafakkurini yuksaltirish hamda hurriyatga erishish yo‘lida o‘z hayotini baxsh etgan fidoyi zot” ekanligi alohida ta‘kidlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasini abadiylashtirish, hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qilish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirishga alohida e‘tibor qaratilayotgani, ayniqsa, keyingi yillarda Toshkent shahridagi Adiblar xiyobonida uning muazzam haykali o‘rnatilgani, Samarqand shahrida uy-muzeyi tashkil qilingani mamlakatimiz hayotida katta voqea sifatida e‘tirof etilgani, iste‘dodli dramaturglar uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi mukofot ta‘sis qilingani shu yo‘ldagi yangi amaliy qadam bo‘lganligi e‘tirof etildi.

Ulug‘ ma‘rifatparvar asarlarining yosh avlodimiz intellektual va ma‘naviy salohiyatini oshirish, shu asosda ularni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash borasidagi o‘rni va ahamiyatini inobatga olib hamda uning bebaho merosini yanada kengroq o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida yana qator savobli ishlar amalga oshirilishi bo‘yicha, avvalo, tavalludining 150 yilligini keng nishonlash, uning “Tanlangan asarlar” to‘plamini, hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop kitoblarni chop etish singari qator chora-tadbirlar belgilandi.

Prezidentning mazkur qarori jadidshunoslar, xususan, behbudiyshunoslar uchun katta voqea bo‘ldi. Zero uning shaxsi, faoliyati, taqdiri hali to‘liq o‘rganilgani, yetarli targ‘ib-tashviq etilganicha yo‘q.

Xursand bo‘ladigan va iftixor tuyadigan yana bir jihati, jadidlar merosi, ularning qatorida Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini tiklashda bizning O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ham munosib hissa qo‘shayotgani bilan ahamiyatli. Jumladan, O‘zJOKU qoshida talabalarga jadid jurnalistikasi mohiyatini o‘rgatish, yosh izlanuvchilarni jalb etgan holda ilmiy-amaliy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi jadidchilik ilmiy maktabi tashkil qilindi. Kasb mahoratini puxta egallagan yetuk kadrlarni tayyorlashda, eng avvalo, milliy matbuot tarixi, uning an‘analarini yaxshi o‘zlashtirgan va jamiyatdagi turli ijtimoiy muammolarni yoritgan universitet talabalari uchun uning nomidagi stipendiya ta‘sis etildi. Talabalar tomonidan bakalavrlik, magistrlik ishlari yozilmoqda. Universitetimiz olimlari fan doktorligi uchun dissertatsiyalar ustida ish olib borishmoqda. Har yili Behbudiy tug‘ilgan kuni munosabati bilan uning merosi va jadid matbuotiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazish an‘anaga aylandi. Shunga qaramay, ularning ijodini qancha ko‘p o‘rgansak shuncha oz.

Jadid ziyolilari jaxonning taraqqiy etgan mamlakatlari qatori, Turkiston xotin-qizlarini ham o‘z xaq-huquqini talab qila oladigan, siyosiy erkinliklarga ega shaxs kilib tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydilar. Ularning bu say‘-harakatlari bilan Maryam Sultonmurodova, taraqqiyparvar Jumaniyoz Sultonmurodovning qizi, Matluba Muhammedova, Marg‘ilonning mashhur jadid muallimi Nurmuhammad Dadamuhammedovning qizi, shifokor Xayriniso Majidova, birinchi huquqshunos ayol

Diloro Yusupovalar kabi o'nlab o'zbek qizlar Germaniyada tahsil olib, yurt ravnaqiga hissa qo'shish istagida taraqqiyot sari intilishdi. Afsuski, sobiq tuzum tufayli jadid bobolarimiz qatorida jadid ayollarimiz ham qatag'on qurboni bo'ldilar.

Bugungi avlod oldida yangi maqsad turibdi – Vatanni dunyoning har jihatdan rivojlangan yetakchi davlatlari qatoriga olib chiqishdan iborat. Bir paytlar bu maqsad jadid bobolarimiz oldida ham bor edi. Ammo unga erisha olmadilar, to'g'rirog'i erishishga yo'l qo'ymadilar. Jadid bobolarimiz boshlagan ma'rifatparvarlik harakatini davom ettirish, yoshlarning bilimli, malakali bo'lishlari va o'z sohalarini chuqur o'zlashtirishlarida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ham o'z hissasini qo'shadi.

Ulug' Behbudiy va safdoshlarining oxirati obod bo'lsin!

Qudratxo'ja Sherzodxon Tajiddinovich — siyosiy fanlar nomzodi, professor,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori,
“Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar”
Xalqaro ilmiy jurnali tahririyati raisi

Selçuk Türkyılmaz

Usul-i cedit türkçe öğretim kitapları ve ismail gaspirali

Gulmamat Axmedov

Mahmudxo'ja Behbudiyning jamiyatni isloh qilish haqidagi qarashlari

Halim Saidov

Biri millat ko'zini ochdi, ikkinchisi ko'zgu tutdi

Akbar Nurmatov

"Sayohat xotiralari" — madaniyat va taraqqiyotga ko'prik

Заур Бабаев

Интернет-журналистика — как новый культурный и цивилизационный феномен в Азербайджане

Dilafro'z Rahmatova

Mahmudxo'ja Behbudiyning til haqidagi ta'limoti

Sayyora Halimova

Jadid ma'rifatparvari Sayyid Muhammad Fansurullohbek Xudoyorxon o'gli

Qahramon Rajabov

Mahmudxo'ja Behbudi — buyuk tarixiy shaxs (Behbudiyning siyosiy va ijtimoiy qarashlari)

Nilufar Namazova

Sho'ro matbuoti va jadidlar

Alijon Safarov

Avloniyning "Afg'on sayohatida"gi yevropalik harbiylar turkistonga qayerdan kelgandi

Hulkar Turdieva

Sherali Turdiev's research: our compatriots in germany press in the of XXth century

Nargiza Mirzayeva

Jadid matbuotida bolalar va yoshlar masalasi

Shohruxbek Olimov

Jadid tarixnavisligida Sadriddin Ayniyning o'rni

Muxlisa Sabirova

Internet matni sarlavhasida iboralarning qo'llanishi

Vazira Abdyujanova

Mahmudxo'ja Behbudiyning muharrirlik faoliyati

Zulfiya Fayzullayeva

Saydi Umirov publitsistikasida jadidshunos olim B.Do'stqorayev ijodi tahlili

Dildora Rizayeva

Millatlararo totuvlik masalasining mediada yoritilishi

Yoqutxon Erkaboyeva
Jadid matbuotida xat janrining oʻrni

Aʼzamjon Dadaxonov
Mahmudxoʻja Behbudiy publitsistikasida xalqaro mavzuning tutgan oʻrni

Munira Isomiddinova
The role of print media — magazines in the development of tourism journalism

Назокат Хамракулова
Вклад джадидов в просвещении Туркестанского народа

Dilshod Roʻziqulov
Jadid maʼrifatparvarlari ijodida harbiy masalalar

Xurshida Urinova
Jadid matbuotida ekologik muammolarning yoritilishi

Nilufar Murodova
Blogerlarning zamonaviy media muhitdagi oʻrni

Kanan Novruzov
The disinformation problem in modern media systems

Парвина Бегбудиева
Идеи Махмудходжи Бехбуди об обновлении системы образования и воспитании молодежи в туркестане языков

Shoira Buribekova
Televizion jurnalistik surishtiruvda muammoni yoritish mexanizmlari

Sevara Alijonova
Jadid matbuotidagi esselarning jamiyatga taʼsiri

Бехруза Акмалова
Роль PR и СМИ в продвижении просветительских идей джадидизма в Узбекистане: проблемы, вызовы и пути их решения

Nigora Elmurodova
“Tujjor” gazetasida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti

Akbar Elmuradov
Mahmudxoʻja Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi — muxtoriyat uchun kurash dasturi

Мунира Назарова
Искусственный интеллект и потенциал редактора: преимущества и недостатки веб-программы «tahrirchi.uz» в редактировании медиатекстов

Mahzuna Kamalova
Jadid matbuotida xotin-qizlarga oid nashrlarni tashkil etishdagi dastlabki urinishlar

Madina Yuldosheva

Majidiy hajviyalarida jamiyat va illat tasviri

Guljahon Xomidova

Abdulla Avloniy ijodining milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti rivojida tutgan oʻrni (XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayot, adabiy jarayon talqini)

Islom Asilbekov

Turkiy davlatlar tashkilotiga aʼzo boʻlishning Oʻzbekiston uchun ahamiyati

Nodira Suleymonova

Tafakkur va satira: jadid matbuotidagi gonzo elementlari

Iroda Farhodova

The importance of fact-checking for jadid newspapers

Malika Jahonova

Mahmudxoʻja Behbudiy ijodida ijtimoiy muammolarning aks etishi

Otabek Sagdullayev

Xalqaro jurnalist ijodiy uslubining shakllanish xususiyatlari va jadid matbuoti davrida xalqaro jurnalist fenomeni

Zebo Ibragimova

Mahmudxoʻja Behbudiyning bosib oʻtgan yoʻli

Xurshida Akbarqulova

Said Rizo Alizodaning taʼlim va maʼrifat yoʻlidagi harakatlari

Dilnavoz Rizayeva

Millat maʼrifati va Behbudiyning taʼlimga qoʻshgan hissasi

USUL-I CEDID TÜRKÇE ÖĞRETİM KİTAPLARI VE İSMAIL
GASPIRALISelçuk Türkyılmaz,
İzmir Kâtip Çelebi Üniversitesi

Özet: Bu makalede Türk eğitim sisteminde modernleşme meselesi, Türkçe okuma-yazma öğretiminde meydana gelen değişiklikler bakımından ele alınmıştır. Makalede Osmanlı sahasında 19. yüzyılda temel eğitim kurumlarında ana dilde okuma-yazma öğretiminin geçirmiş olduğu köklü değişim, usul-i cedit üzere hazırlanmış ilk alfabe kitaplarının özellikleri tasvir edilerek gösterilmiştir. Osmanlı sahasında meydana gelen yenileşme başta Kırım ve Kafkasya sahasında olmak üzere bütün Rusya Türklerinin temel eğitim kurumlarında da etkisini göstermişti. Bu etki de Kafkasya ve Kırım'da ilk usul-i cedit Türkçe okuma ve yazma öğretim kitapları olan A. Çernyayevskiy'in Vétén Dili ile İsmail Gaspıralı'nın Hoca-i Sıbyan adlı eserleri üzerinden ele alınmıştır.

Anahtar Kelimeler: Eğitimde yenileşme-modernleşme, usul-i cedit eğitimi, Nuhbetü'l-Etfal, Rusya Türkleri, İsmail Gaspıralı, Hoca-i Sıbyan

Usul-i cedit eğitim, 19. yüzyılın ikinci yarısında İstanbul'da ortaya çıkmış ve bütün bir Türk dünyasını etkilemiş bir maarif hareketidir. Usul-i cedit eğitimde hem Osmanlı sahasında hem de Rusya Türkleri arasında adı öne çıkan başka maarifçiler olmasına rağmen, İsmail Gaspıralı (1851-1914) görüşleri ve faaliyetleriyle öncü ve belirleyici olmuştur. İsmail Gaspıralı'nın 1883'te Türkçe olarak yayımlamaya başladığı Tercüman gazetesıyla birlikte açtığı ilk usul-i cedit mektep kısa bir zaman içinde bütün Rusya Türkleri ve Müslümanları arasında yaygınlaşarak büyük bir dönüşüm sağlar. Bütün Türk dünyasında büyük bir değişim hareketi olmasına rağmen usul-i cedit eğitimin ortaya çıkış süreci, harekete yön veren şahıslar, bu alanda yazılmış temel eserler ve bu eğitim sisteminin mahiyeti tam olarak belirlenmemiştir. Biz bu çalışmada önce İsmail Gaspıralı'nın bütün kitaplarını ve makalelerini ve Tercüman gazetesindeki tüm yazılarını gözden geçirip eğitim üzerine yazılmış olanları tespit etmeye çalıştık.

Gaspıralı'nın yazdığı eğitimle ilgili kitaplar ve sözünü ettiğimiz Tercüman'daki eğitim yazıları bu makalede kullandığımız en önemli araştırma materyalini teşkil etti. Böylelikle ilk elden kaynaklara dayanarak İsmail Bey'in okuma yazma eğitimi konusundaki fikirlerini değerlendirme imkânını elde ettik. Gaspıralı'nın eğitim konusundaki görüşlerini ele alan bazı yazılar hatta müstakil eserlerle bu sözünü ettiğimiz malzemeyi karşılaştırdığımızda, onun eğitim konusunda yazdıklarına başka araştırmacıların pek fazla bir şey eklememiş oldukları açıkça görüldü. Daha doğrusu Gaspıralı'nın eğitim anlayışı konusunda daha önce yapılan araştırmaların hiç biri bizim kullandığımız kadar zengin malzemeyi değerlendirme imkânı bulamamışlardır. İsmail Gaspıralı'nın Türkçe okuma ve yazma eğitimi konusundaki

görüşlerini belirlemeye çalışırken Osmanlı sahasında eğitim alanında ortaya çıkan benzer faaliyetler ve görüşler dikkatimizi çekti. Bu sebeple Türkçe okuma ve yazma öğretimi konusunda Osmanlı sahasında yayımlanmış ilk kitapları ayrıntılı bir şekilde inceledik. Böylelikle Gaspıralı'nın faaliyetleri ve görüşleri ile Osmanlı sahasında meydana gelen yenilikler arasındaki ilişkiler ortaya çıkartıldı.

İsmail Gaspıralı, 1883'ten itibaren Kırım'ın Bahçesaray şehrinde başlatmış olduğu usul-i cedit eğitim, kısa sayılabilecek bir zaman zarfında bütün Rusya Türkleri arasında kabul görmüş ve yaygınlık kazanmıştır. Eğitim sahasında meydana gelen bu yenileşme hareketi karşısında “kadimciler” olarak adlandırılan eski eğitim taraftarları güçlü bir karşı duruş sergilemişlerse de eğitimde modernleşme hareketi geri döndürülemez bir boyuta ulaşmış hatta zaman içinde siyasal bir nitelik kazanmıştır.

Bütün Rusya Türklerini-Müslümanlarını derinden etkileyen usul-i cedit eğitimin en belirgin özelliği doğrudan Türkçe okuma-yazma öğretiminin eğitimin merkezine alınmış olmasıdır. Medreselerde asırlardan beri uygulanan Arapça temelli bir eğitimden Türkçe temelli bir eğitime geçiş, yeni eğitim sisteminin ana eksenini oluşturmaktadır. İsmail Gaspıralı adı ile özdeşleşen usul-i cedit eğitim, esas olarak İstanbul'da Dr. Mehmet Rüştü'nün, 1858'te basılan Nuhbetü'l-Etfal adlı eseri ile başlar. Selim Sabit ise 1863'te yayımladığı Elifba Risalesiyle alfabe öğretimini kolaylaştıran usul-i savtiyeyi (fonetik metodu) geliştirerek, ana dilde alfabe öğretim sistemini daha ileri bir aşamaya taşır. Şimdiye kadar konu hakkında yapılan araştırmalarda okuma-yazma öğretiminde en önemli değişim olarak Selim Sabit tarafından geliştirilmiş usul-i savtiye gösterilmektedir. Buradan hareketle Selim Sabit'in usul-i savtiye yönteminin Gaspıralı'ya tesir ettiği yönünde iddialar ileri sürülmüştür. Bu görüşleri ileri süren araştırmacılar esas değişimi görememişlerdir. Bizim araştırmamızda ulaştığımız sonuca göre usul-i savtiye sadece “Türkçe elifba” öğretimini kolaylaştıran bir yöntemdir. Oysa Mehmet Rüştü, esas olarak elifbayı Türkçeleştirmekle büyük bir değişim gerçekleştirmiş ve alfabe öğretimini kolaylaştıran usul-i savtiyeyi de Selim Sabit'ten önce ilk uygulayan kişidir.

Anlaşılacağı gibi doğrudan ana dilde okuma-yazma öğretimini temel alan usul-i cedit ve bu sistemde alfabe öğretimini kolaylaştıran usul-i savtiye Gaspıralı'nın icadı değil, Türkiye'den alınmış bir sistemdir. Aradaki fark şudur: Osmanlı aydınları bu amaçla yazdıkları kitaplarda klasik Osmanlı yazı dilini çocuklara öğretme amacı güdüyorlardı. Gaspıralı ise canlı halk dilini öğretmeyi ön plana çıkarmıştır. İsmail Bey, alfabe ve fonetik metodun uygulanmasında günlük hayatta kullandıkları ve bildikleri kelimeleri çocuklara okutup yazdırarak işe başlamıştır.

Burada Gaspıralı'nın İstanbul halk Türkçesini yazı dilinin temeline oturtmak gibi zamanın ilerisinde olan bir tavrı veya sağduyusu öne çıkmaktadır. İstanbul'da sade dil tartışmaları iyice ortaya çıkmış ama bunun sonucu olarak ilköğretim kitaplarını sade bir dille yazma faaliyeti başlanmamış idi. Gaspıralı bunu yapmış ve kısa zamanda da çocuklara kendi dillerinde okuma-yazma öğretebilmiştir. İsmail Gaspıralı'nın usul-i cedit eğitimdeki orijinal yönü de budur. İsmail Bey de usul-i savtiyenin bir gereği olarak harflerin Arapçadaki isimlerini değil onların dildeki fonetik karşılığını çocuklara öğreterek zihin karışıklığını önlemiştir. Mesela “elif” değil “a” veya “e”; “vav” değil “o, ö, u, ü, v” seslerini öğretmiştir.

Gaspıralı Osmanlı aydınlarının geliştirmiş olduğu usul-i cedit eğitime yeni öğretim metotları kazandırmıştır. Gori Darümuallimin'i İslam Şubesi müdürü O. A. Çernyaveski'nin Vétén Dili adlı eserinden ilham alarak “usul-i tedriciye”yi alfabe öğretim sistemi olarak uygulamıştır. Bu yöntemle göre Türkçe elifba, eski sistemde olduğu gibi baştan sona kadar bir liste hâlinde değil, aşamalı olarak öğretilmiştir.

Yine bu sisteme göre Türkçenin yapısında olamayan, esasen Arapçadan Türkçeye geçmiş kelimelerde bulunan sesleri temsil eden harfler, belirli bir seviyeden sonraya bırakılmıştır. Usul-i kadimde elifba öğretiminin temel hedefi Kur'an okumaya geçiş olduğu hâlde usul-i cedit eğitimde ana dilde okuma-yazma öğretimi tamamlandıktan sonra Kur'an okumaya geçiş sağlanmıştır. İsmail Gaspıralı ve usul-i cedit eğitim üzerine bizden önce yapılan araştırmalarda bu husus da fark edilmemiş, usul-i cedit ve usul-i kadim tartışmasının “pe, çim, je” harf şekillerinin elifbaya dâhil edilmesinden kaynaklandığı gibi konunun aslıyla ilgisi olmayan bir sonucuna varılmıştır. Aynı şekilde usul-i cedit eğitimde elifbanın öğretilmesini kolaylaştıran usul-i savtiye de belirtilen tartışmanın esas konuları arasında gösterilmiştir. Kanaatimize göre usul-i cedit ve usul-i kadim tartışmasında belirtilen iki husus öne çıkmış olsa da esas olarak Arapça temelli bir eğitimden Türkçe temelli bir eğitime geçiş karşıtlığının, çatışmanın temelini oluşturmuştur. İsmail Bey'in Türkçe (anadilde) eğitim üzerinde ısrarlı bir şekilde durmuş olması da görüşümüzü desteklemektedir. Gaspıralı'nın önderlik ettiği Usul-i cedit eğitimle birlikte geleneksel öğretim yöntemleri, eğitimin amaç ve hedefleri köklü bir değişime uğramıştır.

İsmail Bey'in modernleşme projesinin amacı, Rusya Türkleri arasında din anlayışını yenilemek, millî kimlik şuurunun, Türklük bilincinin ortaya çıkmasını sağlamak, kültürel ve iktisadî hayatı ile dünyadaki hâkimiyet mücadelesinde ayakta kalabilecek, ezilip yok olmayacak bir Müslüman-Türk toplumu oluşturabilmek idi. Böylece Rus ve Avrupa emperyalizmine karşı Müslüman-

Türk topluluklarını daha güçlü ve dirençli bir konuma getirmek istiyordu.

İsmail Bey'in sıbyan mekteplerinde usul-i cedit üzere Türkçe okuma yazma öğretimi başarılı bir sonuç vermiş, bu eğitim sistemi başta Kırım ve Kafkasya olmak üzere Rusya Türkleri arasında kısa zamanda yaygınlaşmıştır. Tercüman gazetesi birçok açıdan önemli bir araç olmanın yanında Türkçe okuma ve yazmanın yaygınlaşmasında da büyük rol oynamıştır. Usul-i cedit mekteplerin etkisinin bütün Rusya Türkleri arasında görülmesinde ve Doğu Türkistan'da Kaşkar gibi şehirlerde dahi uygulanmasında İsmail Gaspıralı'nın bu geniş coğrafyada yaşayan Türkleri-Müslümanları bir bütün olarak görmesi önemli rol oynamıştır.

Usul-i cedit mekteplerin başarısında, bu gün yerel veya kavmî kimliklerini millî kimlik olarak kabul etme yönünde tercihte bulunmuş (veya buna mecbur olmuş) Türk boylarının, Gaspıralı'nın zamanında, kendilerini Türk millî kimliği içinde görüyor olmalarının da etkisi büyük olmuştur. Tercüman gazetesinde yayımlanmış gerek Gaspıralı'nın yazıları, gerekse farklı Türk bölgelerinden gönderilmiş yazı, mektup ve haberlerin gözden geçirilmesi ortak kimlik şuurunun o dönemde büyük ölçüde oluşmuş olduğunu göstermektedir.

Sonuç olarak denilebilir ki Gaspıralı eğitim anlayışıyla Rusya Müslümanlarının modernleşmesinde yeni bir kapı açmıştır. Okuma-yazma öğretiminin hızlanması, Müslümanlar arasında yeni bir neslin yetişmesini sağlamıştır. Usul-i cedit eğitimin yaygınlaşması, ilk mektep kitaplarının ortaya çıkması, yeni edebî türlerde eserler verilmesi daha geniş bir ifade ile Rusya Türklerinin-Müslümanlarının dünya görüşünün değişmesinde Gaspıralı neredeyse tek başına başarılı olmuştur.

Kaynaklar

Akyüz, Y., (1994). Türk Eğitim Tarihi, İstanbul: Kültür Koleji Yayınları.

Binbaşioğlu, C., (1995), Türkiye'de Eğitim Bilimleri Tarihi, MEB Yayınları.

Cevad, M. (2001). Maarif-i Umumiye Nezareti Tarihçe-i Teşkilat ve İcraatı, Ankara: Yeni

Türkiye Yayınları (Yayına hazırlayan: Taceddin Kayaoğlu).

Cevdet, A. P. (2000). Medhal-i Kavaid (Haz: Nevzat Özkan), Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

Haydar, A. (1924), Muallimler Mecmuası, Sayı: 17-18, s. 350-351.

Çernyayevski, A. (1891). İdareye Mektup, Tercüman, 15.03.1891, 17 Şaban 1308, Sayı: 9. s. 2.

Ergin, O. (1997). Türkiye Maarif Tarihi, İstanbul: Eser Kültür Yayınları. s.1.

Göğüş, B. (1970). Anadili Öğretimine Tarihsel Bir Bakış, Türk Dili

Araştırmaları Yıllığı

Belleten. s. 124-125.

Gasprinski, İ. (1890). Hoca-i Sibyan, Tercüman Gazetesi Basmahanesi, Bahçesaray.

Gasprinski, İ. (1894). Kıraat-ı Türkî, Tercüman Gazetesi Basmahanesi, Bahçesaray.

Gasprinski, İ. (1894). Mekteb ve Usul-i Cedid Nedir, Tercüman Gazetesi Basmahanesi,

Bahçesaray.

Gasprinski, İ. (1898). Rehber-i Muallimin yaki Muallimlere Yoldaş, Tercüman Gazetesi

Basmahanesi. Bahçesaray.

Gasprinski, İ. (1898). Dikkat Edilmeli, Tercüman, 6 Mart 1898. 25 Şevval 1315, Sayı: 9.

Karabacak, E. (2007). Ahmet Cevdet Paşa Tertib-i Cedid Kavaid-i Osmaniye, Ankara:

Türk Dil Kurumu Yayınları.

Rüşti M. E. (1981). Nuhbetü'l-Etfal, İstanbul: Elif Neşriyatı (Yayıma hazırlayan: Dr.

Cahid Baltacı).

Sırat-ı Müstakim. (1910). 19 Recep 1328.23 Temmuz 1325, Sayı: 48.

Türkyılmaz, S. (2008). Şark-i Rus Gazetesi Üzerine Bir İnceleme, Ege Üniversitesi

Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, Cilt: XIV, Sayı: 1, Bornova İzmir.

Yazar Hakkında:

TÜRKYILMAZ Selçuk – İzmir Katib Chalabi Üniversitesi, Sosyal ve Beşeri Bilimler Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü Öğretmeni, selcuk.turkyilmaz@hotmail.com, selcuk.turkyilmaz@hotmail.com

NEW METHOD TURKIC EDUCATIONAL BOOKS AND ISMAIL GASPIRALI

Abstract: In this article, the issue of modernization of Turkish education system is discussed in terms of the changes that occurred in the Turkish literacy teaching. The radical changes in teaching literacy in mother tongue in basic education institutions in Ottoman empire are shown through the description of the first alphabet books based on “usul-i cedit” method. The changes that occurred in Ottoman region had an impact on all basic education institutions of Turks in Russia and primarily in Crimea and Caucasus regions. This impact is discussed basing on the first Turkish “usul-i cedit” literacy instruction books in Caucasus and the Crimea — A. Chernyayevski’s Vétén Dili and Ismail Gaspirali’s Hoca-i Sibyan.

Keywords: Modernization in education, usul-i cedit education, Nuhbetü'l-Etfal, Turks of Russia, İsmail Gaspirali, Hoca-i Sibyan

About the authors:

TÜRKYILMAZ Selçuk — Lecturer at the Department of Turkish Language and Literature, Faculty of Social Sciences and Humanities, İzmir Secretary Chalabi University, selcuk.turkyilmaz@hotmail.com

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JAMIYATNI ISLOH QILISH HAQIDAGI QARASHLARI

Gulmamat Axmedov ,
Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi

Annotatsiya: Bugungi kunda jadidchilik harakatini chuqur o‘rganish, o‘sha davrda ijod qilgan va faoliyat yuritgan ziyolilar, taraqqiyparvarlarning ezgu maqsadlarini keng targ‘ib qilish davlatimizning doimiy diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvarda e‘lon qilingan “Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham jadid namoyondalariga bo‘lgan e‘tiborining davomidir.

Kalit so‘zlar: jadid, Behbudiy, uy-muzey, jadidchilik harakati, Sadridin Ayniy, Samarqand.

Jadidchilik harakati va uning mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 30-sentyabrda imzolangan “Ma‘rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonda ham jadidlar faoliyati yana bir bor e‘tirof etilgan edi. XX asr boshlarida o‘zining ma‘rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta‘lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta‘minlashga qo‘shgan beqiyos hissasi uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlar “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 206-sonli qarori bilan Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi filiali sifatida Samarqand shahridagi Mir Said Baraka ko‘chasi 47-uyda Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi 2021-yil 18-oktabrdan rasman o‘z faoliyatini boshladi. “Yangi O‘zbekiston poydevorini qurish jadidlarning boy ilmiy merosini anglashdan boshlanadi”, deganlaridik, bu muzey bugungi kunda yurtimiz xalqiga, yoshlariga, pedagoglariga, va ziyo izlagan qalblar uchun o‘z ilmiy ziyo nurini taratib kelmoqda.

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda yuzaga kela boshladi. Bir qator ma‘rifatli shaxslar tomonidan yangi siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarning ilgari surilishi jadidchilik harakatiga asos soldi. “Jadid” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, yangi degan ma‘noni anglatadi. Shu jihatdan, ushbu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma‘rifiy hamda ijtimoiy jarayonlar jadidchilik yoki taraqqiyparvarlar harakati deya nomlandi. Bu harakatning asoschilaridan biri qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy edi.

Jadidchilik harakati keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham keng yoyila boshlaydi. Xususan, Turkiston

mintaqasidagi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi jarayonlarda jadidchilik harakati muhim ahamiyat kasb etib, ular tomonidan qator ilg'or g'oyalar ilgari surildi. O'sha vaqtda Turkiston aholisining moddiy ahvoli og'ir bo'lib, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaasiblik keng tarqalgan edi. Jadidlar ilgari surgan g'oyalarga ko'ra, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otishning yagona yo'li ularni ma'rifatli qilish edi. Bu yo'lda yangicha tuzum va tartibotlarni joriy etish, yangi usul maktablarini ochish hamda insonlarni jahondagi ilg'or tajribalardan voqif qilish lozim edi. Shu bois, jadidchilik harakati mohiyat va mazmuniga ko'ra millat, jamiyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo'lgan (Mirziyoyev, 2020).

Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish uchun, o'sha davrdagi tarixiy jarayonlarga to'xtalish maqsadga muvofiq. XIX asrning oxirlarida Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, xonlik davridagi tartibotlarni bekor qila boshladi. O'lkada temir yo'l qurilishi, dastlabki sanoat korxonalarining bunyod etilishi, rus olimlari tomonidan O'rta Osiyoga olib kelingan yangi ilmiy g'oyalar va bilimlar natijasida Turkiston taraqqiyotdan ancha orqada qolib ketgani ma'lum bo'la boshladi. Xonliklar davridagi monarxiya tuzumi sabab o'lkada hali-hanuz o'rta asrlarga xos hayot tarzi hukm surar edi. Mazkur omillar yurt ziyolilari, taraqqiyparvarlarining fikrini uyg'otdi. Jadidchilik harakatining Turkistondagi yirik namoyandalari sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon, Ashurali Zohiriy, Is'hoqxon Ibrat, Fayzullo Xo'jaev, Abdulvohid Burxonov va boshqalarni alohida ta'kidlash mumkin. Ular milliy uyg'onish harakatining boshida bo'ldilar.

“Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'trga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929 yillarni o'z ichiga oladi” (2002).

Samarqandda ham jadidchilik harakati keng yoyilib, taraqqiyparvarlarning bir qator yetuk namoyondalari yetishib chiqdi. Samarqand jadidlarining eng ko'zga ko'ringan vakili shubhasiz Mahmudxo'ja Behbudiy hisoblanadi. “Turkistondagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) nafaqat mashhur dramaturg va publitsist, jamoat arbobi va mashhur ulamo bo'lishidan tashqari u o'z davrining yirik olimi, noshir va matbuotchisi hamda sayohatchisi sifatida o'zidan chuqur iz qoldirdi” (Rajabov, 2021).

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad

Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1785–1800) Samarqandga kelib qolgan. 1894 yilda otasi, imom-xatiblik bilan shug'ullanib kelgan Behbudxo'ja vafot etadi. Yosh Mahmudxo'ja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida o'sib voyaga yetadi. Arab sarfu nahvini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rganadi.

Jadidlar Turkistonni qoloqlik, savodsizlik botqog'idan olib chiqishning eng muhim omili sifatida xalqni savodli, ma'rifatli qilish ekanligini tushunishgan edi. Shu bois, ular tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil qilindi. Mazkur maktablar o'sha davrning ilg'or kishilari, o'ziga to'q boylar tomonidan moddiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Shunday maktablardan biri dastlab 1898-yili Qo'qonda Salohiddin domla, 1899-yili eski Toshkentda Munavvar Qori, Andijonda Shamsiddin domla tomonidan tashkil etildi. 1900-yili Buxoroda Jo'raboy qori tomonidan yangi usuldagi maktablar tashkil etildi. Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat yangi usul maktablarini tashkil qilish balki, ularni zamonaviy darsliklar, dunyoviy ilmlar bilan ham ta'minlash ishiga bosh-qosh bo'ldi. O'zi ham qator darslik va risolalar yaratdi.

1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi mahallasida Saidahmat siddiqiyning, 190-yilda Rajabamin mahallasida Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktablari aynan Mahmudxo'ja Behbudiy hamrohligida ochildi (Bu maktablar hozirgacha saqlanib qolgan). Bundan tashqari, eski Jomboy qismida va Kattaqo'rg'on, Chelak tumanlarida ham shunday jadid maktablarini ochgan. Behbudiy maktablar uchun "Risolai asbobi savod", "Risolai jug'rofiyai umroniy", "Kitob ul-atfol", "Amaliyoti Islom", "Tarixi Islom" kabi darslik va risolalar yozadi (Haydarov, 2020).

Behbudiy jadidlarning yetakchisi, qolaversa, mintaqada taraqqiyparvarlik harakatining asosiy shaxslaridan biri sifatida Samarqand shahrida turli yig'in, kecha va mashvaratlarni tashkil qilgan. Bu kabi yig'ilishlarga turli shaharlardagi taraqqiyparvarlar ham taklif etilgan. Buxorolik mashhur ma'rifatparvar Sadriddin Ayniyning Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi xotiralarida quyidagilar eslanadi: "1908 yilda dars sheriklarimizdan bo'lg'on Mirzo Abdulvohid bilan Buxorodan Samarqandga kelgan edik. Ushbu sayohatimizda mulla Abdulqodir Shakuriy, mulla Ismatullo Rahmatullozoda va bir qancha Samarqand ma'rifatparvarlari oqshom majlisi uchun bizni bir yerga chaqirg'on edilar" (Behbudiy, 2021).

S.Ayniyning qo'shimcha qilishcha, bu uning Behbudiy bilan birinchi bor uchrashuvi edi. S.Ayniy birinchi uchrashuvdan so'ng Behbudiyga ta'rif berar ekan, shunday xotirlaydi: "Bu kecha Mahmudxo'ja, ko'pincha fanniy masalalardan so'z chiqarib,

yerdan, ko'kdan, oydan, yulduzdan, qisqasi, ul vaqtg'acha biz eshitmagan narsalardan ko'pgina so'yladi" (Behbudiy, 2021).

Behbudiy Turkistonda milliy matbuot rivojiga ham ulkan hissa qo'shdi. Uning noshirlik faoliyati ham diqqatga sazovor. O'zi va boshqa taraqqiyparvarlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib qilishning muhim vositasi sifatida Behbudiy tashabbusi bilan gazeta va jurnallar faoliyat ko'rsata boshlaydi. Uning sa'y-harakatlari va muharrirligida 1913-yil aprel oyidan boshlab "Samarqand" gazetasi chiqarila boshlaydi. Ushbu gazetada o'sha davrning dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalariga e'tibor qaratiladi. Jumladan, gazetaning 1913-yil 30-iyuldagi sonida turkistonlik yoshlarning og'ir ijtimoiy holati, bolalarni maktabda o'qitishning ahamiyati haqida to'xtaladi: "Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammolikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosig'a tobe ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobedur. Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttuz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonchilik ilm va adab ila qoim, millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur" (1913).

Bundan tashqari, Behbudiyning bevosita ishtiroki va tashabbusi bilan 1917-yil 16-apreldan boshlab "Hurriyat", 1918-yildan 1922-yilgacha "Mehnatkashlar tovushi" gazetalari nashr etilib, unda mustaqillik, insonlarni ilm olishga, zamonaviy fikrlashga da'vat etuvchi maqolalari chop qilinadi.

Behbudiyning noshirlik faoliyati haqida to'xtalganda, "Oyina" jurnalini ham ta'kidlash o'rinli. 1913-yil 20-avgustdan chiqqan boshlagan jurnalda milliy birdamlik, turkiy xalqlarning hamjihatligi kabi masalalarga urg'u beriladi. "Oyina" jurnalida millat va uning haq-huquqiy, tarixi, til va adabiyoti masalalari, dunyodagi ahvolga doir qiziqarli maqola va bahs-munozaralar berib borilgan. Ayniqsa, Behbudiyning millat taraqqiyotida xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Alloma xorijiy tillarni o'rganish zamonning zaruriyati ekanligini ta'kidlab, uni diniy tomondan ham asoslashga harakat qiladi: "Yana bir til va xat borki, butun olam bir-birila aning ila so'ylaydur. Ul Faranse tili xatidur. G'ayridinning ilm va xatini o'rganmoq shariatga durustdur. Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janob payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-o'rganmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob amri hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib, hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturg'on xatlarni o'qub berar ekanlar ("Sahihi Buxoriy", juz 4, sahifa 156)" (1913).

Behbudiy Turkiston islom dinining o'rni va mavqeyi yuqoriligi, diniy ulamolarning xalq o'rtasida obro'si kattaligini inobatga olgan holda o'z g'oyalarini targ'ib qilishda diniy va dunyoviy qarashlardagi muvozanatni saqlashga harakat qilgan. Bu haqda tarix fanlari doktori, professor Q.Rajabovning quyidagi

fikrlarini keltirish o‘rinli: “Behbudi ham din va millatni ittifoq etishga, islohot o‘tkazishga, ziyoli va taraqqiyparvarlarni, boy va ulamoni birlashtirishga da’vat etdi. U taraqqiyparvarlar ulamolarning xalq o‘rtasida obro‘si unchalik katta emasligi, shu bois qadimiy ulamolar bilan hamkorliksiz ish olib borilsa muvaffaqiyatga erishish qiyinligi to‘g‘risida kuyunib so‘zlar edi” (Rajabov, 2002).

Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, jamiyatni isloh qilish, jaholatga qarshi kurashish masalalaridagi fikrlari uning “Padarkush” asarida yorqin ifodalangan. Mazkur asarda dunyoviy ilmlarni egallashning ahamiyati, keng dunyoqarashli yoshlarning mamlakatni taraqqiy ettirishdagi roli mohirona tasvirlangan: “Olimi zamoniy bo‘lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyatini diniya va o‘z millatimiz tilini biladig‘ondan so‘ngra hukumatimizning nizomli maktablarga bermoq kerakdur, ya’ni gimnaziya va shahar maktablarini o‘qub tamom qilg‘onlaridan so‘ng Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o‘qutmoq lozimdir” (Behbudi, 1997).

Mahmudxo‘ja Behbudiyning yurt ozodligi, millat taraqqiyoti yo‘lidagi sa’y-harakatlarini tadqiq etishda uning siyosiy faoliyatini ham inobatga olish darkor. 1917-yil fevral inqilobi va Rossiya podshosi Nikolay Romanovning taxtdan ag‘darilishi Turkiston jadidlarini ham faollashtirib yubordi. Mazkur tarixiy jarayonlarda Behbudiyning o‘rnini alohida ta’kidlash zarur. “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 13-maydagi sonida Behbudiyning “Muhtaram Samarqandiylarg‘a xolisona arz” nomli murojaati chop etilgan. Mazkur murojaatda uning ozodlik, hurriyat haqidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Hozirda bo‘lsa, Xudo taolo bizg‘a hurriyat berdi. Diniy va milliy islohot va taraqqiyimiz uchun harakat va sa’y etmoqg‘a yo‘l ochuqdir” (Behbudi, 2021).

M.Behbudi 72 kun umr ko‘rgan Turkiston Muxtoriyatining parlamenti – Milliy Majlis tarkibiga kiritilgan edi. O‘sha vaqtda zamonasining eng ilg‘or ziyolilari, taraqqiyparvarlaridan tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatida mas’ul lavozimni egallash Behbudiya faxr bag‘ishlagan edi: “27-noyabrda Xo‘qandda Turkiston muxtoriyati umumiy musulmon s‘ezdiga e‘lon qilindi. Muborak va xayrli bo‘lsin! Kamina ham majlisda bo‘lishi uchun iftixor etaman. Yashasun Turkiston muxtoriyati!” (Behbudi, 2021).

Biroq juda qisqa muddat mavjud bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918-yil fevralida bolsheviklar tomonidan tarqatib yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston mintaqasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar

o'lkada yangi, zamonaviy fikrlaydigan taraqqiyparvarlarning maydonga chiqishiga sabab bo'ldi. Ular tomonidan millatni uyg'otish, jaholatga qarshi kurashish, mamlakatni taraqqiy ettirish yo'lidagi mardonavor kurash jadidchilik harakati nomi bilan tarix zarvaraqlaridan joy oldi. Ushbu harakatda millatning bir qator fidoyi insonlari, xususan Mahmudxo'ja Behbudi muhim rol o'ynadi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, tarixiy jarayonlarda Behbudiyning tutgan o'rnini yoritish, tahlil qilish alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Behbudi, M. (2021). Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. Toshkent: Akademnashr.
- Behbudi, M. (1913). Samarqand gazetasi. 30 iyul. №31.
- Behbudi, M. (1997). Padarkush. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat.
- Behbudi, M. (2021). Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. Toshkent: Akademnashr.
- Haydarov, A. (2020). Zarafshonning Behbudisi. Toshkent: Sahhof.
- Mirziyoyev, Sh. (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parlamentga murojaatnomasi. URL: <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
- Mirziyoyev, Sh. (2020). "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3860>
- Oyina jurnali. (1913) 20 avgust. №1.
- Rajabov, Q. (2021). Mahmudxo'ja Behbudiyning Bolqon urushlari va Anvar Posho haqidagi fikrlari. "Mahmudxo'ja Behbudi diniy-ma'rifiy qarashlarining zamonaviy talqinlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.
- Rajabov Q., Haydarov M. (2002). Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). Toshkent: Universitet.
- Sodiqov, H., Shamsitdinov, R., Ravshanov, P. va boshqalar. (2000). O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. Toshkent: Sharq.
- O'zEM. (2002). III tom. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlati ilmiy nashriyoti.

Muallif haqida:

AXMEDOV Gulmamat Nurmamatovich — Mahmudxo'ja Behbudi uy-muzeyi mudiri, gaxmedov1987@mail.ru.

MAHMUDHOJA BEHBUDI'S VIEWS ON SOCIETY REFORM

Abstract: Today, the deep study of the Jadidism movement, the widespread promotion of the noble goals of the intellectuals and progressives who created and worked at that time are in the constant attention of our state. The decision of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, announced on January 3, 2025, "On the wide celebration of the 150th anniversary of the birth of the founder of modernism in Turkestan, famous writer and public figure, publisher and pedagogue Mahmudhoja Behbudi" is

a continuation of his attention to modernism.

Key words: jadid, Behbudi, house-museum, jadid movement, Sadriddin Ainiy, Samarkand

About the authors:

AXMEDOV Gulmamat Nurmamatovich — Head of Mahmudhoja Behbudi House-Museum, gaxmedov1987@mail.ru

BIRI MILLAT KO‘ZINI OCHDI, IKKINCHISI KO‘ZGU TUTDI

Halim Saidov,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudi muassisligi va muharrirligida chop etilgan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalining o‘zbek milliy jurnalistikasidagi o‘rni, ularda jadidchilik g‘oyalarning aks etishi, gazeta va jurnal publisistikasining o‘ziga xosliklari, ularda muharrirning o‘rni tadqiq etilgan.

Kalit so‘z: Jadidchilik, gazeta, jurnal, muharrir, “Samarqand”, “Oyina”, noshir, ma’rifat, ozodlik

Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Samarqand” — “elu xalqning ko‘zini ochishga bois bo‘ldi”, degan fikrni alloma Mahmudxo‘ja Behbudi ta’ sis etgan nashrning o‘z davridagi ahamiyati haqida yozgandi.

1906-yildan 1907 yilgacha Toshkentda chop etilgan “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat” kabi jadid gazetalari taqiqqa uchrab, qisqa fursatda yopilib ketadi. Ozodlik yo‘lida fikr tarqatadigan nashr zaruratini his qilgan Behbudi 1908-yildan gazeta ochish harakatini boshlaydi. Mustamlakachilar yo‘l berishmaydi, lekin tirishqoqlik bilan yo‘l izlashda davom etadi va nihoyat, besh yillik qog‘ozbozligu sarsongarchiliklar natijasida niyatiga erishadi. Behbudiyning zamondoshi Sadriddin Ayniydan iqtibos: “1908nchi yildan o‘z idorasinda biron gazeta chiqarmoq fikrig‘a tushub, 1913nchi yil aprel oyinda bu maqsadig‘a yetishub “Samarqand” gazetasining bir necha raqamini chiqarishga muvaffaq bo‘lg‘on” (Ayniy, 1920).

AbdullaAvloniyningfikrigakelsak, darhaqiqat, “Samarqand” o‘zidan avval chiqqan nashrlardan farq qildi. Bunda Behbudiyning matbuot sohasidagi to‘plagan tajribalari qo‘l kelgan. Gazetaning o‘zgachaligiga birinchi dalil shuki, o‘zigacha hech bir nashr uch tilda chiqqan emas. Noshir va muharrir o‘z maqolasida gazetani nega uch tilda chop etayotganini shunday izohlagan: “Samarqand” jaridasi o‘zbekiy, forsiy va rusiy tillarida va Turkistonning o‘rta shevasinda ta’ sis etilib turib edi. Mundan maqsad shul ediki,

Bahri Hazardan boshlab janubdagi Afg'oniston fasili, Amu nahri o'rtasidagi vase' arosig'a sokin turk va tojik birodarlarimizg'a bir qadar toqat xidmat etmak va alarni holig'a va ijobati asriya, vaqoyi' zamoniyada va Rossiya kulturi, ilmi, hunari va sanoatg'a oshino bo'lishlarig'a ojizona tashviq etmoqdin iborat edi. Maktab bo'lsun, madrasa bo'lsun, isloh va taraqqiysig'a yordam uchun xalqni da'vat etmoq edi. Fosid urf va botil rasmlarni, yomon odatlarni shar'an islohiq'a ko'shish etmoq edi" (Behbudiy, 1914).

Qolaversa, o'z davrining taraqqiyparvari va donishmandi bo'lgan Behbudiy o'zigacha yopilib ketgan nashrlar tajribasidan xulosa qilib, gazetadagi siyosat bo'ladimi, iqtisod yoki xalqaro hayot mavzusi bo'ladimi, ularning barini ma'rifiy o'zanga burdi. Gazetada mustamlaka iskanjasida turib bo'lsa-da, millat bolalarini o'qitib, o'zligini tanitib, ma'rifat vositasi-la ozodlikka erishish g'oyasi targ'ib etildi. Bu yo'lda tahririyat jamoasi barcha turdagi axboriy, tahliliy, badiiy, hajviy materiallari bilan bu maslakka sobit turdi. Nashr ana shu jihatlari bilan elu xalqning ko'zini ochdi!

Behbudiy Turkiston milliy matbuoti tarixida jurnalchilikka asos solgan noshir va muharrirdir. "Oyina" jurnalini ochish uchun gazetaga ruxsat olish kabi besh yil yugur-yugur, qog'ozbozlik qilmagan bo'lsa-da, muayyan to'siqlarga duch keldi. Xususan, jurnal matbaa korxonasiga topshirilishidan ikki kun oldin chop etishga tayyorlangan materiallarni harbiy syenzuraga keltirib, o'qitib, ruxsat olinishi muharrir zimmasiga yuklangani arxiv xujjatlarida saqlanmoqda (1913).

Ehtiyot choralari shu darajada ko'rilgan bo'lsa-da, "Turkiston viloyatining gazetasi" ("TVG") jurnalda chop etilgan fikrlarga "qadimchilar" sifatida tarixda qolgan fitnachilar vositasida qarshi chiqishlarni ko'paytiradi. "Oyina"da esa ularga muntazam munosabatlar berib boriladi. Masalan, "TVG"da mustamlakachilar tomonidan mahalliy xalqning "sartlar" deb atalishi va missioner N.Ostroumov asoslariga e'tiroz bildirilgan "Sart so'zi majhuldir" (Behbudiy, 1914) maqolasi fikrimizga dalildir.

"Oyina" haqiqatan ham o'z nomiga munosib ish olib bordi. Tarixda bo'lib o'tgan va ayni paytda sodir bo'layotgan, shuningdek, kutilayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini muntazam bildirib turdi. Bir so'z bilan aytganda – millatga ko'zgu tutdi.

"Oyina" jurnalining millat rivojiga qo'shgan hissasini, bu borada mavjud muammolarni ko'rsata olgan muharrirning mahoratini ozodlik harakati nuqtai nazaridan tahlil qilsak, o'ziga xos xususiyatlarga egaligi namoyon bo'ladi. Jurnalning birinchi sonidan boshlangan Turkiston tarixiga, bobolar qoldirgan merosga e'tibor, buyuk davlat tanazzuli sabablari va uni qaytadan tiklash orzusi nashrning oxirgi sahifalarigacha sezilib turadi.

Jurnalning dovrug'i yetti iqlimga yetmagan bo'lsa-da, uni Rossiya va yaqin sharq davlatlari musulmonlari mutolaa

qilishgani to'g'risida ma'lumot bizgacha yetib kelgan. Hoji Muin: "Oyina" Turkistondan boshqa Totoriston, Kofkoz, Afg'oniston, Eron, Turkiya va Misrgacha tarqalar va har yerda suyib o'qilur edi", deydi. Abdulla Avloniy esa "bu jurnal "Oyina" chiqquncha chiqqon jurnallarning eng birinchi va yaxshisi edi" (Muin, 1923), deya baho bergan.

Ikki nashrning betakror muharriri millat ziyolilaridan maqola yozishlarini muntazam so'rab turdi. Gazeta va jurnal taxlamlarini ko'zdan kechirarkanmiz, unda bir taniqli mualliflar qatnashganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, "Samarqand" gazetasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin o'z ijodlari bilan ishtirok etishgan bo'lsa, "Oyina"da ularning safi Saidrizo Alizoda, Siddiqiy, Akobir Shomansur, Muhammad Sa'id, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadriddin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzoda va boshqa ziyolilar hisobiga kengaygan.

Shuningdek, bu ikki nashrda publisist Behbudiyni eng sara maqolalari chop etilganligi bilan ham ahamiyatli. "Tahsil oyi", "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?", "Ehtiyoji millat", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Millatni kim isloh etar?", "Favqulodda takfir", "Bizni hollar va ishlar", "Yoshlarg'a murojaat", "Tiyotr nadur?", "Tanqid saralamoqdur, "Turkiston tarixi kerak", "Vatanparvarlik kerak", "Ismoilbek hazratlari", "Sherdor madrasasi", "Ulug'bek rasadxonasi", "Sayohat xotiralari" kabi publisistik asarlari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, jurnal jurnalistikasi bilan gazeta jurnalistikasi o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Behbudiyni muharrirligida chop etilgan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalini qiyoslaganda bu o'ziga xosliklar saqlanganligini, ya'ni ikki nashr ham o'zining zimmasidagi vazifani bajarganligini anglaymiz. "Oyina"da berilgan maqolalarning hajmi kengroq, chuqur tahlilli va albatta, xabarlar "Samarqand" gazetasiga nisbatan kam.

Mutaxassislarning tahlillari, qiyoslari Mahmudxo'ja Behbudi Sharqu G'arb tushunchasidagi keng tafakkurli muharrirning vazifasini bimalol bajara olgan mahratli mutaxassis bo'lganligini ko'rsatib turibdi.

Joriy yil Prezident qaroriga ko'ra Mahmudxo'ja Behbudi tavalludining 150 yilligi keng nishonlanmoqda. Millat ozodligi yo'lida goh muallim, gohida yozuvchi, dramaturg, publisist, mutarjim, mufti, iqtisodchi, siyosatchi, rahbarlik qatorida noshir va muharrirlikni ham a'lo darajada, sidqidildan bajargan Behbudi va uning izdoshlari mangu ehtiromga munosibdirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ayniy, S. (1920). Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi. Mehnatkashlar tovushi, 8-aprel soni.

Behbudiy, M. (1913). Na uchun iltifot etmaydurlar? "Samarqand" gazetasi, 16-avgust soni.

Behbudiy, M. (1914). Sart so'zi majhuldir, "Oyina" jurnali, 22, 23, 24, 26-sonlar.

Muin, H. (1923). Samarqand matbuotining tarixi, "Zarafshon" gazetasi, 23-iyun soni.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (1913). 18-fond, 1-ro'yxat, 8752-ish.

ONE OPENED THE NATION'S EYES, THE OTHER HELD UP A MIRROR

Abstract: This article examines the role of the "Samarqand" newspaper and "Oyina" magazine, founded and edited by Mahmudkhoja Behbudiy, in Uzbek national journalism. It explores the reflection of Jadidist ideas in these publications, the distinctive characteristics of newspaper and magazine journalism, and the editor's role in them.

Keywords: Jadidism, newspaper, magazine, editor, "Samarqand," "Oyina," publisher, enlightenment, freedom

About the author:

SAIDOV Khalim Amanovich — Professor of the Department of Theory and Practice of Media, University of Journalism and Mass Communications, Doctor of Science, halimsayid@mail.ru

“SAYOHAT XOTIRALARI” — MADANIYAT VA TARAQQIYOTGA KO‘PRIK

Akbar Nurmatov,

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ulkan adabiy merosimizning bir qismi tabiiyot, sayohatlar, xususan safarnomalar bo‘lib, ularni tilga olish, o‘rganish, targ‘ib qilish va faxrlanishga arziydi. Biz XIX asrning 70 – yillaridan to XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda yozilgan ba‘zi safarnomalarni, xususan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Sayohat xotiralari» haqida so‘z yuritishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Kalit so‘zlar: Sayohat, yo‘l ocherki, jadidlar, sayohatnoma, gazeta, jarida

XX asr Turkistonda jadidchilik harakatining kirib kelishi, keng quloch yoyishi va ta‘sir doirasining kuchayishi bilan boshlandi. Turkistondagi jadidlar islohotlarni amalga oshirish uchun rus va xorijiy, xususan Moskva, Peterburg, Qrim, Kavkaz, Turkiya, Eron, Arab mamlakatlariga sayohatlar qilib, ular tajribasini o‘rganishga kirishdilar. Shu bilan birga, turkistonlik ziyolilar xorijda ko‘rgan-kechirganlari, taassurotlari, eshitgan va o‘qigan ilg‘or g‘oyalari, texnik yangiliklar haqida safarnomalar, xotiralar yozishib, ularni keng ommaga yoyishga harakat qilishgan. Ular bu bilan Turkiston va Buxoroning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida islohotlar o‘tkazishga nisbatan jamoatchilik fikrini xayrixoh qilib shakllantirdilar, feodal-amirlik va rus mustamlakachiligi manfaatdor bo‘lgan qoloqlik hamda turg‘unlikka qarshi kurashdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida turkistonlik ziyolilarning xorij safarlari haqida bir nechta asarlari yozildi. Bunga misol qilib Ahmad Donish (1827-1897) ning “Nodir voqealar” safarnomasini keltirish mumkin. U 1857-yilda Buxoro amiri Nasrulloning elchilari hay‘atida dastlab Peterburgga borgan, u yerda bir yil turgach, yana vataniga qaytgan, keyinchalik, 1869 va 1873-1874 yillarda yana Rossiyaga safar qilib, u yerdagi hayot va madaniyat bilan tanishgan. Uning “Nodir voqealar” kitobida ana shular haqda, Peterburg va Moskva xotiralari bayon etilgan (1988).

Safarnoma yozganlardan yana biri Qozi Rahmatulla Buxoriy (Vozix) bo‘lib, u 1886-1887 yillarda Turkmaniston, Eron, Kavkaz, Istanbul orqali Arabistonga sayohat qilib, vataniga Iroq-Eron orqali qaytgan. Uning yo‘l xotiralari yozilgan “G‘aroyib al-xabar fi ajoyib as-safar” deb ataladi. Bu asarda juda ko‘p shaharlarning, daryo va kanallar, konlar, ekinzorlarning, hatto ko‘cha, bozor va maqbaralarning ham izohoti berilgan (Hasanov, 1981).

XIX asrning ikkinchi yarmida yana buxorolik Muhammad Porsoxo‘ja ibn Inoyatulla xo‘janing Turkiya va Hindistonga borib-kelib turganligi, buxorolik Mirzo Sirojiddin (1878-1914) ning ham

uzoq sayohatlarga borgani, sharq mamlakatlarini Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, G'arbiy Yevropani, Budapesht, Vena, Berlin, Parij va Londonni ham kezib chiqqani haqida ma'lumotlar bor (Hasanov, 1981).

Sadriddin Ayniy 1905-yilda Tehronda nashr qilingan "Sayohatnomai Ibrohimbek" safarnomasi o'shadavrda Buxoroning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida katta hodisa bo'lganini yozadi (1926) XX asr boshida Peterburgda chiqqan qozonlik publisist Salim Garoy Sultonovning "Haj sayohati", 1903-yilda Qozonda chop etilgan Rizouddin Ibni Faxruddinning "Ismoil sayohati" kabi safarnomalar turkistonlik jadidlar va ziyolilarga ulkan ta'sir etgan. Taniqli nemis olimasi Ingeborg Baldaufning guvohlik berishicha, Peter Tomzening "Falastin adabiyoti" (Leypsix, 1916) kitobida 1910-1914 yillar orasida yuzdan ortiq "Sayohatnomalar" bitilgan. Russiyadan kelgan yahudiylar va musulmonlar yozgan bu asarlar Qozon, Saratov, Odessa kabi shaharlarda nashr qilingan (Baldauf, 2001).

XX asrning birinchi yarmida ko'plab jadid namoyondalari va sovet davridagi izdoshlari safarnoma janrida ijod qilganlar. Ahmad Donish, Furqat, Komil Xorazmiy, Ishokxon Ibrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Mirmuhsin Shermuhamedov-Fikriylar, N.Yovushev, Mannon Romiz va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Ushbu ijodkorlarning barchasi o'ziga xos, individual safarnoma (yo'l ocherk)lari yozishgan bo'lsada, lekin, ushbu janrning asosiy belgilarini doimo hisobga olishgan.

To'g'ri, ushbu safarnomalarning ko'pchiligi oddiy ma'lumotnoma tarzida yozilgan, taassurotlar ham quruq bayondan iborat bo'lib qolgan. Safarnoma (Yo'l ocherki) ning asosiy belgilaridan biri – bu tasvirlarning izchil va ketma-ket kelishidir. Muallif qishloqdan qishloqqa, shahardan shaharga, mamlakatdan mamlakatga sayohat qilib, bosqichma-bosqich faktlar va taassurotlari bilan o'rtoqlashadi. Ushbu taassurotlar gohida bitta shahar yoki marshrut haqidagi tanishuvlar bo'lishi mumkin.

Safarnoma (Badiiy-publisistik uslub)da ijod qiladigan jurnalistlarning asosiy aloqaviy maqsadi o'quvchi (tinglovchi) ga hissiy ta'sir etish, bu esa muallifdan yuksak nutq madaniyati va mahoratni talab etadi. Badiiy-publisistik ijodning asosiy xususiyatlaridan biri bu umuman publisistikaga xos bo'lgan yuksak fuqaroviy pafos va badiiylikning ajralmas qismi hisoblangan, mavzuga nisbatan individual-shaxsiy munosabati muhimdir. Insonning o'zini o'rab turgan olamni bilishga qiziqishi, yangilik va qiziqarli sarguzashtlarga bo'lgan ishtiyoq uni mudom safar qilishga, sayohatga chiqishga undaydi. Sayohat – adabiyot va madaniyat, inson va insoniyat o'z-o'zini anglashning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. Odam o'zini inson sifatida

anglagan vaqtdan boshlab “homo sapiens” – “yaxshi hayot” ilinjida u hududdan bu hududga ko‘chib yurgan. Odamlar uzoq-yaqin o‘lkalarni, unda yashayotgan xalqlarni, ularning turmush tarzini, nima bilan shug‘ullanishlarini bilgisi, boshqa yerlarda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni kimningdir ko‘zi bilan bo‘lsa-da “ko‘rgisi” kelgani tufayli bu janrga ehtiyoj tug‘ilgan. Ya’ni, sayohatlari davomida milliy o‘zligini anglab yetishga harakat qilishgan, “begona”dan “o‘zi” ni farqlashgan. Safarnomalar – badiiy-publisistik janrlarning eng “qadimiy” ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Nomining o‘ziyoq uning xususiyatini ko‘rsatib turibdi. Ya’ni muallif tomonidan bosib o‘tilgan yo‘l, safar haqidagi tasvirlardan tashkil topgan bo‘ladi. Fabulaning oldindan belgilanganligi, qandaydir topshirilganligi uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Muallif guvoh bo‘lgan yo‘l kuzatuvlari, uchrashuvlar, voqea-hodisalar, yangi mamlakatlar, joylar, shaharlar haqidagi taassurotlar – shularning barchasi yo‘l ocherki muallifi uchun material bo‘lib xizmat qiladi.

Turkiston jadidlari ichida birinchilardan bo‘lib M.Behbudiy “Sayohat xotiralari”ni “Oyina” jurnalida chiqaradi. Umuman “Oyina” jurnali 1913-yil 20-avgustdan Samarqandda nashr ettirila boshlagan. Bu suratli haftalik majalla, asosan o‘zbek tilida (80 foizi) bo‘lib, unda ixcham forsiy she‘rlar, maqolalar, ruscha e‘lonlar ham berib borilgan. Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyina” jurnaliga muharrir bo‘lgan paytida ikkinchi bor arab mamlakatlariga sayohatga otlanadi. U o‘zining “Sayohat xotiralari”da bu haqda shunday deydi: “1318 (milodiy 1899/ 1900 y.y.) sana hijriyasi tavofi Baytullohga Kafkaz yo‘li ila Istanbul va Misr al-Kohira vositasi-la borib, muddati safarim sakkiz oydan ziyoda so‘zib edi. 1325 (milodiy 1906/1907 y.y.) sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijniy yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qilinaturgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Maskuv, Peterburg, Qozon vositasi-la Nijniy Novag‘o‘ro‘d borib edim” (Behbudiy, 1999). Lekin u birinchi safari haqida bundan ortiq ma‘lumot qoldirmagan. Chamasi Mahmudxo‘ja birinchi safari davomida kundalik tutmagan va umuman safarning maqsadi ham boshqa bo‘lgan, shekilli.

Qadimdan ham Quddusi Sharif va Falastinga juda ko‘p sayyohlar borishgan va ularning ko‘pchiligi ko‘rgan-kechirganlarini safarnomalar tarzida yozishgan. Safarnomada yuqorida sanab o‘tilgan ushbu janrning barcha xususiyatlari mujassam etilgan bo‘ladi. Unda hayotning barcha murakkab muammolari quyiladi va ularni hal etish yo‘llari ta’kidlab o‘tiladi. Misol uchun M.Behbudiyning “Sayohat xotiralari” yo‘l ocherkiga murojaat etaylik. “Digar tarafdin, ‘Kutubxonai Behbudiya’ ismindin ‘Oyna’ idorasinda kitob savdosi ochmoq uchun ruxsat

olingan. Istanbul, Misr, Qirim, Kafkaz, Qozon, O‘runburg, Hindiston kitoblaridan keltirmoq kerak”...) (Behbudiy, 1999).

Biz ushbu moqolamizda “Sayohat xotiralari”ning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘sha davr Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Ushbu sayohatga otlangan paytda Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari o‘lkadagi jadidlar orasidan birinchi bo‘lib ichki Rossiya, hatto xorijiy mamlakatlardagi istiqloqlar tomonidan siyosiy arbob sifatida e‘tirof etilgan siymolardan edi. U millatning ehtiyoji uchun gohida muharrir, gohida muallim bo‘ldi, maktab uchun kitoblar yozdi, teatr faoliyatida qatnashdi, gohida oddiy muxbirlik bilan ham shug‘ullandi. Bundan tashqari, Mahmudxo‘ja Behbudiy ko‘p olimlar ta’kidlashganidek O‘rta Osiyodagi barcha jadidlarni birlashtirishga intilgan yirik siymo bo‘lgan. U butun chor Rusiyasidagi hur fikrli, ma’rifatparvar musulmonlar bilan muntazam aloqa o‘rnatgan.

“Muallifning qishloqlar, shaharlar va mamlakatlararo safar paytida yig‘ilgan mushohada va mulohazalari, o‘rgangan va eshitganlarining badiiy-publisistik tasviriga safarnoma (yo‘l ocherki) deyiladi” – deya ta’kidlagan edi professor O.Tog‘ayev (1976). Muallif ko‘rganlarini boshdan to‘ oxirigacha tasvirlaydi, shu jumladan portret lavhani ham; ularda qahramonlar xarakteri, harakat qilayotgan joydagi holatlari hikoya qilib beriladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning mahalliy aholisi orasida hukm surgan jaholat va loqaydlik, qoloqlikni tugatish, zararli urf-odatlar va ortiqcha isrofgarchiliklarni yo‘q qilish lozimligini “Sayohat xotiralari” da ham eslatib o‘tadi. Masalan: “Yo‘l ustindagi turkmanlarni boshindagi uzunligi uch yarim qarish, eni ikki qarishdan ziyoda telpagidan boshqa ko‘rgu yeri yo‘q, faqat hanuz belida aksariyat ila xanjari bordur. Ammo alar xanjar o‘rnig‘a qalam tutush zamoni kelganini bilmaydurlar. Ko‘z oldidagi madaniyat asari bo‘lgan shahar va otash arobadan ibrat olmaydurlar” (Behbudiy, 1999).

Yo‘l ocherkida muallif shaxsi yanada kuchli va yorqin tarzda namoyon bo‘ladi. Muallif pozisiyasi, fikr-mulohazalari nafaqat tasvirlanayotgan narsalarni tushunishga, balki ularni, turli kartinalarni bir butun qissaga aylantirish imkonini yaratadi, ya’ni u syujetni harakatga keltiruvchi yagona kuch hisoblanadi. Masalan M.Behbudiyning “Sayohat xotiralari”dagi uning taassurotlari va munosabatlari o‘sha manzaralarni yanada yorqinroq tasavvur qilish va bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish imkonini yaratadi. Har holda “Sayohat xotiralari”ning ilk satrlaridanoq real hayotiy lavhalarga duch kelamiz. Ushbu qiyosiy tasvirlar orqali Behbudiy Turkistonlilarning og‘ir ahvolini yanada yaqqolroq ko‘rsata olgan: “Marvda aholi aksariyat ila rus, arman va eron tab’alaridur. Atrof xalqi turkman bo‘lub, shahariy (shaharli) bo‘lganlari

yo‘q. Hanuz qora uy-chodirlarig‘a tirikchilik qiladurlar. Marvda uzoqdan rus kalisosining qo‘bbasi ko‘rilur. Atrofdagi yuz minglar ila “musulmon”(!)ni masjidi ko‘rinmaydur” (1999). M.Behbudiy qiyoslashni xorijiy mamlakatga yetib borishni kutib o‘tirmasdan o‘z vatanidan boshlaydi. Uning har bir kuzatishi, tasviri kitobxonni befarq qoldirmaydi. Behbudiy safarnomasi uchun ehtiroslarga berilmasdan, nasihatombuz ohanglardan mutlaqo yiroq bir uslubni tanlaydi. U faqat o‘zi ko‘rgan, eshitgan, guvoh bo‘lgan voqea-hodisalarni iloji boricha xolislik bilan tasvirlashga harakat qiladi: Masalan, “Havo issig‘, vagon ichinda 33 daraja harorat bor. Endi Samarqandni havo va latofati yodga kelur. Vagondagi ruslar: “Oh, Samarqand. Voy, behisht”, – der” (Behbudiy, 1999).

Behbudiy qayerga bormasin ta‘lim, ma‘rifat, matbaachilik bilan qiziqadi. Ularni o‘zimizdagi ahvol bilan qiyoslaydi. Bokuda bir kungina bo‘lganiga qaramasdan, jurnal va gazetalar faoliyati bilan qiziqadi. Garchi Bokuda sarmoyadorlar ko‘p bo‘lsa-da, lekin “jaridalarining taraqqiy etmoqig‘a va “musulmon jaridasining idorasi” demoqg‘a loyiq bir manzara tashkil etmoqig‘a harakat qilmoqlari kerak edi”, (1999) – deb afsuslanadi. Muharrirlar va gazetalar nochor bir ahvolda ekanligini aytadi. Taniqli olim Ingborg Baldauf Mahmudxo‘ja “Quddusi sharifga sayohati bahonasida o‘quvchilarga ko‘nglining tubida cho‘kib yotgan g‘am-anduhlarini, O‘rta Osiyoning dard-tashvishlarini bayon etish hamda vatandoshlariga ularning xatolarini ko‘rsatib berish uchun bu asarni bitgan”, – deya ta‘kidlaydi (1999).

Darhaqiqat shunday: “Biz, turkistoniylar topganimizni to‘y, o‘luk va ko‘pkariga sarf qilg‘andek, bu musulmon qarindoshlarimizning aksari o‘z molini qiz olib qochib, janjoliq‘a sarf etmoq, bir-birovlarini o‘ldurib, yana qasosi nomashru‘ tariqida tarafiyindin bir nechalab uldurub, so‘ngra bor pullarini sudu sinod yo‘lig‘a va umrlarini Sibiriyo cho‘llarig‘a sarf qilib, nobud bo‘lar ekanlar. Arolarida madrasa nomida bir shay yo‘q emish. Ammo o‘zlari nihoyatda imonlik va amalsiz musulmonlardir!... (Behbudiy, 1999).

Safarnoma (Yo‘l ocherki) ning imkoniyatlari cheksiz. Unda portret va voqeaviy ocherklarning vositalari ajoyib tarzda qorishib ketgan bo‘ladi. Masalan Behbudiy sayohatga chiqa turib, shahar va qishloqlar haqidagi lavhalarni birin-ketin tasvirlash bilan birga, u yerda yashovchi xalqlarning urf-odatlaridan tortib tashqi ko‘rinishlarigacha hikoya qilib beradi. Muallif hikoya qahramonlaridan biri, barcha voqea-hodisalarning jonli guvohi, gohida esa birinchi kashfiyotchisi sifatida qatnashadi. “... Kislovodskig‘ayetduk. Bushahar, taxminan, 20-30 ming xalqlikdir. To‘r-besh oshiyonalik mehmonxona va har biri bizdagi ‘qulub’ yoinki madrasalardan katta bir necha musulmon hammomlari, osti hammom, usti maozin, oning usti mehmonxonalar va

bo‘larg‘a chiqmoq uchun ‘osonsur’ (lift) moshinalari bino qilinibdur”. (Behbudiy, 1999). Mana shunday tarzda qiyosiy tahlil “Sayohat xotiralari”ning boshidan to oxirigacha davom etadi. Har bir tasvirda, agar u musulmon yurtlari va dunyosi bo‘lsa, Turkistondagi ahvol bilan, ya‘ni o‘xshashlik tomonlari bilan solishtiriladi. Lekin, afsuski, ushbu o‘xshashlik tomonlar ko‘p hollarda nochorlik, qoloqlik, ma‘rifatsizlikda ko‘rinadi. Ular, ya‘ni musulmonlar ijtimoiy tabaqalanishning eng quyi pog‘onasiga tushirib quyilganligi ichki bir dard bilan tasvirlanadi. Behbudiy musulmonlarning ushbu nochor ahvolga tushib qolishlariga avvalo o‘zlari aybdor ekanligini bot-bot ta‘kidlaydi. Masalan, bir katta Eron savdogaridan jarida so‘rganida unda yo‘qligini eshitib: “Ana, sizg‘a musulmonning katta savodxonasi, Vatandan va butun olami islomdan xabarsiz yashaydur, oh...” (Behbudiy, 1999).

Yo‘l ocherkida detallar, tafsilotlar katta rol uynaydi. Ushbu unsurlarsiz na inson obrazini, na holatni, na harakat ko‘rinishlarini tasvirlash mumkin. Bular avvalo, holatni tasvirlashga yordam beradigan parchali-peyzajlarda ko‘rinadi. Peyzajdan harakat vaqtini belgilash vositasi sifatida foydalanilgan, ya‘ni hodisalar, ruy berayotgan sharoitlarni tasvirlash usuli sifatida, qahramonlar kayfiyatini berish sifatida va h.k.larda foydalaniladi. Peyzajning boshqa vazifalaridan biri – qahramonlar xarakterini ochib berish. Xususan, bu aynan safarnoma (yo‘l ocherk) larda yorqin namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, safarnomalarda shunaqa peyzajli lavhalarining borligi janr xususiyatiga ham xos. Peyzajlar yordamida muallif ko‘rgan narsalarini tasvirlaydi, parchalar orqali esa safar mazmunini boyitadi. Portret ocherkda muayyan bir tasvir asosiy hodisaga aylanishi mumkin, lekin yo‘l ocherki (safarnoma) ning butun matnida kuzatishlarning yoyilib yotishi yaxlit kartinani yaratishga xizmat qiladi.

Muallif o‘z safarida ko‘plab odamlar bilan uchrashadi, shuning uchun ham safarnomalarda portretli lavhalar uchraydi, lekin u portret ocherkdan farqli ularoq biroz boshqacha vazifani bajaradi. Shunday vazifalardan biri – safarni va safar davomida ko‘rgan o‘zga mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotni batafsil tasvirlash, ya‘ni asosiysi odamlar portretini chizmasdan, balki ularni ijtimoiy hayot fonida tasvirlashga buysindirilgan bo‘ladi. U xristian yoki yahudiylar, armanlar va boshqa millatlarga taalluqli hayot manzaralarini tasvirlaganida ulardagi ishbilarmonlik, uddaburolik va xabardorlik xususiyatlarini turkistonliklarga ibrat ma‘nosida ta‘kidlab o‘tadi. Musulmon davlatlariga borganida esa u yerdagi beqiyos san‘at darajasida qurilgan binolarni ko‘rganida o‘zini cho‘lg‘agan hayrat va iftixor tuyog‘ularini oshkora bildiradi, bunday noyob obidalarni dindoshlari – musulmonlar yaratganidan faxrlanadi. Jumladan, u Damashqdagi “Ummaviya

jom'ye sharifi"ni shunday tasvirlaydi: "Masjidda 2 mehrob bo'lib, har birining balandligi 8 gazcha bo'lub, mehroblarni ikki tarafida va ichinda hamda ustunda marmar va javohirlik musayqal toshlar ustundagi qozma va qabartma naqshlar insonni duchora hayrat etar". Behbudiy hazratlari Istanbulga borganida u yerdagi ahvolni, voqea-hodisalarni yanada ko'tarinki ohang bilan tasvirlay boshlaydi. U ziyoratgoh va tarixiy obidalar haqida bir oz to'xtaladi-da, so'ngra Turkiyaning siyosiy ahvoli, olib borayotgan urushi haqida batafsil yozadi. Turk askarlarining matonati haqida gapiraturib "...Yerlarni qozib, tomurlar qobug'ini yebdurlar. Ana, 20-asrning madaniyati va millatchiligi. Bu bo'lmasa va mundoq fidokorlik qilinmasa, millat va dinlar mahv bo'lub ketar...", (Behbudiy, 1999) – deb turk askarlariga tahsinini bildiradi.

Xotiralar so'nggida Mahmudxo'ja Behbudiy o'quvchilarga Falastinda yashovchi yurtdoshlarning inson sha'niga mos kelmaydigan ishini ko'rganida g'azab va nafratini ham yashirmaydi. Turkistondan Quddusi Sharif ziyoratiga borib qolib ketganlarning dalillik (yo'l boshlovchilik, gidlik) qilib kun kechirishlari asnosida surbetligi va muttahamligini nafrat bilan yozgan. Shu bilan birga u yerdagi arab musulmonlarining ahvolini, yashash tarzini namoyish etadi. Bu haqda taniqli nemis olimasi Ingeborg Baldauf shunday ta'rif beradi: "...ba'zi hollarda esa, falastinlik musulmonlarni, "kir-chirga botgan arablar" deya tasvirlab, hurmat-e'tiborga ko'proq loyiq bo'lgan turkistonliklar bir chekkada qolib, imperiyachi kuchlar arablar e'tiborini qozonishga urinayotganidan g'ayirligi qo'ziganini ham yashirmaydi" (Baldauf, 2001). Umuman, Behbudiyning "Sayohat xotiralarini"ni muayyan bir nuqtai nazardan turib talqin etish juda qiyin. Uning fikrlari, tasvirlari kamida o'zida ikkita, uchta talqinni mujassam etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Behbudiyning "Sayohat xotiralarini"da asosan, dunyo bilan hamjihatlik, ma'rifatga yuz burish, madaniy muassasalarni kengaytirish, xo'jalik yuritishda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanishga alohida e'tibor berganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Baldauf, Ingeborg. (2001). XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar, Toshkent: Ma'naviyat.

Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. (1926). Moskva: SSSR xalqlari nashriyoti. 31 b.

Donish, Ahmad. (1988). Navodir – ul – vaqoe, Dushanbe: Donish.

Do'stqorayev, B. (2009). O'zbekiston jurnalistikasi tarixi, Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Hasanov, X. (1981). Sayyoh olimlar. Toshkent: O'zbekiston. 235 b.

Qosimov, Begali. (2002). Milliy uyg'onish, Toshkent: Ma'naviyat.

Tog'ayev, O. (1976). Publisistika janrlari, Toshkent: O'qituvchi.

99-bet.

Muallif haqida:

NURMATOV Akbar Normatovich — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti YUNESKO va ixtisoslashgan media kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, akbarnurmatov@mail.ru

“TRAVEL MEMOIRS” — A BRIDGE TO CULTURE AND
PROGRESS

Abstract: A significant part of our vast literary heritage consists of works on nature, travels, and particularly travelogues, which are worthy of mention, study, promotion, and pride. We have set ourselves the goal of discussing some travelogues written from the 1870s to the early 20th century, specifically focusing on Mahmudxo‘ja Behbudiyy’s “Travel Memoirs.”

Keywords: Travel, travel essay, Jadids, travelogue, newspaper, journal

About the author:

NURMATOV Akbar Normatovich — docent of the Department of UNESCO and specialized of Media, University of Journalism and Mass Communications, Candidate of philology, akbarnurmatov@mail.ru

ИНТЕРНЕТ-ЖУРНАЛИСТИКА КАК НОВЫЙ КУЛЬ-
ТУРНЫЙ И ЦИВИЛИЗАЦИОННЫЙ ФЕНОМЕН В
АЗЕРБАЙДЖАНЕ

Заур Бабаев,

Бакинский Государственный Университет

Аннотация: С появлением Интернет-изданий родовые различия журнальной и газетной форм работы изменились. Интернет позволяет оставаться актуальным, оперативно реагируя на события. Главное, новость может быть вставлена в быстро подготовленный аналитический обзор, который посредством гипертекстовых ссылок связывается с другими материалами. Она таким образом автоматически порождает смысловой контекст и становится центром кристаллизации новой темы. Жанровые различия между репортажем и очерком, новостью и аналитическим обзором стираются, и это далеко не все особенности Интернет-журналистики. В статье кратко излагается тенденции развития Интернета и новой медиі в пространстве Азербайджанской Республики. Даны статистические данные о пользователях Интернета в республике. Дано научное определение термина «новая медиа». New media стала новой волной развития СМИ, которая требует от журналистов универсальности и большей оперативности для получения, обработки и передачи информации целевой аудитории.

Ключевые слова: Интернет, социальная сеть, информационные технологии, Интернет — журналистика.

В образе Интернет-журналистики мы имеем дело с качественно новым культурным и цивилизационным феноменом. Этот вывод напрашивается хотя бы из того, что Интернет вначале

DOI:

[https://doi.org/10.62499/
ijmcc.vi.105](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105)

породил Интернет-журналистику де-факто, а уже потом журналистика стала осваивать Интернет как среду своей профессиональной деятельности.

То, как общество потребляет новости и контент, кардинально изменилось за последнее десятилетие. Никогда в истории человечества мы не были так связаны, что является свидетельством преимуществ новой, захватывающей цифровой эпохи. Интернет позволяет нам связываться с кем угодно в мире за считанные секунды (Perreault & Ferrucci, 2020).

Информационное общество, ноосферическая цивилизация, информационное пространство, киберпространство, информационная среда, виртуальная реальность — эти слова стали привычными не только на страницах научных и популярных изданий, но и в обыденной речи. Массовое сознание прочно связывает эти термины с компьютерами и телекоммуникациями. В то же время компьютеры и коммуникации получили в свое распоряжение лексику и понятийный аппарат бытийного плана — по интернету путешествуют, в него входят, в нем живут (Калмыков и Коханова, 2005).

Широкомасштабные организаторские возможности Интернет «показал» во времена различных цветных революций. Пропаганда и влияние на общественное сознание — это «козырек» интернет-пространства. Различные сайты и блоги выполняют функции агитатора. В принципе роль СМИ, как влиятеля на общественное сознание, не изменилось. Изменились методы, формы, способы, аудитория.

Используя преимущества в скорости, быстроте, мультимедийной подачи информации резко возрастает качественное влияние на формирование общественного мнения.

Журналистская профессии в наше время стремительно меняется. Эти изменения прежде всего связаны с глобализацией информационного пространства, широким распространением цифровой коммуникации, компьютерной культуры и расширяющимися процессами медиаконвергенции (Свитич, 2018).

Как и во всех демократиях мира, Азербайджан имеет широкие возможности для неограниченного доступа к Интернету. Принимаются меры по улучшению качества интернета и снижению тарифов. Последовательная работа ведет к созданию и развитию новых направлений.

По данным DataReportal о внедрении и использовании цифровых технологий в Азербайджане в начале 2024 года было 9,19 млн интернет-пользователей, а уровень проникновения интернета составлял 88,0 процентов.

В январе 2024 года в Азербайджане насчитывалось 6,10 млн пользователей социальных сетей, что составляет

58,4 процента от общей численности населения. В начале 2024 года в Азербайджане было активно 11,81 млн сотовых мобильных подключений, что составляет 113,2 процента от общей численности населения (Кемр, 2024).

Азербайджане радиовещание началось с 6 ноября 1926 года, телевизионное – с 14 февраля 1956 года. Появление интернет-СМИ в Азербайджане совпадает с серединой 1990-х годов. Ресурсы, такие как онлайн-версии газет, а затем чисто интернет-СМИ, начали быстро расти.

Широко распространенный и ускоренный рост интернета, наличие интеллектуальных устройств и интеграция социальных сетей в нашу жизнь значительно укрепили позиции интернет-СМИ в Азербайджане, как и в остальном мире. Сегодня, Интернет стал основным источником новостей в Азербайджане. На сегодняшний день, в Азербайджане действуют 11 национальных, 13 региональных, 17 кабельных, 29 интернет, 4 спутниковых телевидения, 13 национальных и 3 региональных радиостанции. В

В настоящее время на территории страны осуществляется аналоговое (FM) и цифровое (DAB+) радиовещание и наземное цифровое телевизионное вещание в стандарте DVB-T/T2.

Программы общереспубликанского FM-радио транслируются в большинстве территорий страны. Также расширяется охват радиопрограмм по запросу (Кемр, 2024).

Общенациональные FM-радиопередачи транслируются в большинстве районов страны, и объем основанных на спросе радиопрограмм расширяется. В настоящее время Азербайджанское радио охватывает 99,0% территории страны, Общественное радио 93%, Араз FM 88%, Space FM 45%, Leader (Jazz) FM 80%. - Сигнал FM 75%, Anten FM 80%, 106 FM 35%, Свободный Азербайджан FM 70%, Каспийский FM 65%, Медиа FM покрывает 76%, Авто Радио FM 25% и Asan FM 30%.

В связи с переходом на цифровое телевизионное вещание в Азербайджанской Республике впервые в 2004 году было начато тестирование, которое было протестировано на трансляцию 4 телепрограмм в стандарте MPEG-2. В 2008 году в Баку был запущен стандартный телевизионный тест MPEG-4. С 2009 года 12 телевизионных программ транслировались в стандарте MPEG-4 в Баку и прилегающих районах, причем 35% населения имеют доступ к цифровому телевидению. В 2010 году страна расширила свою сеть цифрового телевизионного вещания, охватив Баку, Гянджу, Ширван и южные регионы страны, где проживает 55% населения страны.

Основным преимуществом цифрового вещания явля-

ется высокое качество приема телевизионных программ, эффективное использование стратегически важных частотных ресурсов и возможность приема большого количества наземных телевизионных программ (Kemp, 2024).

В соответствии с пунктом 5.1.7 Плана действий «Государственной программы реализации Национальной стратегии по развитию информационного общества в Азербайджанской Республике на 2016-2020 годы», утвержденного распоряжением Президента Азербайджанской Республики от 20 сентября 2016 года, в соответствии с постановлением от 27 сентября 2016 года №10 Национального совета по телерадиовещанию, наземное аналоговое вещание в Баку и на Абшеронском полуострове было прекращено с 1 ноября 2016 года, а 20 декабря 2016 аналоговое телевизионное вещание было полностью прекращено на территории страны. Тем самым был завершён процесс перехода на цифровое телевидение.

Общереспубликанские радиотелевизионные программы, наряду с наземным цифровым вещанием, также транслируются со спутника Azerspace (2023).

Интернет-радио и интернет-телевидение, один из ведущих видов интернет - журналистики, с каждым днем становятся все более популярными, создавая свои собственные жанры. В современном мире радио и телевидение становятся все более популярными в своих интернет-версиях. В Азербайджане под влиянием цифровизации и конвергенции традиционные СМИ освоили мультимедийные платформы.

В телеэфир переносятся и проекты, возникшие и получившие популярность в социальных сетях. Например, передача *Belə belə işlər* («Такие вот дела»), которая транслируется на азербайджанском телевидении с сентября 2019 г. Проект был создан в августе 2017 г. в социальной сети Facebook¹⁹. Основная его цель – ознакомление аудитории с наиболее интересными событиями, происходящими в стране и мире, а также обсуждение причин их возникновения. Информация преподносится в формате коротких видеосюжетов (с субтитрами), доступным языком излагаются ранее неизвестные факты, в том числе о жизни и деятельности публичных персон. Оригинальная подача материала понравилась пользователям, в настоящий момент программа выходит на телеканале AzTV два раза в неделю и остается по-прежнему популярной. На ее страницах в социальных сетях размещено свыше 1500 видео (Гулиева, 2023).

В августе 2024 года Азербайджан занял 104-е место среди 161 страны по скорости фиксированного широкополосного интернета, достигнув показателя в 45,47 Мбит/с. Это указывает на улучшение позиций страны на 5 ступеней по сравнению с июлем, в то время как средняя скорость загруз-

ки выросла на 58,4%. Лидером по скорости фиксированного интернета стали Объединенные Арабские Эмираты с результатом 297,62 Мбит/с, что почти в 6,5 раза выше скорости, зафиксированной в Азербайджане. Что касается скорости мобильного интернета, то Азербайджан занимает 45-е место среди 111 стран с показателем 55,14 Мбит/с, не изменив своей позиции с предыдущего месяца.

Относительно цен можно сказать, что в Азербайджане они оказались ниже, чем во многих странах, но все же заметно выше, чем в некоторых странах Восточной Европы и Азии. Средняя стоимость фиксированного широкополосного интернета в Азербайджане составляет около \$16,59 в месяц, тогда как в соседних странах, таких как Турция или Молдова, \$8,77 и \$9,14 соответственно. Таким образом, Азербайджан занимает среднее положение по стоимости интернета, предлагая умеренную цену на фоне глобальных тенденций (Ахундов, 2020).

Сегодня в Азербайджане формируются независимые средства массовой информации (СМИ), отвечающие современным мировым стандартам. По количеству СМИ Азербайджанская Республика занимает одно из ведущих мест среди стран СНГ и Восточной Европы. В настоящее время общее число официально зарегистрированных СМИ превышает 5000. Созданные СМИ принадлежат различным политическим и общественным организациям, частным предприятиям и физическим лицам. В стране издаются до 40 ежедневных, более 200 еженедельных и ежемесячных газет. Выходит более 80 научно-практических, общественно-политических, с социально-экономической проблематикой, освещающих детские и женские проблемы и развлекательного характера журналов. В Азербайджане около 20 информационных агентств распро-

Список литературы:

Ахундов, Хазар. (2020). К 2025 году уровень внедрения широкополосного интернета в Азербайджане достигнет 95% – аналитика, oxu.az. URL: <https://oxu.az/ru/obshestvo/k-2025-godu-uroven-vnedreniya-shirokopolosnogo-interneta-v-azerbaydzhane-dostignet-95-analitika>

Гулиева, Сюсан. (2023). Форматы передач азербайджанских телеканалов. Медиа альманах, №1, С.110. URL: <https://www.journ.msu.ru/upload/iblock/4e9/4e97cea8a7a92dd1d5a9b0e8a224de6a.pdf>

Калмыков, А. А., Коханова, Л. А. (2005). Интернет-журналистика, Москва: ЮНИТИ-ДАНА. 383 с. URL: <https://evartist.narod.ru/text16/022.htm>

Свитич, Л. (2018). Журналист в условиях медиаконвергенции. Мультимедийная журналистика: сб. науч. трудов / под общ. ред. канд. филол. наук доцента В. П. Воробьева, Минск: БГУ, сс. 46-52. URL: <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/192520/1/>

Телерадиовещание. (2023). URL: <https://mincom.gov.az/ru/deiatelnost/teleradioveshhanie> Kemp, Simon. (2024). Digital 2024:

Kemp, Simon. (2024). Digital 2024: Azerbaijan. URL: <https://datareportal.com/reports/digital-2024-azerbaijan>

Perreault, G. P., & Ferrucci, P. (2020). What Is Digital Journalism? Defining the Practice and Role of the Digital Journalist. *Digital Journalism*, 8(10), 1298–1316. Doi: <https://doi.org/10.1080/21670811.2020.1848442>

Об авторе:

БАБАЕВ Заур Камал оглу — Бакинский Государственный Университет
Доцент кафедры новых медиа и теорий коммуникаций, кандидат филологических наук, zaurbabayev1958@mail.ru

INTERNET JOURNALISM AS A NEW CULTURAL AND
CIVILIZATIONAL PHENOMENON IN AZERBAIJAN

Abstract: With the advent of Internet publications, the generic differences between magazine and newspaper forms of work have changed. The Internet allows you to stay relevant by quickly responding to events. The main thing is that the news can be inserted into a quickly prepared analytical review, which is linked to other materials through hypertext links.

Keywords: Internet, social network, information technology, Internet - journalism.

About the author:

BABAYEV Zaur Kamal oglu — Associate Professor of the Department of New Media and Communication Theories at Baku State University, Ph.D. in Philology, zaurbabayev1958@mail.ru

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TIL HAQIDAGI
TA‘LIMOTI

Dilafro‘z Rahmatova,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Turkiston jadidlari sardori Mahmudxo‘ja Behbudiylar nomi dramaturg, noshir, “usuli savtiya” jadid maktabining asoschisi, mohir pedagog, darsliklar muallifi, “Behbudiya” kutubxonasi tashkilotchisi, jahongashta olim kabi yorliqlar bilan tarix sahifalaridan o‘rni oldi. Yuqorida keltirilgan ta’riflar haqida ko‘plab dalillar, isbotlar keltirish mumkin. Lekin Mahmudxo‘ja Behbudiylarning tilshunoslik borasidagi fikr-g‘oyalari, nazariy qarashlari, qolaversa, o‘ziga xos ta’limoti ham borki, uning tilshunos olim sifatida e’tirof etilishiga asos bo‘ladi. Til jonkuyari sifatida Chor Rossiyasi vakillari bilan olib borgan mabohasalari, adib tomonidan qo‘yilgan talablar orasida o‘zbek tilini davlat siyosati darajasiga olib chiqish masalalari ham olimning haqiqiy millatparvar ekanligidan dalolatdir.

Kalit so‘zlar: ta’limot, tilshunoslik, davlat, imlo, Behbudiylar, amirlar

Tilshunoslikning bir yo‘nalishi nutq madaniyati hisoblanadi. Jadidlarning o‘zbek nutqi madaniyatini rivojlantirishda ham o‘ziga xos o‘rni bor. Behbudiylarning bu boradagi qarashlarini bir tomondan milliylikka asoslangan ta’lim usullari va zamonaviy pedagogika ta’siridan ajratib qarab bo‘lmaydi. Zotan, nutq

madaniyatiga sohiblik malakalari ta'lim va tarbiya jarayonlarida shakllantiriladi. Dunyo tilshunosligida tildan to'g'ri va mahorat bilan foydalanish qoidalarini o'rgatish, ya'ni madaniy nutq tuzish yo'llarini ko'rsatish bilan shug'ullanadigan soha til didaktikasi yoki lingvodidaktika nomi bilan ham yuritiladiki, bunda nutq madaniyati va pedagogikaning bir qismi bo'lgan didaktika o'rtasidagi zich aloqa yaqqol namoyon bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek lingvodidaktikasi qatori tilimiz me'yorlashuvi, nutq madaniyati rivojiga ham munosib hissa qo'shdi. Tilshunos olim Suyun Karimov o'zining "Behbudiy – o'zbek tilining jarchisi" maqolasida allomaning nutq madaniyati va til me'yorlari masalalariga ham alohida e'tibor berganligiga to'xtalib o'tadi. Muallifning qayd etishicha, Behbudiy 1908-yilda yozgan "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar kitobi") darsligida til amaliyotiga e'tiborni qaratib, yozma nutqdagi, xususan, maktublardagi me'yoriy holatlarga doir mulohazalarini bayon qiladi. Ta'kidlaydiki, yozadigan kishi o'z muddaosini yaxshi tushinsin, bilmaydigan so'zni yozmasin, yozuvda imlo qoidalariga rioya qilsin, chet so'zlarni qo'llashdan tiyilsin, o'qiydigan odamni ham hisobga olsin, sodda va tushunarli yozsin. Ko'rinib turibdiki, bolalarni yoshligidan nutq madaniyatiga e'tiborli bo'lishiga, ortiqcha so'zlarni ishlatmaslikka, latif, quloqqa yoqadigan so'zlardan foydalanishga chaqiradi. Yoshlikdan to'g'ri yozish va barchaga ma'qul keladigan adabiy tilda yozish ko'nikmasini shakllantirish masalasini o'rta qo'yadi.

"Kitobat ul-atfol" darsligining faksimilesidan foydalangan holda ta'kidlash lozimki, Behbudiy maktub, xat, rasmiy xat, javob xati kabilarning yozilish tartibini juda qulay tartibda o'quvchilarga misollar tariqasida keltira olgan. Misol uchun o'z yaqinlariga yoziladigan maktublarning rasmiy idoralarga yuboriladigan xatlardan keskin farq qilishi, turli xatlarda ishlatiladigan tinish belgilardan foydalanish tartibi haqida ham batafsil ma'lumot keltirgan.

Behbudiyning o'zbek tilining haqiqiy jonkuyari sifatidagi faoliyati publitsistik maqolalari va badiiy asarlaridagina o'z aksini topmagan. U Chor Rossiyasi vakillariga bir necha marta murojaat qilib, o'z davri ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, davlat tili bo'yicha bir qator takliflar bergan. Masalan, "Turk adami markaziyat (federalist) firqasining maromnomasi" va "Turk adami markaziyat firqasining nizomnomasi"ni ishlab chiqqan. Bu loyihalarda ijtimoiy hayotning turli jabhalarini yaxshilash borasida berilgan tavsiyalar qatorida til ta'limi islohotlariga doir fikrlar bor.

"Maromnoma"ning "Davlat va muxtoriyat tashkiloti" bo'limida: "Har bir muxtoriyatli qit'aning rasmiy tili aksar xalqning so'ylag'on tili va shevasi bo'lmoq ila barobar viloyat va

sanjoqlarda yerlik xalqning so‘ylashadurgan til va shevalari ham iste’mol qilinur”, deb yozadi Behbudiy. Imperator vakili bo‘lib kelgan graf Palenga Turkiston xalqining turmush tarzi to‘g‘risida taqdim etgan “Loyiha-proekt”ida ham “zako‘n va sudya bizg‘a jabr qilmaydur, balki til bilmaganimizdan, zako‘n bilmaganimizdan, zamondan xabarsizligimizdan jabr ko‘rarmiz”, deb yozgan edi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Behbudiy yashagan davrda tilga bo‘lgan nazariy qarashlar bir-biridan keskin farq qilgan. Ayrim jadidlar, o‘zbek tili tarkibiga asrlar davomida o‘rnashib qolgan fors va arav tillaridan voz kechish masalalarini olg‘a surayotgan bo‘lsa, boshqalari Turkiston hududida qo‘llanadigan sheva va lahjalarni adabiy til me‘yorlariga kiritish lozimligini qayd qilishardi. Turkistonda doimimiy ravishda uch tilda – turkiy, arabiy, forsiy tillarida faoliyat olib borilganligini yaxshi anglagan Behbudiy zamon siyosati va talabini ham hisobga oladi. O‘z millatdoshlariga rus va Yevropa tillarini o‘rganish zarurligini uqtiradi. Zamondan xabarsizligimizdan jabr ko‘rarmiz deganda ana shu maqsadni ko‘zlagan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning hammaslagi Munavvarqori Abdurashidxonov bu borada murosa yo‘lini tanlaganlari ham bejiz emas. Chunki, Munavvarqori Abdurashidxonovning: “Ruslar bilan doimiy ravishda muloqotda bo‘lish, ayniqsa, savdo, ma’muriy, temir yo‘l kabi turli jabhalarda faoliyat olib borish uchun mahalliy aholi har xil bilimlarni egallashda qurol bo‘lgan rus tilini bilish kerakligiga iqrar bo‘lyapman”, degan fikrlari hamda Mahmudxo‘ja Behbudiyning: “Boshimiz og‘risa, do‘xturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqqa til yo‘q. O‘zimizdan do‘xtir yo‘q. Xalq o‘rtasida nizo ko‘tarilib, sud mahkamalariga borilsa, rus tilini biladigan kishi yo‘q. O‘rtadagi kishi – tarjimon esa “firib berar”. Hatto boylar hisob-qitobini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mablag‘ni bankka qo‘yish uchun ham til zarur. Kelajakdagi taraqqiyot uchun til bilish zarurligini tushungan alloma xalq o‘z foydasi uchun ham tilni o‘rganishi zarur deb hisoblaydi.

Tilshunos olimning “Til masalasi” maqolasi “Oyina” jurnalining 1915-yilgi 11-12-sonlarida chop etilgan. Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning til falsafasi, ijtimoiy vazifasi va leksikasiga oid mulohazalari o‘z ifodasini topgan.

Maqolaning bosh mavzusi tilning tozaligi masalasidir. Hamma zamonlarda ham tilimiz uchun g‘oyatda muhim bo‘lgan bu muammoning yechimini izlar ekan, Behbudiy gazeta va jurnallar matnini tahlil etib, yangi matbuotning eng ahamiyatli masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalari ekanligini yozadi.

Behbudiy Turkistonda adabiy til hanuz bir me‘yorga keltirilmayotganidan afsuslanadi. Sheva va lahjalar birlashib, me‘yorlashtirilgan adabiy til asosida so‘zlash va yozish lozimligini

ta'kidlaydi. Shuning uchun ham maqolaning muhim bir qismini tilni mumkin qadar soddalashtirish va adabiyashtirish borasidagi qarashlari tashkil etadi. Rossiya va Kavkaz musulmonlari matbuotini taqqoslab o'rganishi, "Vaqt", "Sho'ro", "Yulduz" jurnallarini solishtirishi natijasida ularning matbuot tili so'zlashuv tilidan (muallif uni ko'cha tili, avom tili, sodda til degan nomlar bilan ataydi – D.R.) bir necha daraja yuqori ekanligini va kun sayin takomillashib borayotganini qayd etadi.

Matbuot nashrlarini, ilmiy asarlarni so'zlashuv tilida yozish mumkin emas. Ilm-fan va kasb-hunar rivojlanib bormoqda. Hozircha narsa-hodisalarni o'zga tildagi nomlar bilan atamoqqa majbur bo'lmoqdamiz. Ularni o'z tilimizda ifodalash uchun narsalarga turkiy nom qo'yadigan jamiyatlar barpo etish lozim. Behbudiyning til haqidagi ta'limotida chetdan so'z qabul qilish masalasi muhim o'rin tutadi. Mufakkirning ta'kidlashicha, til masalasi Rusiya musulmonlari matbuotida bahslarga sabab bo'lmoqda. Bunda avom tili tarafdorlari mag'lubiyatga uchramoqda. Bizning Turkiston matbuoti ham bu masalani boshidan o'tkazadi. "Sadoyi Turkiston"da bu borada maqolalar yozilmoqda. Tilimizdan forsiy va arabiyi quvaylik, degan takliflar bo'lmoqda. Ammo buning ijrosi amalda mumkin emas. Minglab joy nomlarini turkiycha nomlash yo'lidagi harakatlar xom xayoldir. Masalan, maktab, madrasa, jarida, majalla, kitob – hammasi arabniki. Ismimizni o'ndan to'qquzi arabiy. Endi, bu nihoyasiz nimarsalarni hammasig'a turkiydan ism axtaribmi dunyodan o'tarmiz, – deydi Behbudi. Uning fikricha, hozirgi tilimizga kirib kelgan fors va arab so'zlari bizlarni ma'lum darajada arablar va forslarga yaqinlashishimizga vosita bo'ladi.

Bu mulohazalar yakunida chet so'zlarni imkon qadar kam qo'llash lozimligini ta'kidlagan holda sof turkiycha so'zlash va yozishning ham imkoni yo'qligini aytadi: "Binobarin, baqadri imkon oz arabiy va forsiy, oddiy, turkiy lug'at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdan boshqa iloj yo'qdur", "barcha ilmu fan istiloh va lug'atlarig'a turkchadan muqobil oxtarib vaqtini zoe etmayluk". Buning o'rniga sa'y-harakatlar va g'ayratni mavjud kitoblarni o'qib, ularning mag'zini chaqishga chaqiradi. "Kelar zamon uchun hozirlanayluk, – deydi u, – o'tgan zamon uchun emas".

Bugun ko'plab tilshunoslarning fikricha, tildagi har qanday o'zlashmalarga keskin qarshi, o'ta konservativ bir harakat salbiy deb baholanadi. Tilga noo'rin kirishi mumkin bo'lgan chet so'zdan saqlanish kerak, ammo har qanday o'zlashmaga qarshi turish, uni almashtirishga kirishish maqbul ish emas. Behbudiyning bu masalada boshqalarga nisbatan ancha ilg'or fikrlashi ko'zga tashlanadi.

Maqola muallifi chet so'zlarning imlosi borasida o'z

takliflarini berib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: “To‘g‘ridan-to‘g‘ri demoq kerakki, baqadri imkon arabiy oz yozulsun. Arabiy ismlik nimarsalar jamlanganda, turkcha jamlansun. Masalan, ulum, funun, ulamo, quzzot va ...demoq o‘rinda fanlar, ilmlar, olimlar, qozilar va ...lar yozingiz. Ammo butun fanniy va ilmiy va diniy istiloh va iborotlarga muqobil turkchadan ism tayin qilmoq fikriga cho‘mmoq o‘zni charchatib va matbuotni zoe qilmoqdan boshqa nimarsa emasdur”. Behbudiyning ushbu fikrlari tilimizning grammatik qonuniyatlariga mos kelishi bilan ilmiy asosga egadir. Hozirgi adabiy tilimizda so‘z shakllarining aynan shunday qo‘llanilib kelinayotgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Behbudiylar tilni ilm-fan asosiga qo‘yish masalasini o‘rtaga tashlaydi. Agar ana shunday yo‘l tutilsa, til bizga tobe bo‘lmay, biz tilga tobe bo‘lamiz, ya‘ni adabiy tildan foydalanadigan bo‘lamiz, deydi. Har bir qishloq tili ilmiy va adabiy til bo‘lishi mumkin emasligini chuqur anglagan olim adabiy til me‘yorlari asoslarini yaratadi.

Adibning til haqidagi qarashlari o‘nlab asarlarida bayon etilgan. Ammo ikkita maqola — “Ikki emas, to‘rt til lozim” va “Til masalasi” maqolalari bevosita ushbu masalaga bag‘ishlangani bilan ahamiyatlidir.

1913-yilda “Oyina” jurnalida chop etilgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi buyuk ma‘rifatparvarning nafaqat tilga bo‘lgan munosabatini, balki dunyoga chiqishning yo‘llari ko‘rsatib berilganligi bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan asardir. Ingliz, fransuz, rus, usmonli turk onalarining tili matbuot va maktabdagi adabiy va ilmiy tilni ayni o‘zidir, deydi. Ammo ular bir necha yuz yillardan beri tilni o‘qib-o‘rganib kelayotgan onalar tilidir. Bizning mazlum onalarimiz esa avloddan-avlodga o‘qimasdan kelmoqdalar. Onalarni o‘qitish, ilmiy qilish, qolaversa, me‘yorlashtirilgan tilda so‘zlatish ko‘nikmasini yaratish va shu yo‘l orqali bolalar tushunchasida adabiy muhitni yaratish masalasini ko‘taradi.

Modomiki, bizda ilmiy, diniy, tarixiy, zamonaviy kitoblar bor ekan, ularni o‘qib fahmlash uchun g‘ayrat qilishimiz kerak. Masalan, Kavkaz va Qrimda “hamma ilmu fanlarini turkcha tilda bilurlar”, degan fikrlari ahamiyatli.

“Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida to‘rt tilni bilishning ilmiy ahamiyatini asoslab bergan bo‘lsa, “Til masalasi” asarida dunyo ilm-u fanidan xabardor bo‘lmoq uchun rus, nemis, fransuz, ingliz, italyan, arab, yapon tillaridan birini bilmoq kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Darhaqiqat, dunyo ahli bilan muloqotga kirishishning, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotiga daxldor bo‘lishning, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, adabiyot va san‘at bilan mashg‘ul bo‘lishning eng samarali yo‘li — til bilish ekanligini bugun ham hayotning o‘zi isbotlab turibdi.

Behbudiy maqolada “Biz, turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur”, deydi va buning sabablarini izohlab beradi. Turkiston xalqining asosiy qismi o‘zbek tilida gaplashganidan, arab va fors tillari ilm va ta’lim tili bo‘lganligidan shunday qilish zarurligi ta’kidlanadi. Madrasalardagi “dars kitobi arabiy, muallimi turkiy, tahriru tarjimoni forsiyligi xeyli ajibdur”, deb yozadi.

Maqola muallifining tarixiy manbalarga tayangan holda qayd etishicha, shu uch til Turkistonda qadimdan amalda bo‘lgan. Amirlar va xonlar zamonidan beri farmoyish va muboraknomalar turkiy tilda yozilgan, madrasalarda arab tilida o‘qitilgan, qozixonalar hujjatlari va badiiy adabiyot forsiy tilda bitilgan. Bu holatning davom etib kelayotganligi ta’lim va nashr ishlarida qiyinchilik paydo qiladi, savod va ilm o‘rganuvchilarning yuzdan to‘qson to‘qqizi bu uch tilni bilmasligidan qiynaladi. Bu muammolardan kelib chiqib, Behbudiy til ta’limi va o‘qitish metodikasini isloh qilish masalasini keskin qo‘yadi.

Samarqand, Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida aholisi forsha so‘zlaydigan shahar va qishloqlar borligi, fors shoirlari va adiblari lazzati qiyomatgacha ketmaydigan asarlar yozganligi va ularning katta ma’naviy xazina ekanligi, buni bilishga yevropaliklar milliardlar sarf etishligi uchun ham bu tilni bilmoq lozimligini ta’kidlaydi. “Bizg‘a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsilsiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsni turkiy bilmog‘i lozimdur”, deydi Behbudiy.

Olimning qat’iy ishonchiga ko‘ra, dunyo ilm-u ma’rifatidan, adabiyoti va san’atidan, masalan, fransuz va rus donishmandlarining asarlaridan bahra olmoqni Kavkaz va Qozon turkiylaridan o‘rganish kerak, ularning asarlarini turkiyga tarjima qilish lozim. Chunki “turkiy bilgan kishi zamonni bilir”.

Yana davom etib yozadiki, “Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg‘a xizmat ilmsiz bo‘lmaydur. Masalan, bugungi “podsholik duma”g‘a o‘z din va millatimiz nafi g‘a so‘zlamog‘ bizlar uchun mumkin bo‘lur. Ammo anda borib so‘ylaguvchi kishi bizg‘a yo‘q. Anda borib nafi Vatan va millatg‘a so‘ylamoq uchun Rusiya maktablarida bir o‘n sana o‘qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo‘lmoq kerakdur”.

Behbudiyning bu bildirgan fikrlarining yakuni shunday: “Xulosa, bugun bizlarga to‘rt tilga tahrir va taqrir etguvchilar kerak, ya’ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na daraja lozim bo‘lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur. Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketar”.

Shundan so‘ng, mutafakkir fransuz tili to‘g‘risida, dunyoni bilishda bu tilning ahamiyati haqida mulohaza yuritadi. G‘ayridinlarning tili va ilmini o‘rganmoq shariatga zid emasligini

aytib, bunga janobi payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamning o'z sahobalaridan Zayd bin Sobitga yahudiy xatini o'qub-o'rganishni buyurganini dalil qilib keltiradi.

Maqolamizni tilshunos olim Suyun Karimovning "Behbudiy – o'zbek tilining jarchisi" maqolasidan olingan iqtibos bilan boshlagan edik. Yana olimning fikrlarini keltiramiz: "O'tgan yuz yilga yaqin vaqt orasida biz uchun iste'molda bo'lgan tillarga nisbatan munosabat, ularning iste'mol uchun muhimlik darajasi ma'lum ma'noda o'zgargan bo'lishi mumkin, albatta. Ammo til falsafasini, mantiqini, uning ijtimoiy ahamiyatini nihoyatda zukko anglagan Behbudiy muhim bir g'oyani ilgari suradi: til bilmoq lozim. Qancha ko'p til o'rganilsa, dunyoni anglamoq shuncha oson kechadi".

Bu fikrning bugungi kun uchun ham nechog'lik ahamiyatli ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz.

Muallif haqida:

RAHMATOVA Dilafruz — Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi, rahmatovadilafruz2@gmail.com

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY'S TEACHINGS ON LANGUAGE

Abstract: Mahmudkhoja Behbudiy, the leader of the Turkestan Jadids, has secured his place in the pages of history with titles such as playwright, publisher, founder of the "usuli savtiya" Jadid school, skilled pedagogue, textbook author, organizer of the "Behbudiya" library, and world-traveling scholar. Numerous arguments and evidence can be presented regarding the aforementioned characterizations. However, Mahmudkhoja Behbudiy also had ideas, theoretical views, and even a distinct doctrine in the field of linguistics, which forms the basis for his recognition as a linguistic scholar. His debates with representatives of Tsarist Russia as a language advocate, and the issues of elevating the Uzbek language to the level of state policy among the requirements set by the writer, also attest to the scholar's true patriotism.

Keywords: doctrine, linguistics, state, orthography, Behbudiy, emirs

About the author:

RAKHMATOVA Dilafruz — Teacher at Samarkand State Institute of Foreign Languages, rahmatovadilafruz2@gmail.com

JADID MA'RIFATPARVARI SAYYID MUHAMMAD
FANSURULLOHBEK XUDOYORXON O'GLISayyora Halimova, 

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan jadidchilik harakatining ilg'or vakillaridan biri Sayyid Muhammad Fansurullohbek Xudoyorxon o'gli faoliyati tadqiq etilgan. Uning maorif va milliy matbuot taraqqiyoti yo'lidagi munosib ishtiroki o'rganilgan.

Kalit so'zlar: jadid, maorif, maktab, gazeta, chor hukumati, musiqa, xisrav, urshid, rus-tuzem

XX asr Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan jadidchilik harakati yuzlab ma'rifat ziyolilarini bir maslak va maqsad yo'lida birlashtirdi. Ana shunday vatanparvar millat farzandlaridan biri Sayyid Muhammad Fansurullohbek Xudoyorxon o'g'lidir. U xon Xudoyorxonning kenja o'g'li bo'lib, 1872 yilda Qo'qonda xon O'rdasida tug'ilgan. Fansurulloh bekning bolalik yillari chor Rossiyasi zulmi sabab xonlikning og'ir damlariga to'g'ri keladi. Ma'lumki, 1875 yilda Qo'qonda ro'y bergan qo'zg'alon tufayli Xudoyorxon Toshkentga, Kaufman huzuriga najot istab qochib keladi. Afsuski, ayyor Kaufman Sankt-Peterburgga yuboryapman deb aldab, xonni, ya'ni, Xudoyorxonni Orenburgga surgun qiladi. Xudoyorxonning oilasi, farzandlari esa Toshkentda qoladi. "Yosh shahzoda Fansurullohbek dastlab eski maktabda, so'ngra, rus-tuzem maktabida hamda Shayx Xovand Tohurda Eshonquli Dodxoh madrasasida tahsilini davom ettiradi" (Umarov, 2016). Fansurullohbek bolaligidan ziyrak, musiqa va adabiyotni sevadigan, iste'dodli bola bo'lib, rus tilini ham yaxshi o'zlashtiradi.

Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnasha boshlaydi. Toshkent shahrida Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida taraqqiyparvar yoshlar jamoasiga qo'shiladi. Dastlabki milliy nashrlar "Taraqqiy" va "Xurshid" gazetalarini tashkil etishda jonbozlik ko'rsatadi. Hattoki, "Xurshid"ning 2-soni Fansurullohbekning "Sababi tulu'i "Xurshid" sarlavhali dasturiy maqolasi bilan ochiladi" (Umarov, 2016). Bu haqda "Turkiston viloyatining gazetasi" "Xurshid"ni chiqarishda Munavvarqorining sherik va muovini Fansurullohbek Xudoyorxonuf va Muhammad Rahimxo'ja Nuriddinxo'jayuf va mulla Ziyo Oxund mudarrislardur" deya ma'lumot beradi. (Turkiston, 1906). Fansurullohbek o'z dasturiy maqolasida: "Biz Turkiston ahlini maktab-madrasalarimizdag'i o'quladurg'on dars kitoblarimizning keraklarini olib, nokeraklarini tag'yir bermoq (o'zgartirmoq) uchun hurmatlik ulamoi zulehtirom, talabai kiromlarimiz bila qilg'on mashvarat (kengash)larimizni bayon etub turur; ikkinchi, biz ahli Turkis-

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105>

tonni ba'zi osori xayriya to'g'risida beparvolikimiz oz emas, ko'bg'inadur. Jamiyat bila ish qilmoqg'a xalqimizda ittifoq yo'q" (Do'stqoraev, 2009), deya Turkistonda kechayotgan jaholat va lo-qaydlik sabablarini tahlil etishga harakat qiladi. Shuningdek, ma-halliy aholi uchun o'z shevasi va tilida gazeta zarurligini, "Xurshid" gazetasi aholini zarur ma'lumot va xorijiy yangiliklardan xabardor qiladigan milliy nashr ekanligini alohida ta'kidlaydi. Jumladan, gazeta "Ibratlik hikoyalar va dilkash voqealar, ilm va fan, hunarg'a, naf'i ommaga keraklik nasihatlarini turkcha tarjima etib, hama dindoshlarga'a bildirur" (Do'stqoraev, 2009). Fansurullohbek "Xurshid" gazetasini eng muhim vazifasi-millatimiz-da mavjud kamchiliklarni, muammolarni yechimini topadigan vosita sifatida ta'riflaydi. Uning yana bir maqolasi gazetaning 10-sonida chop etilgan "Toshkand, 12nchi no'yabr" deb nom-lanadi. Muallif ushbu maqolasida II Davlat Dumasiga vakillar saylash borasidagi jiddiy muammolarni tahlil etadi. Bu muammo o'z davri uchun juda muhim siyosiy masala edi. Fansurullohbek Dumaga kimlarni saylashimiz zarur, degan savolga oqillik bilan shunday yozadi: "Yuboriladigan vakillarimiz kerakki shariat ilmi-dan, siyosiy, ya'ni sipohigarchilikka tegishli tadbir ilmidan voqif, ahvoli zamondan boxabar, ruscha tilni yaxshi biladurg'on ma'lu-motlik zotlardan bo'lishi lozim" (1906). Publitsist yana bir ilg'or fikrni ilgari surgan. Davlat Dumasiga saylanadigan vakillarimiz: "himmatlik, g'ayratlik, diyonatlik, insoflik, millat foydasini o'z foydasidan afzal ko'radurg'on, millat uchun mol-jonin darig' tut-maydurg'on" chin vatanparvar bo'lishlari zarurligini alohida qayd etadi. Fansurullohbek xalq o'ziga munosib vakillarni saylashi uchun siyosiy bilimga ega bo'lishi, mamlakatning ichki va tashqi siyosati, xalqaro ahvol yuzasidan ma'lum bilimlarga ega bo'lishi, bu maqsadni amalga oshirishda "Xurshid" gazetasi savodxonlik maktabi, millat darsxonasi bo'lishiga e'tibor qaratgan. Publitsist sifatida u "Osiyo", "Shuhrat" gazetalarida ham faol ishtirok etgan. Afsuski, ijodkorning jurnalistik faoliyati hozirgi kungacha to'liq tadqiq etilmagan. Fansurullohbek nafaqat gazetalarga maqolalar bergan, shu bilan birga "gazeta va noshirlarni moddiy tomonlama qo'llab-quvvatlagan" (Ahmad, 2022). Fansurullohbekning jadid-chilik harakatlarida faol ishtiroki Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi rahbarlari yoqmaydi.

Rossiya ichki ishlar vazirligining politsiya departamenti 1907-yildan boshlab Turkistonda maxfiypolitsiya idorasini tash-kil etadi. Maqsad Turkistonda istiqlool uchun kurashayotgan yosh taraqqiyparvprlarni ro'yxatga olish edi. Ana shunday izquvarlar-dan biri podpolkovnik Vasilev Munavvarqori Abdurashidxonov va Fansurullohbek Xudoyorxonovni xavfli shaxs sifatida ro'yx-atga oladi (Umarov, 2016). Jumladan, shunday ma'lumot bera-di: "Fansurullobek Xudoyorxonov (uning ism-sharifi hujjatlarda

shunday bo'lgan) shubhali qarashlari uchun Turkistondan chiqib ketishga majbur qilingan Furqatning muxlisi, u bilan Toshkentdiligida bir necha bor uyida, keyin Jo'rabekning Qorasuvdagi bog'ida suhbatlar qurgan. Turkiston istiqlolini istaydigan shaxslar bilan bordi-keldi qiladi. Jadid matbuotida shoir va jurnalist sifatida qatnashib keladi. Yoshi 35-40 larda, tarbiyali, ma'lumotli shahzodalarga xos nazokatli. Ruscha gapiradi va yoza oladi, dunyoqarashi inqilobiy. Bir o'g'il va ikki qizi bor". Manbashunos Sharif Yusupovning yozishicha, Fansurullobek madrasada aruz ilmini chuqur o'rganadi va sobiq xonning farzandlari orasida yagona shoir bo'lib yetishib chiqadi. Fansurullobekning g'azal va muxammaslari XIX asr oxiri, XX asr boshlarida tartib berilgan qo'lyozma va toshbosma bayozlarda tez-tez uchrab turadi. Fansurullobek Xisrav taxallusi bilan ijod qilgan (Yusupov, 1995). 1929-yilda Fansurullobekning yaqin maslakdoshi Munavvarqori davlat xavfsizlik xizmati tomonidan hibsga olinadi. 1930-yilda esa sovet manfur ayg'oqchilari uni ham millatchi va josuslikda ayblab, qamoqqa olishadi. 1931-yilda Munavvarqori otib tashlangach, Fansurullobek ham Toshkent turmasida vafot etadi. "Sobiq Qo'qon xoni Xudoyorxonning suyukli ayoli malika Ma'sudaxon (Og'acha)oyimdan dunyoga kelgan shahzoda Fansurullohbekning jasadi turma xodimlari tomonidan o'sha yerga ko'mib yuboriladi" (Umarov, 2016). O'z davrining ziyoli, ma'rifatparvar jadid taraqqiyparvari Sayyid Muhammad Fansurullohbek Xudoyorxon o'g'lining hayoti garchi fojeali yakun topgan bo'lsa-da, ammo uning millat taraqqiyoti va ozodligi yo'lida qilgan xayrli ishlari, milliy matbuotimiz rivojiga qo'shgan publitsistik merosi munosib baholanishga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Do'stqorayev, B. (2009). O'zbekiston jurnalistikasi tarixi, Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.

Umarov, Sh. (2016). Xudoyorxon avlodlari tarixi. Toshkent: Adabiyot uchqunlari.

Ahmad, Sirojiddin. (2022). Katta qirg'in qomusi. Toshkent: Info Capital Books.

Yusupov, Sh. (1995). Xudoyorxon va Furqat. Toshkent: Sharq nashriyoti.

"Xurshid" gazetasi (1906).

Muallif haqida:

HALIMOVA Sayyora Abduraximovna – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

JADID ENLIGHTENER SAYYID MUHAMMAD
FANSURULLOHBK, SON OF KHUDOYORKHON

Abstract: This article examines the activities of Sayyid Muhammad Fansurullohbek Khudoyorkhon ogli, one of the progressive representatives of the Jadid movement that played an important role in the socio-political life of Turkestan at the beginning of the 20th century. His significant contribution to the development of education and the national press is studied.

Keywords: Jadid, education, school, newspaper, Tsarist government, music, Khisrav, Murshid, Russian-native

About the author:

HALIMOVA Sayyora Abduraximovna — Associate Professor of the Department of Theory and Practice of Media, University of Journalism and Mass Communications, Candidate of philology

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – BUYUK TARIXIY
SHAXS (BEHBUDIYNING SIYOSIY VA IJTIMOYIY
QARASHLARI)

Qahramon Rajabov,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschisi, taniqli davlat va siyosat arbobi, yozuvchi va noshir Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosiy va ijtimoiy faoliyati tadqiq etiladi. Unda mashhur mutafakkir Behbudiyning Turkiston tarixidagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: muftiy, sayohat, xotiralar, jadid maktablari, noshir, “Oyina” jurnali, Haj ziyorati, taraqqiyparvarlar

Turkiston tarixida ulug‘ siymolar ko‘p o‘tgan. Davlat arboblari, hukmdorlar, vazirlar va harbiy qo‘mondonlar, shoirlar, adiblar va olimlar tariximizda o‘zlaridan o‘chmas iz qoldirgan. Ana shunday mashhur shaxslar silsilasida Turkiston taraqqiyparvarlari va qo‘rboshilari muhim o‘rin tutadi. Turkistondagi jadid taraqqiyparvarlari o‘rtasida XIX asr so‘nggi choragi va XX asr birinchi choragida faoliyat ko‘rsatgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919)ning o‘rni va mavqei bo‘lakcha.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 3-yanvardagi “Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo‘ja Behbudiyning 150 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori Yangi O‘zbekiston siyosiy va ijtimoiy hayotida katta voqea bo‘ldi. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida butun mamlakatimizda 2025-yil yanvar oyida ko‘plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur anjuman ham jadid bobolarimiz sardori Mahmudxo‘ja Behbudiyning

ulug' to'ylarini nishonlash maqsadida qiliniyotgan katta ishlar yo'lidagi bir debocha bo'lib xizmat qilmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda (ba'zi manbalarda: 1874-yil 30-yanvarda) Samarqand shahrining Yomina mahallasida (ba'zi manbalarda: Samarqand uyezdi Siyohiob volostidagi Baxshitepa qishlog'ida) tavallud topgan. Amir Shohmurod davrida uning ajdodlari Buxoroga taklif qilingan va ular Samarqand qolib ketishgan. Behbudiyning ajdodlari Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lgan. Otasi Sultonxo'ja Behbudiy mahalla masjidida imom-xatib bo'lib ishlagan, qori ham bo'lgan. Ona tomondan ajdodlari Urganchdan bu yerga kelib qolgan edi. Mahmudxo'ja Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgach, Chashmaiob volostida qozilik qilayotgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida o'zining mehnat faoliyatini boshlaydi. Mirza va qozilik bilan shug'ullanadi, so'ngra Jomboyda muftilik qilgan (Behbudiy, 2018).

Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yilda uylanib, 4 nafar o'g'il va 1 nafar qiz ko'rgan. Uning Kabut volostida 10 desyatina yeri bo'lgan. Behbudiy o'ziga to'q va badavlat kishi edi.

Behbudiy Makka va Madinada muborak Haj safarida bo'lgan chog'ida Hijoz, Misr, Usmonli turk sultonligini kezib chiqqan (1899-1900). U 1914-yili ikkinchi marta Haj safarida bo'ldi. Odessa, Istanbul, Quddus, Shom va boshqa shaharlarda turib, o'z sayohati xotiralarini Samarqandda tashkil qilgan "Oyina" jurnali tahririyatiga jo'natib turgan. Bu safarlar Behbudiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir qilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida vujudga kelgan jadidchilik harakatiga Mahmudxo'ja Behbudiy asos soldi. U Samarqandda dastlabki yangi usul (jadid) maktablari ochilishiga rahbarlik qildi, bu maktablar uchun turli darsliklar yozdi. Dastlabki o'zbek dramasi – "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" nomli birinchi milliy fojiani 1911-yilda yozib, uni Samarqandda ilk marta 1914-yil 25-yanvarda sahnaga qo'ydirdi (Behbudiy, 2018). Behbudiy 1913-yildan Samarqandda o'zbek va tojik tillarida "Samarqand" gazetasini chiqardi, 1913-1915 yillarda o'zbekcha "Oyina" jurnaliga asos soldi (Rajabov, 2024). Samarqandda "Behbudiya" kutubxonasini tashkil qildi, zamonaviy bosmaxona ochib, unda kitoblar, jurnallar va gazetalar chop qildirdi (Karimov, 2022).

Behbudiy Rossiya imperiyasida yashovchi musulmonlar va turkiy xalqlar manfaati uchun izchil kurashdi. Nijniy Novgorodda 1906-yili o'tkazilgan Rossiya musulmonlari s'yezdida qatnashdi. Fevral inqilobidan so'ng Turkistonda boshlangan muxtoriyatchilik harakatining peshqadam rahbarlaridan biriga aylandi. 1917-yili o'tkazilgan Butunturkiston musulmonlarining barcha to'rtala qurultoylarida faol qatnashdi (Rajabov, 2024). Ulamolar bilan

qattiq bahsga kirishib, jadid taraqqiyparvarlari manfaatini himoya qildi. 1917-yili Samarqandda Fitrat va boshqalar bilan birgalikda “Hurriyat” gazetasiga asos soldi. “Haq olinur, berilmas” (“Hurriyat” gazetasi, 1917-yil 13-iyul) maqolasida mustaqillikni faqat qurol olib qo‘lga kiritish mumkinligini ta’kidladi (Behbudiy, 2018).

Qo‘qon shahrida 1917-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida faol qatnashdi. Qurultoyda u Turkiston Milliy Majlisi a‘zosi qilib saylandi, biroq hukumat tarkibiga kiritilmadi (Rajabov, 2024). Behbudiy “Turkiston Muxtoriyati” nomli maqola yozib, uni “Hurriyat” gazetasida 1917-yil 19 va 22-dekabrda e‘lon qildirdi (Behbudiy, 2018).

Behbudiy “Qozoq qarindoshlarimizg‘a ochiq xat” (“Hurriyat” gazetasi, 1918-yil 26-yanvar) nomli maqolasida turli ixtiloflar qilayotgan qozoq birodarlarimizni birlikka chaqiradi (Behbudiy, 2018). Biroq Behbudiyning bunday keskin, ammo adolatli e‘tirozlari 1917-1918 yillardagi inqilobiy to‘s-to‘polonlar jarayonida inobatga olinmadi.

Behbudiyning o‘zi ham 1918-yil bahoridan boshlab sovet hokimiyati bilan hamkorlik qila boshladi. U 1918-1919 yillarda Samarqand shahar maorif xalq komissari vazifasida ishladi, ocharchilikka qarshi kurash qo‘mitasida faoliyat ko‘rsatdi.

Behbudiy bir tomondan sovet idoralarida faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lishiga qaramasdan, ikkinchi tomondan aksilsovet xususiyatga ega turli yashirin milliy siyosiy tashkilotlarda qatnashayotgan, ayrimlarini esa o‘zi tuzgan edi. Ana shunday tashkilotlardan biri Toshkentdagi “Milliy Ittihad” tashkiloti bo‘ladi. “Milliy Ittihad” topshirig‘i bilan Behbudiy sovet Rossiyasiga qarshi kurashish uchun xalqaro jamoatchilikdan yordam so‘rash maqsadida Boku orqali Istanbulga (ba‘zi manbalarda Fransiyaga) yuborishga qaror qilingan. Biroq bu niyat o‘ta maxfiy tutilgan.

1919-yil 25-martda uchinchi marta Haj safariga borish bahonasi bilan Toshkent va Samarqanddan yo‘lga chiqqan Behbudiy hamda sheriklari Mulla Mardonquli Shohmuhammad o‘g‘li va Muhammadqul O‘rinboy o‘g‘li Buxoro amirligi hududida, ya‘ni Shahrisabzda qo‘lga olinib, keyinchalik Qarshi shahriga olib kelindi hamda bu yerda maxfiy ravishda o‘ldirildi. Behbudiy va harohlari fojiasi haqidagi bu xabar oradan bir yildan ziyod vaqt o‘tgandan keyin Samarqandga yetib bordi va Turkiston jamoatchiligiga ma‘lum bo‘ldi. O‘sha paytda o‘lim tafsilotlari ozgina ochiqlandi, keyinchalik u turlicha talqin qilindi. Bolsheviklar Buxoro amirligini ag‘darib tashlash arafasida va undan keyin dastlabki yillarda Behbudiyning qotili Amir Said Olimxon degan uydirmanini propaganda qilib, bu fikrga hammani ishontirdi va boshqa jadidlarni ham o‘z tomoniga og‘dirib oldi.

Biroq Behbudiyning haqiqiy qotillari kim bo'lganligi (Buxoro amiri yoki Turkistondagi sovet hokimiyati rahbarlari) hozirgacha to'liq oydinlashtirilmagan yoxud o'z isbotini topmagan.

Mahmudxo'ja Behbudiyning Turkiston tarixidagi buyuk tarixiy shaxs ekanligi quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

1. Mahmudxo'ja Behbudi Turkistondagi jadidchilik harakatiga asos soldi. Bu ulug'vor vazifani uddalash uchun chuqur bilim va kuchli tafakkurga ega, keng dunyoqarash sohibi, ham islomiy ilmlar, ham zamonaviy ilm-fanni chuqur egallash hamda katta siyosiy tajriba va mahorat talab qilinardi. U Turkiston taraqqiyparvarlarining Rossiya imperiyasiga qarshi milliy mustaqilliy uchun olib borayotgan kurashining g'oyaviy ilhomchisi va rahnamosi edi.

2. Ulug' mutafakkir va siyosiy arbob bo'lgan Behbudi "Turkiston madaniy muxtoriyati to'g'risida loyiha"ni tayyorlab, uni 1907-yil 24-aprelda Rossiya III Davlat dumasining Musulmonlar fraksiyasiga topshirdi. Behbudiyning bu loyihasi yaqinda Toshkentda professorlar Temur Xo'jao'g'li va Shamsiddin Kamoliddin tomonidan nashr qilindi (Behbudi, 2023). Keyinchali ham Behbudi Turkistondagi muxtoriyatchilik harakatining rahbarlaridan biri bo'ldi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, Turkistondagi jadidchilik harakati vujudga kelgan ilk davridan, ya'ni XX asr boshlaridan boshlab eng avvalo siyosiy talablarni qo'ygan muazzam bir siyosiy harakat edi.

3. Behbudi o'zbek adabiyotida yangi janr – dramaturgiyaga asos solib, 1911-yili "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" nomli dastlabki o'zbek milliy fojiasini yozdi. Atigi 10-15 betlik sahna asarida millatning yuz yillar davomida chekkan mashaqqatlari va mustamlakachilar zulmi bilimsizlik natijasida ro'y berganligi qisqa va lo'nda tarzda ochib berilgan.

4. Buyuk ma'rifatparvar bo'lgan Behbudi o'zbek jurnalistikasining asoschilaridan biri ham hisoblanadi. XX asr boshlarida Turkiston jadidlari tomonidan tashkil qilingan jadid gazetalari va jurnallari nashr etish hamda jadid maktablari ochishda ham u faol qatnashdi. Behbudi 1913-yili Samarqandda dastlabki o'zbek jurnali – "Oyina" jurnali hamda "Samarqand" gazetasiga asos soldi. Bundan tashqari u noshir va muharrir sifatida ham katta ishlarni amalga oshirdi.

5. Mahmudxo'ja Behbudi 1917-yilda kechgan siyosiy jarayonlarda faol qatnashib, Turkistondagi muxtoriyatchilik harakatining darg'alaridan biri bo'ldi. U Turkiston Muxtoriyatini e'lon qigan Butunturkiston musulmonlari IV qurultoyini tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashdi. Biroq taqdir taqozosi bilan u Turkiston Millat Majlisi a'zosi bo'lgan bo'lsa ham muxtoriyat hukumati tarkibiga kiritilmadi.

6. Behbudi Buxoro amirligida demokratik islohotlar o'tkazish, amirlik hokimiyatini bolsheviklar yordamida ag'darish

tarafdori bo'lgan Yosh buxoroliklar firqasi yetakchilari (Fitrat, Ayniy, Fayzulla Xo'jayev va b.) bilan yaqin hamkorlik qilgan. Behbudiyning Buxoro taraqqiyparvarlariga munosabati, Behbudiylar bilan bolsheviklar hamda Amir Said Olimxon o'rtasida kechgan aloqalar hamda ziddiyatli jarayon hozirgacha to'liq tadqiq etilmagan. Muammoning bu jihatlari kelgusida o'zbekistonlik bo'lajak behbudiyshunoslar va yosh tadqiqotchilar tomonidan jiddiy o'rganiladi degan umiddamiz.

Buxoroda amirlik hokimiyati ag'darilgach, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatining qarori bilan 1923-yili Qarshi shahri va Qarshi viloyatiga (1925-yildan Qarshi uyezdiga) Behbudiylar nomi berildi. 1924-1925 yillarda Qashqadaryo viloyati (okrugi)da Behbudiylar uyezdi mavjud bo'ldi. Qarshi shahri 1923-1937 yillarda Behbudiylar nomi bilan atalgan.

Toshkentda 1997 va 1999-yillarda Behbudiyning bir jildlik, 2018-yilda ikki jildlik "Tanlangan asarlar" kitobi bosilib chiqqan. Akademik Naim Karimov tomonidan 2022-yili "Mahmudxo'ja Behbudiylar" risolasi e'lon qilindi (Karimov, 2022).

Milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shgan uchun Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiylar va Munavvar Qori Abdurashidxonov vafotidan so'ng "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi (2020 yil 30 sentyabr).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Behbudiylar, M. (2018). Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. I jild. So'zboshi muallifi, to'plab, izohlar va lug'at bilan nashrga tayyorlovchi: Sirojiddin Ahmad, Toshkent: Akademnashr. B. 512.

Ergashev Sh. (2015). Jahon tarixi. Yangi davr. 1800 – 1918 y. II qism. Toshkent: O'zbekiston. 568 b.

Karimov, N. (2022). Mahmudxo'ja Behbudiylar, Toshkent: Akademnashr. 320 b.

Rajabov, Q. (2024). O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Birinchi jild (1900-1939). Mas'ul muharrir: akademik Azamat Ziyo, Toshkent: Fan. 752 b.

Rajabov, Q., Amonova F., Qandov B. (2024). O'zbekiston tarixi, Toshkent: O'chun. 512 b.

Rajabov, Q. (2023). Turkiston Muxtoriyati tarixi, Toshkent: Fan. 256 b.

Rajabov, Q., Qandov, B. (2015). Jahon tarixidagi sulola va davlatlar: qisqacha siyosiy tarixi va muhim sanalari (1795 – 1960 y.). Uchta kitob. 2-kitob. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri, Toshkent: O'zbekiston. 288 b.

Rajabov, Q. (2002). Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi kurash: tarix haqiqati (1920 – 1924 y.), Toshkent: Ma'naviyat. 144 b.

O'zbekiston Milliy arxivi. (n.d.). 17-fond, 1-ro'yxat, 45-ish, 131-varaq.

Камолиддин, Ш.С. (2023). Махмудходжа Бехбуди. Проект куль-

турной автономии Туркестана. Введение, перевод и комментарии Ш.С. Камолиддина, транскрипция, словарь и факсимиле Тимура Коджаоглу, Ташкент: Фан зиёси. 340 с

Mualliflar haqida:

RAJABOV Qahramon Rajabovich — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor.

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY — A GREAT HISTORICAL FIGURE
(BEHBUDIY’S POLITICAL AND SOCIAL VIEWS)

Abstract: This article examines the political and social activities of Mahmudkhoja Behbudi, the founder of the Jadid movement in Turkestan, a prominent statesman and political figure, writer, and publisher. It reveals the role of the renowned thinker Behbudi in the history of Turkestan.

Keywords: mufti, travel, memoirs, Jadid schools, publisher, “Oyina” magazine, Hajj pilgrimage, progressives

About the Authors:

RAJABOV Qahramon Rajabovich — Chief Research Fellow at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences, Professor.

SHO‘RO MATBUOTI VA JADIDLAR

Nilufar Namazova 

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda sho‘ro matbuotining tashkil etilishi va rivojida jadidlar faoliyati haqida so‘z yuritilgan hamda bolsheviklarning yangi mafkura asosida matbuotni rivojlantirish yo‘lidagi harakatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jadid, sho‘ro, gazeta, matbuot, ishchi-dehqon, partiya, sotsializm

Turkistonda milliy matbuot asoschilari bo‘lgan jadidlar sho‘ro hokimiyati yillarida ham gazeta, jurnallarda faoliyat yuritishdi.

Bolsheviklar hokimiyatni egallagach, “1917-yil 27-oktyabrda Xalq Komissarlar Soveti matbuot to‘g‘risida V.I. Lenin imzosi bilan dekret qabul qildi. Dekret boy sinflarni “aql-fikrni bimalol zaharlash va omma ongiga g‘ulg‘ula solish” imkoniyatidan mahrum etdi” (Qoriniyozov, 1958). V.I.Leninning barcha “burjua xarakteridagi nashrlar”ni yopish to‘g‘risidagi mazkur dekretidan keyin Turkistondagi mahalliy ziyolilarning hamda Muvaqqat hukumatning nashrlari birin-ketin yopildi. Ularning o‘rniga yangi tipdagi bolshevistik matbuotni tashkil etish lozim edi. Turkistonda jadid ziyolilaridan boshqa matbuotda ishlaydigan “kuchlar” bo‘lmagani uchun bolsheviklar avvaldan

tajribaga ega jadid jurnalistlarini matbuot tashkil etishga jalb etadi. Dastlabki yillarda matbuotda ishlagan jadid ziyolilari o'z fikr va qarashlarini ochiq yoza olishdi. Lekin sho'ro hokimiyati mustahkalana borgach matbuot ham nazorat ostiga olinadi.

Sho'ro hokimiyati o'z kadrlarini yetishtirishga, ayniqsa, matbuot sohasida katta e'tibor qaratdi. Matbuot sotsializm qurilishida eng muhim vosita bo'lib xizmat qilishi uchun gazetani "xalqqa yaqinlashdirish", xalqni gazeta o'qishga o'rgatish lozim edi. Bunda birinchi o'rinda firqa, hukumat idoralarida ishlaydigan xodimlar gazeta ishiga jalb qilindi. 1920-yili matbuot xodimlarining birinchi syezdida: "Hamma joylarda firqa, kasaba soyuzlari va boshqa tashkilotlar hozirda adabiy kollegiyalarin vujudga ketur; markaz va mahallalarda bo'lg'on sho'rolar va firqa mas'ul xizmatchilarining g'azetalarga tartibli ravishda muxbirlar etib turug'a majbur etur, deb ko'rsatma berildi (Qizil bayroq, 1920).

Gazetalarda chop etilgan o'nlab maqolalar ikki masalaga: sotsializm qurilishiga ommani jalb qilish uchun matbuotni keng yoyish va bu maqsadga erishishda ishchi dehqon muxbirlari sonini katta armiya darajasiga yetkazish masalasiga bag'ishlandi.

RKP(b)ning 1923 yilda bo'lgan XII syezdi "Partiyaning sovet jurnalistikasi sohasidagi yangi kuchi ishchi muxbirlarning ahamiyati juda kattadir. Markazda va joylarda partiya tashkilotlari ishchi muxbirlarni siyosiy jihatdan o'qitish, ularni uyushtirish va umumxalq ishiga jalb qilish yuzasidan choralar ko'rishlari kerak" deb ko'rsatgan edi.

Turkistonda ham bu harakat boshlandi. Sho'ro, firqa qurultoylari va hukumat idoralarida chiqarilgan yo'riqnoma va qarorlar matbuotga xalqni jalb etish, gazetalarga yangi ishchi kuchlarini yetishtirish kabi masalalarni ko'tardi.

Matbuotning kamchiligi xalqdan uzoqligi, "xalq o'rtasida, ayniqsa, qishloqlarda oz tarqalishi, yerlik yoshlarning matbuot ishlariga sovuq qarashlari, gazetalarimizning mahallalar bilan yaxshi va kuchlik aloqa bog'lay olmasliqlaridir" deb tanqid qilindi (Nurmat, 1920).

Shu tariqa Turkistonda ishchi-dehqon muxbirlari harakati hukumatning qarorlari asosida yildan-yilga kuchayib bordi.

1924-yili sentyabr oyida o'zbek ishchi-dehqon muxbirlarining birinchi majlisi o'tkaziladi. Bu haqda "Turkiston" gazetasining 360-sonida "20-sentyabr qizil matbuotimiz uchun tarixiy kundir. Ishchi-dehqon muxbirlarining bir xabari boshqalarning maqolalaridan qimmat turadir" degan shior ostida maqolalar berilgan. "Tarixiy majlis" sarlavhali maqolada shunday bayonot beriladi: "O'tgan may oyidan buyon jiddiy choralar ko'rish natijasida butun O'rta Osiyoda muxbirlar sonini ko'paytirib, gazetani bir daraja mehnatkash ommasiga yaqinlashirib ham

uning bilan bir daraja bog'lay oldiq... 20 nchi sentabr kuni bizning uchun tarixiy kun edi. Biz bu kun yana bir qadam ilgari bosdik. Toshkand va yaqin atrofidagi ish-dehqon muxbirlarimizni to'plab ularni uyushdirishga, muxbirlar harakatining kelgusi vazifalarini belgilab jiddiy ishga boshlashga muvaffaq bo'ldik. "Turkiston" idorasi huzurida tuzilgan muxbirlar byurosi bundan keyin gazetaning hamma kamchiliklarini yo'qotish gazetani yana ham ommaga yaqinlashdirish yo'lida idora bilan birga qo'lg'a-qo'l ushlab ishga kirishdi (Nurmat, 1924).

O'zbekiston KP(b)ning 1925-yil mart oyida bo'lgan I syezdi "Matbuot sohasida" deb atalgan qarorida: "Matbuot organlarimizning qishloq va shaharning keng aholi ommasi bilan aloqa vositasi bo'lgan ishchi muxbirlari, dehqon muxbirlari va yoshlar muxbirlari shahobchalari izchil tashkil qilinib borilsin. Muxbirlar armiyasining madaniy-siyosiy saviyasi va obro'si oshirilsin", deb ko'rsatildi.

1925-yilda "Qizil O'zbekiston" redaksiyasida muxbirlarni tayyorlash uchun ruknlar ochildi. "Muxbirlarga tarbiya" nomli ruknda sentyabrdan boshlab bir oy ichida 15 ga yaqin maqola bosildi. Chunonchi gazeta 1925-yil "Ishchi muxbirlar harakati", "Muxbirlar qanday yo'llar bilan uyushadilar", "To'garaklar va byurolar", "Tarbiya uchun asosiy programma", "Kim qishloq muxbiri bo'la oladi?", "Samarqandda muxbirlar harakati", "Xabarni qanday yozish kerak?" sarlavhali maqolalar e'lon qilgan. Maqolalarda gazeta ishchi-qishloq muxbirlarining uyushmalarini tashkiliy jihatdan qanday tuzish, muxbirlarning yozish ko'nikmasini oshirish, muxbirning burchlarini tushuntirish hamda muxbirlar harakatining umumiy ahvolini aniqlash masalalariga bu davrda alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Kompartiyasining II syezdi (1925-yil, noyabr) matbuot organlarining "Ishchi-dehqon muxbirlari harakatini tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi ishlariga partiya rahbarligini kuchaytirish zarur" deb ta'kidladi.

Shunday qilib, 1925-yillardan muxbirlar harakatini o'lka bo'ylab yoyishga, 20-yillarning so'ngida esa muxbirlarning madaniy-siyosiy saviyasini ko'tarishga, "dushmanlar"ga qarshi kurashishga chaqiriqlar matbuot sahifalarini egalladi. Yilma-yil matbuotdan jadid ziyolilari siqib chiqarildi. Matbuot jadidlarni "ziyonlilar" deb qoraladi. Bu qatag'on siyosatini amalga oshirishda qo'l keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Matbuot xizmatchilari syezdida qabul etilgan qarorlar. (1920). Qizil bayroq. 21-dekabr soni.

Nurmat. (1924). Tarixiy majlis. Turkiston. 25-sentyabr soni.

Qoriniyozov, T.N. (1958). Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar, Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. B. 296.

Yerli matbuot. (1923). Turkiston. 5-may soni.

Mualliflar haqida:

NAMAZOVA Nilufar Kambarkulovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, n.nilufarxon@mail.ru

SOVIET PRESS AND JADIDS

Abstract: This article discusses the role of the Jadids in the establishment and development of the Soviet press in Turkestan, and analyzes the Bolsheviks' efforts to advance the press based on a new ideology.

Keywords: Jadid, Soviet, newspaper, press, worker-peasant, party, socialism

About the Authors:

NAMAZOVA Nilufar Kambarkulovna — Associate Professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences, n.nilufarxon@mail.ru

AVLONIYNING “AFG‘ON SAYOHATIDA”GI YEVROPALIK HARBIYLAR TURKISTONGA QAYERDAN KELGANDI?

Alijon Safarov,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Tadqiqotda Abdulla Avloniyning “Afg‘on sayohati” asarida yevropalik harbiy xizmatchilar, turk ofiserlari xususida ma'lumot berilishi bilan bog'liq masala o'rganiladi. Muallif avstriyalik, vengriyalik askarlar Turkistonga qayerdan kelib qolganligi, qizil armiya safida nega xizmat qilayotgani, turk ofiserlarining yurtimizda muddaosi nima ekanligi bilan bog'liq savollarni maqolada ilgari suradi. Mazkur kichik tadqiqot orqali o'z fikr va takliflarini beradi.

Kalit so'zlar: Turkiston, afg'on, harbiy asir, sho'ro, sayohat, milliy ozodlik

Abdulla Avloniyning “Afg‘on sayohati” asarida harbiy sohaga oid atamalar, harbiy xizmatchilar bilan bog'liq faktlar, misollar keltiriladi. “Voyenni attashe”, “harbiy qo'misar”, “qizil askarlar”, “afg'on askari”, “boyevoy poyezd — harb otash arobasi”, “zobit”,

“urush”, “harb”, “pulemyot”, “bo‘mbamyot”, “muhoraba”, “voyennuy gubernator”, “miltiq” kabi atamalar shular sirasidan. Tabiiyki, Afg‘onistonga safar qilinganda xavfsizlik nuqtai nazaridan delegatsiya a‘zolarini harbiy xizmatchilar muhofaza qilib borishadi. Bu tafsilotlarni asarni o‘qigan mushtariy o‘zi anglab oladi. E‘tiborimizni tortgan masala asarda yevropalik harbiy xizmatchilar xususida ham ma‘lumot berilishi bilan bog‘liq. Sayohatnomaning aynan o‘sha joylarini ajratib oldik: “Bizim kayutamizda bizlardan boshqa to‘rt rus, avstriya(li), arman o‘rtoqlar-da bor edilar. Bunlarning hammalari angliski besh otar miltiqlar ila qurollangan edilar”, “Birdan (bir) bizim kayutaning tepasida otishub turgon avstriya(li)ga o‘q tegub”, “Bizning ila birga ketayotgan avstriya(li) do‘qturimizda hech nimarsani(ng) bilmaydirgon, vaqt g‘animatda o‘zining nomin do‘qtur qo‘yub olgon bir kishi ekan”, “Bizim bu ikki paroxo‘dimizda bir to‘p, bir pulemyot, bir bo‘mbamyot, yuz kishi internasional Avstriya — Major askarlardan” (Abdulla Avloniy. Afg‘on sayohati) Sayohatnomada yevropalik askarlar haqida yetarlicha ma‘lumot uchramagani bizni o‘ylantirdi. Xo‘sh, avstriyalik, vengriyalik (major) askarlar Turkistonga qayerdan kelib qoldi? Nega qizil askarlar safida yevropalik harbiylar bor? Yana bir jumboq “Toshkanda muallimlik vazifasida ko‘p vaqtdan beri xidmati ila tanilgon uch turk zobit(lar)ining qo‘lg‘a tushub turmada yotganliklarin xabarin manga erishdirdilar” degan jummalarni o‘qigach paydo bo‘ldi. Turk ofiserlari qayerdan kelib qoldi? Bu ikki masalaga tadqiqotimiz davomida javob topishga harakat qilamiz.

Bizning qiziqtirgan birinchi masalada kalava uchi SSSRning Markaziy statistika boshqarmasi harbiy statistika bo‘limi tomonidan tayyorlangan «Россия в первой мировой войне 1914–1918 гг. (в цифрах)» (1925) nomli to‘plamdan topildi. “Rossiya ichki hududlaridagi harbiy okruglardagi xorijiy harbiy asirlar soni” deb nomlangan 31-jadvalda Turkiston bilan bog‘liq ma‘lumotlar savol yechimiga ilk qadam bo‘ldi. Hujjatda yozilishicha, birinchi jahon urushida Turkistonga keltirilgan harbiy asirlarning 1764 nafari ofiser, 39521 nafari esa oddiy askar bo‘lgan. Jami 41285 nafar harbiy asir Turkistonga olib kelingan. Harbiy asirlar orasidagi ofiserlarning 1714 nafari avstriyalik, 50 nafari germaniyalik, oddiy askarlarning esa 36006 nafari avstriyalik, 3515 nafari esa germaniyalik bo‘lgan. Turkistonga keltirilgan harbiy asirlarni asosan Avstriya va Germaniya armiyasiga qarashli harbiy xizmatchilar tashkil etgan. Bunda turli millat vakillari bo‘lishi mumkinligini ham inobatga olish zarur. Masalan, Germaniya armiyasiga qarashli harbiy asirlarning hammasi ham nemis millatiga mansub bo‘lmagan. Qizig‘i shundaki, jadvalda asirlar orasida Turkiya va Bolgariya armiyasining harbiy xizmatchilari ham ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq

ulardan birontasi Turkistonga yuborilmagan. Nazarimda turk va bulg'orlarning Turkiston xalqlariga hayrihohlik bildirib, mahalliy aholi bilan birlashib, sho'rolarning o'ziga qarshi chiqishidan hayiqishgan.

Jadvaldagi ma'lumotlarda qayd etilishicha, Turkistondagi Avstriya va Germaniya armiyasiga qarashli harbiy asir askarlarning 23587 nafari qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etiladi. Xususan, germaniyalik askarlardan 1831 nafari, avstriyalik askarlarning esa 21756 nafari qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etiladi. Avstriya armiyasidan 200, Germaniya armiyasidan 4 nafar ofiser qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etiladi. Chor Rossiyasi xomashyo manbaiga aylantirgan Turkistonda harbiy asirlarning tekin ishchi kuchidan unumli foydalanadi.

I. Sologubovning «Иностранные коммунисты в Туркестане, 1918-1921 гг» kitobida keltirilishicha, 1919 yilning oxirida Turkistondagi Qizil armiya qismlarida 4 ming, o'lka xalq xo'jaligida esa 22 mingga yaqin baynalmilalchilar faoliyat olib borgan (Сологубов, 1961).

Boshqa hududga ko'chish, o'zboshimchalik bilan Rossiyaga ketish, yaradorlik va xastalikdan vafot etish kabi omillar sabab 1918-yilning o'rtalariga kelib Turkistonda 32 ming, shu jumladan Toshkentda 11 mingga yaqin harbiy asir qoladi (1931).

Oktyabr to'ntarishidan keyin harbiy asirlar lager rejimidan ozod qilinadi, erkinlikni qo'lga kiritishadi. Ularning ayrimlari hatto xonadonlarga ko'chib o'tishadi. Turkistondagi sovet hukumati byudjet bilan bog'liq muammoga qaramasdan harbiy asirlarning yashashi va oziqlanishi uchun mablag' ajratishda davom etadi (Брун, 1931). Bundan sho'rolarning ko'zlangan maqsadi bor edimi? Xiyonat, aldov, zulm, istibdod asosiga qurilgan tuzum moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida harbiy asirlarning boshini nima uchun silashga qaror qildi?

Tarixiy haqiqatlar zahirida bu savollarga javob ko'p. Masalan, aynan harbiy asirlar yordamida sho'rolar Turkistonda ko'plab xunrezlikni amalga oshirishadi. F.Vilfortning yozishicha, 1917 yilning oktyabr oyi oxirida Toshkentda muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi qo'shinlariga qarshi kurashda avstro-venger harbiy asirlari qo'llaniladi (Willfort, 1930). "O'zbekistonning yangi tarixi" kitobida keltirilishicha, Turkiston muxtoriyatini qonga botirishda sovetlar dashnoqlar bilan birga avstro-venger harbiy asirlaridan ham foydalanishadi (Jurayev va b., 2000). Oktyabr to'ntarishidan keyin o'rnatilgan sovet hukumati harbiy asirlarga qo'shtirnoq ichida bo'lsa-da ozodlik bergani uning siyosatiga xayrihohlik paydo qiladi. Shu sababli hurriyatini qo'lga kiritgan harbiy asirlarning bir qismi sovet hokimiyatini xursandchilik bilan qarshilashadi. Ularning ayrimlari mahalliy aksilinqilobiy kuchlarga yaqinlashsa, muayyan qismi sho'rolar

tuzumidan umidvor edilar Masalan, Chimkentdagi nemis harbiy asiri Gans Syebrovsk “taqdirimiz O‘rta Osiyodagi mehnatkashlar taqdiri bilan mahkam bog‘langan. Ularning g‘alabasigina bizga erkinlik olib kelishi mumkin” deydi (1964). Sho‘rolar targ‘iboti bilan zaharlangan shu kabi harbiy asirlar Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilishi yo‘lida kurashga kirishadi. “Интернационалисты. Трудящиеся зарубежных стран — участники борьбы за власть советов” kitobida keltirilishicha, 1917-yilning oxiri va 1918-yilning boshlarida Shvesiyaning Qizil Xoch tashkiloti, mahalliy tashkilotlar vakillarining qarshiligiga qaramay qizil gvardiyaning Samarqand, Yangi Buxoro (Kogon), Skobelev (Farg‘ona), Qo‘qon, Chorjo‘y, Petro-Aleksandrovsk (To‘rtko‘l), Vernogo (Olmaota), Pishpek (Frunze) va boshqa shahar, posyolkalardagi otryadlari tarkibiga harbiy asirlardan iborat o‘nlab ko‘ngillilar kiradi (1967). Keltirilgan bu faktlarga asoslanib aytish mumkinki, Avloniy eslatgan qizil askarlar tarkibidagi yevropalik harbiylar Turkistonga birinchi jahon urushidan keltirilgan asirlar hisoblanadi.

Harbiy statistika bo‘limi ma’lumotiga muvofiq turkiyalik harbiy asirlar 3065 nafar bo‘lib, Moskva, Qozon, Irkutsk, Priamurskiy, Omskka yuboriladi. Turkistondagi turkiyalik harbiy asirlar masalasiga javobni Rustam Sharipovning o‘quv qo‘llanmasidan topdik (Sharipov, 2002). Birinchi jahon urushi yillarida Kavkazortida asir tushgan turk ofiserlaridan biri Roji Chaqiruzning esdaliklariga asoslanib olim masalaga oydinlik kiritadi. Ma’lum bo‘lishicha, turk ofiserining esdaliklari jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri bo‘lgan Usmon Xo‘janing o‘g‘li Temirxo‘ja tomonidan yozib olinib, “Turk dunyosi tarixi” jurnalining 1987-yil 1-12-sonlarida e‘lon qilingan. Maqolada keltirilishicha, 1914-1923 yillarda turk zobitlari kichik-kichik guruh bo‘lib, to‘rt marotaba Turkistonga kelishadi. Olim bu turk birodarlarimizning Turkistonda maorif va madaniyatning jonlanishi, ziyolilar avlodining shakllanishida muhim hissa qo‘shganini ta’kidlaydi. Xususan turk ofiserlari jadidlar ochgan yangi usul maktablarida saboq berishgan, “Turk kuchi” guruhini tuzishgan. Abdulla Avloniyning sayohatnomasida Toshkentda muallimlik qilayotgan uch turk zobitining hibsda ushlanayotgani haqidagi ma’lumoti ortidan tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga harakat qildik.

Mazkur muammo yuzasidan quyidagi takliflarni bildirib o‘tmoqchimiz:

Turkistonda milliy ozodlik harakatini bostirishda sho‘rolar tomonidan harbiy asirlardan foydalanishning tarixiy, ijtimoiy-siyosiy aspektlarini chuqur o‘rganish;

Turkistonda harbiy asirlar lager rejimi tashkil etilgan hududlar geografiyasini ishlab chiqish;

harbiy asirlarning Turkistonga assimilyasiya bo'lishi jarayonini tadqiq etish;

Turkistonda qizil armiya safidagi harbiy asirlarning mahalliy tillarida chop etilgan nashrlarni o'rganish;

harbiy asirlarning, xususan turkiyalik harbiy asirlarning Turkistondagi jadidchilik harakatidagi o'rnini chuqur o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Avloniy, Abdulla. (1919). Afg'on sayohati. e-tarix.uz. URL: <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/maqolalar/217-afgon-sayohati.html>

Jo'rayev, M. Nurullin, R. Kamolov S. va boshq. (2000). O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida, Toshkent: Sharq. B. 688.

Sharipov, R. (2002). Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, Toshkent: O'qituvchi. B. 175.

Brun, A. (1931). Troublesomes Times. London, P. 169.

Willfort, F. (1930). Turkestanisches Tagebuch Sechs Jahre in Russischen Zentralasien. Wien, P. 116-119.

Брун, А. (1931). Указ. соч., стр. 180 и др. За Советский Туркестан, С. 333.

Манусевич и др. (1967). Интернационалисты. Трудящиеся зарубежных стран – участники борьбы за власть Советов. Том 1, 2, Москва: Наука. URL: <https://internacionalisty.blogspot.com/2014/06/7-2.html>

Поворот мирового значения: воспоминания немцев-участников Великой Октябрьской соц. революции и борьбы против интервентов и контрреволюционеров в 1917–1920 гг. (1964). Сборник. Пер. с нем, Москва: Прогресс, 232 с.

Россия в первой мировой войне 1914—1918 гг. (1925), Москва, С. 40.

Сологубов, И.С. (1961). Иностранцы коммунисты в Туркестане, 1918-1921 гг. Ташкент: Госиздат Узбекской ССР, С. 177.

СГА УзССР, ф. Р-25, он. 1, д. 18, л. 38, 39; ГАТО, ф. 10, оп. 13, д. 37. лл. 122, 123; Центральный государственный архив Советской Армии (далее – СГАСА), ф. 25859, оп. 3, д. 33, лл. 229, 272, 351.

СГА УзССР, ф. Р-25, он. 1, д. 51, лл. 63, 66, 79; д. 182, лл. 16, 17, 19; А.

Mualliflar haqida:

SAFAROV Alijon Itolmasovich — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Harbiy va sport jurnalistikasi kafedrası mudiri, dotsenti, filologiya fanlari nomzodi, alijons1672@gmail.com

WHERE DID THE EUROPEAN MILITARY PERSONNEL IN AVLONIY'S "AFGHAN JOURNEY" COME FROM TO TURKESTAN?

Abstract: This study examines the information provided about European military personnel and Turkish officers in Abdulla Avloniy's work "Afghan Journey." The author raises questions about how Austrian and Hungarian soldiers ended up in Turkestan, why they were serving in the Red Army, and what the Turkish officers' intentions were in our country. Through this small-scale research, the author presents his thoughts and suggestions. Bolsheviks' efforts to advance the press based on a new ideology.

Keywords: Turkestan, Afghan, prisoner of war, Soviet, journey, national liberation

About the Authors:

SAFAROV Alijon Itolmasovich — Head of the Department of Military and Sports Journalism, Associate Professor, Candidate of Philological Sciences at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan. Email: alijons1672@gmail.com

SHERALI TURDIEV'S RESEARCH: OUR COMPATRIOTS IN GERMANY PRESS IN THE OF XX CENTURY

Hulkar Turdieva,
Alfgraganus University Foreign Philology department

Abstract: This study explores the activities of Uzbek students in Germany during the early 20th century, focusing on their involvement in the Uzbek press through journals such as "Komak" and "Young Turkestan." Drawing on Sherali Turdiev's book, "They Studied in Germany," and unpublished archival materials, the research highlights the contributions of students like Ahmad Shukri, Saidalihoja, and others who were sent to Germany by reformists from Turkestan and Bukhara. These students established their own journals, expressing themes of freedom, national pride, and the need for scientific and cultural advancement. Their poems, articles, and letters, some translated into English, reveal their aspirations and dedication to Turkestan's progress.

Kalit so'zlar: Enlighteners, Germany, Press, Journals "Komak", "Young Turkestan"

Factual information is based on Sherali Turdiev's book "They studied in Germany" and his own unpublished archive materials. In the early 1920s, students from Bukhara and Turkestan who were sent to study in Germany published their scientific and literary journal "Komak" (Help) in 1923. They actively contributed with their own scientific and journalistic articles and poems. By the late

1920s, most of them returned to Uzbekistan after completing their studies and began working under the conditions of the totalitarian regime in their homeland. However, some chose to remain in Germany. Graduates of the program resided in cities like Istanbul, Ankara, Berlin, and Paris, where they established connections with leaders of the Turkestan national independence movement, including Mustafa Chokaev, Osmankhoja Oglu, Akhmad Zaki Validii Togon, and others. They wrote articles in foreign press outlets, shedding light on Central Asian history, culture, and the conditions of the people during the period of Soviet colonization. Unsatisfied with these efforts, they planned to publish a dedicated journal to advocate for the independence of Turkestan.

In December 1929, Mustafa Chokaev published the first issue of the journal “Yosh Turkistan” (Young Turkestan) in the Uzbek language in Paris, with support from Poland's “Prometheus” organization, which championed the struggle for independence of Soviet colony peoples. Former students such as Tahir Chigatoy, Oktoy, and Ahmad Naim, who studied in Germany and did not return to Uzbekistan, actively contributed to the journal with their articles and poems. They regularly published works that exposed the historical past of Turkestan, the current socio-political situation, and the colonial policies of the Soviets.

We will delve into the work of these former students who participated in “Komak” journal.

“Komak” journal was published in Berlin in 1923 under the editorship of Saidalihoja, the leader of “Komak” association, who went to study in Germany. The main authors were students from Turkestan and Bukhara who also went to study in Germany. They actively contributed to the journal with their poems and articles, aligning with the main goals and tasks they had set for themselves. The main article, titled “Tilagimiz” (Our wish), was published in the first issue of the journal and is particularly noteworthy. It reflects the sincere attitude of the students studying in Germany towards European sciences, their lofty dreams and hopes, their aspirations, and their intense love for their motherland and people. Here some lines from that article:

“Rejoicing and striving for the light, Turkestan sent us to Europe with great hope for the future, despite the lack of scientific fields. Turkestan aimed for integrity rather than favoritism, and it succeeded. We are determined not to be disconnected from serving our beloved Turkestan during our years of studying in Europe. We will give our best efforts towards this goal. It is important to note that these ideas were not solely our own. High school students from every nation, regardless of their location, work diligently for their countries in scientific and social endeavors.

Our work is a contribution to the future of science. Therefore,

we will continue to give our best, even if it may seem late or insignificant. We hope that our actions reflect the burning desire to serve our Turkestan, which we sent off with great hopes.

We will spread this journal to the people, just as an ant brings a gnat to Solomon's feet. We say that this may not be perfect, but it belongs to your children. Please accept it, fix any flaws, address any shortcomings, and support them.” (Komak, 1923)

A number of interesting articles, poems, and letters were published on socio-political life, science and technology problems, as well as literature and art issues in the pages of “Komak”. These were mainly written by students such as Saidalihoja, Ahmad Shukri, A.Ibrohimov, and S.Jabbar, who studied at Berlin and Heidelberg universities and higher technical schools. They expressed their thoughts about the surprising progress, the reasons for the arrival of many students from countries like Japan, China, India, Turkey, Iran, and the instructive aspects of this process for the economic and cultural perspective of Turkestan. They conveyed their thoughts and feelings in a poetic way or through letters.

For example, Saidalihoja, a student of the Higher Technical School in Berlin, wrote in his articles (such as “Mind and Intuition”, “Brain and Heart”): “In the development of society, a person should be comprehensively developed, with the mind and heart working in a harmonious relationship. Only those who have a strong interrelationship between the mind and heart can begin to perfect the human world.” He exposed facts such as cruelty and evil in some politicians who were heartless and insensitive through events describing the tyranny of sovereign kings and emirs in Russia and the East. He analyzed important issues based on concrete facts, such as unnecessary bloodshed in World War I, the destruction of people's property, villages, and cities, and the waste of billions of hard-earned money (“Trafficking in human blood in America”). He made the following points: Europe took advantage of Asia's indifferent attitude towards its own wealthy historical, cultural, and spiritual traditions. The European colonizers carried out a colonial policy against the peoples living in the East. Japan realized the colonizers' aims earlier and attempted to surpass Europe in development. China and India took inspiration from Japan and fought for freedom against British colonization. The intelligent and knowledgeable scholars, scientists, and writers appeared who were frightening to the crucial invaders.

At the same time, the author writes: “Currently, there is no country in Asia that does not have students in Europe! Each Asian country is giving the greatest importance to educate their youth in Europe as much as they can afford. States are sending their young people to European educational establishments in varying numbers based on their affordability. Today in Germany,

there are students from Japan, China, India, Iran, Turkey, Bukhara, Turkestan, The Caucasus, Kyrgyzstan, and Tatarstan.

European scientists and philosophers now argue that Europe is on the decline, while Asia will rise again. In this context, a Tatar individual with limited understanding of the situation has argued against students from Turkestan and Tatarstan studying in Europe. One Asian person is jealous of the other Asian person. If other Asian people hear this, how would they react to this mistaken thought?! Here we can feel that one Asian person offended another Asian human. He said: "The young people who studied in Europe will never work for communism and they will not be of any use to the government."

Perhaps our Tatar brother tried to ingratiate himself with the officials of the previous government (not communists) through this article?! Maybe this article pleased the Tsar nationalists greatly. While thousands of students from Japan, India, China, Iran, and Turkey are coming to Germany to study, do you feel envious when you see only a few of our young people pursuing education? Please, take a moment to think deeply. If you care for your people and your nation, guide them towards enlightenment! Step out of the darkness! Currently, there are very few students from our homeland studying abroad. We should send more students overseas for education. Please address this issue." (Saidalikhodja, 1923)

Ahmad Shukri, a student at the History and Philosophy faculty of Berlin University, published literature-critical articles and letters in a belles-lettres style for various journals. In one such article titled "Idealism and realism in Turkic literature" (Turk adabiyotida idealizm va realizm), he conducted a comparative analysis between Huseyn Javid's drama "Sheykh San'an" from Azerbaijan and Fitrat's tragedy "Indian Revolutionaries." His conclusion was that Huseyn Javid portrayed idealism while Fitrat depicted realism. (The article "Indian Revolutionaries" was published in Berlin and spread to Turkestan, Turkey, and India.)

He mentioned that he studied of Shakespeare and Cholpon's lyricism comparatively and discovered a deep spiritual connection between them, noting the harmonious emotions present in their works. Ahmad Shukri praised Cholpon for his sincerity in writing, comparing it to Shakespeare's. Cholpon was celebrated as a creator of "Love," with his collection "Uyg'onish" (Waking Up) from 1929 being highlighted as an example. Shukri specifically mentioned Cholpon's poem "Ketganingda" (When You Have Left), which is filled with nostalgic emotions for the homeland and a beloved person:

Ketdingmi manguga tashlab, Qoldimmi qayg'ularim-la. Hijronning kuyini boshlab Yig'lovchi cholg'ularim-la? Sevgimdan so'nggi malaklar To'p-to'g'ri ko'kkami uchvdi? Ko'nnglimdan toza tilaklar Yovningmi bag'rig'a tushdi? Ortiq sen mendan uzoqda Ko'zlarni o'ynatasanmi? Ortiq sen boshqa buloqda Dillarni qaynatasanmi? Ortiq sen undagi bog'da, Ortiq men yakkami qoldim? Faryod yo'q... Barcha jahon jim, Yer yutsa yaxshi shu choqda!.. Ketdingmi sen meni tashlab? Qoldimmi qayg'umni boshlab?	Did you go, leaving me in eternity On myself I feel pity and pity Does melody of abandonment rise Together with my crying musical device The last angels of my love Did they fly directly to the sky? White, clean wishes of my heart Happened to be in enemy's hand. You are far away from me Will you blind me by your beauty You are already in another wellhead Will you give us extreme excitement You are already in that garden, Am I already lonely, all alone No wail... All the world is silent. I wish the Earth would swallow me Did you go, leaving me in a hollow Am I alone feeling my deep sorrow'
---	---

In his letter, Ahmad Shukri expressed happiness upon hearing positive news about his homeland and took pride in Germany's leading position in science, technology, and culture globally, not just in Europe. When he delved into the writings of German playwrights such as Schiller, he felt uplifted and captivated by the power of imagination, immersing himself so deeply that he lost track of time. He expressed his feelings that he had discovered a whole new realm of spirituality and he admired the high skill of the portrayal of historical events in German theaters as following:

"I was delighted to read your letters about our Motherland. You asked me, 'How is German culture?' Oh, my dear, I find it difficult to put into words the richness of Germany's developed culture. Germany deserves more than just simple praise. I believe that not only I, but also those more knowledgeable than me, struggle to fully describe German culture. German culture resonates with authenticity. When you read works by Schiller, you feel your spirit soar with joy. It transports you from the chaos of everyday life to a peaceful world of poetry and dreams.

In Hamburg, you'll see ships as large as mountains that have traveled thousands of miles across the water. Isn't that a remarkable truth? In the theaters, you can witness events from 5,000 years ago in Egypt. As you sit there, you forget everything, even yourself, becoming fully immersed in the performance. All the noise and commotion of daily life fade away. Isn't that progress? You board a train and within hours find yourself in a new place. It's rumored that German airplanes will soon fly to our Motherland as well.

German culture can be experienced in the air, on land, and in the water.

With love and kissing your eyes, Ahmad Shukri (1923). A student at the Faculty of History and Philosophy at the University of Berlin, Ahmad Shukri, likely attended a performance of the play “Qaroqchilar” (Gangsters) staged in Tashkent with the assistance of the poet Cholpon before departing for Germany. Furthermore, Ahmad Shukri’s article “Muslim Schools in Turkestan” (1922), published during those years, delves into figures of scientific, cultural, and socio-philosophical significance such as Ibn Sina, Ulughbek, Munawvar Qari, and Behbudi. In his writing, he draws comparisons between them and ancient as well as contemporary Russian, Tatar, and Western thinkers. Of particular note is the comparison he makes between M. Behbudi and the renowned German reformer Martin Luther, indicating his familiarity with both European and Eastern literature and history.)

Ahmadjon Ibrohimov, a mining engineering student at the Berlin Technical School, stated in his article “Technology and Us” that the key factor in the advancement of cultural nations is the presence of a substantial number of proficient doctors, engineers, and agronomists. Therefore, there is a need to increase

Kuygan, o‘rtangan yurak yana kuymoq istaydur, Yonib, pishib o‘rgangan, yana cho‘g‘ni tusaydur. Olov bo‘lib nur sochgan, qorimizni eritgan, Sovuq tanni isitgan zamonlarni istaydur. Olov bo‘lib gurullab, shoshib, yelib, g‘irillab, Qimirlashga talpinib zo‘raytmoqni tilaydur. Qul bo‘lsun-da ezilsin, sudralsin- da bosulsin, Har xil tuyuq ostida o‘tmishini eslasin. Yonib turgan yurakka bu xil ishlar yoqmaydur. Yurak cheksiz yonuvni, ishq o‘tida kuyuvni, Ma’shuqani yondirib, quchog‘inda so‘nuvni Mana buni xushlaydur (Komak, 1923).	Burnt, broken heart, desires to be burnt again, It got used to be ignited; the ember is wanted as a gain. Period which was shining as fire and melted the snow And heated the cold body is wanted by the soul The heart is flaming, hurrying, rushing restlessly, It tries to move and attempts to be powerful endlessly, It may become a slave and despised, crawling and stepped on, Even under various dirty hoofs it should recall its past that gone. Fire heart cannot accept such shame, The heart desires nonstop fire, to be burnt in love flame, Burn the sweetheart as well and fade away in her cuddle, It desires only this, without trouble
--	--

At the final volume of the journal, in the materials presented in the “O‘tunchlar” (Woodmen) and “Idoradan” (From the office) columns, well-known Turkish poets offered their contribution to the embellishment of the “Komak” journal by Turkestan students in Germany, aiming to support the advancement of the people of Turkestan who were lagging in science and culture. It is uncertain when the next issue of “Komak” will be released due to the students’ hectic study schedules, making it challenging to pin down the exact publication date, but there is a commitment not to delay its release. Yet, will “Komak” continue to be published in the future if these intentions materialize? That remains unknown.

Nevertheless, despite this uncertainty, this sole issue of “Komak” and the content, images, and poems contributed by our students in Germany, along with the topics they addressed, were significant not only for Turkestan’s economic and cultural progress at the time but also hold relevance for addressing developmental issues in the region today.

References

- Komak. (1923). Berlin, Volume 1(2), P.23.
Saidalikhodja. (1923). Cursed son of Asia (Osiyoning oq o‘g‘li). Komak, Volume 1. P.16-17.
Shukri, Ahmad. (1923). Answer to your letter. Komak, Volume 1, P. 18-19.
Turdiyev, Sherali. (2006). Ular Germaniyada o‘qigan edilar. Toshkent, 256 b.
Turdieva, Kh. (2021). Uzbek Scholar Sherali Turdiev: Discoverer of the Closed Pages // Science and Practice Bulletin. Volume. 7. Issue. 5. P. 575-579 doi:<https://doi.org/10.33619/2414-2948/66/64>

Mualliflar haqida:

TURDIEVA Hulkar — Professor at Alfraganus University, Doctor of Philosophy in Philology, hulkar.kamilovna@gmail.com

JADID MATBUOTIDA BOLALAR VA YOSHLAR MASALASI

Nargiza Mirzayeva,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda paydo bo'lgan ilg'or ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy islohot harakatidir. Maqolada jadid matbuotida bolalar va yoshlar mavzusining yoritilishiga oid fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, ma'rifatparvar namoyondalarning faoliyatida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid muammolar, ular tomonidan ochilgan ilk jadid maktablari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: jadid matbuoti, bolalar mavzusi, yoshlar masalasi, maorif, zamonaviy maktab, ta'lim-tarbiya

Factual information is based on Sherali Turdiev's book "They studied in Germany" and his own unpublished archive materials. In the early 1920s, students from Bukhara and Turkestan who were sent to study in Germany published their scientific and literary journal "Komak" (Help) in 1923. They actively contributed with their own scientific and journalistic articles and poems. By the late 1920s, most of them returned to Uzbekistan after completing their studies and began working under the conditions of the totalitarian regime in their homeland. However, some chose to remain in Germany. Graduates of the program resided in cities like Istanbul, Ankara, Berlin, and Paris, where they established connections with leaders of the Turkestan national independence move. Bolalar jurnalistikasining shakllanishida ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar talqini, xalq og'zaki ijodi namunalari, islomiy aqidalarning keng targ'ib qilinishi, didaktik va ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi mumtoz adabiyot namunalari va matbuot nashrlari yetakchi vosita bo'lib xizmat qildi.

Shunga qaramay, o'zbek bolalar jurnalistikasining shakllanishi tom ma'noda bolalar publitsistikasi, xususan, vaqtli matbuot bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki matbuot davr voqealarini aks ettiruvchi minbar hisoblanadi. Shu ma'noda, o'tgan asr boshlarida ziyolilar bolalarga mos adabiyot va darsliklar, keyinchalik esa matbuot nashrlarini chop etishga kirishgan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida bolalar hayoti, qisman ularning o'y-fikrlari ham jadidlar ijodida aks eta boshladi. Masalan, "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Turon" kabi milliy gazetalar va "Oyina" jurnalida bolalar ta'limi, tarbiyasi, dunyoqarashi va ruhiyati masalalariga oid maqolalar chop etilgan.

Abdurauf Fitratning 1917-yilda nashr etilgan "O'quv. Ibtidoiy maktablarning so'ng sinfi uchun" to'plamiga kiritilgan "Yurtimiz", "Arslon bilan Botir" (Fitrat, 1917) sarlavhali maqolasi aynan bolalar uchun yozilgan bo'lib, unda o'sha yillari

o'lkada sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodda va tushunarli tilda ifodalangan. Shuningdek, "Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy singari islohotchi, pedagog adiblar o'z darsliklarida bolalar uchun maxsus hikoya va she'rlar yozish bilan birga, milliy bolalar matbuotining paydo bo'lishiga munosib hissa qo'shdilar" (Qosimova, Toshpo'latova, 2014).

Ubaydulla Asadullaxo'jayev "Bolalarimizning baxtsizliklariga kimlar sabab?" sarlavhali maqolasida ayrim ulamolarning yolg'on gaplariga uchib, bolalarini zamonaviy ilmdan, usuli jadid maktablaridan qaytarib olayotgan otalarga shunday nasihat qiladi: "Hayot mol ila emas, aql va ilm iladur. Ilm va madaniyatdan bahramand millatlar har vaqtda boshqalarg'a g'olib kelurlar. Ammo johil millatlar doimo mag'lub" (Halimova, 2021). Bu fikrlarda "Sadoi Turkiston" gazetasining maorifga munosabati aniq aks etgandi. Fuzayl Jonboyevning "Kichkina felyatun" ruknida bosilgan maqolasining yakunida shunday satrlar bor: "Taraqqiy qilur ilm va hunarli xalq, oyog' ostida qolur johil va nodon xalq" (Halimova, 2021). Bu satrlarning bitilganiga ham salkam bir asr bo'ldi. Shu davr mobaynida xalqimiz juda ko'p qiyinchiligu mashaqqatlarni boshidan kechirdi va nihoyat o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. "Sadoi Turkiston" yurtimiz istiqloli yo'lida xizmat qilgan, o'zbek matbuoti tarixidan o'zining haqqoniy fikrlari, mulohaza va mushohadalariga ega bo'lgan nashr sifatida o'rin olgan. "Gazeta millatni mahv va inqirozdan qutqarmoq uchun zamona ilmini, maorifini o'rganmoq lozim, degan xulosaga keldi. Bu yo'lda ulug' ma'rifatparvar Ismoil G'asprali g'oyalariga sodiq qoldi. Nafaqat xalqni ma'rifatga chorladi, balki Turkistonda maorif ishlarining rivojida amaliy yo'lboshchi bo'ldi" (Halimova, 2021).

Vadud Mahmudning 1921-yilda bosilgan "Bolalar tarbiyasi" maqolasida bolalarning moddiy va ma'naviy tarbiyasiga oid muhim fikrlar aytilgan: "Xoh bolalarning moddiy tarbiyasini olingiz, xoh ma'naviy tarbiyasini olingiz – tarbiya qonunlarig'a muxolif bo'lg'on o'runlari ko'bdir. Biz tarbiyaga ahamiyat bermaganmiz. Holbuki, Payg'ambarimiz bizga: "Al-ilmu ilmayni; ilmu abdan va ilmu adyan", deb ilmning turlarini aytmoq bilan bizga badan ilmi, ya'ni moddiy tarbiyani ma'naviy tarbiyadan, ya'ni din tarbiyasidan ajratib ko'rsatmishlar".

Jadid maktablarining ochilishiga, faoliyat yuritishiga chor amaldorlari ham, mutaassib ulamo va maktabdorlar ham tish-tirnoqlari bilan qarshi turdilar. Sababi, Chorizm va kelgindi missionerlar mahalliy xalqning xat-savodli bo'lishidan, madaniyati oshishidan, ijtimoiy ongi, siyosiy tushunchasi yuksalishidan qo'rqqan edilar. Mutaassiblar esa, an'anaviy tartib va "Shariat qonunlari" buzilishidan cho'chirdilar. Bunday to'siqlarni

jadidlar ustalik bilan yengdilar. Ular jadid maktablarini ochib, an'anaviy maktablar dasturini saqlagan holda, zamonaviy fanlar va ilg'or usullardan foydalandilar, ta'lim sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Jadid maktablari qat'iy nizom, tartib, intizom, dastur va darsliklarga asoslangan holda faoliyat yuritdi va tez orada xalq orasida obro' qozondi.

Ma'rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniy (1878–1934) o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismdan iborat "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" nomli darsliklar va o'qish kitobini yaratdi.

Yana bir ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy ham jadid maktablarining milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi haqida ko'plab maqolalar yozdi. "Muntaxabi Jug'rofiyai umumiy" ("Qisqa umumiy geografiya"), "Kitobat-ul atfol" ("Bolalar maktubi"), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Amaliyoti islom", "Madhali jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish"), "Muxtasari jug'rofiyai Rusiy" ("Rusiyaning qisqacha geografiyasi") kabi darsliklar yaratdi. Bu qo'llanmalar o'sha davr bolalari uchun tuzilgan ilk darslik va qo'llanmalar sifatidagina emas, balki til va yozuv madaniyatimiz taraqqiyotida, bolalar dunyoqarashining shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega edi.

Adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov ta'kidlaganidek, "Yoshlarni zamonaviy maktablarda hamda ilg'or maktablarda o'qitish, oliy maktab va madrasalar ochish, zamonaviy asosda tashkil etilgan hunarmandchilikni rivojlantirish, o'lka tabiiy jug'rofiyasini hisobga olgan holda zavod va fabrikalar qurish, xalqning texnikaviy madaniyati va bilimlarini ko'tarish, jahon mamlakatlari bilan Rossiya hamkorligida turib iqtisodiy-madaniy muomalalarga kirishish, tarixiy-ijobiy an'analar va tajribalarni tiklash va jonlantirish matbuotning bosh maqsadi edi" (G'afurov, 1994).

Hoji Muinning "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida chop etilgan maqolasi aynan bolalar tarbiyasida maktabgacha tarbiya muassasa (bog'cha)larning o'rni va ahamiyati xususida. "Xalqimiz ilm va maorifning haqiqiy qimmatini o'lchay olmasa-da, maktabdan asl maqsad nima ekanligini durust tushunmasa-da, "maktab degan o'quv yurti bor, unda bolalar borib o'quydilar" deb bilalar, ixtiyorli, ixtiyorsizmi bolalarini maktabga yuboralar. Ammo "Bolalar bog'chasi" degan so'zni eshitmagan odamlar ko'bdir. Shuning uchun bu to'g'rida bir oz ma'lumot bermak, bu kunlarda ochilgan "Bolalar bog'chasi"ga aholining diqqatini jalb qilmoq munosib ko'ruladi:

"Bolalar bog'chasi" shundoq bir binodirki, anda o'quv yoshiga yetmagan 4-6 yashar bolalarni yig'ib asraydirlar. "Bolalar bog'chasi" shaharning eng yaxshi va xushhavo yerinda,

bog'chalik bir binoda bo'ladir" (Muin, 1919). Maqolada bolalarning tarbiya topayotgan maskani – bog'chaning foydasi, unda bolalar yaxshi tarbiya topishi-yu, kerakli amallarni o'yin orqali o'rganishlari ta'kidlab o'tilgan. Bu esa, hozirgi davrdagi zamonaviy bog'chalarga qo'yiladigan talablardan biridir.

"Ko'chada, uyda o'z holicha qo'yulsa, yomon o'yunlar o'ynaydir, ko'cha bolalari bilan yoqalashib, urushib axloqi buziladir, yoshlikdan ayg'oqliqni, oliftalikni o'rganadir. Ko'chada ot va aroba ostinda qolib, yoki tom va yog'och ustindan yiqilib, biron o'sal bo'lmog'i ham mumkindir. O'sal bo'lmasa-da, o'z boshiga o'ynab yurgan bolani "Nima bo'ldi?", deb ota-onaning yuragi titraydir. Mana, "Bolalar bog'chasi" shu hollarning borisiga choradir" (Muin, 1919).

Ayni davrda ham maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan holda voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir. Ularni amalga oshirishda zamon talabiga mos bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos.

Shuningdek, o'sha davrda yoshlarning ta'limiga e'tibor jadidlarimiz tomonidan alohida e'tiborga olingan. "Oyna" jurnalining 1914-yil 21-sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Yoshlarga murojaat" maqolasi bunga yaqqol misol bo'ladi. "Bizni Turkiston va Buxoroda bir sinf muhtaram yoshlar mavjuddurki, hukumat mahkamalarinda tijoratchona, bonka va korxonalarga kotib, tarjimon, molfurush va dallollik yoinki nasyachinlik ila mashg'uldurlar va bu sinf ahlining adadi bugun Buxoro va Turkistonda minglarchadur. Ana yoshlarga murojaatdan murod shu sinf ahlidan bo'lgan hamvatanlarimizga bir necha kalima arz qilmoqdur... Va sizlarni ozgina ilmi zamoniylar bilganingiz, albatta, naf' kelturdi va alhamdulillah dini mubing'a ham yaxshi mu'taqidsiz va bu ilmiy zamoniylar e'tiqodiningizni buzmadir. Zotan islomiyat shunday bir diniy matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmiy zamoniylar ko'ib o'qusa, insonni yana diniy islomga shuncha aqidasi mustahkam bo'lur. Chunonchi, ilmiy zamoniylar ko'ib o'qug'on Ovrupo ulamlarini(ng) eng nomdor va davlatliklaridan musulmon bo'lub turgonlari jaridaxonlarga ma'lumdur". U yoshlarning nafaqat zamonaviy ilmdan boxabar bo'lishlari, balki diniy bilimga ham ega bo'lishlari tijorat, tarjimonlik, bank sohasida foyda keltirib, kishi e'tiqodini mustahkamlaydi. Ya'ni, bu murojaat hozirgi davrga kelib ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki halollik, poklik inson muvaffaqiyati kalitidir.

"Mehnatkashlar tovushi" gazetasida ham Hoji Muinning nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlarning ilm olishiga e'tibor berish kerakligi uning "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi" maqolasida ta'kidlangan. "Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom

barcha muslim va musulmalarg'a ilm o'rganishning farzlig'ini ochiq suratda bildirgan ekan. Bizlar o'z qizlarimizni maktabga yubormay, chor devor orasinda hayvon qatorinda qamab qo'yamiz va ularni ilmu tarbiya sharafigidan, dunyo saodatidan mahrum etamiz" (Hoji Muin, 1918). Darhaqiqat, Hoji Muin o'sha davrda ham qizlarning ilmi bo'lishi, dunyoqarashi keng bo'lishida ta'limning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlagan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) barcha musulmonlarning ilm olishi sunnat ekanligini bayon etilgan.

Modomiki, yoshlarimiz ertangi kun vorislari ekan, ularning bilimli, dunyoqarashi keng, fikrlari teran bo'lishlarida, albatta jadidlarimizni o'rganish, tadqiq qilishga ehtiyoj sezilaveradi. Qolaversa, mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berilayotgan bugungi kunda ushbu masalaning dolzarbligi oshib boradi. Zero, bolalar va yoshlar jurnalistikasining o'ziga xos tarixi va tamoyili mavjudki, u, asosan, real hayot bilan chambarchas bog'liq. Demak, yoshlar ta'lim-tarbiyasi borasida olib borilayotgan islohotlardan to'g'ri xulosa chiqarib hamda imkoniyatlardan foydalangan holda, bolalarga bugungi kun matbuoti va adabiyotining tarbiyaviy ahamiyatini singdirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Fitrat, Abdurauf. (1917). Ibtidoiy maktablarning so'ng sinfi uchun. Baku.

Qosimova N., Toshpo'latova N. (2014). O'zbekiston OAVda bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, 37 b.

Sadoi Turkiston gazetasi. (1914). 8-iyul soni.

Sadoi Turkiston gazetasi. (1915). 15-yanvar soni.

Mehnatkashlar tabrigi gazetasi. (1921). 21-fevral soni.

G'afurov, I. (1994). Sadoi Turkiston va milliy xayollar. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 11 mart soni.

Muin, Hoji. (1919). Bolalar bog'chasi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 3-noyabr soni.

Muin, Hoji. (1918). Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 28-iyun soni.

Mualliflar haqida:

MIRZAYEVA Nargiza Abduqaxxorovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, nargizamirzaeva465@gmail.com

THE ISSUE OF CHILDREN AND YOUTH IN THE JADID PRESS

Abstract: The Jadid movement was a progressive educational, cultural, and social reform movement that emerged in Central Asia, particularly in Uzbekistan, in the late 19th and early 20th centuries. This article discusses the coverage of children's and youth issues in the Jadid press. It also examines the challenges related to youth education and upbringing addressed by enlightenment representatives, as well as the first Jadid schools they established.

Keywords: Jadid press, children's issues, youth issues, education, modern schooling, upbringing and education

About the Authors:

MIRZAEVA Nargiza Abduqaxxorovna — Associate Professor of the Department of Uzbek Language and Literature, University of Journalism and Mass Communications, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), nargizamirzaeva465@gmail.com

JADID TARIXNAVISLIGIDA SADRIDDIN
AYNIYNING O'RNI

Shohruxbek Olimov

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda paydo bo'lgan ilg'or ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy islohot harakatidir. Maqolada jadid matbuotida bolalar va yoshlar mavzusining yoritilishiga oid fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, ma'rifatparvar namoyondalarning faoliyatida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga oid muammolar, ular tomonidan ochilgan ilk jadid maktablari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, jadidchilik, Yosh buxoroliklar, tojik adabiyoti, Stalin qatag'oni, jadid matbuoti

Tarixda ikki tilda asar yoza oladigan adiblarga zullisonayn sifati berilgan. Bunday sifat ayni paytda ham forscha ham turkiy tilda mukammal asarlar yozgan Alisher Navoiyga nisbatan ishlatilishi ko'p kuzatiladi. XX asrda yashab o'tgan va juda qadrli manbalarni meros qoldirgan buxorolik Sadriddin Ayniy ham yaqin tarixning eng yaxshi zullisonayn mualliflaridan edi. Ayniy zamonaviy tojik adabiyotining asoschisi, Jadid harakatining tarixnavisi, o'zbek, tojik tillarida ko'plab roman, hikoya va qissqalar yozgani bilan eslanadi. Qolaversa, 1930-yillarning so'ngida juda ko'p adiblarni yo'q qilgan "Stalin qatag'oni"ga uchramagan nodir ziyolilardan biri sifatida uning ijodi qayta o'rganishga chorlayveradi.

Yozuvchi, olim, tarixchi va adib Sadriddin Saidmurodzoda Ayniy, avvalo, bugungi tojik adabiyotining asoschisi, Tojikiston

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105>

Respublikasining eng muhim ziyolisi sifatida qabul qilingan. Ayniy Turkiston xonliklarining so'nggi davri va Sovet Ittifoqining dastlabki yillari haqida o'zbek va tojik tillarida adabiy va tarixiy asarlar meros qoldirgan. Ayniyning hayoti va ijodini qisqacha ta'riflash oson emas. Lekin bir gap bilan ta'riflash kerak bo'lsa, Ayniy davlat tuzumi va xalqning juda tez o'zgargan davrida yashadi va shohid bo'lgan jarayonlarini tarixga muhrlagan asarlar yozdi. Xo'sh, Ayniy kim edi va uning asarlaridan nimalar o'rganishimiz mumkin?

Jadidchi Ayniy. Sadriddin Ayniy 1878-yilda Buxoroning G'ijduvon tumanidagi Sektare qishlog'ida dunyoga kelgan. Mamlakat miqyosida yuzaga kelgan vabo kasalligi tufayli 12 yoshida yetim qolgan. O'zi va ukasini og'ir va mashaqqatli holatdan dehqonchilik qilib olib chiqqan. Keyin Buxoroning markazidagi madrasalarda tahsil olgan, moddiy yetishmovchilik tufayli talabalarga, mudarrislariga oshpaz, tozalovchi sifatida xizmat qilgan. Albatta, bu doimiy kasb emas edi. Bir hujradan haydalsa, boshqasiga o'tardi, ba'zan ko'chada qolgan holatlari ham bo'lgan. Talabalik yillarining katta qismi Ko'kaldosh madrasasida o'tgan. Ko'kaldosh madrasasidagi hujrasi hozir kichik bir muzey sifatida saqlanib qolgan.

Ayniyning yoshlik yillari Buxoro amirligining so'nggi davriga to'g'ri keldi. Bu davrda amirlik iqtisodiy va ijtimoiy muammolar girdobida edi, zamon yaratgan imkoniyatlardan yuzaga kelgan jadid harakati namoyandalari Buxoroni isloh qilish uchun faollasha boshlagan edi. Sadriddin Ayniy ham Buxoroning ilk jadidlaridan edi. Buxoroda Mirzo Abdulvohid tomonidan ochilgan dastlabki usuli jadid maktabida Ayniy ham ishlagan edi. Ayniy tatar maktablaridan o'rnak olgan holda, 1910-yilda "Tazhib us-sibyon" (O'smirlar tarbiyasi) nomli o'quv kitobi yozgan.

Yozgan kitobi Buxoroning madrasa mudarrisleri tomonidan tanqidga uchradi va Ayniyning Yosh buxoroliklar harakatiga a'zo bo'lishiga turtki bo'ldi. Buxoroning dastlabki jadidchilari bilan "Tarbiyayi atfol" jamiyatini tashkil qildi, ko'plab yoshlarni xorijda jo'natish ishlarida hissa qo'shdi.

1917-yilda Rossiyada Fevral inqilobidan so'ng Buxoro jadidlari ham amirlikda ba'zi islohotlar amalga oshirilishini talab qildilar. Amir Olimxon islohot haqida farmon imzoladi. 8-aprel 1917-sanasida jadidlar tomonidan poytaxt Buxoroda qutlov yurishi tashkil qilindi. Ayniy bu tadbirga avvaldan qarshi bo'lganini asarida ta'kidlaydi. "Men bunga qattiq qarshi turdim: birinchidan, farmon tashakkur aytishga arzimaydi, ikkinchidan, hukumat namoyishni bahona qilib, unga qarshi harakat ko'taradi, farmonni yo'qqa chiqaradi, farmonni amalga oshirmaslik sababini namoyishchilarga to'nkaydi (amir va uning hukumatining bu plani haqida menda ma'lumot bor edi)" (Ayniy, 1963). Mazkur

tadbir qadimchilar va jadidlar orasida yuzaga kelgan to‘qnashuv bilan nihoyasiga yetdi. Amir namoyishchilarni jazolashga qaror qilib, qocholmay qolganlarni hibsga oldi. Ayniy mashhur jadidchi bo‘lsa ham namoyishlarni ma’qullamayotgan va ushbu yurishga qatnashmayotgan edi. Namoyish paytida hujrasida qolgan edi. Namoyishning asosiy tashkilotchilari Usmon Xo‘ja, Fitrat, Fayzulla Xo‘jalar bilan birga qochmadi. Lekin amirning ro‘yxatida Ayniyning ismi ham bor edi va ertasi kuniyoq amir askarlari tomonidan qo‘lga olindi. Qadimgi an‘analarga ko‘ra jazoga tortilib, 75 darra urishadi. Ayniy va boshqa hibsga olinganlar rus inqilobchi askarlari tomonida qutqarilgan. Ayniy 52 kun davomida Buxoroning ruslar boshqaruvi ostidagi Kogon shahrida kasalxonada davolangan. Kasalxonada yotganidagi rasmi muallifning asarida e‘lon qilingan. Rasm Buxoro amirligidagi zulmni tasvirlovchi dalil sifatida muzeylarda, turli kitoblarda bosilgan. Ayniy davolanishdan so‘ng Samarqandga ko‘chib o‘tgan va Buxoro amirligini tarixini tanishtiruvchi bir-biridan qadrli asarlarga mualliflik qildi.

Adabiy faoliyati. Ayniyning adabiyotga qiziqishi madrasadagi talabalik davrida boshlangan. Boshqa zamondoshlaridan farqli o‘laroq asarlarida o‘z hayotiga oid ma’lumotlarni yozishni ma’qul ko‘rgan. Ayniqsa “Muxtasari tarjimai holi xudam” (“Qisqacha tarjimai holim”), “Yoddoshta” (Xotiralar) kabi asarlari biografik xususiyatga o‘xshaydi. Ayniy avvaliga Sifliy, Muhtojiy va Jununiy kabi taxalluslar qo‘llangan lekin 18 yoshidan keyin yozgan asarlarini Ayniy taxallusi bilan yozgan. Adib o‘z taxallusi haqida shunday degan: “She’r yozishimni eshitganlar taxallusim va ma’nosi haqida so‘ray boshladilar. Bunday savollar juda bezdirdi. Juda sermazmun taxallus topmoqchi edim. Lug‘atlarni qarayotganimda “Ayn” so‘ziga ko‘zim tushdi. Lug‘atda bu so‘zning naq 48 ma’nosi berilgan edi. Eng muhim ma’nolari: 1) ko‘z, 2) buloq, 3) quyosh va boshqalar. So‘zning ko‘z va buloq ma’nolariga nisbat bergan holda Ayniy taxallusini tanlashga qaror qildim. Taxallusimning ma’nosini so‘raganlarga “48 ma’nosi bor, lug‘atdan qararsiz” deb javob berar edim” (Ayniy, 1963).

Sadriddin Ayniyning 1917-yilga qadar yozilgan asarlari ko‘p emas. 1896—1904 yillarda “Gulisurx”, “Bazm” kabi kichik she’rlar yozgan. Keyin esa “Yoshlarga murojaat”, “Hasrat”, “Ne o‘ldu, yo Rab!”, “Moziy va hol”, “Yerni yana sotmang” kabi she’rlarida jadid adabiyotining ruhi bilinib turardi. “Ustoz Ismoil bey janoblari” nomli marsiyasida Sadriddin Ayniy jadid harakatining asoschisi Gaspirali Ismoil beyning vafoti munosabati bilan musulmon sharqi buyuk shaxslaridan biridan ayrilganini tilga oladi.

1919-1921 yillarda Sadriddin Ayni birinchi tojik jurnali

“Shulayi inqilob” va o‘zbekcha “Mehnatkashlar tovushi” gazetalarida ishladi. Xolida Ayniyning qaydetishicha, ikki yarim yil davomida “Shulayi inqilob” jurnalida Ayniyning jami 67 maqolasi bosilgan. (Ayni Holida.. Жизнь Садриддина Айни (1982). Uning asarlari g‘oyaviy jihatdan inqilob tarafdori bo‘lib, Ayniy o‘ta inqilobiy va o‘ta sotsialistikligi bilan boshqa jadidchilardan ajralib turardi. Chunki Buxoro amirligida yetim qolgan Ayniy yolg‘iz omon qolish uchun kurashgan. Boz ustiga, u amir zulmiga duchor bo‘lgan. Bolsheviklar inqilobi xuddi Ayniy kabi ishchilar harakati edi. Boshqacha aytganda, u kambag‘allarning tarafdori sifatida paydo bo‘ldi. U kambag‘allarga qanchalik yordam bergan yoki bermagan, boshqa masala. Ammo Ayniy kabi og‘ir kunlarda yashagan, hatto quvg‘inga uchragan odamlar bolsheviklarga ishonib, ularni maqtashdi. “Shulayi inqilob” jurnaliga yozgan maqolalariga S.M. (Saidmurotzoda) deb imzo qo‘yardi. “Tayoq”, “Mashrab” va boshqa jurnallarga satirik hikoyalar ham yozgan. Uning maqolalari “Bir kechalik futurist”, “Shlyapasiz”, “Sarsami”, “Battol” va boshqa sarlavhalar ostida chop etilgan. Ayniy 1922-yilda qizlarning boshlang‘ich maktablarida o‘qitilishi uchun “Qiz bola va Xolida” nomli darslik yozadi. 1924 yilda u “Alifbe” kitobini tayyorladi.

Jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar Ayniy ijodida ham o‘z ifodasini topdi. 1920-yilda Sadrettin Ayniy “Buxoro jallodlari” qissasini yozadi. Amirlik ma‘muriyati qulagan bo‘lsa-da, nazoratni tiklash uchun harakatlar davom etmoqda edi. Muallif bu asari bilan amirlik ma‘muriyati tomonidan noto‘g‘ri qo‘llanilgan qoidalarni, amaldorlarning xatolarini va xalqning ularga nisbatan nafratini ifodalashga harakat qildi. Satirik uslubda yozilgan hikoya qahramonlari Buxoro jallodlari bo‘lib, ular o‘zaro suhbatlarida buyruqbozlarning dahshatli shafqatsizligi va qurbonlarni o‘rta asrlarga ko‘ra eng qiyin usullarda o‘ldirishlari haqida hikoya qiladilar.

Ayniy tomonidan yaratilgan ilk yirik tarixiy asar – Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro (“Buxoroda fikriy inqilob tarixi”) 1918-yilda tojik tilida yozilgan. Keyinchalik Ayniy bu asarning o‘zbekcha qayta ishlangan variantini yaratib, unga “Buxoro inqilobining tarixi” degan nom berdi. Keyinchalik bu asarni yana tölendirilib, mukammallashtirib “Buxoro inqilobi uchun materiallar” nomi bilan 1920-yilning so‘nggi oylarida boshqa bir asar yozdi. Aslida bu asarning yozilishi Ayniyga berilgan buyurtma edi.

1920-yil 2-sentyabrda Yosh buxoroliklar va ularni qo‘llab-quvvatlagan bolsheviklar armiyasining harbiy hujumi natijasida Buxoro amirligi bosib olindi. Uning o‘rnida Buxoro Xalq Sho‘ro Respublikasi tuzildi. 1920-yil 24-sentabrda yangi respublika Maorif vazirligining birinchi majlisida inqilob tarixini yozish kun tartibiga kiritildi va bu vazifa Abdurrauf Fitrat va Sadridin

Ayniyga yuklatildi.

Ayniy asarni 1920 yilning noyabr oyidan 1921 yilning may oyiga qadar tugallab Buxoro hukumatiga topshirgani lekin chop etilmaganini yozadi. Asar noma'lum sabablar bilan oradan bir necha yil o'tib, 1926 yilda Moskvada nashr qilingan.

Ushbu asar nashr qilingan 1926-yilda 1920-1924 yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi raisi bo'lgan Fayzulla Xo'jayev ham "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" nomli bir asar nashr qilgan. F.Xo'jayev 1926-yili ayni mavzuda yozgan kitobi muqaddimasida Sadriddin Ayniyning "Buxoro inqilobining tarixi" kitobiga alohida to'xtalib, uning qimmatli materiallarga ega ekanligini e'tirof etish barobarida, Ayniyni jadidchilikka noto'g'ri baho berish va uni bolshevizm bilan tenglashtirishda ayblaydi (Xo'jayev, 1997).

Keyinchalik Ayniy 1933-yilda yozgan maqolasida bu asarning yozilish jarayonini shunday eslaydi: "Men Buxoro inqilobi tarixining katta qismini 1918-1919 yillarda Samarqandda tojik tilida yozganman. Buxoro inqilobidan keyin o'z asarimni o'zbek tiliga tarjima qilib, qo'shimchalar kiritdim. Kitob Buxoro maorif vaziri o'rtoq Qori Po'latovda (1920-yil voqealari va inqilob g'alabasini qo'shib) Buxoroda qolib, nashr etilmagan. "O'rta Osiyo milliy chegaralanishidan avval SSSR xalq nashriyoti o'rtoq To'raqulov orqali ushbu qo'lyozmani Moskvaga so'rab, kitob 1926-yilda chop etilgan" (Айни, 1963). Ayniy ijodini tarixchilar va Buxoro amirligining o'tmishi bilan qiziquvchilar hamisha katta qiziqish bilan o'qib kelgan. Barcha nashrlar yuqorida aytib o'tilgan 1926-yil nashri bo'yicha qilingan. Biroq, bu nashr kitobning haqiqiy matni emas. Nashr qilinayotgan paytda uning ayrim qismlari siyosiy holatga qarab senzura qilingan. Biroq 2010-yilda Yaponiyaning Tokio universiteti tashabbusi bilan Shizuo Shimada va Sharifa Tosheva (2010) 1920-yilda yozilgan asarning birinchi nusxasini qayta nashr etishdi. Ikki nusxa solishtirilsa, asar muallif tomonidan ixtiyoriy ravishda yoki siyosiy bosim natijasida bilmagan holda qisqartirilgan. Zulmga uchragan ayrim kishilarning ismlari o'chirildi, masalan, o'sha davrning eng faol namoyandalardan biri Abdurauf Fitrat haqida yozilgan qismlar o'chirildi. Demoqchimizki, Ayniyning dolzarb siyosiy qarashlari bugungi kunda keng tarqalgan nusxalarda uning asarlaridan farq qilishi mumkin. Sovet senzurasini o'sha davr siyosati tufayli nashr etilgan barcha kitoblarda mavjud edi. "Buxoro inqilobi tarixini yozish menga ishonib topshirilgan edi. Bu vazifa mening qo'limdan tashqarida bo'lsa ham, imkonim boricha yozib, bajardim", deb yozadi Ayniyning o'zi (Ayniy, 1963). Buxoro inqilobini yozish vazifasi yuklangan ikkinchi yozuvchi Fitrat o'z vazifasini bajara olmadi. Ammo 1930-yilda u o'zining "Amir Olimxonning hukmronlik davri" nomli kitobini nashr ettiradi. Xulosa qilib

aytadigan bo'lsak, Ayniy o'ziga berilgan vazifani qisqa muddatda uddaladi va yozma asar Buxoro jadidchiligi tarixini tasvirlovchi kamdan-kam asarlar sirasiga kiradi.

1953-yil aprel oyida buyuk yozuvchi, olim va ziyoli o'zining yetmish yillik yubileyini nishonladi. Mamlakat bo'ylab katta tantanalar bo'lib o'tdi. U Tojikiston zamonaviy adabiyotining asoschisi sifatida yuksak hurmatga sazovor bo'ldi. Oradan bir yil o'tib, 1954-yil 15-iyulda Sadriddin Ayniy hayotdan ko'z yumdi. O'zbekiston va Tojikistonda ko'plab tumanlar, ko'chalar, qishloqlar, maktablar, madaniyat markazlari uning nomi bilan atalgan. Samarqandda u yashagan uy shaharning eng mashhur maydoni Registon ro'parasida joylashgan bo'lib, hozirda Ayniy uy-muzeyi sifatida namoyish etilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sadriddin Ayniy Buxoro amirligining so'nggi yillarida yashab, uning tanazzuliga ham guvoh, ham qurbon bo'lgan. U ishchi oilasida tug'ilgan, bolaligida yetim qolgandi. U o'zi va aka-ukalarining hayoti uchun yolg'iz kurashda davom etdi. U jadidchilik qarashlari uchun amir tomonidan jazolanadi va o'limga hukm qilinadi. Biroq u bolsheviklar askarlari tufayli najot topdi, shuning uchun u sovet mafkurasiga chin dildan amal qildi va unga ishondi. U o'z asarlarida Oktyabr inqilobini ham ulug'lagan. Ayniy ishongan sotsializm, ya'ni va'da qilingan sotsializm amalga oshmay qoldi. Biroq Ayniy tirikligida Sovet g'oyasiga ishondi, shuning uchun bo'lsa kerak, 1937-1938 yillardagi Stalin qirg'iniga qo'shilmagan. Biroq u o'zbek adabiyotida ham, tojik adabiyotida ham o'ta muhim asarlar merosini qoldirdi. Ularni adabiy-tarixiy qiymati jihatidan nodir asarlar deyish mumkin. Zero, jadidchilik tarixiga oid deyarli barcha tadqiqotlar Ayniyga taalluqli bo'lib, uning asarlari, ayniqsa, Buxoro jadidchiligi tarixini tavsiflovchi juda nodir asarlar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ayniy, Sadriddin. (1963). Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. Asarlar, 8 tomlik, 1-tom, Toshkent.

Ayniy, Sadriddin. (1963). Qisqacha tarjimai holim, Asarlar, 8 tomlik, 1-tom, Toshkent.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2000). 1-jild, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, Toshkent.

Shimada, Shizuo, Tosheva, Sharifa. (2010). Bukhara inqilabining ta'rikhi, TIAS Central Eurasian Research Series N4, The University of Tokyo.

Xo'jayev, Fayzulla. Buxoro inqilobining tarixiga oid materiallar. Toshkent: Fan nashriyoti.

Айний, Садриддин. (1963). Ҷавоби ман. Садриддин Айний. Кулли-ёт. Ҷилди 11, китоби якум. Душанбе.

Айни, Холида. (1982). Жизнь Садриддина Айни (краткий хронологический очерк). Душанбе: Дониш.

Большая Советская Энциклопедия. (1949). Второе Издание, Государственная Научная Издательство “Большая Советская Энциклопедия”, Москва.

Mualliflar haqida:

OLIMOV Shohrux Sultonmurodovich — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti, shohruxbekolim@gmail.com.

THE ROLE OF SADRIDDIN AYNI IN JADID HISTORIOGRAPHY

Abstract: For researchers studying the Jadid movement, the memoirs of individuals who lived during that period and participated in the processes serve as a crucial source. The Jadid movement lasted for a short time. During this brief period, numerous significant events took place and many fundamental changes occurred. However, the works of skilled historians like Sadriddin Ayni are an invaluable source for understanding the true picture. This article analyzes the works of Sadriddin Ayni, a masterful chronicler of the processes that took place in the late 19th and early 20th centuries. The issue of how these sources were altered at different times as a result of political pressure is also specifically addressed.

Keywords: Bukhara Emirate, Jadidism, Young Bukharans, Tajik literature, Stalinist repression, Jadid press

About the Authors:

OLIMOV Shohrux Sultonmurodovich - Doctoral student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, shohruxbekolim@gmail.com

INTERNET MATNI SARLAVHASIDA IBORALARNING QO‘LLANISHI

Muxlisa Sabirova

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada internet matni sarlavhasi, uning o‘ziga xosligi, lingvomadaniy jihatlari va sarlavhalarda iboralarni qo‘llash bilan bog‘liq hodisalar tahlil qilingan. Internet matni sarlavhasida qo‘llangan frazeologik birliklar olamning milliy lisoniy manzarasini yaratishda til belgilarining qo‘llanish ahamiyati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, ibora, lingvomadaniyatshunoslik, milliy-madaniy xususiyat

Tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv asosida tilni turli yo‘nalishlarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortdi. Ayniqsa, lisoniy hodisalarni inson va muloqotning o‘zaro uzviy aloqasini hisobga olgan holda zamonaviy tadqiqotlarga talab kuchaydi. Bugungi kunda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’siri masalasi lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda til nafaqat botiniy, balki zohiran ham tildagi dunyo manzarasini aks ettirishga, ya’ni, millatning geografik joylashuvi, landshafti, iqlimi, asosiy faoliyat turlari, tarixi, siyosiy tizimi, ruhiyati va milliy xarakteri kabi omillar millat dunyoqarashi va mentalitetining o‘ziga xosligini shakllantirib, bu xususiyatlar barcha til birliklarida o‘z aksini topadi. Bu jarayon fonetik darajadan boshlanib, matn darajasigacha bo‘lgan til birliklarini qamrab oladi. Shu ma’noda, internet matni sarlavhasining tadqiq etilishi zamonaviy axborot makonida olamning milliy lisoniy manzarasini yaratishda til belgilarining qo‘llanish ahamiyatini oshiradi.

Internet mediamatnlarida sarlavha axborot uzatishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki jurnalistik material matnining asosiy g‘oyasini oldindan tasavvur qilish, mushtariylar diqqatini unga jalb qilishda sarlavha katta rol o‘ynaydi. I. Toshaliyev ta’kidlaganidek, “muallifning o‘z o‘quvchisiga aytadigan birinchi so‘zi sarlavhadir” (Toshaliyev, 1995).

Olimlarning fikriga ko‘ra, eng ommabop yangiliklar muvaffaqiyatli sarlavhalarga bog‘liq. 80% mushtariylar birinchi navbatda sarlavhaga e’tibor qaratadi (Верещинская, 2013). Shu sababli muallif jurnalistik materialning muvaffaqiyat kaliti hisoblangan sarlavhaga alohida e’tibor qaratishi, sarlavha uchun mohirlik bilan nom tanlashi lozim bo‘ladi. Aytish lozimki, sarlavha internet materialida ifodalangan axborotni tasavvur qilishga imkon beruvchi, o‘quvchini tanishtiruvchi va diqqatini jalb qiluvchi muhim vosita hisoblangani bois, uning o‘rinli tanlanishi matnda aks etgan axborotning ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham sarlavhalarning mazmunli, ixcham, ta’sirchan va

mushtariylar diqqatini jalb qiluvchi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, muallif o'z jurnalistik materialidagi sarlavhasi orqali bevosita mushtariy bilan kommunikativ aloqaga kirishadi. Muallif sarlavha yordamida mushtariyda maqola haqida muayyan tasavvur hosil qiladi. Demak, internet sarlavhasi, bir tomondan, internet matnining eng muhim tarkibiy qismi hisoblansa, ikkinchi tomondan esa, matn bilan mushtariy o'rtasidagi kommunikativ aloqani ta'minlovchi vositadir. Uchinchidan esa, sarlavha o'zida milliy madaniy unsurlarni ham namoyon etish imkoniyati uning olamning milliy manzarasini yaratishdagi ahamiyatini oshiradi. Shu sababli internet mediamatni sarlavhasining lingvomadaniy jihatini o'rganish ahamiyatli sanaladi. Internet materiallariga sarlavha tanlashda uning nafaqat axborot berish, hissiy va pragmatik ta'sir ko'rsatish vazifasi, balki biror narsani targ'ib qilish, ezgulikka chorlash, mushtariylarning savodxonlik va nutq madaniyatini oshirish va hokazo vazifalari ham inobatga olinadi.

Ma'lumki, internet mediamatniga qo'yiladigan asosiy talablardan biri axborotni yetkazishda tezkorlik, xolislik va ta'sirchanlik kabilarga amal qilishdan iboratdir. Axborotning ta'sirchanligini ta'minlashda esa internet sarlavhalarining ham ahamiyati katta. Sarlavhalar internet maqolasining umumiy g'oyasini aks ettirsa-da, muallifning ma'lum kommunikativ maqsadiga bo'ysundiriladi. Shu bois sarlavhalarda muallifning hissiy kechinmalari, voqelikka bo'lgan subyektiv munosabati ham aks etadi.

“Sarlavha – mediamatn” munosabatlari o'zaro bog'liqlik va o'zaro nutqiy ta'sir tamoyiliga asoslanadi. Internet makonida bir vaqtning o'zida ko'plab axborot oqimlarining mavjud bo'lishi, axborot oqimining cheksizligi sarlavhaga qo'shimcha vazifalar yuklaydi: u nafaqat maqola matnining bir qismi, balki interfeys elementi, ya'ni muallif va mushtariyning Internetdagi aloqasini ta'minlovchi vosita vazifasini ham bajaradi. Saytda mavjud bo'lgan barcha vositalar (matn, tasvirlar, audio, video va boshqa har qanday kengaytmali fayllar) doirasida tarmoq media matni sarlavhasi foydalanuvchiga matn mazmuni haqida ma'lumot beradi.

Ma'lumki, internet sarlavhalarida muallif matnning ta'sir kuchini oshirish, o'quvchi e'tiborini jalb etish va o'z kommunikativ maqsadini til birliklariga madaniy belgilarni yuklagan holda yumshoqroq ifodalash maqsadida turli lisoniy hodisalarga murojaat qiladi. Jumladan, sarlavhalarda qo'llangan iboralar, pretsedent birliklar va maqollar muallifning ma'lum kommunikativ niyatiga bo'ysundiriladi. Ayniqsa, siyosiy mavzuga bag'ishlangan matnlarda bu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi. Misolga e'tibor qaratamiz: “Tehron Vashingtonni Isroil va Eron o'rtasidagi mojaroga “burun suqmaslik”ka chaqirdi” (Saidov, 2024). Siyosiy

mavzuga bag'ishlangan yuqoridagi sarlavhada muallif salbiy vaziyatni ifodalash maqsadida frazeologik birlikka murojaat etgan. Muallif "Tehron Vashingtonni Isroil va Eron o'rtasidagi mojaroga aralashmaslikka chaqirdi" ma'nosidagi sarlavhadan ko'ra nutqiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadida frazeologik iborani qo'llagan.

Aytish lozimki, milliy-madaniy birliklardan biri hisoblangan iboralarning nutqda qo'llanishida nutqiy ta'sirchanlik bilan bir qatorda fikrni bo'yoqdor tarzda tasvirlash va salbiy subyektiv fikrni obrazli ifodalash ham ustunlik qiladi. Ayniqsa tilning lingvomadaniy boyliklaridan biri hisoblangan iboralarning internet media matnida qo'llanishida o'ziga xoslik kuzatiladi. Fikrimizni siyosiy mazmundagi sarlavhalar orqali tahlil qilamiz: "O'zbekiston ichki ishiga "burun suqqan" Zaxarovaga Qodirov javob qaytardi" (Komilov, 2024); "Pashinyan Yevropadan qo'yni-qo'nji to'lib qaytmoqda" (Ergashev, 2024).

Yuqoridagi 1-misoldagi matnda Rossiya Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi Mariya Zaxarovaning Toshkentdagi maktabda o'qituvchi birinchi ish kunida 6-sinf o'quvchisini ayovsiz kaltaklagani haqidagi xabarga munosabat so'ragani va O'zbekiston ichidagi voqeaga "burun suqishi"ga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikerining o'rinbosari Alisher Qodirov munosabat bildirgani aks etgan. Aynan sarlavhada "burun suqmoq" iborasining qo'llanishida salbiy munosabatning oshkora ifodasini kuzatish mumkin. 2-misolda esa Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyanning G'arbning bir qator rasmiylari bilan muzokaralar olib borgani va bir qator loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilishi haqidagi xabar berilgan. Sarlavhada aks etgan "qo'yni qo'nji to'lmoq" iborasi Armanistonning g'arb mamlakatlari bilan imzolagan loyihalarini obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

Ko'rinadiki, internet media matnlarida iboralar ma'lum bir xalqning milliy-madaniy dunyoqarashini, tafakkurini ifodalovchi vositalar sifatida namoyon bo'lish bilan bir qatorda, siyosiy mazmundagi sarlavhalarda davlatdagi siyosiy mavzuning ifodalanishidagi milliy o'zlik xususiyatlarini aks ettiruvchi madaniylik belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa tomondan esa, ular madaniyatlararo media-makonda to'laqonli muloqotni ta'minlovchi, siyosiy diskursning manipulyativ, baholash, obrazli ifoda, nutqiy "yuk" kabi xususiyatlarini ifodalovchi, shuningdek, siyosiy voqealarni talqin qilish va baholashning asosiy tendensiyalarini aniqlashga imkon beruvchi til vositalari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar xalqning tarixini, madaniyatini, dunyoqarashi-yu tafakkurini ko'rsatuvchi lingvomadaniy birliklardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda internet media matnlarida omma e'tiborini jalb qilish, matnga o'zgacha ruh berish maqsadida sarlavhalarda iboralarga bot-

bot murojaat qilinganini kuzatdik. Misollarga e'tibor qaratamiz: OAV: ISHID Moskvadagi terakt uchun mas'uliyatni gardaniga oldi (2024); "Kiyimlaringizni parvarish qiling", "Apelsin olamiga sho'ng'ing" – Reklamalardagi til va tasvir masalasiga qachon yeng shimaramiz?" (Mahkamova, 2024); "Tirilayotgan Orol – unga qanday jon bag'ishlash mumkin?" (2024). Muallimdan tayoq yegan sulton. (Nosir, 2025); "Oliygo'ha rektorlari kambag'al oiladan 4 ming nafar yoshlarni o'qitishga bosh-qosh bo'ladi" (2024); "Baxtiyor Saidov BMTda O'zbekiston nomidan so'zga chiqdi" (Komilov, 2024); "Qoraqalpog'istonda 2222 litr dizelni o'marmoqchi bo'lganlar qo'lga tushdi" (Jalg'ashev, 2024); "Almisoqdan qolgan qo'rquv" (Jabborov, 2021).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ergashev, A. (2024). Pashinyan Yevropadan qo'yni-qo'nji to'lib qaytmoqda, qalampir.uz. URL: <https://qalampir.uz/uz/news/pashinyan-yevropadan-k-uyni-k-unzhi-tulib-k-aytmok-da-video-99778>

Jabborov, F. (2021). Almisoqdan qolgan qo'rquv, oyina.uz. URL: <https://oyina.uz/uz/article/231>

Jalg'ashev, Sh. (2024). Qoraqalpog'istonda 2222 litr dizelni o'marmoqchi bo'lganlar qo'lga tushdi, qalampir.uz. URL: <https://qalampir.uz/uz/news/k-orak-alpogistonda-2222-litr-dizelni-umararmok-chi-bulganlar-k-ulga-tushdi-107510>

Komilov, A. (2024). O'zbekiston ichki ishiga "burun suqqan" Zaxarovaga Qodirov javob qaytardi, qalampir.uz. URL: <https://qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-ichki-ishiga-burun-suk-k-an-zakharovaga-k-odirov-zhavob-k-aytardi-107504>

Komilov, B. (2024). Baxtiyor Saidov BMTda O'zbekiston nomidan so'zga chiqdi, qalampir.uz. URL: <https://qalampir.uz/uz/news/bakhtiyer-saidov-bmt-da-uzbekiston-nomidan-suzga-chik-di-107501>

Mahkamova, D. (2024). Kiyimlaringizni parvarish qiling", "Apelsin olamiga sho'ng'ing" – Reklamalardagi til va tasvir masalasiga qachon yeng shimaramiz? oyina.uz. URL: <https://oyina.uz/uz/article/2625>

Nosir, T. (2025). Muallimdan tayoq yegan sulton, oyina.uz. URL: <https://oyina.uz/uz/teahouse/2952>

OAV: ISHID Moskvadagi terakt uchun mas'uliyatni gardaniga oldi. (2024). kun.uz. URL: <https://kun.uz/67208135#!>

Oliygo'ha rektorlari kambag'al oiladan 4 ming nafar yoshlarni o'qitishga bosh-qosh bo'ladi. (2024). kun.uz. URL: <https://kun.uz/24685248>

Saidov, A. (2024). Tehron Vashingtonni Isroil va Eron o'rtasidagi mojaroga "burun suqmaslik"ka chaqirdi, qalampir.uz. URL: <https://www.qalampir.uz/uz/news/te%D2%B3ron-vashingtonni-isroil-va-eron-urtasidagi-mozharoga-burun-suk-maslik-ka-chak-irdi-100052>

Tirilayotgan Orol – unga qanday jon bag'ishlash mumkin? (2024). kun.uz. URL: <https://kun.uz/news/2024/04/08/tirilayotgan-orol-unga-qanday-jon-bagishlash-mumkin#!>

Toshaliyev, I. (1995). Sarlavha stilistikasi. Toshkent, B. 3.

Верещинская, Ю.В. (2013). Испанский газетный заголовок: лингво-прагматический и национально-культурный аспекты: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Москва.

Mualliflar haqida:

SABIROVA Muxlisa Kadamovna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti PhD, dotsent v.b., Sibel_17@mail.ru

USE OF IDIOMS IN INTERNET TEXT HEADLINES

Abstract: This article analyzes internet text headlines, their unique characteristics, linguocultural aspects, and phenomena related to the use of idioms in headlines. The importance of linguistic signs in creating a national linguistic worldview through phraseological units used in internet text headlines has been studied.

Keywords: phraseological units, idiom, linguoculturology, national-cultural characteristics

About the Authors:

SABIROVA Mukhlisa Kadamovna - PhD, Acting Associate Professor at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Sibel_17@mail.ru

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING
MUHARRIRLIK FAOLIYATI

Vazira Abdyujanova,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada ulug‘ ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning millat ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni, muharrirlik faoliyati, mualliflar bilan ishlash usuli, tanqidiy-tahliliy maqolalari orqali milliy matbuot rivojiga qo‘shgan hissassi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ma’rifatparvar, milliy matbuot, muharrir, muallif, “Oyina” jurnali, millat otasi

Turkistonda o‘zbek tilidagi birinchi nashr chop etilgan yillardan boshlab (“Turkiston viloyatining gazetasi”, 1870-yil 28-aprel (10-may) mahalliy aholini hukumat hayoti, amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardor qiluvchi matbuot yuzaga keldi va u davlat bilan xalq o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini amalga oshira boshladi. “Turkiston viloyatining gazetasi” hukumat mafkurasini xalqqa singdirish yo‘lida xizmat qilishi bilan birga o‘z navbatida aholining siyosiy-ijtimoiy savodxonligini oshirish vazifasini ham bajargan. Vaqt o‘tishi bilan nashrning mazmun-mundariyasi kengayib bordi. Mahalliy aholi turmush tarzi, urf-odatlar, rasm-rusumlari gazetada doimiy tarzda tanqid qilingan bo‘lib, bunda ma’lum darajada gazeta haq edi. Zero, mahalliy aholining umumiy taraqqiyot darajasi, madaniyati, maorifi Yevropa mamlakatlaridagidan ancha

orqada qolgan edi. (Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. 1 jild. 2019.) Ayni shu jihati bilan gazeta o'lkada milliy matbuotning shakllanishi, uning erkin fikr aytish minbariga aylanishiga zamin hozirlagan deyish mumkin.

Bugungi kunda matbuot funksiyalari doirasi yanada kengaygan, dunyoda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlar bosma ommaviy axborot vositalari formatiga qator o'zgarishlar kiritib boshlagan bo'lsa-da, matbuotning bosh g'oyasi, asosiy maqsad-muddaosi o'zgargan emas. Gazetaning so'zi bugun ham ijtimoiy ta'sirchanlikka ega.

Jadid matbuoti millatni jaholat, qoloqlik botqog'idan qutqarish, xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otish, uni ma'rifatli qilish yo'lida xizmat qilgan bo'lsa, bugungi kun milliy matbuoti ham davlat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan, rivojlanishga bolta urayotgan illatlarni fosh etish, jamiyatda demokratik tamoyillarni qaror toptirish, har bir sohada adolat va shaffoflikning yuzaga chiqishini ta'minlash yo'lidan bormoqda.

O'zbek matbuoti taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqqan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Turon", "Sadoi Turkiston" gazetalari, "Oyina", "Al-Isloh" jurnallariga xalq ziyolilari, ma'rifatparvarlari muharrirlik qilishgan. Mazkur nashrlarda chop etilgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, shub bilan birga maishiy muammolarning yoritilishi, ko'tarilgan masalalarning bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagani zahirida nashr ishiga bosh bo'lgan muharrirlarning bilimi, mahorati, tajribasi katta rol o'ynagan deyish mumkin. Davrning qaltis siyosati, mafkura va g'oyasiga qarshi tura olgan muharrirlarning millatni yuksaltirish yo'lidagi jasorati, fidoyiligi, uzoqni ko'ra bilishi, o'z nashrlarida jamiyatning dolzarb muammolarini dadillik bilan qalamga olganliklari, ayovsiz va da'vatkor chiqishlari sabab ushbu gazeta-jurnallar o'z davrida ijtimoiy hayotning ko'zgusiga aylanib, so'z qudratini matbuot orqali namoyish etishi bilan birga uning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilgan.

Mazkur nashrlar orasida "Oyina" jurnalining alohida o'rni bor. "Jarida va majallalar millatni taraqqiy ettiruvchi bashariyat ixtirosidir", degan Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda jurnal chop etish tajribasini ham o'zi boshlab bergan. Aynan ushbu jurnal orqali biz Mahmudxo'ja Behbudiyning bilimdon, zukko va jonkuyar muharrir sifatida kashf etamiz.

Muharrir kim o'zi? U qanday vazifani bajaradi? Muharrir deganda avvalo "yozuvchi, tahrir qiluvchi" ma'nosi anglashiladi. Biroq asr boshi (XX asr — V.A)ga kelib muharrir nafaqat yozadigan, tahrir qiladigan, balki tahrir qilingan xabar va maqolalarning gazetada berilishini boshqaradigan, shuningdek, bir qancha vazifalarni bajara boshladi. (Saidov H.O., 1998.) O'zbek tilidagi birinchi to'ng'ich jurnal, 1913-yil 20-avgustda

birinchi soni chop etilgan “Oyna” jurnaliga Abdulla Avloniy “bu jurnal (“Oyna”) chiqquncha chiqqon jurnallarning eng birinchi va yaxshisi edi”, deya bergan bahosida jurnal muharriri Mahmudxo‘ja Behbudiyning beqiyos xizmati ham e’tirof etilgan deyish mumkin. O‘zbek va fors tillarida nashr qilingan jurnal Turkistondagi mahalliy aholini zamonaviy ilmu urfondan, ma’rifatdan bahramand etish, o‘lkadagi milliy ta’lim tizimini yangilashni bosh maqsad qildi. Shu sababdan ham materiallarning aksariyati maorifga, diniy hamda dunyoviy bilimlarni o‘rganishga da’vat etgan. Jurnal sahifalari davrning yangicha yashashga ishtiyoqmand, ozodlik orzusidagi ziyolilar uchun fikr aytish maydoniga aylanadi.

“Oyna”g‘a muqtadir muharrir va har tarafdin muxbirlar da’vat qilindi” (1913), deydi M.Behbudi “Bayoni hol” sarlavhali maqolasida. Jurnal muharriri o‘z atrofiga ziyoli mualliflarni to‘pladi, ulardan jurnalga maqola yozishni so‘rab turadi. Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Hoji Muin, Akobir Shomansur, Muhammad Sa’id, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzoda qalamiga mansub maqolalar, she’rlar “Oyina”ning ommalashuviga sabab bo‘ldi. Nashr yosh qalamkashlar, bo‘lg‘usi adib va ma’rifatparvarlar uchun tajriba maydoni vazifasini ham o‘tadi (Saidov, 2021).

“...mundarijoti ilmiy, adabiy, siyosiy, faniy va tarixiy maqolalardan, vuquot va axbori haftadan, kinoya va mudohakadan iborat” (Behbudi, 1913) bo‘lgan jurnal mamlakatning ijtimoiy muammolarini, yechimini kutayotgan jiddiy masalalarni keng yoritgani, bu orqali jamiyatda turli bahs-munozara, aks sadoni vujudga keltirgani, gazeta sahifalarida e’lon qilingan adabiyot vakillarining asarlari, tanqidiy-tahliliy yo‘nalishdagi materiallar sabab ham millat ziyolilari minbariga aylangan.

Behbudi, avvalo, o‘zi hammaga ibrat bo‘lib dolzarb maqolalar yozdi. “Ikki emas, to‘rt til lozim” (1-son), “Millatni kim isloh etar?” (12-son), “Favqulodda takfir” (12-son), “Bizni hollar va ishlar” (13-son), “Oh, bonklar bizni barbod etdi” (19-son), “Yoshlarg‘a murojaat” (21-son), “Tiyotr nadur?” (29-son), “Tanqid saralamoqdur” (31-son), “Ichgulikning zararlari” (36-son) kabi tahliliy-tanqidiy, publitsistik maqolalar muharrirning xalq ma’rifatini yuksaltirish yo‘lida xizmat qilishi, jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy-ijtimoiy voqea-hodisalarga befarq qaramasligi, aksincha ko‘zga tashlanayotgan muammolarni dadil ko‘tarib chiqishi, umuman, xalq hayotining barcha sohalaridagi islohotlar, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarga faol munosabat bildirib borishi kerakligini amalda ko‘rsatadi. Bu kabi amaliy ishlar ma’rifatparvar adibning “Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi uchun yo‘l ko‘rsatur... Kitob va gazet ila ummatni muslihi (islohi) uchun bahs va mukolamalar qilurlar” (Behbudi, 2006) degan ta’kidini amalda namoyon etadi.

Adib matbuotdagi o'tkir va dolzarb chiqishlari orqali, bir tarafdin, mamlakatni yuksaltirish uchun nimalarga e'tibor qaratishdan saboq bersa, ma'naviy-ma'rifiy, tanqidiy-tahliliy maqolalari orqali shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda tenglar ichida teng bo'lish uchun milliy manfaatlarni sobitqadamlik bilan himoya qilishga, yoshlarni ilm olishga, xorij tillarini o'rganishga, dunyo ko'rishga, eng muhimi, tafakkurni uyg'otishga chorlaydi. O'z vaqtida ulkan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy fikrlarni o'rta tashlagan Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatiga e'tibor bersak, bugun haqiqiy vatanparvar, millatparvar, el-yurt kelajagi uchun qayg'urgan fikri tiniq ziyoli, qarashlari keng fidoyi inson ko'z oldimizda gavdalanadi.

XX asr boshlarida o'zi tug'ilib o'sgan Vatan, kamolga yetgan yurtining har jihatdan hurligini orzu qilgan va bu yo'lida tinimsiz kurash olib borgan, yurt ozodligi uchun jonini ham qurbon qilgan ilg'or ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning istiqbolimizning chinakam fidoyisi, qo'rqmas kurashchisi deyish mumkin. O'zining serqirra faoliyati davomida "Millat otasi" degan buyuk nomga sazovor bo'lgan bu inson umri mobaynida o'z xalqini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy yuksalishlar sari yetakladi, odamlarni o'z ongu tafakkurini uyg'otishga, ilm bilan dunyoni egallashga da'vat etdi, ko'plab islohotlarning boshida o'zi turdi. Jamiyatda madaniy hayotni yuksaltirish yo'lida ilk teatrda asos solgan, birinchi jurnalni chop etgan, matbuotda o'tkir chiqishlar qilib xalqni ma'rifatga undagan, asriy xurofot va illatlardan xalos bo'lishga chaqirgan Mahmudxo'ja Behbudiy tom ma'noda ushbu sharaflil nomga munosibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Behbudiy, M. (2006). Tanlangan asarlar. Millatlar qanday taraqqiy etarlar? Toshkent: Ma'naviyat. 280 b.

Behbudiy, M. (1913). Bayoni hol, e-tarix.uz. URL: <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/916-maqola.html>

Nurmatov, A. va boshq. (2019). Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. 1 jild. Toshkent: O'zbekiston NMIU. 584 b.

Saidov, H.O. (1998). Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik va muharrirlik faoliyati. Fil.fan.nom. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 138 b.

Saidov, H.O. (2021). Jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi, oyina. uz. URL: <https://www.oyina.uz/kiril/article/107>

Mualliflar haqida:

ABDYUJANOVA Vazira Xusan qizi — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD, blaugranas_04@mail.ru

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY'S EDITORIAL ACTIVITIES

Abstract: This article analyzes the role of the great enlightener Mahmudkhoja Behbudi in elevating the nation's spirituality, his editorial activities, methods of working with authors, and his contribution to the development of the national press through critical and analytical articles.

Keywords: enlightener, national press, editor, author, "Oyina" magazine, father of the nation

About the Authors:

ABDYUJANOVA Vazira Khusan kizi — Senior Lecturer at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, PhD,
blaugranas_04@mail.ru

SAYDI UMIROV PUBLITSISTIKASIDA JADIDSHUNOS OLIM B.DO'STQORAYEV IJODI TAHLILI

Zulfiya Fayzullayeva,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jurnalist, publitsist S.Umirovning XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab, faoliyat yuritgan jadidlarning ilmiy merosini jiddiy o'rgangan va ajoyib asarlarni yozib qoldirgan atoqli adabiyotshunos olim B.Do'stqorayev haqidagi maqolalarda keltirilgan fikr-mulohazalari o'rin olgan. Shuningdek, jadidlarning ilmiy merosini o'rganish nima uchun bugungi kunda ayniqsa dolzarb ekanligi haqida ayrim xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'rifatparvarlik, jadidshunoslik, matbuot, qatag'on, ma'naviyat, publitsist

Bugungi kunda buyuk ajdodlarimiz, jadid va ma'rifatparvar bobolarimizning ma'naviy, ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosini tiklash, o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Oradan shuncha vaqt o'tsa-da, ular tomonidan ko'tarilgan ijtimoiy muammolar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zotan daholarning fikrlari global xususiyatga egabo'lib, ularni har bir ijtimoiy tuzumda hech bir istisnosiz bemalol qo'llash mumkin. Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvarda e'lon qilingan "Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudi tavalludining 150 yiligin keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ham jadid namoyandalarga bo'lgan e'tiborning yorqin namunasidir.

Jadidlar mavzusi uzoq yillar "yopiq" yoki "noqulay" mavzu bo'lgani sir emas. Biroq bizning jadidshunos olimlarimiz jadidlar deb atalmish millat fidoyilari haqida goh yashirin, goh pinhona, goh "qog'ozga o'rab" doim yozib kelishgan, ularning ayrimlari hatto o'sha olatasir zamonlarda ham jadidlarning hayoti va

ijodini, ularning faoliyatini ro'y-rost ko'rsatib turuvchi o'sha davr matbuotini o'rganishdan to'xtamagan va bu bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlar mustaqillikka erishganimizdan keyin yanada avj oldi. Mazkur yo'nalishda izlanishlar olib borgan va borayotgan jadidshunos olimlar guruhi shakllandi. Ularning har bir tadqiqoti ma'rifatparvar bobolarimizning faoliyati bo'yicha yangi qirralarni ochdi, "oq dog'lar" ancha shaffoflashdi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Bu tariximiz, kelajagimiz uchun juda kerak.

Jadidlar ijodi va faoliyati haqida qator ilmiy ishlar ham amalga oshirilgan, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan va bu mavzuni ilmiy jihatdan yoritishga bo'lgan qiziqish borgan sari avj olmoqda. Zero, hozirgi kun voqeligi ham shuni taqozo etmoqda. Jadidlar haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar orasida Solih Qosimov, Begali Qosimov, Nayim Karimov, To'ra Mirzayev, Ahmad Aliyev, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmad, Boybo'ta Do'stqorayev, Halim Sayid, Normurod Avazov, Zebo Ahrorova va boshqa olimlar alohida ajralib turadi.

Publitsist Saydi Umirov mana shunday jadidshunoslarning ayrimlari haqida turli maqolalar, ocherklar, xotiralar yozgan. Ular orasida jadidchilikni o'rganishni o'zlarining hayot tarzi, ilmiy ishlari asosiy mazmuni deya hisoblagan, bir joyda uzoq vaqt birga ishlashgan hamkasbi, hamfikru hammaslagi, yaqin do'sti Boybo'ta Do'stqorayev haqidagi maqolalarni alohida tilga olish joiz. Zotan, shuni aytib o'tish lozimki, Saydi Umirov jadidchilikni o'rganishga umrini baxshida qilgan yirik adabiyotshunos olim Boybo'ta Do'stqorayev bilan juda yaqin bo'lgan, birgalikdagi ish faoliyati davomida, ko'plab do'stona uchrashuvlarda, umumiy oilaviy tadbirlarda suhbat mavzusi, tabiiyki, Boybo'ta Do'stqorayevning ilmiy faoliyati markazida turgan jadidlar masalasini ham chetlab o'tmagan. S.Umirov "Sehrli va mehrli so'z" kitobi muqovasida yozganidek, "...qalamga olgan insonlarning aksariyatini ko'rganman, bilganman, muloqot qilganman, shaxsiyatidan xabardorman" (Umirov, 2017).

Qolaversa, Saydi Umirovning o'zi ham shu vaqtgacha ilmiy aylanmaga kiritilmagan, nevarasi Farhod Alizoda sa'y-harakati bilan kitoblari topilib, qayta nashr qilingan va jamoatchilikka ilk bor tanishtirila boshlagan samarqandlik alloma, jadid Sayid Rizo Alizoda ilmiy va ijodiy faoliyati bilan keng ommani tanishtirish ishiga baholi-qudrat hissa qo'shib, Alizoda haqidagi qator izlanishlari va maqolalarini respublikamizning turli ommaviy axborot vositalarida nashr etdi.

Boybo'ta Do'stqorayev – jadid matbuotining jonkuyar tadqiqotchisi. Shu kunlarda Behbudiy bobomizning 150-yilligi arafasida publitsist Saydi Umirovning yaqin do'sti, hamkasbi, maslakdoshi, jadidshunos olim, adabiyotshunos Boybo'ta

Do'stqorayevning "Do'stlarga armug'onim" deb nomlangan kitobi nashrdan chiqish arafasida turibdi. Kitobdan olimning mashaqqatli ijod yo'li va u qoldirgan ilmiy-adabiy meros haqida hamkasblari, do'stlari, shogirdlari, oila a'zolari va boshqa yaqin insonlar tomonidan bildirilgan yuksak e'tirof, xotiralarida o'chmas iz qoldirgan esdalik voqealar aks etgan maqolalar bilan birga, olimning uzoq yillik izlanishi natijasi bo'lgan "Do'stlarga armug'onim" to'plami joy olgan.

Yangi nashrda B.Do'stqorayevning jadidshunoslikni o'rganishga oid qimmatli maqolalari bilan birga, uning jadidshunoslik faoliyati haqida hamkasblari, shogirdlari, ilmiy jamoatchilik vakillari, oila a'zolarining qimmatli fikr-mulohazalari, xotiralari keltirilgan. Xususan, shoir Sirojiddin Sayyid Boybo'ta Do'stqorayevning Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lishini eslab, shunday yozadi: "Do'stqorayev domla 2007-yildan buyon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining rasmiy a'zosi, u kishiga Saydi Umirov, Begali Qosimov, Usmon Qo'chqor singari zabardast olim-u shoirlar tavsifnoma yozib bergan" (Do'stqorayev, 2025). Yirik jadidshunos olim Begali Qosimov Boybo'ta Do'stqorayevga uyushmaga a'zo bo'lish uchun tavsiyanoma yozar ekan, uning jadidshunoslik sohasida salmoqli ishlarni amalga oshirayotganini alohida e'tirof etgan. Pirovardida Boybo'ta Do'stqorayev yuqorida nomlari tilga olingan yirik olimlarning jadidshunoslikka oid izlanishlarini davom ettirib, o'zi ham jadidlar faoliyati, ularning mafkurasi, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari, davlat tuzumi va tutumi qanday bo'lishi lozimligi haqidagi qarashlarining o'ziga xosligi to'g'risida qator ilmiy maqolalar yozdi va respublika OAVda chop etdi. Bu maqolalarda Boybo'ta Do'stqorayev jadidlarning yirik namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi va faoliyatiga alohida e'tibor qaratgani guvohi bo'lamiz.

Mazkur to'plamga Saydi Umirovning B.Do'stqorayev haqidagi "Do'st haqida so'z" nomli maqolasi ham kiritilgan bo'lib, unda muallif, jumladan, jadidshunos olimga shunday ta'rif beradi: "Boybo'ta Do'stqorayev "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan haqiqatni barvaqt anglab yetgan, butun ongli hayoti davomida bu hikmatga izchil amal qilishga intilib kelayotgan zukko adabiyotshunos, jurnalist, mudarris va murabbiylar sirasidan. U XIX asr oxiri – XX asr birinchi yarmi o'zbek jurnalistikasi tarixining bilimdoni, ayni paytda, mazkur davr adabiyoti, madaniy hayoti, mafkuraviy kurash jarayonlaridan ham puxta xabardor tadqiqotchi, mutaxassisdir. Bu davrlar bo'yicha mutaxassis bo'lishning qiyin tomonlari bor. Buning uchun, birinchidan, asl manbani o'qiy bilish, ya'ni eski o'zbek imlosidan xabardorlik; ikkinchidan, qunt, hafsala va sabr-bardosh; uchinchidan, tahliliy tafakkur zarur. Bularning bari hamkasbimiz B.Do'stqorayevda mujassam" (2025).

Publitsist Saydi Umirov Boybo'ta Do'stqorayevning "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" darsligiga yuksak baho berar ekan, shunday yozadi: "B.Do'stqorayev ilmiy izlanishlarining uchinchi qismi jadidchilikni o'rganishga bag'ishlangan. Bu soha ham yuqorida biz tilga olgan mavzular bilan chambarchas bog'liq. Zero, mazkur sohani o'rganish katta mehnat va sabr-bardoshni taqozo etadi. E'tiborli joyi shundaki, jadidlar hayoti va faoliyatini xolis o'rganish sho'rolar davrida taqiqlab qo'yilgan, ko'p manbalar yo yo'qolgan (ehtimol, yo'qotilgan), yoki "ko'zdan pana"da saqlangan. Boybo'ta arxivlarga ham yo'l topib, sarg'aygan qog'oz taxlamlarini chidam bilan titkilab, zarrama-zarra ma'lumot to'pladi va ilmiy jamoatchilikning e'tiborini tortgan maqolalarini peshma-pesh e'lon qildi. Uning Mahmudxo'ja Behbudiyl, Munavvar qori singari ajdodlarimiz hayoti va amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi ishonchli manbalarga asoslanib yozgan asarlari qimmatli ahamiyatga ega" (Do'stqorayev, 2025).

Publitsist Saydi Umirov nima sababdan B.Do'stqorayev ijodi haqida alohida to'xtalgan. Buni anglash uchun B.Do'stqorayev qalamiga mansub yangi nashrni mutolaa qilmoq joiz. Kitobga "Jadidlar mafkurasi" deb nomlangan maqola ham kiritilgan bo'lib, unda, jumladan, muallif Behbudiyning vatanparvarlik haqidagi fikrlariga alohida urg'u berib, shunday yozadi: "Behbudiyl hazratlarining Vatan haqida yozganlari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Vatanni sotish, undan kechish mumkin emas, deydi. Uning bu so'zlarini Vatan haqida yozilgan asarlarga bosh sarlavha qilish mumkin. Uning 1914-yili yozgan o'sha yoniq so'zlari mana: Quddus shahridagi "kalisoning oldinda toshkandlik yosh attor bor ekanki, hoji va zavvorlar (ziyoratchilar) olaturgon nimarsalar sotadur. Do'koniga bir oz o'lturduk. Mamlakatdan so'radi. Qo'liga bir nusxa "Oyna" va "Turkiston xaritasi"ni berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini ko'rsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni o'pub, ko'ziga surtdi. (Hubbul vatani min al iymon). Xususan, Vatan va ahli diyorni(ng) qadri musofiratga ma'lum bo'lur. Haqiqatan, Vatan muqaddasdur. Qadrini bilmoq kerak. Sotmasga va o'lguncha ayrilmasga kerakdur" (Do'stqorayev, 2025).

B.Do'stqorayev to'plamga kirgan "Jadidlarni ta'lim va maorifga oid qarashlari" maqolasida jadidchilik harakatining yuzaga kelishi mohiyati va ildizini chuqur o'rgangan va tadqiq etgani bois quyidagi muhim xulosalarni o'rta tashlaydi: "Eng avvalo, shunday savol tug'iladi: "Jadidchilik nima uchun yuzaga keldi? Uning mohiyati nimada? Turkistonda paydo bo'lgan jadidchilikning o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lishi, taraqqiy topish jarayonlari va xotimasi qanday sodir bo'ldi?"

Ma'lumki, ijtimoiy hayot tarzining muayyan davrdagi holati jamiyat a'zolarining aksariyatini qoniqtirmay qoladi.

Natijada ular ijtimoiy tuzumni o'zgartirish yoki uni turg'un, qotib qolgan holatdan chiqarish uchun yo inqilob qilish, yo isloh etish harakatiga tushadilar. Jadidlarning yuzaga kelishi ham muayyan ijtimoiy voqelikdan qoniqmaslik oqibatida sodir bo'lgandi" (Do'stqorayev, 2025).

Boybo'ta Do'stoqorayevning yangi kitobi jadidchilik harakati va uning mohiyati bilan qiziquvchilar uchun yana bir tuhfa bo'ldi. Olimning qilgan ishi tarixda, kitoblarda mangu yashaydi, o'chmaydi.

Saydi Umirov ijodiy laboratoriyasini o'rganib, jadidshunos olimlar faoliyati, bu mavzuni o'rganish va tadqiq etish borasida erishgan yutuqlari Ustozning doimiy e'tiborida turganiga guvoh bo'ldik.

Saydi Umirov ijodida portret-ocherklar salmoqli o'rinni egallaydi. Publitsist qahramonlari orasida umrini jadidlar faoliyati va ularning ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlagan taniqli olimlar ham bor. Jumladan, Solih Qosimov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Boybo'ta Do'stqorayev va boshqalar. Shuningdek, jadid matbuotining yana bir vakili, ma'rifatparvar Sayid Rizo Alizoda haqida "Samarqandlik mutafakkir", "Sayid Rizo Alizoda" maqolalarini yozgan.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, publitsist Saydi Umirovning jadidchilik va uning o'chmas merosini chuqur o'rganish ilmiga beqiyos hissa qo'shgan yirik olimlar haqidagi salmoqli maqolalari, avvalambor, keng jamoatchilikni jadidchilik mavzusi bilan yaqindan tanishtirishni maqsad qilgan va, qolaversa, yirik jadidshunos olimlarning bu boradagi faoliyatlari oson kechmagani hamda, o'z navbatida, ularning o'zi ham "hozirgi zamonning jadidlari" deb nomlanishga loyiq ekaniga urg'u berishga qaratilgani bilan ahmayatlidir.

So'nggi vaqtlarda Behbudiy asarlarini o'rganishga ishtiyoq oshgani ayni haqiqat, bu haqda Prezidentning farmoni imzolangani nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Behbudiy ijodiy merosini o'rganishda jadidshunoslarning ilmiy izlanishlari bilan yaqindan tanishish qo'l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Umirov, S. (2017). Sehrli va mehrli so'z. Toshkent: Bodomzor invest.

Do'stqorayev, B. (2025). Do'stlarga armug'onim. Toshkent: Bodomzor books

Mualliflar haqida:

FAYZULLAYEVA Zulfiya Saidovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, zulyaa7277@gmail.com

ANALYSIS OF JADID SCHOLAR B. DUSTKORAYEV'S WORK IN
SAYDI UMIROV'S JOURNALISM

Abstract: This article presents the views of journalist and publicist S. Umirov on B. Dustkorayev, a prominent literary scholar who thoroughly studied the scientific heritage of the Jadids who lived and worked in the late 19th - early 20th centuries and authored remarkable works. Additionally, it offers some conclusions on why the study of the Jadids' scientific legacy is particularly relevant today.

Keywords: Jadidism, enlightenment, Jadid studies, press, repression, spirituality, publicist

About the Authors:

FAYZULLAYEVA Zulfiya Saidovna — Senior Lecturer at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,
zulyaa7277@gmail.com

MILLATLARARO TOTUVLIK MASALASINI
MEDIADA YORITILISHI

Dildora Rizayeva,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda kechayotgan muhim siyosiy- ijtimoiy, huquqiy-ma'rifiy jarayonlar va dunyoda ro'y berayotgan voqealar muhokama qilinadi. Xususan, millatlararo totuvlik masalalari, uning negizida diniy bag'ikenglikka bag'ishlangan sonlari ham mavjud bo'lib, soha mutaxasislari bilan birgalikda o'rta tashlangan mavzu yuzasidan fikr va mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Tinchlik, barqarorlik, tolerantlik, media, internet, OAV, ijtimoiy tarmoq, jurnalistika

Millatlar aro totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, millatparvarlik, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Hozirgi globallashuv davrida millatlar aro totuvlik, davlatlararo bag'rikenglik muammosi yer kurrasida dolzarb masalalardan biriga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda dunyodagi mojarolar, shuningdek, yolg'on manbalarga tayangan holda tarqatilgan asossiz xabarlar aslida boshqa maqsadlarga ega bo'lgan qora kuchlarning millatlar o'rtasida nizo keltirishga urinishlaridir. Davlatlararo ana shunday tahdidlar internetda kundan kunga ko'payib borayotgani achinarli holdir. Ularni urishtirish faqatgina manfaat ko'zlagan gegemonlar, agitatsion harakat bilan subektiv maqsadga erishishni ko'zlaydigan

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105>

kishilargagina qo‘l keladi. Masalan, bir mamlakatda yashayotgan ikki millat vakili – aka-uka, opa-singil, deb hisoblanadi. Bu haqda Bosh Qomusimizning 8-moddasida keltirilganidek, “O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, urf-odat, an‘analariga sodiqligi, demokratiya, erkinlik va tenglik, adolat va birdamlik g‘oyalariga asoslangan jamiyat barpo qilish Qomusimizning asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Shu bois, millatlararo totuvlik va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar har qanday ko‘pmillatli davlat uchun hal qiluvchi omil ekanini har doim eslatib o‘tish muhim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, xalqparvar va millatparvar siyosati, shuningdek, mintaqamiqyosida faol tashqi siyosat olib borayotganligi, qo‘shni davlatlar bilan har tomonlama, o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirayotganligi, ezgulik va tinchlik-osoyishtalik omili bo‘lgan diniy bag‘rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga imkon bermoqda. Jumladan, totuvlik kishilarning qarashlari, e‘tiqodi va tanlovlariga nisbatan hurmat bilan yondoshishida, dini, irqi, millati va jinsidan qat’iy nazar teng munosabatda bo‘lishda namoyon bo‘ladi. Rivojlanish yo‘lida borayotgan yurtimiz uchun millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglik masalalari dolzarb va hamisha ahamiyatli hisoblanadi. Yurtimiz hududida qadimdan ko‘plab millat vakillari istiqomat qilib kelgan. Millatlararo munosabatlarda uyg‘unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko‘pmillatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta’sir etishi ayni haqiqatdir. Millatlararo munosabatlar g‘oyasi umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2023 yil 19 sentyabrdagi 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbuslari asosida joriy yil 15-16 oktyabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida “Islom – tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya yuqori saviyada o‘tkazildi. Unda dunyoning 22 ta mamlakatidan 70 dan ortiq xorijiy mehmonlar – ulamolar, muftiylar, islomshunos olimlar, xalqaro tashkilotlarning vakillari hamda yurtimizda faoliyat yuritayotgan diplomatik korpus rahbarlari ishtirok etdi.

O‘zbekiston Milliy axborot agentligining saytida diniy bag‘rikenglik, totuvlik, islomiy kadriyatlarimizni asrab avaylash, tinch va osoyishta xayotimizning, barkaror tarakkiyotimizning mustahkam kafolatidir, degan ezgu va dolzarb mavzularda

maqolalar berib boriladi. Maqolada millatlararo totuvlik va xalqlararo do'stlik barqarorligida diniy bag'rikenglik katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Masalan, "Yangi O'zbekiston diniy bag'rikenglik" mavzusidagi xalqaro konferensiya xorijiy mutaxassislar nigohida" nomli maqolada Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida hamda BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi sessiyasida nutq so'zlab, muhim taklif va tashabbuslarni atroflicha tahlil qilingan. "Prezidentimizning muhim taklifi asosida 2018 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiya qabul qilindi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur rezolyusiyaning Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 50 dan ortiq mamlakatlar yakdil qo'llab-quvvatlashdi", deya xabar beradi O'zA muxbiri. Xususan, maqolada millatlararo totuvlik masalalari, uning negizida diniy bag'rikenglikka batafsil to'xtalib o'tib, soha mutaxasislari bilan birgalikda Turkiyaning Saljuq universiteti Saljuq tadqiqotlari instituti mudiri, professor Mustafa Demirji, Novoapostol cherkovi Markaziy Osiyo okrugi rahbari Sergey Kretoy, Markaziy Osiyo katolik yepiskoplari konferensiyasi raisi, qozog'istonlik Yepiskop Xose Luis Mumbiela Serra, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi rahbari Mitropolit Vikentiy, Rossiya Yevangel-Lyuteran cherkovi arxiepiskopi Vladimir Provorov, Malayziya Islom ilmlari universiteti professori Abd Rahman Mohd Rosmizi, MDH Hind forumi raisi, Rossiya Hind Kengashi raisi Sanjit DJXA, Ahmad Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti kafedra mudirining Faride Kamalovalarning millatlararo hamjihatlik, o'zaro hamkorlik, xalqlar do'stligi masalalariga oid mavzu yuzasidan fikr va mulohazalar bildiriladi. Saytda berilgan millatlararo totuvlik, bag'rikenglik mavzusida tayyorlangan maxsus fotoreportajda O'zA fotomuxbiri Muqimjon Qodirov yurtimizda xalqlar do'stligi va totuv hayot kechirishi borasida fikr va mulohazalari bildirilgan. Reportajda O'zbekiston jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va "Search for Common Ground" xalqaro tashkiloti (AQSH) hamkorligida "Ijtimoiy o'zgarishlar davrida ommaviy axborot vositalarining o'rni" mavzusida seminar-trening tashkil etganligi va unda diniy bag'rikenglik tamoyillarini OAVda keng targ'ib qilish masalasiga alohida urg'u berilgani haqida ta'kidlandi.

O'zAning veb-sahifasida jurnalistlar M.Turdaliev, N. Abduvoitovlarning videolavhasida "Poytaxtimizda 'Markaziy Osiyoda dinlararo va bir din ichidagi bag'rikenglik masalalarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining o'rni' mavzusida xalqaro davra suhbat bo'lib o'tmoqda. Unda O'zbekiston mediya

sohasi vakillari bilan bir qatorda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistondan mutaxassislar ishtirok etishmoqda”, degan xabar joy olgan. Maqolada mazkur treninglar davomida mahalliy ommaviy axborot vositalari jurnalistlari, bloggerlar va fuqarolik faollari bag‘rikenglik muammosi, ko‘p konfessiyali O‘zbekistonda dinlararo bag‘rikenglikning ahamiyati va muammolari bo‘yicha o‘z bilim va xabardorligini oshirishga muvaffaq bo‘ldi, deyiladi.

Diniy bag‘rikenglik millatlarning tolerant hayot kechirishida beqiyos ahamiyatga ega va o‘zbek mediasida ushbu mavzu yuzasidan soha mutaxassislari tomonidan atroflicha fikr va mulohazalar bildirilib, soxta Buxoriy, Samarqandiy, Termiziy chiqmasliklari uchun bobolarimiz xususan, Buxoriy ilmiy merosini chuqur o‘rganish bilan birga jahonga tanitish, bu bilan jahon hamjamiyatining noto‘g‘ri fikrlarini o‘zgartirish zarur.

Xalqlarning osoyishta hayot kechirishi global urushlar hamda muammolarning oldini oladi va bunda mamlakatlarning boshqa millat vakillariga nisbatan yuritayotgan siyosatlari muhim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda ta’kidlash joiz, yurtimizda totuvlikni ta’minlashdagi islohotlar va murosali kelishuvlarning imzolanishi natijasida 130 dan ortiq millat vakillari yurtimizda istiqomat qilib kelmoqda va O‘zbekistonni o‘z ona yurti deb bilishlariga sabab bo‘lmoqda. Ularning madaniy meroslari, an‘analarini davom ettirish, diniy e’tiqod erkinligi borasida bir qancha imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan. Harakatlar strategiyasining 5-yo‘nalishi sifatida millatlararo totuvlikning tilga olinishi esa ushbu masalaning nafaqat bugungi kunda dolzarbligi balki, kelajak uchun ham muhim ahamiyat kasb etishini isboti.

Totuvlik – o‘zaro do‘stona munosabat, ahillikka asoslangan, ahil turmush kechirish, degan ma’noni anglatadi. Insoniyatning ma’naviy tarixiga millatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan qaralsa, barcha dinlar odamzodning bir ota-onadan tug‘ilgan og‘a-iniligini, tengligini ta’kidlaydi. Shunindek, O‘zbekistonda bugunga qadar yurtimizda istiqomat qiluvchi boshqa millat vakillarining osoyishta hayot kechirishlarini ta’minlanayotgani, ularning madaniyatlari o‘zbek madaniyati singari teng e’zozlanishi, ko‘chalar, sayilgoh va istirohat bog‘lari, jamoat transportida metro bekatlarining nomlari bir qancha boshqa millat vakillari nomi bilan atalishi (Xalqlar do‘stligi maydoni, Do‘stlik bog‘i, Seul bog‘i, Ashxobod bog‘i, Yapon bog‘i, Pushkin, Do‘stlik, Xalqlar do‘stligi metro bekatlari) fikrimizning yorqin misoli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Qodirov, M. (2025). Diniy bag'rikenglik va OAV, uza.uz. URL: https://uza.uz/uz/posts/diniy-bagrikenglik-va-oav_549528

Turdaliyeva, M., Abduvoitov, N. (2025). Diniy bag'rikenglik — taraqqiyot garovi, uza.uz. URL: https://uza.uz/uz/posts/diniy-bagrikenglik-taraqqiyot-garovi-video_583341

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023). Toshkent: O'zbekiston, B-7.

“Yangi O'zbekiston diniy bag'rikenglik” mavzusidagi xalqaro konferensiya xorijiy mutaxassislar nigohida. (2025). uza.uz. URL: https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-diniy-bagrikenglik-mavzusidagi-xalqaro-konferenciya-xorizhiy-mutaxassislar-nigohida_660948

Mualliflar haqida:

RIZAYEVA Dildora Hakimjonovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, diliorom5@mail.ru

MEDIA COVERAGE OF INTERETHNIC HARMONY ISSUES

Abstract: This article discusses important political-social, legal-educational processes taking place in our country and events occurring in the world. In particular, it addresses issues of interethnic harmony, including topics dedicated to religious tolerance, and presents opinions and comments on these subjects in collaboration with field experts.

Keywords: Peace, stability, tolerance, media, internet, mass media, social network, journalism

About the Authors:

RIZAYEVA Dildora Hakimjonovna — senior Lecturer of the Department of Theory and Practice of Media, University of Journalism and Mass Communications, diliorom5@mail.ru

JADID MATBUOTIDA XAT JANRINING O‘RNI

Yoqutxon Erkaboyeva,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola badiiy-publitsistik janrlar sirasiga kiruvchi xat janrining tutgan o‘rni va ahamiyatini jadid matbuoti orqali ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan. Unda asosiy e‘tibor jadidlarning yetuk namoyondalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibratlar tomonidan matbuotda chop etilgan xatlarni tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: matbuot, epistolyar publitsistika, xat, adresat, oshkora chaqiruv, ochiq xat, matn, tarixiy maktub, diplomatik maktub, adabiy maktub, ijtimoiy muammo

Badiiy-publitsistik janrlar sirasida xat alohida o‘rin va mavqega ega. Xat – juda qadimiy, yoshi ulug‘, “mo‘ysafid”, shu bilan birga keng taqalgan janrlardan hisoblanadi. Yozuv paydo bo‘lgach, odamlarda fikr-tuyg‘ularini xat oqali ifoda etishga ehtiyoj tug‘ilgan. Shu bois, uning yoshini yozuv yoshi bilan barobar deyish mumkin. Jahon publitsistikasi va adabiyotida xat shaklida yozilgan bir qator she‘rlar, poemalar, hikoya, qissa, romanlar, hatto dramatik asarlar mavjud.

Xat ilmiy adabiyotda epistolyar publitsistika deb nomlanadi. Xat so‘zi arabcha bo‘lib, bir odamdan ikkinchi odamga yozma shaklda yo‘llangan matn, ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan yozuvdir. Bu so‘z xuddi yuqoridagi ma‘noni bildiruvchi maktub, noma deb ham yuritiladi. Xatning matbuotda va yozma adabiyotda keng o‘rin oluvchi muhim ko‘rinishlaridan biri adabiy-badiiy xatlar yoki epistolyar publitsistikadir. Epistolyar so‘zi lotincha “eristola” – xat, yuborilgan ma‘lumot, degan ma‘noni bildiradi. Bu janr adabiy-badiiy janr yoki publitsistik asarning xat, maktub tarzida ifoda etilishidir (Abdurauf, 1910).

Bu janrning asoschisi qadimiy yunon faylasufi Epikur (miloddan avvalgi 341 yilda tug‘ilib, 270 yilda vafot etgan) hisoblanadi (Abdulhamid, 1936).

Xat Sharqda publitsistik janrlarning eng qadimiylaridan biri sanaladi. Maktub(noma)ning rivojlanish jarayoni Oromiy (Yaramey), Avesto, Uyg‘ur, O‘rxun-Enisey kabi qadimiy yozuv yodgorliklari namunalarining taraqqiyot tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Sharq adabiyotida, ayniqsa, keng tarqalgan maktub shaklidagi she‘riy, nasriy asarlar “noma” deb atalgani ma‘lum. Xat (noma) Sharqda siyosiy publitsistikaning eng qadimgi janrlaridan sanaladi.

“Noma qadimiy fors-tojik bo‘lib, u avvaldan namak, nomak shakllarida, keyinchalik esa hozir qo‘llaniladigan formada (noma) ishlatilgan. Noma so‘zining lug‘aviy ma‘nosi keng bo‘lib, u xat, yorliq, kitob va asar ma‘nolarini anglatadi (Furqat, 1959).

Xat muhim ijtimoiy-siyosiy mazmun mohiyat kasb etgan, salmoqli muammoni ko'tarib chiqqan, jamoatchilik fikrini qo'zg'atgan, ifoda etgan taqdirdagina badiiy-publitsistik janr alomati, xususiyatlariga ega bo'ladi. Turkistonda matbuot yuzaga kelgach, xat publitsistik janr sifatida namoyon bo'ldi.

1870-yildan Toshkentda "Turkiston viloyati gazet" chiqqan boshlaydi. Unda mahalliy ziyolilar ham ishtirok etadilar. Jumladan, Furqat o'zbek tilidagi matbuotda gazeta janrlarining paydo bo'lishida katta rol o'ynadi. Uning gazetada bosilgan materiallarida xabar, korrespondensiya, reportaj, maqola kabi kichik janrlarning ayrim muhim xususiyatlarini ko'rish mumkin. Furqat publitsistikasida xat janrining ancha shakllangan belgilari uchraydi. Furqat xatlarida, avvalo, xat muallifining shaxsiyati, tasvirlangan faktga aniq munosabati yaqqol sezilib turadi.

"Bir xo'qandlik tolibul ilmning xati" ("Turkiston viloyati gazet" 1890, 11-aprel)da Furqat Toshkentda rus gimnaziyasini kirib ko'rganligi haqida yozadi. Toshkentda rus gimnaziyasi bor ekanligi haqidagi faktni ma'lum qilish — muallifning muddaosi emas, albatta. Gimnaziya ochilganligi haqida avval xabar qilingan edi. Muallifning asosiy muddaosi ushbu faktga nisbatan o'z munosabatini bildirish, his-tuyg'ularini izhor etishdir. Furqat gimnaziyadan olgan taassurotini yozadi: "Aning tamoshasida bizlarga ko'b xayriyatlar yuzlandi va aqlimiz lol bo'ldi... Bu xususda afsus qildiikki, bizni(ng) o'tgan xonlarimiz bu tariqa ilm va nizomga qo'shish qildursalar erdi, to bu dam xalqimiz ko'b ilmdin bahramand bo'lur erdi" (Samad, 2010).

Xat yozishda ham o'ziga xos talablar mavjud. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Xat yozmoq shartlari" maqolasida xat yozishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi va uning qay tarzda yozilishi shartlari ko'rsatib o'tilgan:

"Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganda, o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunub, so'ngra yozsa kerak.

O'zi bilmaydurgon lug'atni mumkin qadarincha yozmasun.

Har kim ma'nosig'a tushunmaydurgon kalima va begona lug'atni so'z ichig'a yozmoq lozim bo'lganda, harakat qo'ymoq kerak.

Xat borib tegadurgon odamni mulohaza qilib, oni fahm va bilishig'a muvofiq yozmoq lozim. Ahli fan, ulamo va udabog'a maxsus yozilaturg'on xatlar, mahkama va dorulqazo maktublari, ilmiy siyosiy maqolalar yaxshi va adabiy suratg'a yozilsa kerak. Xatni kamso'z, serma'no yozmoq kerak. Har bir xatni o'qib ko'rub, ba'dinda yuborilsun.

Maktubg'a haqorat, ta'na, hazl, fisk, va gumohg'a taalluq so'zlar aslo yozilmasun" (Ibrat, 1911).

Jadidlar matbuotining yetuk namoyandalari Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Cho'lpon,

Is'hoqxon Ibratlarning ijodida xat janri alohida o'ringa ega. Xususan, Abdurauf Fitratning "Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachiga ochiq maktub" (Behbudiy, 1999) nomli maktubi ilk bor 1910-yili Istanbulda chiqadigan "Ta'rufi muslimin" ("Musulmonlar ta'riflari") nomli "diniy, siyosiy, tarixiy, falsafiy va ahvoli olam"dan bahs qiluvchi haftalik majalla sahifalarida, (1328/1910-yil, 25-adad, 2-jild; 8-dekabr, payshanba) e'lon qilingan. Maktub Amir Olimxon Buxoro taxtiga o'tirgandan keyin Nasrulloh Parvonachining bosh vazir lavozimiga tayinlanishi munosabati bilan yozilgan. Fitratning Istanbulda chop etilgan ilk asarlari kabi bu maktub ham fors tilida bitilgan. Garchi majalla turk tilida chiqib turgan bo'lsa ham Fitratning bu maktubini ayni holda, ya'ni fors tilida chop etgan.

Munavvarqori Abdurashidxonovning "Turkiston sho'rolar jumhuriyatidagi maorifparvar yoshlarga xitob" (Abdurashidxonov, 1923) nomli maqolasida xat janrining unsurlari ko'zga tashlanadi. Auditoriya xarakteridan qat'iy nazar xatlarni ikki asosiy guruh: aniq shaxslarga qaratilgan hamda qaysidir ijtimoiy guruh, mamlakat aholisiga qaratilgan xatlarga bo'lish mumkin (Valixo'jayev, 1974). Munavvarqorining ushbu xati ijtimoiy guruh, mamlakat aholisiga qaratilgan jiddiy ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, unda jamiyat va fuqarolar bilan bog'liq yechimini kutayotgan dolzarb masalaga bag'ishlanishi bilan ahamiyatlidir.

Butun o'lkadagi o'zbek maorif-madaniyat xodimlari o'z oralaridagi barcha janjal va bitishmasliklarni tashlab, qo'l-qo'lga berilib, maorifning yuksalishi uchun ortiq darajada zo'r g'ayrat bilan ishlash, xalqni maorifga va maorifni xalqqa yaqinlashtirmoq uchun qo'ldan kelgan har bir chorani ko'rish borasida xitob yangraydi.

Abdulhamid Cho'lpon "Boshqarmaga xat" (Xudoyqulov, 2011) maqolasida N.To'raqulovning "Hamlet"ga tuhmat" ("Qizil O'zbekiston", 1936-yil, 27-iyul) nomli chiqishiga javob tariqasida yozilgan va "Qizil O'zbekiston"ning shu yil 28-iyul sonida e'lon qilingan.

Is'hoqxon Ibrat "Tahririyatga maktub" (Тертичный, 2013) nomli maqola 1911-yili Qo'qon-Namangan temir yo'lining qurilishi va ishga tushirilishi munosabati bilan yozilgan. Is'hoqxon Ibrat ushbu voqeaga bag'ishlab "Tarixi vagon Is'hoqxon Ibratdin" nomi bilan katta hajmda muxammas ham bitgan.

Jadid matbuotida e'lon qilingan xatlarda muhim ijtimoiy masalalar inson hayoti va faoliyati bilan bog'liq ravishda, mantiqiy muhokama hamda obrazli publitsistik vositalar orqali tahlil etiladi. Xat janrida bitilgan materiallarda mavzular erkin tilga olinadi, ochiq tanqid qilinadi. Aytish mumkinki, o'sha davr jurnalistikasida mavjud muammolarni erkin oshkor qilish va ularning yechimini topishlarida xat janrining o'zni kattadir. Maktublar mazmunidan

xat egasining hayoti, tabiatiga xos chizgilarni to'ldiruvchi nuqtalarni topish mumkin.

Xat – asar g'oyasi, muallif niyatini amalga oshirishda katta imkoniyatlar yaratadigan muhim janrdir. Darhaqiqat bugun jamiyatda uchrab turgan muammolarni erkin tilga olish va ochiq tanqid qilish jurnalistikaning asosiy vazifalardan biridir. Shu vazifani ado etishda biz o'rganib chiqqan xat janrining ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdulhamid, Ch. (1936). Boshqarmaga xat, "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 27-iyul soni.

Abdurauf, F. (1910). Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachiga ochiq maktub, Ta'rufi muslimin, 8-dekabr, 25-soni.

Abdurashidxonov, M. (1923). Turkiston sho'rolar jumhuriyatidagi maorifparvar yoshlarga xitob, "Turkiston" gazetasi, 1-yanvar soni.

Behbudiy, M. (1999). Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat. 218-bet.

Furqat. (1959). Tanlangan asarlar, II tom. Toshkent: Manaviyat. 123-bet.

Ibrat, I. (1911). Tahririyatga maktub, Tuzemni gazet.

Samad, A. (tuzuvchi). (2010). G'oyibona muhabbat. Toshkent: Meriyus. 14-bet.

Valixo'jayev, B. (1974). O'zbek epik poeziyasi tarixi. Toshkent: Fan, 8-bet.

Xudoyqulov, M. (2011). Jurnalistika va publitsistika. Toshkent: Tafakkur, 205-bet.

Тертычный, А.А. (2013). Аналитическая журналистика. 2-е изд., испр. и доп. Москва: Aspekt Press.

Mualliflar haqida:

ERKABOYEVA Yoqutxon Mamasobirovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, y.erkabaeva@mail.ru

MEDIA COVERAGE OF INTERETHNIC HARMONY ISSUES

Abstract: This article is devoted to demonstrating the role and importance of the letter genre, which belongs to the artistic-journalistic genres, through the Jadid press. The main focus is on analyzing letters published in the press by prominent representatives of the Jadid movement — Mahmudkhoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidkhonov, Abdulhamid Cholpon, and Is'hoqxon Ibrat.

Keywords: press, epistolary journalism, letter, addressee, public appeal, open letter, text, historical letter, diplomatic letter, literary letter, social issue

About the Authors:

ERKABOYEVA Yoqutxon Mamasobirovna — senior teacher of the Department of Theory and Practice of Media, University of Journalism and Mass Communications, y.erkabaeva@mail.ru

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA XALQARO MAVZUNING TUTGAN O‘RNI

A‘zamjon Dadaxonov,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiylar publitistikasida xalqaro mavzularning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Mahmudxo‘ja Behbudiylar, o‘zining hayoti va faoliyatida, nafaqat o‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratgan, balki xalqaro masalalarni ham chuqur yoritgan. Uning publitistikasalaridajahonsiyosati, davlatlararomunosabatlar va xalqaro ijtimoiy jarayonlar haqidagi fikrlar o‘z aksini topgan. Maqolada, Behbudiylarning xalqaro mavzularni qalamga olish mahorati, ularning o‘zbek jamiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatganligi va uning publitistikasining bugungi kundagi ahamiyati o‘rganiladi. Xalqaro masalalarni yoritish orqali Behbudiylar o‘zining dunyoqarashi va demokratik qadriyatlarni aks ettirgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiylar, publitistika, xalqaro mavzular, ijtimoiy jarayonlar, Sharq va G‘arb munosabatlari

Mahmudxo‘ja Behbudiylar Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, ilk dramaturg, noshir va jurnalist (1999) sifatida tarixga kirgan. Uning faoliyati nafaqat o‘z davrining ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotiga, balki xalqaro maydonga ham alohida ta‘sir ko‘rsatgan. Behbudiylar ijodi, ayniqsa, o‘zbek xalqi va Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga doir yangi g‘oyalar va fikrlar bilan boyitilgan. U o‘z faoliyatida nafaqat milliy, balki xalqaro masalalarni ham yoritishga katta ahamiyat bergan. Ushbu maqolada ko‘pqirrali adib ijodidagi muhim jihatlardan biri - xalqaro mavzularni qalamga olish masaladi tahlil etiladi.

Xalqaro mavzularni qalamga olmoqchi bo‘lgan har qanday ijodkor (jurnalist) dastlab xorijda uzatiladigan yangiliklar va xorij matbuoti bilan yaqindan tanish bo‘lishi, ularni o‘z asil tilida kuzatib borishi talab etiladi. Olimlarning ta‘kidlashlaricha, Mahmudxo‘ja Behbudiylar 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan (Abdurashidov, 2022).

Manbalarshuni ko‘rsatadiki, Behbudiylarning publitistikadagi ilk ijod mahsulining yozilishida ham bevosita xalqaro mavzudagi masala muhim o‘rinni egallagan. Olim Z. Abdurashidovning qayd etishicha, Behbudiylarning publitistik faoliyati 1902-yili “Turkiston viloyatining gazetasi”dan boshlangan. Unda Gaspinskiyning “Tarjumon” gazetasida e‘lon qilgan maqolalari izidan borib, Behbudiylar turkistonliklarga musulmonlarga nima sababdan rus askarlariga va davlatiga yordam berishlari kerakligini tushuntirib, kichik bir maqola e‘lon qiladi (Abdurashidov, 2022).

Xalqaro xabar va sharhlarning yuzaga kelishi va

rivojlanishida jurnalistika paydo bo'lishidan oldingi davrlardagi sayyohlar, savdogarlar, elchilarning kundaliklari, sayohatnomalari o'ziga xos "xamirturush" bo'lgan. Chunki aynan shunday asarlarda dastlab boshqa davlatlardagi ahvol, madaniyat, davlat tuzumi kabilar haqida batafsil va bevosita hayotiy tajribalar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar yozib qoldirilgan.

1899-1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqishi haqida yozishar ekan, bu sayohat adib dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o'zgartirib yuborganini o'rinli ta'kidlashadi (Abdurashidov, 2022). Ayni shu sayohati davomida adib Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatadi, bu islohotlarda yetkachi o'rin tutgan shaxslar bilan muloqotda bo'ladi.

Shuningdek, adibning arab mamlakatlariga, Rossiyaning bir qator hududlariga qilgan sayohatlari ham uning xalqaro mavzuni tahlil qilishida muhim tajribalar to'plashiga sabab bo'lgan. Natijada, nafaqat Behbudiyning turli nashrlarda e'lon qilgan chiqishlarida, hattoki darsliklari va sahna asarlarida va ayniqsa, adib o'z tashabbusi bilan chop ettirgan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnalida ham xalqaro mavzu muayyan o'rin tutadi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, "Oyina" jurnalida millat va uning haq-ququqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalari bilan bir qatorda, dunyo ahvoliga doir (Ta'kid bizniki - A.D.) qiziqarli maqolalar, bahslar ham berib borilgani (Behbudiy, 1999) ushbu fikrlarimizga dalil bo'la oladi.

Behbudiy ijodida xalqaro mavzularni qalamga olishning ahamiyati bir necha yo'nalishda ko'rinadi:

1. Islom va G'arb o'rtasidagi munosabatlar

Behbudiy, jadidchilik harakatining peshqadamlari kabi, G'arbdagi ilm-fan va madaniyatning ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Uning asarlarida G'arb va Islom dunyosi o'rtasidagi tafovutlar va ularning o'zaro munosabatlari ko'rib chiqilgan. Behbudiy G'arbnii ilm-fan va texnologiya rivojlanishi bilan bog'liq taraqqiyot namunasi sifatida tan olish bilan birga, Islom madaniyatining o'ziga xosligini ham himoya qilgan. U o'z asarlarida G'arbnii taraqqiyotidan foydalangan holda, Islom dunyosining yuksalishi uchun kerakli chora-tadbirlarni taklif etgan. Masalan, "Samarqand" gazetasining 1913-yil 12-iyul sonida chop etilgan "Ehtiyoji millat" sarlavhali maqolasida garchi o'z yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish haqida gap borsa ham, Yevropa va, xususan, Rossiya ta'lim tizimi haqida yaxshi fikrlarni ifodalaydi:

"Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa

millatlarga' poymol bo'lur". Ushbu jumlar bilan boshlangan maqola chin ma'noda yevropacha ta'lim tizimini o'zimizda ham tatbiq etish orqali davlat va millatni rivojlantirish, buning foydali natijalari borasida aniq dalillar bilan asoslangan yo'riqnoma singari yozilgan.

2. Milliy va xalqaro taraqqiyot masalalari

Behbudiyning ijodida Turkistondagi ijtimoiy va siyosiy muammolarni hal etish uchun xalqaro tajriba va g'oyalar muhim ahamiyat kasb etgan. Uning yozgan maqolalari va sahna asarlari milliy o'zlikni saqlagan holda, xalqning taraqqiyoti uchun xalqaro tajriba va tamoyillarni o'zlashtirish zarurligini ko'rsatgan. Behbudiyning fikriga ko'ra, faqat milliy emas, balki xalqaro madaniyati o'zaro aloqalari orqali Turkiston ham taraqqiyotga erishishi mumkin edi. Masalan, "Samarqand" gazetasining 1913-yil 30-iyulda chiqqan 31-sonida Mahmudxo'ja Behbudxo'ja imzosi bilan e'lon qilingan "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" sarlavhali maqolasida yoshlar ta'limiga e'tibor qaratish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligini asoslab beradi. Isbot tariqasida rus, armani, yahudiy hamda Kavkaz, Qrim va Qozondagi musulmon boylarining o'z millatlari yoshlari ilm olishi uchun qiladigan xayr-ehsonlarini zikr etadi.

3. Turkiy xalqlarining birligi.

Mahmudxo'ja Behbudi o'z asarlarida turkiy xalqlarning birligi masalasini ham ko'tarib, bu borada milliy va xalqaro hamkorlikning ahamiyatini ta'kidlagan. U turkiy xalqlarni madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarida hamkorlik qilishga chaqirgan. Behbudi turkiy xalqlar o'rtasidagi til, madaniyat va tarixiy o'xshashliklarni ta'kidlab, ular orasida birlashuvni qo'llab-quvvatlagan. Jumladan, "Hurriyat" gazetasining 1918-yil, 26-yanvar sonida e'lon qilingan "Qozoq qarindoshlarimizg'a ochiq xat" nomli materialida aytilgan fikrlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qirg'iz, qozoq, o'zbek, turkman, arab, fors – xullas, Turkiston, Qozog'iston, Turkmanistondagi barcha musulmonlar, yahudiy va xristianlarni birlikka chorlab yozilgan ushbu asarda keltirilgan quyidagi jumladan ham adibning xalqaro doirada chuqur bilimga egaligi ayon bo'ladi: "Boshqa xalqlar, masalan, serblar, italyanlar, armanlar, slavyanlar, polyaklar va boshqalar, hatto, dunyoning u bir uchidagi qarindoshlari ila birlashur ekanlar, boshqa katta va quvvatli davlatlarga tobe bo'lub, yutilub, hatto tilini yo'qotgan o'z jinsdoshlarini ajratib olib, birlashmoqg'a jon va kuchlarini sarf etar ekanlar, biz o'z ichimizdagi qarindoshlarimizdan ayrilsak uyatdur, ahmoqliqdur".

4. Zaruriyat va jahon ilm-fanining ahamiyati.

Behbudi o'z asarlarida ilm-fan va ta'limning xalqaro ahamiyatini alohida yoritgan. U ilm-fan taraqqiyoti jahonning barcha burchaklarida sodir bo'layotgan jarayon ekanligini tushunib,

xalqimizning ham jahon ilm-faniga integratsiyasi zarurligini tushuntirgan. Uning ta'limni yangilash, milliy o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish borasidagi g'oyalari jahon miqyosidagi ta'lim tizimining yaxshilanishiga qo'shilgan hissa sifatida baholash mumkin. Mazkur qarashlar adibning deyarli barcha ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalarga bag'ishlangan maqolalarida, jumladan, "Ehtiyoji millat" ("Samarqand" gazetasi, 1913-yil 12-iyul soni), "Muhtaram yoshlarga murojaat" ("Oyina" j., 1914-yil, 41-son, 970 – 972-betlar), "Oh, bonkalar bizni barbod etdi" ("Oyina" j., 1914-yil, 19-son, 342 – 344-betlar) kabilarda mohirona ifodalangan.

Behbudiy o'z maqolalarida xalqaro masalalarga, xususan, Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarga oid turli mavzularni yoritgan. U o'z davrining eng ilg'or fikrlarini asarlarida aks ettirib, yurtning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida chuqur fikrlar bildirgan. Behbudiyning jahon miqyosidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar haqida yozgan maqolalari shunchaki milliy emas, balki xalqaro ahamiyatga ham ega bo'lgan.

Behbudiyning asarlari faqat o'zbek xalqi uchun emas, balki turkiy va musulmon dunyosi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning G'arbnii o'rganish va Islom dunyosini modernizatsiya qilish g'oyalari butun musulmon olamida keng tarqaldi. Behbudiy o'z davrida G'arbning ilmiy-madaniy yutuqlarini jahon miqyosida tan olib, ularni Islom dunyosining manfaatlariga moslashtirishga intildi. Bu g'oya o'zbek va Markaziy Osiyo xalqlarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida xalqaro mavzularning bu darajada muhim o'rin tutishi uning ilmiy, ijtimoiy va madaniy tafakkurining kengligini ko'rsatadi. U o'z asarlarida nafaqat o'zbek xalqining, balki butun musulmon va turkiy xalqlarning taraqqiyoti va yuksalishini ko'zlagan. Behbudiy o'z vaqtida ko'plab xalqaro masalalarni yoritgan va bu borada yirik g'oyalar bilan chiqqan. Uning ijodi bugungi kunda ham xalqaro aloqalar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, bugungi xalqaro jurnalistlar va sharhlovchilar uchun ham kasbiy kamolotga erishuvlarida yaxshi bilimlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdurashidov, Z. (2022). Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy: risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 156 b.

Behbudiy, M. (1999). Tanlangan asarlar. To'plovchi, so'zboshi va izohlar: B.Qosimov. 2-nashri, tuzatilgan va to'ldirilgan. Toshkent: Ma'naviyat, 280 b.

Mualliflar haqida:

DADAXONOV A'zam Oltmishevich — O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi, mr.dadakhonov@gmail.com

THE ROLE OF INTERNATIONAL THEMES IN MAHMUDKHOJA
BEHBUDIY'S JOURNALISM

Abstract: This article analyzes the role of international themes in Mahmudkhoja Behbudiy's journalism. Mahmudkhoja Behbudiy, throughout his life and work, not only devoted great attention to the development of Uzbek national culture but also provided in-depth coverage of international issues. His journalistic works reflect his views on world politics, interstate relations, and international social processes. The article examines Behbudiy's mastery in addressing international topics, their impact on Uzbek society, and the significance of his journalism today. By covering international issues, Behbudiy expressed his worldview and democratic values.

Keywords: Mahmudkhoja Behbudiy, journalism, international topics, social processes, East-West relations

About the Authors:

DADAKHONOV Azamjon Oltmishevich — Senior teacher of Department of Information Service and Public Relations, Uzbekistan State World Languages University, mr.dadakhonov@gmail.com

THE ROLE OF PRINT MEDIA – MAGAZINES
IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM
JOURNALISM IN UZBEKISTAN

Munira Isomiddinova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: In Uzbekistan, it is essential to specialize within the field of tourism journalism. Measures should be proposed for organizing activities in this area, analyzing its origins, and understanding its significance today. The development of this field should be enriched for the future with relevant literature and scientific sources. Tourism journalism finds its place in mass media as well as in various scientific and educational journals. In particular, this process is becoming increasingly active in the “Uzbekistan Travel” magazine. Articles in foreign languages, which highlight the national culture, art, and history, make a significant contribution to attracting tourists to Uzbekistan

Kalit so'zlar: tourism, tourist, glossy magazines, print media of Uzbekistan, history and culture

In the 21st century, tourism has become a driver of economic development worldwide, serving as a driving force for growth. Tourism is not only about exploring the world, but also about engaging with people, fostering the development of cultures,

advancing economies, and playing a crucial role in enhancing a country's image.

Situated at the crossroads of the world's oldest civilizations and cultures, Uzbekistan stands as one of the most attractive destinations globally. The country boasts over 7,000 rare historical monuments, magnificent and unique architectural landmarks.

In the development of both international and domestic tourism in Uzbekistan, cooperation with the United Nations World Tourism Organization (UNWTO) holds particular significance. Uzbekistan became a member of this organization in 1993.

Today, tourism is one of the fastest-growing sectors and one of the leading sectors in terms of revenue. The importance of tourism in the growth of state revenues is also considerable. Indeed, for Uzbekistan, the development of tourism is a priority issue today, as, as previously mentioned, tourism is one of the main sectors in the global economy that generates income and contributes significantly to the national treasury in terms of foreign currency influx. Furthermore, tourism, as an industry, fulfills the personal needs of people, producing and offering travel products and services in various forms, thus contributing to the national economy across multiple sectors.

Statistics show that the influx of tourists into our country increased by 23.1% over the course of the year. In 2019, intensive efforts continued in Uzbekistan to develop tourism. Among these efforts, several measures were taken to simplify the visa issuance process, remove unnecessary barriers, and enhance the sector's investment attractiveness.

As a result, by the end of 2019, the export of tourism services grew by 26.1% compared to 2018, reaching 1.3 billion dollars, and the sector's share in service exports reached 39.3% (Uzbekistan.travel/ru). The number of tourists entering our country in January 2019 amounted to 437,265, and by January 2020, this figure increased to 538,360 (ektourism.uz). However, due to the pandemic starting in March 2020, as in the rest of the world, this indicator sharply declined in Uzbekistan as well.

Currently, the Republic of Uzbekistan is in the process of forming a national tourism model. According to this model, the developed tourism market in the country influences the socio-political and economic situation, just like any other market. It is an essential tool for fostering cooperation between countries and determining levels of investment and capital flows.

The strategy for the development of New Uzbekistan for 2022-2026 sets the primary goal of increasing the number of local tourists to 12 million and the number of foreign tourists visiting the republic to 9 million under the "Travel Across Uzbekistan" program (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan

No. UP-60 dated January 29, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”). To fully utilize the tourism potential, it is necessary to create international tourist centers that attract foreign visitors, tourist villages with traditional lifestyles and unique crafts, open new tourist routes, build modern tourist and transport infrastructure, and organize tourist clusters. It is also crucial to develop pilgrimage tourism, as well as medical, ecological, gastronomic, ethnographic, extreme, and other types of tourism, alongside further advancement of tourism journalism for a broad audience.

The time has long come for specialization in tourism journalism in Uzbekistan as a distinct branch of the field. Currently, tourism journalism is actively promoted on television channels such as “Dunyo Bo‘ylab”, “Madaniyat va Ma’rifat”, “Uzbekistan”, “Yoshlar”, “Sevimli”, and “Mening Yurtim”. The methods of promoting tourism on each of these channels vary depending on the format and genre requirements. In addition to national television and radio channels, print media, particularly magazines, are also increasingly focusing on tourism topics. The “Uzbekistan Airways” in-flight magazine, for instance, has been narrating the tourist destinations of our country even before travelers’ feet touch the land of Uzbekistan.

Magazines such as “Uzbekistan” “Visit Uzbekistan” “Uzbekistan Travel” “Olamaro” “Turizm Olami” and “Sakvoyaj” are part of this category. These publications include several articles in foreign languages that highlight national culture, art, and history, significantly contributing to the promotion of Uzbekistan to foreign tourists. One such publication, Uzbekistan Travel, was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on November 20, 2020 (No. 0915) (kaleon.uz/catalog). It is one of the first English-language magazines published for tourists and businessmen visiting our country, providing high-quality information on tourism potential, events in the social and cultural life of the country, art, gastronomy, traditions, heritage, and people. The magazine is written in a simple and clear language, making it accessible even to a student who has just begun learning English. This is its main achievement. Additionally, the magazine features vivid colors and skillfully taken photographs, ensuring that even those who do not know a foreign language can gain substantial information about the historical landscapes of our country and its modern, eye-catching architectural landmarks.

The magazine provides valuable information about tourist routes, maps, upcoming events, and shopping opportunities. It is published quarterly with a circulation of up to 10,000 copies, and special editions of the magazine are printed with a circulation of 3,000 copies per month, distributed globally through embassies,

travel companies, tourism exhibitions, and partners.

If we analyze the issues of the magazine published to date, we can see that Uzbek national dishes and traditions are presented in simple language and a folk style. The success of the magazine lies in the journalists' ability to correctly select the objects of interest to tourists, write engaging headlines, and beautifully present the photos.

The magazine not only introduces tourists to the country's cuisine but also acquaints them with our national customs and traditions.

Additionally, the noteworthy features of the magazine are as follows:

The magazine is planned to be published in 12 languages. To date, it has been published in English, German, Russian, Korean, Japanese, and French.

The content of the magazine is shaped according to the interests and mentality of its audience.

The magazine covers various topics related to the tourism industry.

It is rich in exclusive materials and vivid photographs.

The magazine is primarily planned for distribution abroad: it is distributed at major international events, in airplanes and airports, diplomatic missions, railway stations in the Republic of Uzbekistan, on trains, in hotels, and so on.

The magazine provides all the necessary conveniences for travelers. For example, each issue of the magazine includes translations of Uzbek expressions. In every issue, words related to a specific theme are selected. For instance, in the 2020 issue, phrases related to greetings and introductions are provided with translations. This enables tourists visiting Uzbekistan for the first time to communicate in Uzbek.

Upon browsing the magazine, it can be said that it reveals very interesting, necessary, and astonishing aspects for a tourist who has no prior knowledge about our country. Throughout the study of the magazine, it is evident that all the conveniences and opportunities for tourists are thoroughly covered. For instance, the magazine provides detailed information about mobile service providers and their special tariffs for tourists, visa application procedures, hotel options, and transportation services.

To date, the "Uzbekistan Travel" magazine has made a significant contribution to the development of the tourism sector. Its collaboration with travel agencies is one of its major accomplishments. Despite being published in English in Uzbekistan, it has proven successful and gained rapid recognition. The contribution of the creative team members is substantial, with six photographers working to ensure the uniqueness of the

images. The publication, prepared in a foreign style, remains both interesting and useful for tourists. It serves as an exemplary model for new and emerging mass media outlets covering the tourism sector, enabling the publication of new issues while learning from its practices.

Over this period, the “Uzbekistan Travel” magazine has been translated into 14 languages, with seven issues published so far (subsequently, it has been released only in online format). The magazine has been distributed to 15 countries, ranging from the United States to Japan. It has been showcased at international tourism fairs, as well as during state visits and business forums, accompanied by high-level delegations from Uzbekistan.

The magazine’s greatest achievement is being recognized as the first English-language publication in Uzbekistan. Moreover, it has exceeded its intended goals. Tourists have benefited from it, and it has been translated into many other languages. Most importantly, it has significantly contributed to raising global awareness of Uzbekistan’s tourism potential.

One of the well-known articles published in the magazine is titled “10 Reasons to Visit Uzbekistan”. It reveals the most beautiful aspects of Uzbekistan, supported by factual information. The article begins by mentioning that Uzbekistan is expected to become one of the centers of global tourism in the coming years. “Uzbekistan has long been one of the key centers of the Great Silk Road, possessing vast potential, natural, historical, and cultural values, and rich traditions and customs. Today, Uzbekistan is entering a new stage of development not only in the political, socio-economic, and cultural spheres but also in the field of tourism.”

Tourists can find numerous reasons to visit Uzbekistan, according to the author. The rich historical and cultural heritage of the Uzbek people, centuries-old traditions, and unique architectural monuments of ancient cities attract many tourists from abroad. Uzbekistan boasts significant historical monuments, including the cities of Bukhara, Khiva, and Samarkand, which were once the capitals of powerful empires.

History and Culture – The minarets of Samarkand, Bukhara, and Khiva captivate the imagination with their centuries-old mausoleums and domes of madrasas adorned with intricate patterns. These elements are vividly illustrated in the magazine with accompanying images. The article also pays special attention to small but fascinating details that attract tourists. “The unique design, composition, and technological solutions of ancient artisans inspire admiration among visitors to these landmarks.”

Based on the analysis of the article, it can be said that for a tourist unfamiliar with our country, the magazine reveals intriguing, necessary, and surprising aspects. By studying the magazine, it

becomes clear that all the conveniences and opportunities for tourists are fully covered. For example, detailed information is provided about mobile service companies and their special tariffs for tourists, visa acquisition, hotel options, and transportation.

To this day, Uzbekistan Travel magazine has made a significant contribution to the development of the tourism sector. Its collaboration with travel agencies is one of its key achievements. Although the magazine was initially published in English in Uzbekistan, it has proven successful and quickly gained popularity. The contribution of the creative team members is immense. The magazine employs six photographers, ensuring a unique pace and style. The publication, created in an international format, proves to be interesting and useful for tourists. New and emerging media outlets covering the tourism sector can model themselves after this magazine, publishing fresh materials and learning much from its approach.

Dilfuza Samandarova, the editor of Uzbekistan Travel, writes about the goals of the magazine:

“A year ago, we embarked on this journey called Uzbekistan Travel. This period has been very important for our country and our team. At the same time, we planned to create the magazine. During this time, Uzbekistan Travel was translated into 14 different languages. The magazine is distributed in 15 countries, from the USA to Japan. The magazine was showcased with high-level Uzbek delegations at global tourism fairs and during state visits and business forums.”

The greatest achievement of the magazine is that it has been recognized as the leading English-language publication in Uzbekistan. At the same time, it has exceeded its initial goals. It is used by visiting tourists and has been translated into many other languages. Most importantly, the tourism potential of Uzbekistan is becoming known worldwide.

References:

Hasanov, X. (1981). Sayyoh olimlar. Toshkent: O'zbekiston. 235 b.

About the author:

ISOMIDDINOVA Munira Zuhriddinovna - Senior Lecturer at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,
muniraisomiddinova@mail.ru

ВКЛАД ДЖАДИДОВ В ПРОСВЕЩЕНИЕ ТУР- КЕСТАНСКОГО НАРОДА

Назокат Хамракулова,

Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация: Джадиды выступали за проведение реформы старометодных школ, нововведения в быту и культуре. Они стремились коренным образом преобразовать школьную систему. По мнению джадидов, для ее достижения были необходимы непрерывная просветительская деятельность, создание новометодных школ, национального театра, передовой печати и литературы, с помощью которых можно было коренным образом изменить самосознание народа, привить в нем высокие чувства патриотизма и свободолюбия.

Ключевые слова: джадиды, образование, новометодные школы, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Мунаввар Кори Абдурашидхонов

Изучение истории Центральной Азии конца XIX — начала XX века сохраняет свою актуальность, особенно в контексте восстановления исторической правды о прошлом региона, а также о деятельности личностей, сыгравших ключевую роль в развитии просвещения и образования среди народа. Эти фигуры внесли значительный вклад в историческое развитие мусульманских стран. В этот период в Центральной Азии возникло новое просветительское движение — джадидизм. Термин «джадид», происходящий от арабского слова, переводится как «новый». Представители джадидизма стремились к реформированию устаревших, феодальных структур и созданию нового общества. Это движение носило общенациональный и демократический характер.

Движение джадидизма возникло в Татарии и со временем распространилось в Бухаре, Хиве и Туркестане. В целях социально-культурного прогресса Центральной Азии, джадидские лидеры выдвинули комплекс реформ, охватывающих различные сферы, включая образование, историографию, литературу, печать, религию и искусство. Они предложили идеи по переоценке и совершенствованию этических норм, вероучения, правосудия, системы здравоохранения, а также улучшению положения женщин и других аспектов социальной жизни.

Джадиды особенно остро осознавали страдания и угнетение простого народа, его бесправие и уязвимость перед чиновниками и крупными землевладельцами. В связи с этим, идеи просветителей сводились к требованию ограничить произвол господствующего класса и бюрократического аппарата по отношению к трудовому населению. Они выступали за принятие мер, направленных на развитие экономики, культуры и науки, реформирование образовательной системы, а также предоставление демократических прав и защиты бесправному и незащищенному народу.

Джадиды осуществили шесть ключевых реформ, первой из которых стало реформирование образования. Эта реформа оказала значительное влияние на население, а также на политическую и духовную жизнь Центральной Азии. Под воздействием педагогических идей Исмаила Гаспринского (1851-1914), выдающегося крымско-татарского

просветителя, джадиды открыли новометодные школы, в которых наряду с религиозными преподавались и светские науки (Ганкевич, 2000).

В разных регионах Туркестана появилось множество представителей джадидского движения, среди которых можно выделить таких выдающихся личностей, как Махмудходжа Бехбуди, Абдурауф Фитрат, Садриддин Айни, Мунаввар Кори и Абдулла Авлони, Ашурали Зохири и другие.

По мнению специалистов, в отличие от Крыма, Казани и Азербайджана, реформы в сфере образования и создание новометодных школ джадидов в Туркестане начали осуществляться лишь через 15-20 лет. Главной причиной этого стало целенаправленное противодействие со стороны генерал-губернатора Туркестана, который сознательно препятствовал просвещению местного населения. Следует отметить, что секретная служба генерал-губернатора жестко контролировала действия местной интеллигенции, стремившейся реформировать образовательную систему. Администрация поняла потенциальную угрозу собственному существованию, которая исходила от джадидского движения, сообразила, что система образования в новометодных школах представляет из себя суровую движущую силу, которая способна противодействовать колониальным интересам (Каримов, 2010). Но, джадиды, конечно, стремились коренным образом преобразовать школьную систему, но опирались на религиозный характер преподавания, т.е. нововведения практически касались лишь метода обучения.

Лидеры джадидского движения в Туркестане, такие как М. Бехбуди, выходец из семьи ткачей Абдулла Авлони, автор учебника «Персидский язык» и пособия «Детский сад» Мухаммад Расули, поэт Камил Хорезми, а также первая женщина-узбечка, окончившая гимназию, Ойшахонопа Кари Ниязи, стали пионерами просветительской деятельности нового типа. В отличие от раннего этапа просветительского движения в других регионах, где боролись преимущественно с феодальными пережитками через знание и науку, в Туркестане джадиды стремились не только бороться с феодализмом, но и проводить радикальные преобразования в общественных отношениях. В этом контексте были открыты школы «усули кадим», «усули джадид» и «русско-туземные», влияние которых со временем значительно возросло. В книге Ш. Рахимова «Прошлое и нынешнее состояние узбекского просвещения» приводятся данные о школах «усули джадид», которые стали воплощением идей Исмаила Гаспринского и символом нового подхода к образованию в регионе.

Джадиды стремились освоить достижения как восточной, так и западной культур, обучаясь сами и призывая к этому других. Побывав за рубежом, просветители смогли сравнить уровни развития культуры и образования различных стран, что вдохновило их на намерение внедрить мировые достижения в Туркестане. В образовательном процессе, помимо изучения таких дисциплин, как арифметика, история, география и природоведение, особое внимание уделялось преподаванию основ ислама. Важным шагом стало создание новых учебников. На начальном этапе в новометодных школах Туркестана использовались учебные материалы, изданные в Казани и Оренбурге. Позднее учителя

начали самостоятельно разрабатывать учебники, по которым обучали детей грамоте.

Особое внимание стоит уделить деятельности педагогов того времени. Суть целей и задач джадидского движения наиболее ярко выразил один из крупнейших его лидеров и теоретиков — Махмудходжа Бехбуди. Одной из ключевых тем его пропаганды была подготовка светски образованных профессионалов, что стало основным направлением его педагогической деятельности. Его идеи стали программными для всего джадидского движения. Бехбуди написал учебное пособие по географии, букварь для начальных школ, а также перевел и отредактировал ряд значимых работ, тем самым значительно содействуя развитию образования в Туркестане.

Увлечшись идеями просветительства, в начале XX века Махмудходжа Бехбуди отправился в поездки по Москве, Казани, Оренбургу, Кавказу и Стамбулу. Обогащенный новыми знаниями и опытом, полученным за рубежом, он вернулся в родные края и в 1905 году написал книгу «Мухтасар жугрофияи Русий» («Краткая география России»). В этой работе Бехбуди в доступной форме описывает различные аспекты жизни, быта и географию народов Российской империи, предоставляя читателям ценную информацию о многообразии и особенностях разных регионов. В первый период своей деятельности Бехбуди сосредоточил основное внимание на реализации религиозно-реформаторских и просветительских идей (Дусткораяев, 2009).

В 1903 г. в Самарканде вместе с основателем первой новометодной школы здесь Абукодиром Шакури Бехбуди вел основательную работу в деле обучения истории и географии. Для «Школы Шакури» и других джадидских школ края М. Бехбуди пишет и публикует на собственные средства различные учебные пособия.

Шакури написал учебники, собрав в них лучшие образцы классической литературы: «Сборник рассказов», «Сборник стихов», «Путеводитель грамоты». «Устои аввал» Саидрасила Азизи (1902), «Муаллими соний» Алиаскара ибн Байрамали (1903) и другие книги также стали повседневными учебниками в новометодных школах.

Можно утверждать тот факт, что Бехбуди является основателем национальной библиотеки. В 1908 г. он впервые в Самарканде открывает «Кироатхонаи исломия». («Исламская читальня»).

Еще одним ярким представителем педагогов джадидского движения был Абдулла Авлони, родившийся в Ташкенте. Помимо своей деятельности в области образования, он также был общественным и политическим деятелем, поэтом. В 1908 году Авлони открыл школу для детей, в которой использовал новые методы обучения родному языку. Он разработал учебные материалы, включая книги «Биринчи муаллим», «Иккинчи муаллим» и «Адабиёт» («Литература») для различных уровней обучения. Его работа в области народного просвещения была неразрывно связана с его деятельностью как писателя, поэта, режиссера-постановщика и воспитателя талантливой театральной молодежи. В 1913 году он создал народный театр, который имел большой успех и стал значимым культурным явлением.

Абдулла Авлони считал, что человек существует для созидания,

поэтому должен обладать знаниями. В своем труде «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ («Цветущий край и мораль») придает огромное значение вопросам просвещения и образования.

С декабря 1907 г. Авлони начинает выпуск газеты «Турон», на страницах которой появляются его статьи, посвященные вопросам организации народной школы, подготовки учительских кадров и издания учебников. В 1909-1917 годы пишет и издает «Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ» («Книга о нравственном воспитании по педагогике»), «Мактаб Гулистони», сборник стихов (Дусткораев, 2009).

Педагог, просветитель, географ, поэт и политик Мунаввар Кори Абдурашидхонов родился в 1878 г. в городе Ташкенте. Его знали лидером ташкентских джадидов. Отец его был мударрисом в медресе. Образование он получил в Ташкентском медресе, а затем обучался в Турции.

Мунаввар Кори, начав свою деятельность с открытия школы «усули джадид» в Ташкенте в 1901 году, сам преподавал уроки в первом классе. На основе своего опыта он написал азбуку «Адиби аввал», книгу для чтения «Адиби соний» для 2 класса, а также учебник «Ер юзи» («География»). Кроме того, он составил хрестоматию «Сабазор» для 3–4 классов, включив в нее произведения таких авторов, как Ками, Хислате, Суфизаде, Хамза и других творческих деятелей. Мунаввар Кори перевел с татарского языка книгу «Тажвил», в которой объясняется правильное чтение священного Корана, а также написал и опубликовал на узбекском языке работу «Хавойижи диния», в которой разъясняются религиозные правила. Он также является одним из авторов учебника узбекского языка для 2-5 классов «Узбек тили сабоклиги».

Джадиды кардинально изменили систему образования, усилив дифференциацию на основе социального признака. Количество джадидских школ, хотя и оставалось небольшим, но постепенно увеличивалось, что вызывало беспокойство у властей, чиновников и мулл. Реформаторы стремились привнести в культуру региона новые идеи и содержания. Литературные новации, новые жанры, формы, темы, язык и стиль начали вытеснять устаревшие, стилизованные произведения, что привело к появлению нового направления в музыке, живописи и других видах искусства.

В новометодных джадидских школах получили образование многие знаменитые ученые, литературоведы, художники, поэты и деятели культуры своего времени, а также специалисты в области просвещения и государственные деятели. Среди них можно выделить академика Гафура Гуляма, поэта и драматурга Уйгуна, а также деятеля культуры Айбека.

Создавая новую систему образования и просвещения, национальные прогрессисты опирались на культурное наследие народов Центральной Азии. В своих трудах они часто обращались к этому наследию, приводя в качестве примеров таких выдающихся личностей, как Ибн Сино, Фараби и Улугбек, считая их родоначальниками социальных и научных реформ в регионе. Джадиды были уверены, что изучение трудов этих мыслителей могло бы способствовать прогрессивному развитию региона и укреплению национального самосознания народа.

Джадиды были уверены, что Туркестан, будучи частью мусуль-

манского мира, но представляя собой уникальное явление в мировой истории, должен найти свое достойное место в сложном и противоречивом будущем, которое открывал XX век.

Значение джадидского движения заключается не только в реформировании устаревшей мусульманской системы народного образования, но и в том, что джадида стали зачинателями отечественной печати, литературы и театра. Вся их жизнь была посвящена великой исторической миссии — просвещению угнетенного народа, показу ему пути к счастливой и зажиточной жизни, воспитанию чувства собственного достоинства и сознания его роли как хозяина земли, на которой жили его предки и на которой он сам живет. Эти люди были поистине великими, опередившими свою эпоху.

Список использованной литературы

Ганкевич, В. (2000). На службе правде и просвещению. Краткий биографический очерк Исмаила Гаспринского. Симферополь: Доля, С. 240-250.

Каримов, Н. (2010). Махмудхужа Бехбудий. Тошкент, С. 21. Электронный ресурс: URL:<https://n.ziyouz.com/books/adabiyotshunoslik/Naim%20Karimov.%20Mahmudxo'ja%20Behbudiy.pdf>. Дата обращения: 10.01.2025

Dustqorayev, B. (2009). O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent: G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. S. 319-348.

Об авторе:

ХАМРОКУЛОВА Назокат Фарходовна — Университет журналистики и массовых коммуникации, старший преподаватель кафедры теории и практики медиа, nazokathamrakulova@yandex.ru

THE CONTRIBUTION OF THE JADIDS TO THE EDUCATION OF THE TURKESTAN PEOPLE

Abstract: The Jadids advocated the reform of old-method schools, innovations in everyday life and culture. They sought to radically transform the school system. According to the Jadids, to achieve it, continuous educational activities were necessary, the creation of new method schools, a national theater, advanced printing and literature, with the help of which it was possible to radically change the self-consciousness of the people, instill in them high feelings of patriotism and love of freedom.

Keywords: Jadids, education, new-method schools, Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Munavvarkori Abdurashidkhonov

About the Authors:

KHAMRAKULOVA Nazokat — senior lecturer at the Department of Theory and Practice of Media, University of Journalism and Mass Communications, nazokathamrakulova@yandex.ru

JADID MA'RIFATPARVARLARI IJODIDA HARBIY MASALALAR

Dilshod Ro'ziqulov,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqola ma'rifatparvar jadidlar matbuotida harbiy masalalarning o'rni va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda gazetalar sahifalarida harbiy materiallarning mavzu doirasi, ifoda usullari tahlil etilgan.

Kalit so'z: milliy qo'shin, askar, matbuot, gazeta, qo'zg'olon, mustamlaka, inqilob, hurriyat, vatanparvarlik

Matbuot ziyoli ijodkorlar jamoasining mashaqqatli mehnati mahsulidir. Oradan necha yil, necha asr o'tsa hamki, uning har sahifasi noyob topilma sifatida tarix qatidagi sir-sinoat-u tilsimlardan guvohlik beradi. Ayniqsa, ma'rifatparvar jadidlar matbuoti bilan tanishish, uni chuqur tahlil qilib, xalqimiz e'tibori, o'quvchilar ommasiga taqdim etish g'oyatda muhim.

Jadidchilik harakati 1905–1917-yillarda yangi maktab, matbuot, adabiyot va teatr, shuningdek, namoyishlarni tashkil qilish orqali xalq ommasiga muayyan ta'sir o'tkazdi. Jadidlarning harbiy mavzudagi chiqishlarida mustabid zulmidan ozod bo'lish uchun milliy qo'shin tuzish, askarlarga o'z mahoratlarini takomillashtirib borish, murakkab jangovar aslahalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, o'tgan jang-jadallar tajribasini har tomonlama o'rganish va bo'lajak janglarga tayyor turish, yurti va dunyoda ro'y berayotgan voqealardan xabardor bo'lishga chorlagan.

Millatni vatanparvarlik, jangovarlik, baynalmilallik ruhida tarbiyalashga qaratilgan mulohazalar fidoyi ziyolilarimiz maqolalarida paydar-pay berilgan. Vatan himoyachilari dushmanga qarshi kurashda qudratli kuch bo'lib, mislsiz jangovarlik, qahramonlik namunalari ko'rsatgan o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, uyg'ur, rus, tatar va boshqa millatlarning mustamlakachi kuchlarga qarshi turishlari tarafdori bo'lganlar.

Akademik Naim Karimovning tadqiqotlarida 1916-yili o'zbek xalqining milliy ozodlik uchun olib borgan kurashi nafaqat Turkiston, balki Markaziy Osiyo va Qozog'istonning ham ko'pgina shahar va qishloqlarigacha etib, bir tomondan, chor hokimiyati o'tkazgan zulmning haddan oshgani, ikkinchi tomondan, mo'min-musulmon xalqlarning ijtimoiy ongi o'sib, o'z haq-huquqini tiklash va mustamlakachilik kishanlarini parchalash uchun kurashga astoydil otlangani haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jadidlar qo'zg'olonning dastlabki davrida isyonchilar tarafida bo'lib, ularning xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlagani qayd etilgan.

“1930-yilda Munavvar qori Abdurashidxonov va uning guruhiustidanolibborilgantergovmateriallaridanshunarsama'lum bo'ladiki, qo'zg'olon arafasida advokat Ubaydulla Xo'jayev bilan M.Abdurashidxonovning o'zaro yaqinlashuvi ularning 1916-yil voqealari paytida bunday strategiyani belgilab olishlariga imkon tug'dirdi: ular, modomiki, Turkiston aholisi mardikorlikka olish voqealaridan chetda tura olmas ekan, demak, bu voqeadan el-yurt manfaati yo'lida foydalanish kerak, deb bildilar. “Farzandlarimizni mardikorlikka emas, balki askarlikka yuboramiz. Mardikorlar oldingi marralarga borib xandaq qaziydilar. Demak, ular xandaq qaziyotgan paytlarida dushman ularni bir zumda qirib tashlashi mumkin. Negaki, mardikordlarda qurol-yarog' bo'lmaydi. Shuning uchun biz farzandlarimizni askarlikka yuboramiz”, degan talablar bilan chiqdilar. Ularning bunday talablari tagida boshqa niyat ham bo'lgan. Chor hokimiyatining nemislar bilan urushda holi tang bo'lib qolganini sezgan jadidlar yaqin yillar orasida erk va hurriyat uchun harakat boshlanishi mumkinligini anglab, Birinchi jahon urushi frontlarida bo'lajak o'zbek milliy qo'shiniga tamal toshini qo'yishni orzu qildilar. Ular mo'ljaliga ko'ra, qurol-yarog' bilan muomala qilishni o'rgangan o'zbek yigitlarining yaqin vaqt ichida milliy inqilobni amalga oshirishi mumkin edi.

Shunday qilib, U.Xo'jayev va M.Abdurashidxonov qo'zg'olon boshida qo'zg'olonchilar tomonida bo'lganlariga qaramay, mardikorlikka olish komitetiga rahbarlik qildilar. Ayni paytda Peterburgga vakillar yuborib, Turkistonda sodir etilayotgan jinoyatlarga chek qo'ymoqchi bo'ldilar. Shubhasiz, ular va boshqa jadidlar, sovet tarixchi va yozuvchilari yozganidek, Turkiston xalqlarining milliy ozodlik harakatiga xoinlik qilmay, aksincha, jabrdiyda xalqni to'g'ri yo'lga boshlash, uning dardiga davo topish, uning boshi uzra turgan qilichni bartaraf etishga urindilar. Ularning 1916-yil qo'zg'oloni paytida orttirgan tajribasi Fevral inqilobidan keyingi davrda, ayniqsa, asqotdi. U.Xo'jayev va boshqa jadidlarning avvalgi faoliyatidan xabar topgan Kuropatkin ularni Kavkazga surgun qilish to'g'risida buyruq chiqardi. Ammo U.Xo'jayev sheriklari bilan surgunga ketishi arafasida Fevral inqilobi yuz berdi. Bu inqilob esa jadiddarni emas, balki Kuropatkinning o'zini Turkiston tuprog'idan uloqtirib tashladi” (Karimov, 2016).

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Bahrom Irzoyevning ilmiy izlanishlarida jadidlar matbuotida harbiy masalalar yoritilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, muallif “Nahif”, “Mehriy” taxalluslari bilan ijod qilgan Hoji Muin Shukrullayev 1934–1937-yillarda 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasining nashri afkori bo'lgan “Qizil yulduz” harbiy gazetasida ishlagani, keyinchalik gazetaning keng omma orasida mashhur bo'lib ketishida ushbu tajribali publitsist Hoji Muinning katta xizmati

borligini ta'kidlaydi. "Turkiston jadidlari yoshlarni harbiy xizmatga jalb qilish, milliy qo'shin tuzishning huquqiy asoslarini yaratish borasida yetarli ilm va tajribaga ega bo'lgan. Ular askarlik Vatan uchun buyuk xizmat ekanini e'tirof etgan holda, yoshlarni harbiy xizmatga jalb etishni xalqning orzu-istaklari bilan uyg'un holda olib borishni muhim deb bilgan", degan xulosaga keladi.

Qolaversa, "Turkiston kelajagi uchun Farg'ona vodiysida hayot-mamot janglari boshlangan bir vaqtda gazetaning 1918-yil 2-avgust sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur "G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya" maqolasi, "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 13-avgust sonida esa Hoji Muinning "Bizga nima kerak?" maqolalari chop qilindi. Mazkur ikki maqolada nafaqat mualliflarning, balki butun Turkiston jadid taraqqiyparvarlarining askarlik, milliy qo'shin tuzish bo'yicha qarashlari ilgari surilgan. Jumladan, Hoji Muin: "Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy urush va inqilob, xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadir, bu urushdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir", deydi. Shu o'rinda, Hoji Muin askarlik masalasi negizida xalqqa ozodlikka chiqishni targ'ib qilgan, birlashishga chorlab: "Dunyoda zolim ostinda nomussiz yashamakdan huquq va hurriyat yo'linda nomus bilan o'lmak ming marta yaxshiroqdir. Ey Turkiston xalqi! Oyoqg'a tur! Dushmanlaringni bos! Yurtingni saqla! Ey turkistonli turk o'g'li! Yarog'ingni ol! Yovingni ot! Hurriyatingni saqla!" deb bong uradi. Keyingi maqolasida esa: "Askarsiz millat jonsiz gavda hukmidadir. O'zining erlik xalqidan askari bo'lmagan bir yurt qo'riqchisiz bir istehkom kabidir. Askarlik bir millatning hayot-mamot masalasini hal qilish uchun zo'r ro'llar o'ynaydurg'on bir kuchdir. Har bir yengish va yengilishning boshi askardir", deb uqtirgan (Irzoyev, 2024).

Hoji Muin 1923-yilda hukumatda yana askarlikka olish masalasi kun tartibiga qo'yilganini aytib, ilgarigi xatolarni takrorlamaslikka chaqirar ekan: "Ana bukun yana yerlik xalqdan askar olish masalasi qo'zg'atilub turadir. O'rtoq Trotskiy ham o'zining maktubida "yerliklardan sekin-sekin askar olish kerak" mazmunida bir-ikki so'z yozib o'tadir. Shundan ham ma'lum bo'ladirkim, bu kunlarda yana hukumat Turkiston xalqidan askar olishni tasvib va maslahat ko'rgan. Lekin bu daf'a qaysi ravishda, qanday sharoit bilan askar olinadur? Bu ham bilgulik emas. Shoyad bu to'g'rida hukumatning yuqori doiralarida kengash va muzokaralar bo'lib turg'onidir. Har holda, bu daf'a avvalgi xatolar takror voqe' bo'lmas, deb o'ylaymiz", deya fikrini tugallaydi. Shu o'rinda u askarlikka olish bo'yicha quyidagi takliflarni beradi: "Harbiy xizmatga olish tartibli va kuchli tashviqotdan

so'ng majburiy emas, ixtiyoriy suratda bo'lishi lozim; askarlik xizmatining muddatini qisqartirish kerak; harbiy xizmat bilan bog'liq qonun va qoidalar yengillashtirilishi shart; yerlik xalqdan zobitlar yetishtirish uchun Turkistonning har bir shahrida askariy kurs va maktablar ochish kerak; askarlarning maishatlarini yaxshi ta'min etish va ba'zi urf-odatlariga mudoxala qilmaslik va o'zlarini Turkistondan boshqa davlatga yubormaslik kabi qoida va yon berishlar e'lon qilish lozim". Hoji Muin hukumat shu tavsiyalarni inobatga olsa, "Askarlikka olish muvaffaqiyatli chiqishi, shuning bilan barobar har bir ko'ngilli askarga o'z yaqinlaridan ikki kishining kafil bo'lishi yoki shunga o'xshash boshqa bir tadbir shart qilinsa, kelgusida ul askarning qochishlig'i va yo hukumatga qarshi xiyonat qilmaslig'i uchun bir amniyat hosil bo'lur edi", deb uqtiradi. Bu fikrlar oradan yuz yil o'tganiga qaramay, hamon o'ta muhim ahamiyatga molikdir (Irzoyev, 2024).

Hoji Muin "Zarafshon" gazetasining 1923-yil 21-iyun sonida bosilgan "Askarlik to'g'risida" maqolasida yuqoridagi fikrlarini rivojlantirib, askarlikning qudrat belgisi ekanligini tarixiy dalillar bilan asoslar ekan: "Nikolayni taxtdan tushirgan – askar, sho'rolar hukumatini bu kungacha muhofaza qilib kelgan ham askar bo'ladi. Turkiston turklari ham bir vaqt urushqoqliqda mumtoz va mashhur edilar. Faqat bu so'ngg'i asrlarda o'zlarining askariy kuchlarini Ovrupa jahongirlariga qarshi tashlamay, o'zaro urushg'a sarf etdilar. Oxiri, ularning yurtimizni istilo qilishlarig'a sabab bo'ldilar. Shuning uchun bundagi xalqda bora-bora askarlik ruhi so'nib ketdi", deydi (Muin, 1923). 1918-yili boshlangan harbiy xizmatga olish ishlari to'g'ri tashkil qilinmay, yoshlarning majburiy ravishda askarlikka olinishi xalqning noroziligiga sabab bo'lganini, askarlarning armiyadan ommaviy qochib ketish holatlari yuzaga kelganini Muin "Xalqning ahvoli ruhiyasi bilan hisoblashmaganimiz uchun bu to'g'rida zo'r xato qildik. O'shal vaqtda faqat ixtiyoriy suratda askar olg'onimizda, hozirgacha o'n minglarcha muntazam askarga ega bo'lur edik", deb xulosa qiladi.

Sho'rolar hukmronligi davrida jadidlar tomonidan mamlakatimizda chop etilgan harbiy nashrlarga doir ilmiy ma'lumotlar tarix fanlari nomzodi P.V.Agapovning "Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.)" mavzusidagi dissertasiyasidan topildi. P.Agapovning yozishicha, XX asr boshlarida butun harbiy matbuotning faoliyati sovet hokimiyatiga qarshi tashqi va ichki qurolli kurashni yengish, Sharqda inqilobiy qal'a bo'lgan yosh Turkiston respublikalarini himoya qilishdek asosiy vazifani hal etishga qaratilgan. Barcha harbiy gazeta-jurnallardagi maqolalar quyidagi vazifalarga yo'naltirilgan:

1) respublika qurolli kuchlarini mustahkamlash, ularda kommunistlar, harbiy komissarlar, partiya siyosiy apparatining

rolini oshirish;

2) qo'shirlarning harbiy intizomini va jangovar tayyorgarligini oshirish, front ortida birlikni mustahkamlash;

3) amerika-ingliz imperialistlari, Antanta tarafdorlari Kolchak va Denikin, oq polyaklarning agressiv siyosatini fosh qilish;

4) mahalliy tub aholi vakillarini qizil armiya safiga yollash kampaniyasini olib borish.

Turkiston harbiy matbuoti qizil armiya matbuotining ajralmas qismi bo'lib, asosan V.I. Lenin tomonidan butun sovet matbuoti uchun ishlab chiqilgan umumiy tamoyil va vazifalarga bo'ysundirilgan. Turkistonda sovet harbiy matbuotining shakllanishida RKP(b) MK Turk byurosi, Turkkomissiya, mahalliy partiya, sovet va harbiy tashkilotlarning g'oyaviy-tashkiliy faoliyati muhim rol o'ynagan [1965: 56]. Binobarin, Turkiston harbiy matbuoti fuqarolar urushi yillarida qizil armiyada partiya siyosatining faol targ'ibotchisi, Turkiston qurolli kuchlarini mustahkamlash, uning dushmanlari ustidan g'alaba qozonishi yo'lida tinimsiz kurashuvchi bo'lgan.

Turkistonning Markazdan uzoq vaqt izolyasiya qilingani sababli harbiy matbuot katta iqtisodiy va siyosiy yordamga muhtoj bo'lgan. Buning oqibatida tahririyatlarning rivojlanish jarayoni sustlashgan. Tahririyatlarni milliy masala va xalqaro muammolarni hal qilish vositasi sifatida rivojlantirish shartliligidan kelib chiqib, Turkiston armiyasida rus tili bilan bir qatorda mahalliy xalqlar, qo'shni mamlakatlar aholisi uchun xorijiy tillarda gazeta va jurnallar paydo bo'ldi. Tarixchi olim P.Agapov 1918–1920-yillarda chop etilgan o'sha Turkiston sovet harbiy gazetalari va jurnallarini quyidagicha turkumlagan:

markaziy nashrlar – «Красноармеец», «Красный фронт», «Борец за коммунизм» va boshqalar;

front gazetalari – «Горнист», «Наша фронтовая жизнь», «Бой за коммунизм», «Коммунар» va boshqalar;

armiya gazetasi – «Набат революции»;

divizion (brigada) gazetalari – «Правда» (Верный), «Пролетарская мысль», «Луч Востока»;

milliy nashrlar – «Кзыл юл» журналы, «Иштракиюн», «Джанга урс», «Кзыл юлдуз», «Sadoyi fuqaro», «Yangi sharq», «Shefor» gazetalari;

askar-internasionalistlar uchun – «III Интернационал» jurnali, «Всемирная революция», «Красное знамя», «Красная газета» va boshqalar (Agapov, 1967).

«Пролетарская мысль» va «Yangi sharq» gazetalarida bosmachilar harakati va ularga qarshi qizil armiya tomonidan olib borilgan kurash taktikasi o'z aksini topgan. Bunday materiallar «Коммунистическая мысль», «Еженедельник политработ-

ника», «Военная мысль», «Кзыл юл» jurnallarida ham chop etilgan. Jurnallar sahifalarida Turkfront qo‘shinlaridagi partiyaviy-siyosiy hamda madaniy-ma’rifiy muassasalar ishlariga alohida o‘rin ajratilgan.

Harbiy matbuotni amaliy boshqarishda M.V. Frunze, V.V. Kuybishev,

D.A. Furmanov katta hissa qo‘shgan. Davriy harbiy matbuot nashrlarida mahalliy hamda Markazdan kelgan mutaxassislar A.F. Solkin, N.To‘raqulov, P.I. Voitik; yozuvchi va jurnalistlar S.Ayniy, Xamza Hakimzoda, B.Lavrenev, A.Kolosoov, P.Drujinin, A.Zonin, V.Kapelniskiy, A.Donskiy, G.Sviling, K.Hakimov, V.Karpich, I.Baskakov, K.Troyanovskiy, D.Stratulenko, V.Ulyanovskaya, A.Savin va boshqalarning xabar va maqolalari muntazam bosilgan.

Turkiston mahalliy harbiy jurnalistlari ushbu davrning o‘ziga xos sharoitlarida mehnatsevarlik va tezkorlik namunalarini ko‘rsatib, qisqa, ammo keng qamrovli tahliliy maqolalar, siyosiy sharhlar va harbiy sharhlar yozish ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Ular markaziy «Pravda», «Izvestiya», «Bednota» gazetalarida bosilgan materiallarni taqdim etish usullaridan ijodiy foydalandilar, xalq ommasiga mahalliy va xalqaro axborot uzatishning eng samarali vositasi sifatida murojaatlar, shiorlar shakllarini keng qo‘lladilar.

Inqilobdan keyingi dastlabki yillarda sovet harbiy matbuoti bosib o‘tgan yo‘lni tahlil qilar ekan, uning faol namoyandalaridan biri Boris Lavrenev 1922-yilda: “Inqilobning o‘ta kuydiruvchi va tozalovchi alangasi timsolida bizning matbuotimiz dunyoga keldi. Ishchilar va dehqonlar qizil armiyasining yuragi, miyasi va ovozi bo‘lgan matbuotimiz o‘sib, mustahkamlandi” (Lavrenev, 1963), deb yozgani ayni haqiqatdir. Ilk milliy harbiy matbuot nashrlaridan keyin chiqa boshlagan «Красноармеецкая газета» (1921-1922-y.), «Красная звезда» (1922–1938-y.), «Фрунзевец» (1938) gazetolari ham targ‘ibot apparati vazifasini o‘tagan.

Keyinchalik mamlakatimizda chop etilgan “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Samarqand”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat” kabi gazetalar va “Oyina” jurnalida harbiy jurnalistikaga yaqin maqolalar chiqib turgan. XX asr boshlarida o‘zbek tilida chop etilgan jadid matbuoti nashrlarida harbiy hayotning tasviri uchraydi.

Muxtasar aytganda, ma’rifatparvar jadidlar o‘z hayotini tahlikaga solib bo‘lsa-da, yurt va xalq manfaati uchun matbuot maydonida mardona kurash olib borib, millat taraqqiyparvarlaridan biri bo‘lib qoldi. Hozirgi o‘zbek harbiy jurnalistikasi esa ana shu jadid matbuotining mustahkam poydevori ustiga qurilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Karimov N. Jadidlar 1916-yilda. Elektron manba: <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/419-jadidlar-1916-yilda.html> (murojaat vaqti: 14.05.2024).

Irzojev B. Milliy qo'shin orzumandi Hoji Muin Mehriy: Tarixni begonalar yozmasligi kerak // Vatanparvar, № 20, 2024.

Muin Hoji. Askarlik to'g'risida // Zarafshon, 21-iyun, 1923.

Первая советская военная газета в Туркестана // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, № 5, 1965.

Агапов П.В. Военная печать Туркестана в годы гражданской войны (1918-1920 гг.). Дисс. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Ташкент: Наука, 1967.

Лавренев Б. Рожденная в суровых боях. В помощь работникам местной печати. – Ташкент, № 2, 1963

Muallif haqida:

RO'ZIQULOV Dilshod Shuxrat o'g'li — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD, druzikulov27@mail.ru

MILITARY ISSUES IN THE WORKS OF JADID ENLIGHTENERS

Abstract: This article is dedicated to studying the role and distinctive features of military matters in the press of enlightened Jadids. It analyzes the thematic scope and methods of expression of military-related materials on newspaper pages.

Keywords: national army, soldier, press, newspaper, uprising, colony, revolution, liberty, patriotism

About the author:

RO'ZIQULOV Dilshod Shuxrat o'g'li — Senior teacher of the Department of Theory and Practice of Media, University of Journalism and Mass Communications, PhD, druzikulov27@mail.ru

JADID MATBUOTIDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI YORITILISHI

Xurshida Urinova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola jadid matbuotida ekologik muammolarni jadidchilarimiz tomonidan keng va ilmiy jihatdan mahorat bilan yoritib berilishi jadidlarning yetakchi vakili Mahmudho'ja Behbudiy, Fitrat va Saidnosir Mirjalil o'g'lining ekologik muammolar haqida matbuotda chop etgan qator maqolalar misolida yoritib berilgan.

Kalit so'z: Jadid matbuoti, ekologik muammolar, Oyina, Sadoi Turkiston, ekologik madaniyat, tabiiy resurslar, tuproq eroziyasi, havoning ifloslanishi

Jadid matbuoti IXI-XX asr o'rtalarida o'zbek jamiyatida ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy masalalar bo'yicha yangiliklarni yoritishga qaratilgan edi. Ushbu davrda ekologik muammolar ham ba'zan matbuotda ko'tarilgan. Jadid matbuotida ekologik muammolarni yoritish, ayniqsa 20-asr boshlarida, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Jadidlar, o'zining innovatsion yondoshuvlar va marifatparvarlik faoliyatlari bilan tanilgan, ekologiya, atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini ko'tarishga ham alohida e'tibor qaratishgan. Ularning matbuoti va adabiyoti ko'pincha ekologik muammolarga bevosita yoki bilvosita murojaat qilgan. Jadid matbuoti o'zining ekologik muammolarni yoritishdagi yondoshuvlarida umuman olganda, ijtimoiy, siyosiy va madaniy yangilanishni birlashtirgan, atrof-muhitga bolgan mas'uliyatni faqat ilmiy emas, balki ma'rifatparvarlik nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqqan.

Jadid matbuoti ekologik masalalarni ko'rib chiqishda, tabiatni muhofaza qilish va uning resurslaridan oqilona foydalanishni targ'ib qilgan. Tabiiy resurslarni tejash, suv va o'rmonlarni muhofaza qilish, tuproq eroziyasi va havoning ifloslanishi kabi masalalar matbuotda o'rganilgan. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va suv resurslari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda ko'rinadi. Saidnosir Mirjalil o'g'li suv turkistonliklar uchun hayot-mamot masalasi ekanligini anglab, 1917-yil Fevral inqilobidan keyin jamoatchilik diqqatini mazkur dolzarb masalaga qaratadi. "Turkistonda suv masalasi" degan maqolasida "Suv yo'q, demak, Turkistonda hayot yo'qdir" deb yozadi. Uning aytishicha, Turkistondagi muxojirotdorlari o'z manfaatlaridan kelib chiqib, suvni to'lo chor hukumat tasarrufiga o'tkazish loyihasini tayyorlab 1915-yilda Davlat Dumasida tasdiqlatib olgan. Qizig'i Dumada birorta ham turkistonlik vakil bo'lmagan, tabiiyki bu loyiha zararli ekanligini aytadigan hech kim ham bo'lmagan. Fevral inqilobidan keyin qisqa qulay fursatdan foydalanishni sezgan Saidnosir shu

masalada fikr bildiradi “Xudoga shukur, endi eski hukumat yiqildi. Shu tufayli bu loyiha amalga qo‘yiluvdan to‘xtasa kerak. Chunki bu loyiha amalga qo‘durg‘on bo‘lsa, biz turkistonliklar Turkiston yerinda nahri zaminimizni yo‘qoturga mahrum bo‘lajakmiz. Bunga hech shubha yo‘q, ko‘z oldimizda qozoqlarning yerlaridan ajralib turuvlari bunga shohiddir (Karimov, 1999).

Jadidlar ekologik muammolarga ilmiy yondoshuvni rivojlantirishni maqsad qilib, ekologik muammolarni hal etish uchun zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni qo‘llashni, xususan, qishloq xo‘jaligida yangi texnologiyalarni joriy qilishni taklif etganlar. Yoshlarni vatanparvarlikka, maorifga, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka chorlagan. Bunga 1914-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnalida chop etilgan “Zo‘raki boy” maqolasi yaqqol misol bo‘ladi. Unda Zo‘raki boyning obro‘ ortidan isrofgarchilikka yo‘l qo‘yotgani, shu bilan birga o‘zi qiynab chorasiz tan xolga tushgani ochib berilgan. “Chunonchi, ‘Zo‘raki boy’ janoblarni o‘n ming so‘mlik merosi, bog‘ va xonasi bor edi. Bu odam agarda bog‘ini yaxshi ishlatsa, muvofiqi shariat va insof tiriklik qilsa, isrofgarlik etmasa, to‘y va azo deb o‘zini barbod etmasa, albatta ortdurardi. Bu odam o‘zidek va hatto, o‘zidan oz nimarsalik kishilarni ko‘rarga o‘g‘ul to‘yig‘a ikki-uch ming so‘m sarf etar. O‘g‘lig‘a xotun olib bersa yana bir, ikki, uch ming so‘m sarf etar. Bir o‘luk ko‘msa, besh-olti yuz so‘m xarj yetar. Hatto, olti oylik balasini sochini olganda va yo olti kunlik balasini beshikg‘a bog‘laganda bir-ikki yuz so‘m sarf etar. Fotiha, chanladi, dubora-talabon, kalutapo‘shon, mo‘ylabgiron... va boshqalarini nari qo‘yduk, xulosa, bechora o‘n ming so‘mlik mulkdor qaraydurki, ish bo‘lmaydur. O‘g‘ul va qizlar katta bo‘lub turubdur. To‘y lozim, xatna, nikoh, uning orqasidan keti uzulmas bir suruk ma‘raka va qoidalar lozim. Ko‘bdan chiqib bo‘lmaydur. Bechora odam o‘ylavg‘a tushar. To‘y qilmoq uchun bir-ikki tanob bog‘dan va yerdan sotsa, ko‘zi qiymaydur. To‘y qilmasa, bo‘lmaydur...” (2018)

Jadidlar inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning ahamiyatini ta’kidlagan. Ular ekologik muammolarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi sifatida ko‘rib, jamiyatni bu borada ongli qilishga harakat qilgan. Jadidlar milliy matbuot sahifalarida tuproq unumdorligini oshirish uchun chop etgan maqolalari keng muhokamaga sabab bo‘lgan. Xususan, “Sadoi Turkiston” gazetasida yerning hosildorligini oshirishni istagan ziroatchilar o‘z bilimlarini oshirishlari, maxsus kitoblarni mutolaa qilishlari lozimligi ta’kidlanadi. Ma’rifatparvar jadidchilar vakili Rauf Muzaffarzodaning “Sadoi Turkiston” da 1914-yildagi 14-sonida bosilgan “Tuproq nadur?” maqolasida “Yerning o‘stirish quvvatini oshirish uchun o‘g‘itlar sifatini yaxshilash, tabiiy chiqindilar bilan birga sun‘iy o‘g‘itlarni ham qo‘llashga

harakat qilingani bo'yicha tajribalar o'tkazilgani ma'lum bo'ladi (Shodmonova, 2011). Albatta, jadidchilik oldinga surgan asosiy g'oyalar ma'rifatparvarlik va milliy istiqlol bo'lib, ular bu g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun fidokorlarcha kurashuvchi insonlar ekanliklarini ham amalda, ham ilm-fanda va madaniy bahslarda ko'rsata oldilar. Ular yashagan davrda ekologik madaniyat masalalari jiddiy tus olmagan, tabiat va inson o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashmagan, texnikaviy taraqqiyot ijtimoiy-global muammolarni kun tartibiga qo'yib ulgurmagan edi.

Ekologik muammolarning ta'siri inson salomatligiga bevosita bog'liq ekanligi, ayniqsa sanitariya va gigiena muammolarini yoritishda aks etgan. Jadid matbuoti shaharlar va qishloqlarda atrof-muhitni ifloslantiruvchi omillarni ko'rsatib, toza suv va havoning ahamiyatini ta'kidlagan. Fitratning "Sayyoh hindi" asarida Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvirlandi. Yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda muallif yeri, suvi, havosi hech qaysi yerga o'xshamaydigan yurti, bu yurtning mehnatkash, hunarmand odamlarini ta'riflab, shunday jannatmonand o'lkaning nima uchun harob bir ahvolga tushib qolgani sabablari ustida fikr yuritadi. "Fitrat fikricha, asosiy sabab: idora usuli buzuk va nobor, hokimiyat egalari ilm-ma'rifatdan uzoqlar. Agar shu Shahrisabz yerlari Yaponiyada bo'lganda edi, zar ekib, zar undirar edi. Bu yerlar nega sho'razorga aylangan?"... (Qosimov, 2011). Shu tariqa, kitobda iqtisodiy-ma'naviy taraqqiyotning asosiy g'oyalari, ishlab chiqarishdagi o'rta asrchilik, qonunsizlik ekanligi aytiladi.

Behbudiy to'ylardagi isrofgarchilikni tanqid qilgan va bu kabi an'analar bilan kurashgan shaxs sifatida tanilgan. U o'z asarlarida jamiyatdagi ba'zi salbiy ko'rinishlarni, xususan, isrofgarchilikni, haddan tashqari sarf-xarajatlarni va behuda rasm rusumlarni keskin tanqid qiladi. Ayniqsa, to'ylarda isrofgarchilik, boylikni behuda sarflash, soddalikka va tejamkorlikka e'tibor bermaslik kabi holatlar Behbudiy asarlarida yomon ko'rilgan. U o'z asarlarida ortiqcha sarf-xarajatlar, isrofgarchilik va ko'rsatmalarga qarshi bo'lgan holda, soddalik va tejamkorlikni targ'ib qilgan. Bu, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni tiklash va ekologik jihatdan ham yanada samarali resurslardan foydalanishni, an'anaviy ravishda, isrofgarchilikni tanqid qilib, insonlarning odob-axloqi, jamiyatdagi ahloqiy barqarorlik va ma'naviyatning oshishi uchun soddalik va tejamkorlikni muhim deb hisoblagan. O'zining g'oyalarida, to'ylar kabi ijtimoiy tadbirlarni kamroq sarf-xarajat bilan o'tkazishni, ko'proq ma'naviy qadriyatlar va o'zaro hurmatga asoslangan yondashuvni ilgari surgan.

Jadid matbuoti, shuningdek, kolonializmning tabiiy resurslarga bo'lgan ekspluatatsiyasini tanqid qilgan. Ular o'z

vatanlarining tabiiy boyliklarining tashqi kuchlar tomonidan talon-toroj qilinishiga qarshi chiqishgan. Ularning ekologik ta'lim va madaniyatga bo'lgan e'tibori bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Karimov, N. (1999). Hayotning ma'nosi. Tafakkur, №4. B. 74.
Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. Toshkent: Ma'naviyat, 2011. –B. 149.

Shodmonova, S. (2011). Turkiston tarixi – matbuot ko'zgasida (1870-1917-yillar). Toshkent: Yangi nashr, B. 69.

“Zo'raki boy”. Yana isrofgarchilik marosimlari haqida. (2018). kun.uz. URL: <https://kun.uz/news/2018/03/20/zuraki-boj-ana-isrofgarchilik-marosimlari-akida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F03%2F20%2Fzuraki-boj-ana-isrofgarchilik-marosimlari-akida>

Muallif haqida:

URINOVA Xurshida Olimjonovna — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi, bonu_85@mail.ru

COVERAGE OF ENVIRONMENTAL ISSUES IN JADID PRESS

Abstract: This scientific article highlights the extensive and scientifically adept coverage of environmental issues by our Jadids in the Jadid press. It focuses on a series of articles published by leading representatives of the Jadid movement, including Mahmudhoja Behbudiy, Fitrat, and Saidnosir Mirjalil ogli, which addressed various ecological problems.

Keywords: Jadid press, environmental issues, Oyina, Sadoi Turkiston, ecological culture, natural resources, soil erosion, air pollution

About the author:

URINOVA Xurshida Olimjonovna — Teacher of the Department of Media Theory and Practice, Universit of Journalism and Mass Communications, bonu_85@mail.ru

BLOGERLARNING ZAMONAVIY MEDIA MUHITDAGI O'RNI

Nilufar Murodova,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: XXI asrga kelib raqamli ijtimoiy aloqa vositalari, ayniqsa bloglar, ommaviy axborot vositalarining an'anaviy ustunligini o'zgartirdi. Bu o'zgarish interaktivlik, xilma-xillik, tezkorlik va ishonchli dinamikada yaqqol aks etdi. Bu davrga kelib foydalanuvchilar siyosiy munozara jarayonlarining markazida bo'lib, ijtimoiy safarbarlik va jamoaviy fuqarolik harakatlarini osonlashtirmoqda. Ushbu ilmiy maqolada bloglarning zamonaviy media muhitdagi o'rni, ularning an'anaviy OAVga ta'siri, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Olingan xulosalar bo'yicha bloglarni rivojlantirish hamda an'anaviy OAVda ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: blog, blogger, media, OAV, kontent, xabar, yangilik, fuqarolik jurnalistikasi

So'nggi yillarda an'anaviy ommaviy axborot vositalari maydonida tezkor, o'ziga xos va interaktiv tarzda axborot yetkazuvchi yangi aloqa vositasi – bloglar paydo bo'ldi. Ular xabarlarini gomogenlashtirishi va o'ziga xizmat qiluvchi yirik korporativ manfaatlarga bo'ysundirishi (Andrews, P., 2003) natijasida axborot almashinish maydonini muhokama muhitiga aylantirdi. OAVning bu yangi turi katta kuch sifatida yuzaga keldi va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma'rifiy muammolarni muhokamaga qo'yish orqali ularga yechim qidira boshladi.

Butun dunyoda bloggerlik faoliyati nafaqat ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritishda muhim vosita sifatida (Earl & Kimport, 2011), balki jamiyatda fuqarolar faolligini rag'batlantirish, mobilizatsiya qilish va siyosiy hamda ijtimoiy ishtirokini kuchaytirishda (Bennett, 2009) muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Medianing bu yangi turi, ya'ni blogsoha axborotlashgan jamiyatda fuqarolarni axborot olish, qayta ishlash va tarqatish usullarini o'zgartirib yubordi. Bu o'zgarish, o'z navbatida, tadqiqot o'tkazishni talab qiluvchi yangi bir tilni keltirib chiqardi (Garrett, K., 2006). Blogsohaning ijtimoiylashuvi va jurnalistikaning bir vositasi sifatidagi rolini hisobga olgan holda (Micó, & Casero-Ripollés, 2014), ushbu ilmiy maqolada ikki asosiy maqsadga e'tibor qaratiladi:

1) bloglarni kommunikatsiyaviy sifatini tavsiflab, bu media turining o'zgarishini rivojlantiruvchi va osonlashtiruvchi vosita sifatida tahlil qilish;

2) ushbu ijtimoiy media kommunikatsiya vositasining yangi turdagi fuqarolik jurnalistikasi, siyosiy kommunikatsiya va jamoatchilik fikrini yaratishda yanada shaffof va interaktiv tarzda hal qiluvchi rol o'ynayotganini tanqidiy tahlil qilish.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, ilmiy maqolaning oldiga qo'ygan savollari quyidagicha belgilandi:

1) bloglarni transformatsion kommunikatsiya vositasi sifatida belgilovchi unsurlar bormi?;

2) blog boshqa kommunikatsiya platformalaridan qanday farq qiladi?;

3) bloglarning ishlash dinamikasi o'ziga xosmi?;

4) bloglar an'anaviy jurnalistika tomonidan bajariladigan vazifaga o'xshash rolni bajaradimi?

Web 2.0 texnologiyalari jamoatchilik fikrini jonlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaganligi tadqiqotchilar (Criado & García, 2012) tomonida alohida e'tirof etiladi. Bu yangi ijtimoiy media, xususan, bloglar alohida ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida (Castells, 2008) paydo bo'lib, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarga ega bo'lgan voqealarda, masalan, G'ayrat Do'stovning metan quyish shoxobchasidagi murojaati (2025), (Bakirov, 2025), (Xudoyberdiyev, 2025) yoki o'zbekistonlik birinchi ayol dyuzdochi – Diyora Keldiyorovanning Parij – 2024 olimpiadasida oltin medal yutgani haqidagi (TemurMalik, 2024), (G'ofurov, 2024) ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan xabarlarni tarqatishda, jamiyatning bo'layotgan voqea-hodisalarga munosbati sifatida sezilarli rol o'ynadi va raqamli texnologiyalar davrida zaruriy resurs sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

Media manzarasi an'anaviy ta'sir funksiyasidan chiqib, blogsoha aralashuvi bilan yanada jadallashgan yangi bosqichga o'tdi. Bugunga kelib bloglar partizan harakatlari singari jamoatchilik fikrini shakllantirishda ishtirok etmoqda. Ushbu mexanizmdagi oddiylilik, ijtimoiy media texnologiyalarining keng qamrovli qurilmalarda mavjudligi va kommunikatsiya dinamikalarining ikki yoqlama xususiyati blogerlar va ularning kuzatuvchilari bilan o'zaro ta'sir funksiyasini jadallashtirib, muhim qarorlar qabul qilish jarayonlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu zamonaviy media muhitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat auditoriyaning o'y va fikrlariga ta'sir qiladi, balki jamoatchilik nazoratini olib borishda ham sezilarli ahamiyat kasb etadi (Ягудина, 2023).

Quyida bloglarni ijtimoiy media kommunikatsiya vositasi va media manzarasining bir qismi sifatida belgilash, ularning ijtimoiy-siyosiy maydondagi natijalarini va an'anaviy jurnalistikadan farqli jihatlarini tahlil qilamiz.

Blog – kommunikatsiya vositasi sifatida. Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra (Woo-Young & Park, 2012), (Woodly, 2008), bloglar nafaqat televizor ixtirosidan keyingi eng inqilobiy ommaviy axborot vositasi, balki Web 2.0 fenomenining keng miqyosdagi ilk kommunikatsiya vositasi sifatida (Wilde, E., 2007) ham ajralib turadi.

Garchi bloglar nisbatan yangi ixtiro bo'lsa-da, ular 1990-yillarda paydo bo'lganidan buyon sezilarli evolyutsiyaga uchradi (Hsu & Lin, 2008). Blogsohaning dastlabki bosqichi 1999-yilda Blogger platformasining paydo bo'lishi bilan boshlandi (o'sha paytda eng mashhur platforma bo'lgan), unda bloglar faqat oddiy matnlar va boshqa tashqi manbalarga havolalar taqdim etadigan oddiy paketdan iborat bo'lgan. Keyinchalik, ikkinchi bosqichda, 2004-2005-yillargacha, bloglar ancha kengroq auditoriyaga ega bo'lib, jamiyatning keng qatlami orasida ommalashdi. Bunda interfeys, fikr-mulohaza va bevosita kontent boshqaruvi katta ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat matnlarni, balki boshqa multimedia resurslarini, masalan, tasvirlar va audio kontentni tarqatishga imkon berdi. Bu davrda AQShda Political Wire, Little Green Footballs yoki DailyKos kabi bir qator etalon bloglar tug'ildi. Shuningdek, ba'zi bloglar o'z auditoriyasi va ishonchliligi jihatidan an'anaviy ommaviy axborot vositalariga, xususan, yozma matbuotga nisbatan raqobatlasha boshladi.

Nihoyat, asosiy evolyutsion sikl uchinchi bosqich bilan yakunlandi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu kommunikatsiya vositalarining professionalizatsiyasi va umumiy qiziqishlarga ega bo'lgan bloglar tarmog'ining yoki ijtimoiy klasterlarining paydo bo'lishi bilan ajralib turadi (Berman, 2003). Bu davr hozirgi kungacha davom etmoqda. Unda ba'zi bloglar an'anaviy ommaviy axborot vositalariga, masalan, fikrlar ustunligi yoki ixtisoslashgan bo'limlar shaklida integratsiya bo'ldi. Ularning kontenti, hozirda video va fotolarni ham o'z ichiga olgan holda, turli platformalar (mikrobloglar, ijtimoiy tarmoqlar...) orasida erkin harakatlanadi va ularning auditoriyasini kengaytirib, fikr-mulohaza almashishning o'zaro jadallashishini ta'minlamoqda.

Bugungi kunda, bloglar minimal yoki butunlay tashqi tahrirga ega bo'lmagan veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoq sifatida ta'riflanadi. Unda foydalanuvchilar o'z fikrlarini, g'oyalarini, takliflarini va izohlarini joylashtirishi mumkin (Hakimboyeva, 2021). Aslida, bu bir kommunikatsiya vositasi (Abdullayeva va b., 2024) bo'lib, uning mualliflariga senzura mavjud emas (Kenix, 2009).

Shundan kelib chiqib, bloglarning eng muhim xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1) boshqa ma'lumot manbalariga havola bilan bog'langan giperhavolali kontent strukturasi mavjudligi;

2) kontent (matnlar, tasvirlar, videolar...) teskari xronologik tartibda taqdim etilishi, bu esa boshqa onlayn media dinamikasidan farq qiladi;

3) sahifaga shaxsiy mas'uliyat, chunki kontentni va tahriri siyosatni tanlash, o'quvchilarning ishtiroki va o'zaro aloqasini

moderatsiya qilish, foydalanuvchilarning o‘zro ta’sir chegaralarni o‘rnatish va sahifaning grafik va hatto funksional dizaynini sozlash – bularning barchasi blogger, ya’ni blog muallifi tomonidan amalga oshiriladi.

Blog, ijtimoiy media vositasi sifatida. Bugungi kunda an’anaviy media kabi, bloglar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’rifiy kommunikatsiyaning turli vazifalarini nisbatan oson amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bir tomondan, ular qora PR nuqtai nazaridan bevosita, tezkor va juda mos kanal hisoblansa (Kahn & Kellner, 2004), hissiy-emotsional ta’siri nuqtai nazardan jamiyat uchun foydali yoki zararli oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbekistonda bloglar ko‘pincha an’anaviy media vositalari bilan ta’sir va auditoriya ko‘lami bo‘yicha raqobatlashsa ham, Rasul Kusherbayev yoki Xushnodbek Xudoyberdiyevning telegram ijtimoiy tarmog‘idagi blog sahifalari jamiyatda ijobiy ideologik pozitsiyalarni o‘zgartirishga harakat qilayotgan qarshi kuchlar sifatida mashhur namuna hisoblanadi. Ular jamoatchilikni qiziqtirgan masalalarda siyosatshunos yoki hukumat vakillarining jonlanishiga harakat qilishadi.

Siyosiy bloglarning ijtimoiy media kommunikatsiya vositasi sifatida qo‘llanilishi axborot-muhokama taqsimlash platformalarini taqdim etadi va ba’zan siyosiy masalalarda chuqur tahlili yoki pozitsiyasi orqali bu maydonda targ‘ibotchi sifatida maydonga chiqadi.

Bloglar orqali uzatiladigan kommunikatsiyaning turlari bilan Zbog‘liq tadqiqotlar (Kirby & Marsden, 2006) internetda blogning ta’sirini oshiradigan effektlar, masalan, kontentning viral tarqalishi – ya’ni, aniq bir xabarni eksponensial ravishda tarqatish – yoki buzz marketing, ya’ni ma’lum bir voqea yoki faoliyat haqida ko‘p o‘lchamli, ishonitirishga asoslangan kommunikatsiya, katta muvaffaqiyat olib kelishi mumkin. Har ikki turdagi kommunikatsiya og‘zaki so‘zlashuv (word-of-mouth) atamasi ostida jamlanadi, bu esa ishonch va obro‘ga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi norasmiy tavsiyanoma hisoblanadi. Bu, ayniqsa, fikr yetakchilari (@r_kusherbayev, @nishondagi_gaplar_tegadi, @adolat_kuychisi, @Zafarbek_Solijonov, @molxonauzb, @trolluz, @RaisBuva, @fayzboguz, @makarenko_channel, @tentakminds, @AsanovEldar, @shahnozxon) bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan xususiyatdir.

Shunday qilib, an’anaviy media orqali jamoatchilik ishtiroki faqatgina fikrlar bo‘limiga qo‘ng‘roq qilish yoki tahririyatga xat yuborish bilan cheklangan bo‘lsa, bloglarda auditoriya izoh va sharhlarda qoldirilgan fikr va mulohazalar orqali axborotni virtual gorizontda ulkan foydalanuvchilar guruhiga tarqatishda bilvosita ishtirok etadi.

Bu noyob va juda kuchli fuqarolik jurnalistikasi (Murodova, 2023) amaliyotini yaratadi. Bu esa ba'zi hollarda an'anaviy media doirasidan farqli o'laroq, keng jamoat sohalariga bahs-munozara va ko'nikmalarini oshirishga olib keladi

Blog fenomenining ko'tarilishi va pasayishi bilan bog'liq ba'zi munozaralar mavjud bo'lsa-da, bu vositalarning ijtimoiy media to'plamida to'liq mustahkamlanishi umumiy nuqtai nazardan aniq ko'rinadi, shuningdek, ular tez, batafsil ma'lumot taqdim etish, fikrlarni yaratish va birinchi o'qishdayoq ijtimoiy-siyosiy ta'sirni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarmoqlar: Facebook, Instagram, Telegram yoki Twitter kabi platformalarda e'lon qilinayotgan xabar va yangiliklar hukumat darajasida o'z ta'siriga ega bo'lib borayotganligi buning yaqqol dalilidir.

Ijtimoiy tarmoqlarning o'zgaruvchan dinamikasi kommunikatsiyasining aniq talqinini keltirib chiqaradi. Kontent yangilanishining tezligi (Maratea, 2008), segmentatsiya va ushbu segmentlarning xilma-xilligi (Gillmor, 2004), tekshirish zanjiri, ya'nianqlik, kontentning qayta aylanishi yoki foydalanuvchilarning shaxsiyati (Fox & Lenhart, 2006), blogosohaning jamoaviy tabiati, turli texnologik vositalarning tez rivojlanishi – bularning barchasi blogerlarning aniq maqsad asosida faoliyat yuritayotganligining dalillardir. Ko'p hollarda, blogerlar potensial auditoriya xohishiga ko'ra kontent tayyorlash yoki yaratayotgan kontentini auditoriya talablariga moslashtirishning ahamiyatini juda yaxshi bilishadi. Shunday qilib, kontent blogning ruhi bo'lib, uning potentsialini oshiradi. Bu esa eng muhim jihat bo'lib, blogosohaning ish jarayonini tushuntiruvchi asosiy nuqtadir.

Blog yaratish va uni saqlash ko'p vaqt va xarajat talab qiladigan amaliyot bo'lib, nafaqat veb-saytni joylashtirish uchun serverni, balki sifatli kontentni, muntazam e'lonlarni va eng muhimi, blogga tez-tez tashrif buyuradigan va u bilan o'zaro aloqada bo'lgan o'quvchilarni talab qiladi (Drezner & Farrell, 2004). Shuning uchun, blog fenomeni va uning kengayish tendentsiyasiga katta qiziqish bo'lishiga qaramay, hamma ham bloger emas yoki blog yuritmaydi.

Yangi ijtimoiy media texnologiyalari jurnalistikaga, yangiliklar ishlab chiqarishga va jamoatchilikning axborotni iste'mol qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, avvalo, amaliyotchi jurnalistlar va an'anaviy ommaviy axborot vositalarida ishlayotgan professional jurnalistlar hamda blogerlar o'rtasidagi farq aniq belgilanishi kerak.

Jurnalistikada kontentni tanlash, fokus va yondashuvdagi professional muammolar, media korporatsiyalarining tijoratlashuvi asosidagi holatlarni o'z ichiga olgan tasodifiy omildir. U an'anaviy jurnalistika amaliyotining inqirozidan ko'ra, aksincha, ushbu

turdagi raqamli ijtimoiy kommunikatsiya vositalarining paydo bo'lishi bilan ifodalangan jurnalistik ifodalanishning kengaygan chegarasini ta'minlaydi.

Boshqa tomondan, jurnalistik surishtiruv olib boradiganlardan farqli o'laroq, bloggerlar tomonidan bajariladigan qo'shimcha axborot qidirish vazifalari bir-biridan farqlanadi. Ya'ni, bloggerlar odatda mutaxassislar tomonidan taqdim etiladigan dalil va tahlilni taqdim etmaydi. Ba'zi holatlarda, masalan, Ispaniyada, bu holat an'anaviy ommaviy axborot vositalarida minimal darajadagi ishonchlilikka olib kelgan (2015).

Shu nuqtai nazardan, bloglar ommaviy axborot vositalarida xabar berishdagi tarfkashlikni fosh qilish, jamoatchilik uchun muhim bo'lgan, ammo maqsadli ravishda e'tibordan chetda qoldirilgan masalalarni aniqlash va yoritish orqali ularga katta tarmoqlarni yaratish imkonini beradi, bu tarmoqlar ta'sir ko'rsatuvchi platformalar, axborot tugunlari va kontentning kengayishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdullayeva B.S., Ro'iyev Y.Z., Ismoilova K.V. (2024). Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Toshkent: O'zbekiston.

“Amaldorlar bitta uzr bilan qutulayotgan vaqtda...” – G'ayrat Do'stovning qamalishi e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. (2025). kun.uz. URL: <https://kun.uz/kr/61708820>

Bakirov, O. (2025). Xatolar va xulosalar haqida. URL: https://t.me/the_bakiroo/9411

G'ofurov, U. (2024). Oltin medal! Diyora Keldiyorova Olimpiada chempioni! Retrieved from <https://t.me/trolluz/12555>

Hakimboyeva Y.A. (2021). Internet jurnalistikasining yangi yo'nalishi – bloggerlik faoliyati. Scientific Progress, 2(6), 1370-1379.

Murodova N.K. (2023). Jamoatchilik Fikrini Shakllantirishda Blogerning O'rni, maqomi va faoliyat mezonlari. In Avtoreferat PhD (p. 157 b.). Toshkent.

O'zbekistonlik dyuzdochi oltin medal yutdi. (n.d.). Retrieved from <https://t.me/fayzboguz/21776>

Oltin medal! Diyora Keldiyorova Olimpiada chempioni! (n.d.). URL: <https://t.me/trolluz/12555>

TemurMalik. (2024). O'zbekistonlik dyuzdochi oltin medal yutdi. Retrieved from <https://t.me/fayzboguz/21776>

Xudoyberdiyev, X. (2025). Adolatning kuchi haqida. URL: <https://t.me/xushnadbek/26714>

Andrews, P. (2003). Is Blogging Journalism? Weblogs and Journalism. Nieman Reports, 7(3), 63-64.

Bennett, W. L. (2009). Civic Life Online: Learning How Digital Media Can Engage Youth. The International Journal Of Digital Information, Research And Use, 33(3), 615 - 616.

Berman, P. (2003). The Internet, Community Definition and the Social Meaning of Legal Jurisdiction. (I. B. (Ed.), Ed.) New York: Columbia

University Press.

Castells, M. (2008). The new public sphere: Global civil society, communication networks and global governance. *The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science*, 616(1), 78-93. doi:<https://doi.org/10.1177/0002716207311877>

Criado, J. I. & García Alonso, R. ((2012). Democracia 2.0? Un análisis del potencial deliberativo de la blogosfera política. *Revista de Estudios Políticos*, 1, 71- 99.

Drezner, D. & Farrell, H. (2004). The Power and Politics of Blogs. American Political Science Association, Working paper.

Earl & Kimport. (2011). Digitally enabled social change: Activism in the Internet age. *Contemporary Sociology A Journal of Reviews*, 41(4), 486-487.

Fox, S. & Lenhart, A. (2006). Bloggers: A Portrait of the Internet's New Storytellers. Retrieved from www.pewinternet.org.

Garrett, K. (2006). Protest in information society: A review of literature on social movements and new ICTs. *Information, Communication & Society*, a(2), 202-224. doi:<https://doi.org/10.1080/13691180600630773>

Gillmor, D. (2004). We the Media: Grassroots Journalism by the People, for the People.

Hsu, C. L. & Lin, J. (2008). Acceptance of Blog Usage: The Roles of Technology Acceptance, Social Influence and Knowledge Sharing Motivation. *Information & Management*, 4, pp. 65-74.

Kahn, R. & Kellner, D. (2004). New Media and Internet Activism: From the 'Battle of Seattle' to Blogging. *New Media & Society*, 6(1), pp. 87-95. doi:<https://doi.org/10.1177/1461444804039908>

Kenix, L. (2009). Blogs as Alternative. *Journal of Computer-Mediated Communication*(14), pp. 790- 822. doi:<https://doi.org/10.1111/j.1083-6101.2009.01471.x>

Kirby, J. & Marsden, P. (2006). Connected Marketing the Viral, Buzz and Word of Mouth Revolution. Oxford: Elsevier.

Maratea, R. (2008). The e-Rise and Fall of Social Problems: The Blogosphere as a Public Arena. *Social Problems* (1), pp. 139-160. doi:<https://doi.org/10.1525/sp.2008.55.1.139>

Micó, J. L. & Casero-Ripollés, A. (2014). Political activism online: organization and media relations in the case of 15M in Spain. *Information, Communication & Society*, 17(7), 858- 871. doi:<https://doi.org/10.1080/1369118x.2013.830634>

Reuters Institute. (2015). Reuters Institute Digital News Report 201. Reuters Institute for the Study of Journalism.

Wilde, E. (2007). Deconstructing Blogs. *Online Information Review*, 32(3), 401-414. doi:<https://doi.org/10.1108/14684520810889691>

Woodly, D. (2008). New competencies in democratic communication? Blogs, agenda-setting and political participation. *Public Choice*, 134(1-2), 109-123. doi:<https://doi.org/10.1007/s11127-007-9204-7>

Woo-Young, C. & Park, H. W. (2012). The network structure of the Korean blogosphere. *Journal of Computer-Mediated Communication* (17), 216-230. doi:<https://doi.org/10.1111/j.1083-6101.2011.01567.x>



Ягудина, А. Р. (2023). Блогеры как регуляторы общественного мнения. Мир науки и мысли(2), 105-112.

Muallif haqida:

Murodova Nilufar — O‘zJOKU “YUNESKO va ixtisoslashgan media” kafedrasi o‘qituvchisi, O‘zJOKU mustaqil tadqiqotchisi, nilufarmurodovaa@gmail.com

THE PLACE OF BLOGGERS IN MODERN MEDIA
ENVIRONMENT

Abstract: By the 21st century, digital social media, especially blogs, had disrupted the traditional dominance of the media. This disruption is reflected in the increased interactivity, diversity, speed, and reliable dynamics. Blogs have not only put users at the center of political debate processes but also played a significant role in social mobilization and collective civic movements. This scientific article analyzes the role of blogs in the modern media environment, their influence on traditional media, their achievements, and the challenges they face. Drawing from these insights, the article offers recommendations for the development of blogs and their effective integration with traditional media, highlighting their potential for inspiring social change.

Keywords: blog, blogger, media, media, content, news, news, citizen journalism

About the author:

Murodova Nilufar — teacher in the department “UNESCO and specialized media” of at University of Journalism and mass communications of Uzbekistan, and an independent researcher at JMCU, nilufarmurodovaa@gmail.com

THE DISINFORMATION PROBLEM IN MODERN MEDIA SYSTEMS

Kanan Vugar Novruzov,
Baku State University (Azerbaijan)

Abstract: Information is a phenomenon that plays a special role in the modern world. This is explained by its direct impact on society. Media is used as a significant power both in managing nations and societies, as well as in the system of international relations. As known, information stands at the root of media. The gradual actualization of the “information warfare” phenomenon should be evaluated from this context. The gradual actualization of the “information warfare” phenomenon should be evaluated from this context. The development of modern Information Communication Technologies, as well as new trends observed in the media environment, are remembered for different approaches to information. Now, not only information but also “fake news” is used to control public consciousness, although this tendency did not exist until recently. There are several important factors that influence the increasing relevance of “fake news” and its evaluation as one of the serious problems in the modern media system. While the first and probably the most important of these is the development of ICT, others are consequences stemming from it. These include the faster spreading capability of information in the current era, the sometimes difficult verification of information accuracy, and people's need for information.

Keywords: media, disinformation, fake news, journalism, Information Communication Technologies.

Various tools are used in the governance of every society. These include different means from hard power tools to soft power. One such tool is media. The main difference between media and other influence mechanisms is media's wider sphere of influence. While states use law enforcement agencies in a more local and regional manner, journalism has a global character.

This is related to journalism's information-oriented nature. “The importance of information, which plays a crucial role in society's life, is steadily growing. Particularly, the formation of an information society that paves the way for the rapid development of computer technologies is connected with the emergence of information exchange” (Rustamov, 2021).

Today, almost everything can be achieved through information. This encompasses a wide range of areas, from advertising campaigns to public relations, and from promotion to organization. Information has the power to both achieve peace and ignite war. Consequently, many experts believe there is no weapon more powerful than information nowadays.

It is important to take into account that not every piece of data is information. For data to be considered information, it must have a public character and possess the ability to influence public opinion. “Experts highlight that in the modern world, information is a highly valuable product that is traded and exchanged.

Nowadays, information has moved beyond being merely data; it shapes people's worldviews while shortening distances and bringing nations closer together. Additionally, information plays a significant role in protecting human rights and preventing conflicts."

New trends are being observed in journalism, which has an ancient history. These new trends are primarily related to the development of ICT. Transformations and changes in the genres and formats of journalism can be attributed to this influence. But the matter doesn't end there.

While ICT development opens new opportunities for journalism's growth, it also brings challenges. One of them, and perhaps the main one, is the problem of disinformation.

The concept of "fake news" has always existed in journalism, with its roots tracing back to 'yellow journalism.' In the 19th century, a new trend known as "yellow journalism" – emerged in world journalism. The origin of "yellow journalism" is the United States.

As Professor Hamid Valiyev points out, "yellow journalism" was the "The emergence of 'yellow journalism' was associated with the intense competition between New York's two largest newspapers, 'New York World' and 'New York Morning Journal' (Rustamov, 2021).

As Professor Hamid Valiyev points out, "yellow journalism" was the distributor of sensational and hottest facts (Valiyev, 2014). This, in turn, created conditions for presenting facts without verification, and sometimes even with distortion and exaggeration.

Nowadays, the situation has evolved. While in the 19th century, "yellow journalism" primarily catered to entertainment, humor, and newspaper sales, today's objectives are different: confusing society, obscuring the truth, and managing international relations. It should be noted that there are conditions for this. With the development of ICT and artificial intelligence (AI) technologies, deceiving people has become relatively easy. In this context, social media deserves special attention. The primary characteristic that sets social media apart from traditional media is its speed and immediacy. Social media operates without the constraints of time and space. Its audience is broader and it is interactive. This makes social media as a weapon in managing public consciousness. "Social media plays an important role in shaping the communication environment of modern society." (Valiyev, 2014) This indicates that social media is an indispensable tool not only for meeting society's information needs but also for its management. The issue is the lack of a specific legal framework regulating citizen journalism. Users can comment on various events and even sometimes create events themselves, as long as

they don't break the law. Moreover, unlike traditional media, it is possible to delete, edit, and activate content for limited users and limited periods on social media platforms. All of these factors allow users to utilize social media to shape public opinion. In fact, large corporations and institutions are more involved in this activity than individual users.

"We particularly witness social media users suddenly becoming 'active' during various emergencies." Examples include the COVID-19 pandemic that started in 2019 and rapidly spread worldwide, causing millions of deaths; the Second Karabakh War in 2020; the ongoing Russia-Ukraine war that began in 2022; the overthrow of Bashar Assad's regime in Syria after many years; and other significant events.

Social media activity was notably high during each of these events. Indeed, some social media posts were accurate and correct, and in some cases, social media even outpaced traditional media in providing accurate information. However, disinformation was more prevalent. For example, during the early days of the COVID-19 pandemic, social media reports claimed that people in China were suddenly falling and dying on the streets.

"In October 2020, famous Russian TV host Vladimir Solovyov presented footage from the ArmA3 computer game as documentary video from the Armenia-Azerbaijan combat zone in his YouTube program 'Full Contact' (Huseynova, 2019).

Moreover, misleading information has been spread multiple times regarding the ongoing Russia-Ukraine war, which has been lasting for three years. Numerous similar examples can be cited.

Notably, information published in the media citing "media outlets," "reliable sources" or "informed" sources who wish to remain anonymous" typically has a lower degree of accuracy. Monitoring shows that such news is not only inaccurate but often false, directly aimed at misleading public opinion. For instance, during the Second Karabakh War, one of the most widely circulated pieces of disinformation in the Armenian media was claims about Syrian fighters fighting in the Azerbaijani army.

"Armenians constantly spread fake photos and videos to support this claim because they wanted to justify their defeat and create condemnation against Azerbaijan" (Nasirova,).

In particular, fake news manifests itself not only in social media but also in artificial intelligence tools. "Artificial intelligence is increasingly penetrating media work. Information search, speech, voice and photo recognition, highlighting priority aspects of topics, creating texts, and their targeted distribution, etc., are partial examples of incorporating AI elements into editorial practice". These are positive effects of artificial intelligence on media development. However, there are harmful aspects as well.

For instance, it's possible to easily create chaos in public opinion through various AI tools like "Deepfake", "Fakeyou", "VoxBox", "Murf", "Speechelo". For example, about a year ago, a student from St. Petersburg University used artificial intelligence to simulate a conversation with Russian President Vladimir Putin, using Putin's own face. This didn't cause significant public agitation because the AI-generated product spoke with Putin himself. Everyone knew who the real Putin was.

Additionally, a fake speech by Ukrainian President Volodymyr Zelenskyy was created using artificial intelligence. The AI made defeat-themed statements on behalf of the Ukrainian leader. Of course, this was part of information and psychological warfare aimed at lowering public morale.

Many such examples can be cited. All this suggests that while spreading disinformation is now easier than ever, protecting against it is equally difficult.

A situation has emerged where disinformation has overtaken information due to its importance and influence. The era of information warfare is over, and the era of disinformation warfare has begun.

This means that media corporations serving various institutions and forces are not just rushing to obtain and spread information quickly, but are also using smear campaigns to "hit specific targets."

Vugar Zifaroghlu, a member of the Observation Council of the Media Development Agency of the Republic of Azerbaijan, stated at an event marking the 149th anniversary of the National Press of Azerbaijan that there are significant challenges regarding disinformation not only in Azerbaijan but also on a global scale. In accordance with the rapid development of ICT and AI, disinformation may appear in different forms in the future – as a more serious threat. This not only makes the fight against disinformation inevitable but also increases the role of media literacy in society. In the future, new ways may be created to detect fake news and strengthen the "fact-check" principle.

"Information is the most modern and powerful technological weapon used in managing society". How this powerful weapon will be used in the future – and for what purposes – is not yet known. However, forecasts suggest that as the role of disinformation in society strengthens, measures to combat it will also strengthen.

References:

Babayev, Z., Babayev A., (2025). Robotization Process in Media and Problems and Prospects of Using Artificial Intelligence, Ancient Land International Scientific Journal, Special Issue. doi: <https://doi.org/10.36719/2706-6185/43/85-91>. Date of access: 01.07.2025. URL: <https://www.aem.az/uploads/posts/2025/01/Q%C9%99dim%20Diyar%20>

Xususi%20buraxilis-79-85.pdf.

Huseynova, K. (2019). Social Media and Its Impact on People's Psychological State, Journalism, №10. URL: [https://www.anl.az/down/meqale/jurnalistika/2019/10/12\(meqale\).pdf](https://www.anl.az/down/meqale/jurnalistika/2019/10/12(meqale).pdf). Date of access: 01.07.2025

Nasirova, A., Huseynova, K., (2023). Fake News in Media: Causes of Spread and Methods of Combating, Baku: "Ganun" Publishing. P. 119.

Novruzov, K. (2023). Victory Road in the Light of Azerbaijani Press, Baku: Ecoprint. P.88.

Rustamov, A. (2021). Journalism as a Mass Media System, Baku: SKYe. P. 398.

Valiyev, H. (2014). History of Foreign Countries' Journalism, Baku: Zardabi LTD. P.637.

Zifaroglu, V. (2024). There are calls regarding disinformation not only in Azerbaijan, but also globally. Report.uz. URL: <https://report.az/media-xeber/vuqar-zifaroglu-dezinformasiya-ile-bagli-tekce-azerbaycanda-deyil-qlobal-miqyasda-da-cagirislar-var/>. Date of access: 19.07.2024

Zifaroglu, V. (2012). Media Empire, Baku: Nurlan. PP. 142,138.

About the author:

NOVRUZOV Kanan Vugar — Doctoral Student, Faculty of Journalism, Baku State University, Azerbaijan. mirikrim55@gmail.com

ИДЕИ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ ОБ ОБНОВЛЕНИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ТУРКЕСТАНЕ

Парвина Бегбудиева,

Самаркандский государственный институт иностранных языков

Аннотация: Махмудходжа Бехбуди, как великий просветитель и государственный деятель Туркестана, уделял особое внимание обновлению системы образования и воспитанию молодежи. Несмотря на то, что он жил в сложных условиях, он подчеркивал необходимость развития науки и образования. Бехбуди подчеркивал, что система образования должна основываться на современных методологиях и педагогических подходах, и что она должна рассматриваться не только как процесс передачи знаний, но и как процесс воспитания. Он ставил целью формирование интеллектуального и духовного облика молодого поколения. **Kalit so'zlar:** молодёжь Туркестана, образование, воспитание, актуальность, новшество, самостоятельность

Махмудходжа Бехбуди, великий просветитель, драматург и государственный деятель Туркестана, уделял большое внимание обновлению образовательной системы и воспитанию молодежи. Несмотря на то, что он жил в трудных условиях своего времени, он всегда подчеркивал важность развития науки и образования.

По мнению Бехбуди, образовательная система должна

систематически обновляться не на основе старых традиций, а опираясь на современные методологии и педагогические подходы. Он рассматривал образование не только как процесс передачи знаний, но и как процесс воспитания. М.Бехбуди ставил целью формирование у молодежи не только знаний, но и духовного лица, интересов и социальной ответственности (Юсупов, 2020).

Важно, чтобы образование было связано с социальной жизнью, побуждая молодежь самостоятельно решать проблемы. Этот процесс помогает молодежи активно участвовать в своих сообществах и формировать ответственный подход.

Так, как он считал, что образование должно быть связано с социальной жизнью и побуждать молодежь к самостоятельному решению своих проблем, для этого очень важно предоставить им знания, соответствующие требованиям времени, и направить их на служение своим сообществам (Юлдашева, 2006).

Воспитание молодежи также включает важный элемент — процесс повторной оценки и обмена мнениями. Взаимный обмен мнениями помогает им изучать широкий спектр проблем и способы их решения. Открытые дискуссии и конструктивная критика побуждают молодежь к мыслительному процессу и взаимному уважению.

Важно создавать возможности для активного участия молодежи в общественной жизни. Их участие в социальных проектах, волонтерской деятельности и общественных мероприятиях должно поощряться должным образом. Благодаря этому молодое поколение развивает чувство социальной ответственности и коллективизма.

При воспитании молодежи необходимо объединять национальные и глобальные ценности, делая их взаимосвязанными в широком масштабе. Матери, отцы, учителя и общественное воспитание должны с самого рождения воспитывать молодежь на основе таких ценностей, как социальная ответственность, уважение и борьба с бедностью.

В подготовке молодежи к социальной ответственности очень важно обучать навыкам решения проблем. Это помогает развить у молодых людей необходимые навыки для работы в педагогической, экономической и социальной сферах. Например, можно организовать тренинги по выявлению социальных проблем, предложению решений и разработке проектов.

Для развития социальной ответственности среди молодежи необходимо предоставить им необходимые знания и навыки. Это важно не только для индивидуального развития, но и для устойчивого и здорового развития общества в целом.

Формируя социальную ответственность, молодежь становится активными участниками общества и положительно влияет на будущее нашей страны (Абдураззаков, 2018).

Махмудхуджи Бехбуди призывал к внедрению новых технологий и инновационных подходов в систему образования. Он подчеркивал необходимость создания образовательной системы, которая объединяла бы как национальные ценности, так и глобальные знания. Для достижения этой цели необходимо постоянно обновлять методы и инструменты, используемые в образовательном процессе, и устанавливать эффективные взаимодействия между преподавателями и студентами.

Идеи Махмудхуджи Бехбуди о реформировании образовательной системы и воспитании молодежи до сих пор остаются актуальными. Его усилия на пути образования и просвещения в свое время продолжают оказывать влияние на наше поколение. Понимание необходимости внедрения новшеств в воспитание молодежи и создание соответствующих условий для их более полноценной жизни имеет важное значение.

Список литературы:

Абдураззаков, К. (2018). Оперативное образование: современная значимость наследия Бехбуди. *Узбекская наука образования*.

Бехбуди, М. (н.д.). *Образование и просвещение*. Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан.

Махмудов, С. (2013). Махмудхуджа Бехбуди: Новшества в образовании и воспитании. *Журнал Народное образование*.

Шукуров, Н. (2021). *Инновационное образование и педагогические подходы*. Ташкент: Наука и технологии.

Юлдашева, А. (2006). *Современная методология образования*. Ташкент: Издательство Узбекского национального университета.

Юсупов М. (2020). Анализы Бехбуди: образование и социальная ответственность. *Журнал системы образования Узбекистана*.

Об авторе:

БЕГБУДИЕВА Парвина — Самаркандский государственный институт иностранных языков, соискатель кафедры английского языка, parvinabegbudieva@gmail.com

IDEAS OF MAHMUDKHOJI BEHBUDI ON UPDATING THE EDUCATION SYSTEM AND EDUCATION OF YOUTH IN TURKESTAN

Abstract: Mahmudkhodja Behbudiy, as a great enlightener and statesman of Turkestan, paid particular attention to the renewal of the education system and the upbringing of young people. Despite living in difficult conditions, he emphasized the need for the development of science and education. Behbudiy stressed that the education system should be based on modern methodologies

and pedagogical approaches, and that it should be viewed not only as a process of transmitting knowledge but also as a process of upbringing. He aimed to shape the intellectual and spiritual character of the younger generation.

Keywords: youth of Turkestan, education, upbringing, education, topicality, innovation, autonomy`

About the author:

BEGBUDIEVA Parvina — PhD candidate at the Department of English Language, Samarkand State Institute of Foreign Languages, parvinabegbudieva@gmail.com

TELEVIZION JURNALISTIK SURISHTIRUVDA MUAMMONI YORITISH MEXANIZMLARI

Shoira Buribekova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek mediasida television jurnalistik surishtiruv rukni ostida efigra uzatilayotgan ko'rsatuvlarda ko'tarilayotgan mavzularning ahamiyati, jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga ta'siri, surishtiruv jarayonida kuzatilayotgan muammolar tadqiq qilingan. Shuningdek, efigra uzatilayotgan surishtiruvlarning janr mohiyatiga mosligi o'rganilgan.


Kalit so'zlar: ekspluatatsiya, bulling, psixologik tajovuz, subfilial, bolalar zo'ravonligi, informatsion lavha, nimstansiya

Mustaqillikdan so'ng, 2000 yillardan keyin, o'zbek mediasida jamiyatda sodir bo'layotgan voqelikka oid turli mavzularda jurnalistik surishtiruvlar soni shiddat bilan ko'payishni boshladi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bu bolaga jismoniy, jinsiy ruhiy zo'ravonlik yoki g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling qilinishi yoki potentsial zarar yetkazilishi hisoblanadi. Bu mavzu bilan bog'liq surishtiruvlar sonining ortib borayotgani bir necha omillar bilan izohlanishi mumkin: jamiyatda bolalarga psixologik tajovuz va zo'ravonliklar sonining oshishi oqibatida muammoning davlat hokimiyati organlari darajasigacha ko'tarilishi, jamiyatda bolalar bedarak yo'qolishi bilan bog'liq holatlarning oshib ketishi (2022 yilda 231 nafar) kabilardir.

Statistikaga ko'ra, O'zbekistonda 2022-2024 yillarda 7 yoshgacha zo'ravonlikka uchragan bolalar 1,3 foizni, 16 yoshgacha bo'lganlar 17 foizni va 18 yoshgacha bo'lganlar 6 foizni tashkil etadi. Zo'ravonlikka oid jinoyatlar oxirgi uch yillikda 140 foizga oshgan. Bu jinoyatlar natijasida zo'ravonlik qurbonlari 137 foizga ortgan.

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105>



Bu ko'rsatkichlar yil sayin oshib borayotgani uni yoritish va oldini olishga qaratilgan ishlarning ham ortishiga sabab bo'ldi. Bu holatlar ijtimoiy tarmoqlar, telegram kanallari va telekanallarda informatsion lavha, ko'rsatuv va post shakllarida doimiy yoritib borilmoqda. 2023-yil "Sevimli" telekanalida "Ayol o'z farzandiga zo'ra vonlik qildi" rukni ostida namoyish etilgan informatsion lavha ko'pgina muzokaralarga sabab bo'ldi. Kontent muallifi Mo'tabar Nurmuhammedova tomonidan holat yozib olingan video bilan boshlangan. Videoda ona o'z farzandiga "Dadajon men hozir o'laman deb ayt" deya bolani bo'ynidan bug'gani aks etgan. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi bu holatga jurnalist "Bolalarimning jonini olaman" deb ta'kidlagan ayol nega erining qasдини o'z farzandidan olmoqchi bo'ldi, degan savol orqali kirib borgan. Holatga ayolning o'zi, uning onasi, mahalla fuqarolar yig'ini raisi, qaynonasi, qo'shnilar baho bergan. Lavha Viloyat ichki ishlar matbuot xizmati tomonidan voqeaga nisbatan tekshiruv ishlari olib borilayotgani haqidagi ma'lumot bilan yakunlangan. Jurnalist tomonidan o'rganilgan ushbu voqea jurnalistik surishtiruv rukniga mos kelishi uchun unda holatning umumiy ko'rinishi yetishmagan. Aniqrog'i, informatsion lavhalar ko'p holatlarda, qaysidir yuqori turuvchi organlarning chorasiga tayanib yoki holatning o'rganilayotganiga yo'naltirib lavhasini yakunlaydi. Vaholanki, bu kabi holatlarga olib keluvchi yashirin omillar, uning oqibatlarini, holatlar ketma-ketligini tuzib, jamiyatdagi ahamiyatini ko'rsatish maqsadga muvofiq edi.

Lekin ko'p holatlarda bu kabi mavzular ko'rsatuv shaklida emas, balki lavha ko'rinishida efirga uzatilayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa bolalar zo'ra vonligiga oid ko'rsatuvlar kam tayyorlanayotganidan darak beradi.

BMT Bolalar jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 2 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan har 10 nafar boladan 6 nafari jismoniy zo'ra vonlikka uchraydi. O'zbekiston Respublikasida statistik ma'lumotlar tanqisligi sabab bolaga nisbatan

zo‘ravonlikning barcha shakllarini ko‘rsatishda muammoga duch kelinadi. Aksariyat statistik ma‘lumotlar huquqbuzarlik, jinoyat sodir qilgan bolalar haqida. Lekin bolalarning zo‘ravonlika uchrashi bo‘yicha ma‘lumotlar juda kamligi kuzatiladi (Fayzimurodova, 2023). Shunday bo‘lsada, ijtimoiy tarmoqlar bolalar zo‘ravonligiga oid jinoyatlarni yoritishda ancha faolligini aytish muhim. Birgina ko‘pgina OAV nashrlari qatorida gazeta.uz (2023) saytida 2023-yilning 31-yanvar kuni Toshkent shahrining Yangiheyot tumanida zo‘rlilik va qotillik alomatlari bilan 12 yoshli qizning murdasi topilgani haqida xabar chiqdi. Ushbu mavzu ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilindi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, tajovuz, o‘g‘irlash kabi holatlar jamoatchilik e‘tibor markazida turgan muhim mavzulardan biriga aylanib borayotgani ham bejiz emas. Bu kabi materiallar ijtimoiy jurnalistik surishtiruv sifatida o‘rganilib, voqealikka ochib berish, yashirin holatlarni fosh etish, shuningdek, uning oqibatlarini va jinoyatga nisbatan ko‘riladigan choralarni namoyish etish ko‘rinishida efirga uzatiladi. 2015-yillardan keyin ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik mavzulari ochiq efirga uzatiladigan materiallar qatoridan o‘rin olib, kriminal va ijtimoiy-iqtisodiy jurnalistik surishtiruvlar sifatida efirga uzatila boshlandi.

2014-yilda “O‘zbekiston” teleradiokanalida namoyish etilgan “Yordamga muhtoj “tez yordam” ko‘rsatuvi o‘zida janr mohiyatiga xos usullarni qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir. Jurnalistik surishtiruv rukni ostida efirga uzatilgan ko‘rsatuvning ushbu sonini jurnalist respublikamizda aholi salomatligini yaxshilash va mustahkamlanishida Respublika shoshilinch ilmiy markazlarining o‘rni va ahamiyatiga to‘xtalib, yurtimizda aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimi shakllantirilgani, bu borada respublika tibbiy yordam ko‘rsatish markazi va uning filiallari, shoshilinch tibbiy yordam ko‘rinishida subfiliallar, hamda stansiyalar, nimstansiyalar, tez tibbiy yordam guruxlari faoliyat ko‘rsatayotgani, ularning har biri zamonaviy tashxis uskunalarini va dori-darmonlar bilan ta‘minlangani aytib o‘tilgan. Lekin shunga qaramay, bu kabi ijtimoiy himoya tizimi ya‘ni Respublika miqyosidagi shoshilinch tibbiy yordam tizimida yuzaga kelayotgan g‘ayriqonuniy ishlar, markazlarda faoliyat ko‘rsatayotgan shifokor va mansabdor shaxslarning o‘z lavozimini suis‘temol qilish holatlari uchrab turgani aytiladi. Ahamiyatli tomoni, jurnalist holatni butun mamlakatimiz doirasida o‘rganishga uringan va bolalar salomatligi bilan bog‘liq davlat tomonidan ajratiladigan turli preparatlarni o‘zlashtirish holatlarini ochib chiqqan.

Jurnalist o‘z ishida intervyu, kuzatuv metodlaridan foydalanib, yashirin kamera orqali holatni ko‘rsatishga uringan. Asosiy axborot manbasi sifatida hujjatlar va statistik ma‘lumotlarga tayangan.

Qolaversa, surishtiruv avvalida jurnalist tomonidan Buxoro viloyati shoshilinch tibbiy xizmati haqida jamoatchilik fikri o'rganilgan. Unda aholi vakillari tomonidan birinchi yordam berilmasligi, shifokorlar tibbiy yordam mashinalari joylarga benzin yo'qligi sabab chiqa olmasliklarini ro'kach qilishi, xizmatlar pullik ekanligidan norozi bo'lishgani aytilgan. Blis so'rov natijasida yana ayrim shaxslar navbatchi va aholi o'rtasida aloqa o'rnatuvchi qisqa 106 raqami ham ish faoliyatida emasligini, ishlagan taqdirda esa navbatchi aholiga yoqilg'i yo'qligi sababini keltirib, bemorni o'zlari olib kelishlarini so'rashi ta'kidlangan. Jurnalist ish jarayonida davlat tomonidan bu kabi muassasalarning xizmati bepul bo'lishi va ayrim preparatlar ham davlat hisobidan ta'minlanishi haqida to'xtalib o'tgan. Jarayonni aholi so'zlariga tayanib, shifokorning bemorga dori vositalarini o'z hisobidan sotib olib kelishlari haqidagi fikrlarini oydinlashtirishadi va yillar davomida sohada o'zlashtirilgan mablag'lar statistikasini ko'rsatgan. Pul ortidan quvgan mansabdorlar vijdonini ham yeb bitirishga ulgurmay qonun oldida javob berishi jurnalist tomonidan o'rinli izohlangan. Bu holatlar ustidan jinoiy ish ochilishiga sabab bo'lgani keltirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, shifokorlarning uquvsizligi oqibatida Javohir ismli bolakay botulizm tashxisi bilan kelgan bo'lsada, markaz reanimatologi tomonidan bu tashxis bekor qilinib, reanimatsiyaga qabul qilinmaganing uquvsizligi oqibatida olamdan o'tgan. Ushbu holat bo'yicha bir qancha shifokor va mas'ullar jinoiy javobgarlikka tortilgani tezkor kadrlar bilan namoyish etilgan. Ko'rsatuv davomida bemorlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifatini o'rganishga qaratilgan jarayonni tasvirga olish uchun muallif yashirin kameradan foydalangan. Unda "tanish-bilishchilik", aniqrog'i, hamshiraning bemorga qo'pol munosabatda bo'lib, o'z tanishini esa navbatsiz ichkariga taklif qilayotgani aks ettirilgan tasvirlar namoyish qilingan. Muallif o'z fikrlarini tizim mas'ullaridan olgan intervyulari bilan mustahkamlagan.

Navbatdagi bolalar zo'ravonligi bilan bog'liq jinoyat holati bulling holati "Sevimli" telekanalida muharrir Sohiba Akromova tomonidan jurnalistik surishtiruv rukni sifatida olib chiqilgan. "Farzandini qo'shni bola bilan urishtirgan otaga chora ko'riladi" deb nom olgan ushbu holat Uchtepa tumanining Guzar mahallasida sodir bo'lgan. Holatni jurnalist: "Ikki nafar voyaga yetmagan bola va ular o'rtasida olishuv, darvoqe, jangga hakamlik qilayotgan, to'g'rirog', bir tomonga yon bosayotgan, hattoki, qo'shilib kaltaklashayotgan xhaxs bolaning otasi..." (Akromova, 2024) deb ifodalagan. Holatga nisbatan yon qo'shnilar, bolalarning onasi va MFY faollari intervyu bergan. Shundan so'ng jurnalist vaziyatni baholagan holda: aslida ikki tomon o'zaro kelishib

olgan bo'lsalarda, mushtumzo'r otaga tergov harakatlari boshlab yuborilgan deb aytib ketgan. Toshkent shahar IIBB axborot xizmati rahbari Nilufar Isaxanova tomonidan tekshiruv yakuni bo'yicha qonuniy chora qo'rilishi ta'minlanadi deyilgan. Lavha so'nggida jurnalist tomonidan jazo choralari aniqlashtirib o'tiladi. Jurnalistik surishtiruv deb nomlangan ushbu lavhada janrga xos xususiyatlar mavjud bo'lsa-da, unga to'liq mos deya olmaymiz. Voqea yashirinligicha qolib ketgan.

Lekin xuddi shu telekanalning 2023-yilda efirga uzatilgan yana bir sonida, Xorazm viloyatidagi 1-sonli oilaviy mehribonlik uylarining birida mansabdor rahbar o'z vasiyligidagi 15, 16, 17 yoshli qizlarni 2021-yilning may oyidan 2022-yilning fevraligicha, ya'ni 10 oy davomida erkaklar bilan jinsiy aloqa qilishga majburlab kelgani haqida o'tkazilgan surishtiruv jurnalistik surishtiruv janr talablariga ko'ra tayyorlangan.

Boshlovchi tomonidan surishtiruv shunday izohlangan: qo'shtirnoq ichidagi mijozlar viloyat Adliya boshqarmasining boshlig'i va tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i ekanligi aniqlangan. Erkaklar ko'rsatilgan xizmat evaziga mudirani turli miqdordagi mablag'lar bilan siylashgan, mehribonlik uyiga homiylik ko'rinishida mebel, ofis jihozlari, oziq-ovqat, ichimlik va shirinliklar bilan ta'minlab turgan. Mansabdor shaxslarga 5 yilga qamoq jazosini o'tash chorasini ko'rilgan bo'lsada, jamoatchilik faollari tomonidan sud hukmi adolatsiz ekanligi haqida turli salbiy muzokaralar kelib chiqayotgani, mansabdor shaxslarga nisbatan bu yengil chora ekanligi keltirib o'tilgan (Primova, 2023). Bu kabi muzokaralar maxsus lavha tayyorlanishiga asos bo'lgani holatni keng yoritilganidan ayon. Jamoatchilik fikridan kelib chiqqan holda surishtiruvning bu kabi qisqa va aniq tahlilini sohadagi o'ziga xos yondashuv deyish mumkin.

Jurnalistik surishtiruv rukni bilan efirga ketgan ushbu material jurnalist Dilbar Primova tomonidan o'rganilgan. U holatni ijtimoiy tarmoqlarda keltirilgan jamoatchilik muzokaralariga asoslangan kadrlar bilan boshlagan. Unda viloyat adliya boshqarmasining boshlig'i mudiraning muammolarini hal etishda o'z vakolatini ishga solishini va'da bergani, mudira esa unga xadya qilingan yagona printer evaziga jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiz talab qilgan boshqarma boshlig'iga 17 yoshli vasiylikdagi qizini ro'baro qilgani aytilgan. Bunga qarshi chiqqani uchun qizni och qoldirgan va boshqa tengdoshlaridan ayirib qo'ygan va tashqariga chiqishni ham ta'qiqlagan. Oradan bir necha oydan so'ng, nafsi qonmagan boshqarma boshlig'iga 15 yoshli qiz topshiriladi. Lavhada mudira avval ham uni boshqa tanishlari bilan jinsiy aloqaga kirishga majburlagani, qarshi chiqqani uchun ukasini o'qlov bilan savalagani, keyin esa munosabat o'rnatishga majburlagani aytiladi. Ularning qatorida yana 16 yoshli qiz borligi

ta'kidlangan. Mudira undan tashqari ko'rsatilgan hayriya evaziga Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining boshlig'iga ham bu kabi xizmatlarni taqdim etgani keltirilgan. Jurnalistning surishtiruvlari davomida foydalangan asosiy manbalari – qonun doirasidagi me'yoriy hujjatlar, axborotni olish metodlari – intervyu.

Sud jarayonlari xiralashtirilgan kadrlarda namoyon etilgan. Jurnalist holat yuzasidan to'liq ma'lumot uchun Oliy Sudi matbuot kotibi Aziz Abidovga qo'ng'iroq orqali bog'langanini ta'kidlaydi. Mansabdorlarga belgilangan jazo choralari matbuot kotibi tomonidan ochiqlantirilib, efrida audio yozuv shaklida uzatilgan. Muallif bu holatga nisbatan tegishli tashkilotning rasmiy munosabatlarini yoritibgina qolmasdan, bloggerlarning o'z shaxsiy kanallaridagi fikrlarini ham aytib o'tgan. Lavha so'nggida, jurnalist nima bo'lganda ham 3 ta shaxsning hayotini sindiruvchi ularni tahqirlangan holda yashashga majburlovchi jinoyatni amalga oshirganlarni hech qanday so'z bilan oqlab bo'lmasligini keltirib o'tgan.

Bu kabi holatlarning ko'payib borayotgani davlatimiz tomonidan 2024-yil 14-noyabrdagi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va YUNISEF tomonidan taklif etilgan ushbu qonun qat'iy va tezkor choralarni o'z ichiga olmoqda.

O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi vakolatli organ etib tayinlangan. Uning asosida endilikda zo'ravonlikka uchragan bolalar uchun individual chora-tadbirlar jumladan, himoya orderini berish, zo'ravonlikdan jabrlangan va uning sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalarga huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ruhiy, tibbiy yordam ko'rsatish, zo'ravonlikdan jabrlangan va uning sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolalar oilalarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan yoki zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolani, uning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita xavf tug'ilganda, ota-onasidan (ulardan biridan) yoki vasiylaridan olib qo'yish, bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning zo'ravon xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tishi, sog'liq, jinsiy erkinlik, oila, yoshlar va axloqqa qarshi jinoyatlar sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash kabi tadbirlar o'tkazilishi ko'zlangan.

Davlatimizda bolalar huquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari, jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, xalqaro miqyosda esa "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya"

orqali kafolatlab qo'yilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, telekanallarda jurnalistik surishtiruvlarga xos ko'rsatuvlarning tayyorlanishi, materiallarning to'g'ri yoritilishi, dalillarning asosli keltirilishi, ularni efir setkasidan o'rin egallashigacha bo'lgan jarayonga nafaqat jurnalist balki ijtimoiy-siyosiy muharririyatga javobgar bosh muharrirlarning ham alohida o'рни va pozitsiyasi bor. Ayniqsa, davlat telekanallarida bu sezilib turadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, aynan jurnalistik surishtiruvlarga mos bo'lgan davr bu 2000 yillarga to'g'ri kelmoqda. Bu davrda nafaqat ko'p ko'rsatuvlar rang barangligi oshgan, balki qayta uyg'onish davridek, turli janrlarga mos materiallar ham ommalashgan. Ularning orasida surishtiruv janri alohida o'rin egallaydi. Ungacha bo'lgan davrda jurnalistik surishtiruv elementlari mavjud telemahsulotlar efirlarga uzatilgan bo'lsa, aynan 2000 yillardan keyin, aniqrog'i, 2007-2024 yillarda tayyorlangan ko'rsatuvlarda aks ettirilgan jarayonlar, ularga nisbatan jurnalistning yondoshuvi, dalillarning keltirilishi, yashirin kameralardan o'rinli foydalanish, olib chiqilgan mavzularning o'ziga xosligi jurnalistik surishtiruvning alohida qirralarini ochib bergan. Mavzuga nisbatan takliflarimiz, bugungi kunda ushbu janrda izlanish olib borish istagidagi jurnalistlar sonining tobora kamayib borishiga asosiy sabablaridan biri bu surishtiruv jarayonlarining ko'p vaqt talab qilishi va havflilik darajasining yuqoriligi, amalda amaldorlarning jazosiz qolishi va qonunning yetarlicha ishlamasligi sabab bo'lmoqda. Xorijiy tajriba o'rganilganida, rivojlangan davlatlarda jurnalistlarni doimiy qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va sud jarayonlarida manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashishga qaratilgan jamg'arma mavjudligi ko'zga tashlandi. Jamiyat manfaati uchun muhim, shu o'rinda murakkab janrni yo'qolib ketmasligi qolaversa, tajribali jurnalistlarni jalb qilish, ularni faoliyati doirasida rag'batlantirish maqsadida fond tashkil qilish zaruriyati uyg'onmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Akromova, S. (2024). Farzandini qo'shni bola bilan urishtirgan otaga chora ko'rildi. yotebe.com. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=gwc-sFVxklw>

Fayzimurodova, L. (2023). Shu vaqtga qadar zo'rovonlikka uchragan bola bilan ishlash amaliyoti bo'lmagan, endilikda har ikki tomon uchun qonun normalari belgilanmoqda. uza.uz. URL: <https://uza.uz/ru/posts/laylo-fayzimurodova-shu-vaqtga-qadar-zoravonlikka-uchragan-bola-bilan-ishlash-amaliyoti-bolmagan-endilikda-har-ikki-tomon-uchun-qonun-normalari-belgilanmoqda->

Primova, D. (2023). Dahshat! Xorazmdagi mehribonlik uyida nimalar bo'lgan? youtube.com. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=ahHTvi0tMIo>

Toshkentda bedarak yo‘qolgan 12 yoshli qizning jasadi topildi.
(2023). gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/02/01/cropse/>

Muallif haqida:

BURIBEKOVA Shoira Shovkatovna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Shoira.Buribekova@ipotekabank.uz

MECHANISMS FOR ADDRESSING ISSUES IN TELEVISION
INVESTIGATIVE JOURNALISM

Abstract: This article examines the significance of topics raised in television programs broadcast under the category of investigative journalism in Uzbek media, their impact on ongoing societal processes, and the challenges observed during the investigative process. Additionally, the article analyzes how well the broadcast investigations align with the essence of the genre.

Keywords: exploitation, bullying, psychological abuse, sub-branch, child abuse, news segment, substation

About the author:

BURIBEKOVA Shoira Shovkatovna — Independent Researcher at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Shoira. Buribekova@ipotekabank.uz

JADID MATBUOTIDAGI ESSELARNING JAMIYATGA
TA’SIRI

Sevara Alijonova,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada jadid matbuotida esse janri namunalari, ularning maqoladan farqi, jadid matbuotida yoritilgan esselar mavzu ko‘lami va ularning jamiyatga ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: jadid matbuoti, esse janri, essechilik, maqola, janr xususiyatlari, essechilik an‘analari

Jadidchilik – XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ilmiy, madaniy va ijtimoiy harakat bo‘lib, u xalq ma’rifatini yuksaltirish va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Bu harakatning muhim bir qismi sifatida jadid matbuoti paydo bo‘ldi. Jadid matbuoti turli mavzularni yoritishda, jumladan, essechilik an‘analarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynagan. Ushbu maqolada jadid matbuotida essechilikning paydo bo‘lishi, uning xususiyatlari va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Jadid matbuoti Markaziy Osiyodagi ilk demokratik harakatlar va ma’rifatparvarlik g‘oyalari ta’sirida shakllangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi xalqni savodxonlikka chaqirish, ularning huquqiy va siyosiy ongini oshirish edi. Bu davrda

matbuot aholining keng qatlamlariga yangi g'oyalar va bilimlarni yetkazishning asosiy vositasiga aylangan edi.

Jadid matbuotining asosiy nashrlari qatoridan "Taraqqiy", "Samarqand", "Ishtirokiyun", "Xurriyat", "Turkiston", "Oyina" va boshqa gazeta-jurnallarni ko'rsatish mumkin. Bu nashrlarda turli mavzular, jumladan, adabiyot, tarix, siyosat, jamiyat va maorif haqidagi maqolalar chop etilar edi. Essechilik ham aynan jadid matbuoti orqali keng tarqalgan va jamiyatning turli muammolarini yorituvchi muhim janrga aylangan.

Jadid matbuoti orqali rivojlangan essechilik janrining o'zgacha ahamiyati shunda ediki, u bir vaqtning o'zida ham shaxsiy fikrlarni ifodalash, ham jamoatchilikka ta'sir qilish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Jadidlar odatda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy masalalariga, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga, din va ilmiy bilimning o'zaro munosabatiga, erkinlik va inson huquqlari kabi mavzularga bag'ishlangan esseler yozishgan. Bu esselar badiiy til va o'tkir aqliy yondoshuvlari bilan ajralib turar, ularning har biri o'quvchini nafaqat bilimga chorlar, balki uni fikrlashga undardi.

Jadid matbuotidagi esselar jamiyatga sezilarli darajada ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ta'sir ko'rsatgan. Ushbu esselar jadid harakatining asosiy g'oyalari va maqsadlarini jamiyatga yetkazishda muhim o'rin tutgan va xalqni yangi g'oyalar, bilimlar va ijtimoiy o'zgarishlarga chorlagan. Jadid matbuoti orqali esselar jamiyatda quyidagi ta'sirlarni keltirib chiqargan:

1. Ta'lim va ma'rifat targ'iboti

Jadid esselari ta'lim va ma'rifat masalalariga alohida e'tibor qaratgan va bu sohada aholining ongini yuksaltirishga xizmat qilgan. Mahmudxo'ja Behbudi, Abdulla Avloniy va boshqa jadid publisistlari ta'limning ahamiyati haqida esselari orqali keng tushunchalar berishgan. Ular yangi maktablarni ochish, zamonaviy o'qitish usullarini joriy qilish va diniy ta'limning jamiyat rivojida o'rni haqida yozishgan. Bu esselar jamoatchilikda savodxonlikka bo'lgan qiziqishni kuchaytirgan va yangi maktablarni tashkil etishga turtki bergan.

2. Ijtimoiy tanqid va islohotlarga chaqiriq

Jadid esselarida jamiyatdagi eski urf-odatlar va bid'at masalalar tanqid qilingan. Masalan, Abdurauf Fitratning "Johilona taassubg'a misol" (Fitrat, 1917), "Musulmonlar g'ofil qolmang!" (Hurriyat, 1917), M.Behbudiyning "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?" (Behbudi, 1913), "Bizni kemirguvchi illatlar" (Oyina, 1915), "Oh, bonkaklar bizni barbod etdi" (Behbudi, 1914), V.Mahmudning "Turkistonda mayxo'rlik" (Turkiston, 1923), Hoji Muinning "To'y va aza marosimi haqida" (Muin, 1919) kabi esselari ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar zarurligini ta'kidlab, hukumat va jamoatchilikni islohotlar va demokratik o'zgarishlarga chorlagan. Natijada jadidlar harakati orqali siyosiy va ma'muriy

tuzumning ayrim qismlarida yangilanishga bo'lgan intilishlar paydo bo'lgan.

3. Gender tenglik va ayollar huquqlari masalalari

Jadidlar esselarida gender tengligi va ayollarning jamiyatdagi o'rni masalasi ham ko'tarilgan. Masalan, M.Abdurashidxonovning "Nikoh to'g'risida" (Abdurashidxonov, 1906), Hoji Muinning "Oila" yoxud vazoifi xonadoriy (Hurriyat, 1917) esselari ayollar huquqlari haqidagi muhokamalarni boshlab bergan va jamiyatda ayollarning ijtimoiy rolini qayta baholashga sabab bo'lgan.

4. Ma'naviy tarbiya va ruhiy rivojlanishga e'tibor

Jadid esselarida ma'naviy va axloqiy tarbiya mavzusi muhim o'rin tutgan. Jumladan, V.Mahmudning "Bolalar tarbiyasi" (Mehnatkashlar tabrigi, 1921), Hoji Muinning "Adabsizlik sababi va uning chorasi" (Muin, 1913) va shu kabi boshqa esselar jamoatchilikni ma'naviy rivojlanishga va sog'lom turmush tarziga chaqiradi. Bu esselar orqali jadidlar xalqni ichkilikbozlik, maishatparastlik kabi yomon odatlardan uzoqlashtirishga undagan. Jamiyatda ma'naviy yuksalishga va axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga sabab bo'lgan.

5. Siyosiy ong va ijtimoiy faollikning oshishi

Jadid esselari siyosiy ong va fuqarolik hissini uyg'otishda muhim rol o'ynagan. Jadid ma'rifatparvarlari xalqni o'z huquqlari va jamiyatdagi mavqelari haqida o'ylashga, siyosiy va ijtimoiy masalalarda faol ishtirok etishga chaqirgan. Masalan, Hoji Muinning "Yoshlar! Yurtning umidi yolg'iz sizgadir" (Mehnatkashlar tovushi, 1920), Is'hoqxon Ibratning "Millatni kim isloh etar" (Ibrat, 1914) esselari fuqarolarni o'z kelajagi uchun mas'uliyatli bo'lishga undagan. Natijada jamiyatda fuqarolik mas'uliyati kuchayib, jamoat ishlariga bo'lgan qiziqish ortgan.

Jadid matbuoti esse janri rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Bu davr esselari xalqning ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga xizmat qilgan, jamiyatning turli masalalariga yondashuvlarni shakllantirishda muhim vosita bo'lgan. Jadid essechilik an'analari bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lib, ular ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishda hamda ijtimoiy masalalarga yondoshishda katta ahamiyatga ega.

Esse va maqola publisistik janr bo'lgani holda ular o'rtasida tuzilishi, mazmuni va ifodalanishi jihatidan farqlar mavjud. Ushbu keltirilgan ijod namunalari, ya'ni jadid matbuotidagi asarlar aynan esse janriga mansub bo'lishi quyidagi beshta ilmiy asos bilan izohlanadi:

1. Esse – shaxsiy fikr va his-tuyg'ularni bayon qilishning erkin janri hisoblanadi. Esseda muallifning dunyoqarashi, tafakkuri va shaxsiy nuqtai nazarlari o'quvchiga oshkor qilinadi. Jadidlar tomonidan yozilgan esselerde ham mualliflarning shaxsiy fikr va qarashlari katta o'rin tutgan. Masalan, Mahmudxo'ja

Behbudiyning “Millatlar qanday taraqqiy etarlar?” yoki Fitratning “Tilimiz” (Ishtirokiyun, 1919) esselarida shaxsiy falsafiy mulohazalar, jamiyatga nisbatan mualliflarning shaxsiy yondashuvlari mavjud. Bu ularni maqoladan farqlantiradi, chunki maqolalarda shaxsiy emas, balki ob’yektiv, ilmiy nuqtai nazar ustuvor bo’ladi.

2. Esse janri tuzilishi bo’yicha maqoladagi kabi kirish, asosiy qism va xulosaga ajratilmaydi. Jadid esselarida ham qat’iy tuzilmaga amal qilinmaydi, balki muallif o’z fikrini erkin, qonun-qoidasiz bayon etadi. Masalan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobidagi esseslarda maqolalarda bo’ladigan qat’iy xulosalar yo’q, balki umumiy mulohazalar va fikrlarni bildirishga yo’naltirilgan. Bu essechilikning muhim xususiyati bo’lib, uni maqoladan farqlantiradi, chunki maqolada mavzu ilmiy asoslangan dalillar bilan qat’iy yoritiladi.

3. Essechilikda badiiylik, ta’sirlilik va obrazli ifoda uslubi muhim o’rin tutadi. Jadidlar yozgan asarlar ko’pincha badiiy tilda yozilgan bo’lib, mualliflar o’z fikrlarini obrazli va ta’sirchan usulda ifoda etganlar. Masalan, M. Abdurashidxonovning “Bizni jaholat – jahli murakkab” asarlarida badiiy ifodalar va ta’sirchanlik bor. Essenavislarning bu yozuv uslubi ularni maqoladan ajratadi, chunki maqolada asosiy maqsad axborotni ob’yektiv ravishda yetkazish bo’lsa, esseda muallifning shaxsiy his-tuyg’ulari va badiiy obrazlari muhim o’rin tutadi.

4. Tanqidiy yondashuv va falsafiy mulohazalar

Esse janrida mualliflar ko’pincha tanqidiy fikrlash va murakkab falsafiy mulohazalar bilan muammolarga yondashadilar. Jadidlar esselarida jamiyatdagi ko’plab muammolarga tanqidiy ko’z bilan qarash va falsafiy yondashuv ustuvorlik qiladi. Masalan, A. Cho’lponning “Adabiyot nadir” (Cho’lpon, 1914) asari adabiyot haqidagi muammolarga tanqidiy va falsafiy yondashuv orqali bayon etilgan. Bu esse janrining yana bir xususiyatidir, chunki maqolalarda falsafiy yoki tanqidiy mulohazalar kam bo’lib, ob’yektiv faktlar va dalillarga tayaniladi.

5. Muallif shaxsiyati va g’oyalari ustuvorligi

Esseda muallif shaxsiyati, uning hayotga yoki jamiyatga bo’lgan qarashlari muhim o’rin tutadi. Jadidlar yozgan esse namunalarida ham mualliflarning shaxsiy nuqtai nazarlari, fikrlari, shaxs sifatidagi taassurotlari his qilinadi. Xususan, jadid ma’rifatparvarlarimiz matbuot vositasida shaxsiy falsafiy qarashlari orqali o’z fikrlarini bildirishgan. Maqolalarda esa muallifning shaxsiy nuqtai nazari kamroq seziladi, chunki maqola ob’yektiv dalillarga asoslanadi.

Ushbu beshta ilmiy asosdan ko’rinib turibdiki, jadidlar yozgan ijodiy asarlar shaxsiy fikr va mulohazalarga, erkin tuzilma va badiiylikka, tanqidiy yondashuv va muallif taassurotlari,

kechinmalariga asoslangan. Bu xususiyatlar ularni maqoladan ajratib turadi va ularning esse janriga mansubligini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdulhamid, Cho'lpon. (1914) Adabiyot nadir? "Sadoi Turkiston" gazetasi, 4 iyun.

Abdurauf, Fitrat. (1917). Johilona taassubg'a misol, e-tarix.uz. URL: <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/jadid-matbuoti/951-maqola.html>

Abdurauf, Fitrat. (1917). Musulmonlar, g'ofil qolmang! "Hurriyat" gazetasi, 25-avgust, 33-soni.

Abdurauf, Fitrat. (1919) Tilimiz, "Ishtirokiyun" ro'znomasi, 12 iyun, 32- soni.

Abdurashidxonov, Munavvarqori. (1906). Nikoh to'g'risida. "Taraqqiy" gazetasi, 7-mart.

Behbudiy, Mahmudxo'ja. (1913). Ehtiyoji millat, "Samarqand" gazetasi, 30-iyul soni.

Behbudiy, Mahmudxo'ja. (1915). Bizni kemiruvchi illatlar, "Oyina" jurnali, 13-son

Mahmud, Vadud. (1923) Turkistonda mayxo'rlik, 24 dekabr.

Muin, Hoji. (1913). Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi omildur, "Turkiston viloyatining gazetasi", 1-avgust.

Muin, Hoji. (1917). Oila (yoxud) vazoiifi xonadoriy, "Hurriyat" gazetasi, 22-sentyabr.

Muin, Hoji. (1919). To'y va aza marosimi haqinda, "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi, 22-mart.

Muin, Hoji. (1920). Yoshlar! Yurtning umidi yolg'uz sizgadur, "Mehnatkashlar tovushi" gazetasi, 15-fevral.

Muallif haqida:

ALIJOVA Sevara Ulug'bek qizi — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti, sevaraalijonova@mail.ru

THE INFLUENCE OF THE ESSAYS OF THE JADIDIAN PRESS ON SOCIETY

Abstract: The article analyzes examples of the essay genre in Jadid press, their distinction from articles, the scope of topics covered in these essays, and their impact on society.

Keywords: Jadid press, essay genre, essay writing, article, genre characteristics, essay writing traditions

About the author:

ALIJOVA Sevara Ulug'bek qizi – First year PhD student of University of Journalism and Mass Communications

РОЛЬ PR И СМИ В ПРОДВИЖЕНИИ ПРОСВЕТИТЕЛЬ-
СКИХ ИДЕЙ ДЖАДИДИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕ-

Бехруза Акмалова,

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы освещения просветительских идей джадидизма в современных СМИ Узбекистана. Как основные вызовы выделяются недостаточная популяризация темы среди молодёжи, отсутствие качественных мультимедийных проектов, а также слабое использование цифровых технологий для продвижения наследия джадидизма. В статье предложены пути решения этих проблем, включая создание мультимедийных и образовательных проектов, привлечение экспертов для разработки контента, объединяющего историческую точность и современные форматы, а также активное использование социальных платформ для повышения интереса к теме.

Ключевые слова: Джадидизм, культурное наследие, реформаторское движение, популяризация, онлайн медиа, традиционные СМИ, цифровые платформы, продвижение, современные форматы

«Наши сегодняшние реформы по построению в Новом Узбекистане справедливого, свободного и процветающего общества, благополучной жизни, истинно народного государства, где превыше всего – достоинство человека, его интересы, полностью созвучны благородным идеям и программам джадидов» (Мирзиёев, 2023). Эти слова были произнесены президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым в ходе международной конференции «Джадиды: национальное самосознание, идеи независимости и государственности», которая состоялась 11 декабря 2023 года в Ташкенте и собрала ведущих исследователей как национального, так и международного уровня.

Действительно, джадидизм как один из важных культурно-просветительских движений конца XIX – начала XX века сыграл ключевую роль в формировании национального самосознания народов Средней Азии, включая и Узбекистан. Реформаторское движение оказало существенное влияние в становлении модернизированной системы образования, книгопечатания, национального театра и драматургии, периодической печати и других сфер интеллектуальной жизни региона (Гафаров, 2013). Сегодня идеи джадидизма, основанные на просвещении, обновлении и стремлении к прогрессу, приобретают особую актуальность в контексте объявленного Узбекистана, главный ракурс которого направлен на «Эпоху третьего Ренессанса» – новой эры культурного, научного и общественного возрождения. Исходя из этого в нашей стране предпринимаются значительные усилия по изучению и популяризации наследия джадидизма.

После обретения государственной независимости в Уз-

бекистане появилась возможность объективно и всесторонне исследовать путь, пройденный узбекской национальной журналистикой начала XX века. Были представлены новые доказательства того, что пресса эпохи национального возрождения, известная в истории как «джадидская пресса», не являлась односторонним идеологическим инструментом, характерным для советской эпохи, а была средством, призывавшим нацию к борьбе и просвещению (Халимова, 2021).

Ежегодно 31 августа широко отмечается как День памяти жертв репрессий. В центре столицы был сооружен Мемориальный комплекс и Общественный фонд «Шахидлар хотираси». Как логическое продолжение работ в этом направлении в историческом центре города Бухары создается Музей истории джадидизма (О создании, 2024). Издаются научные и художественные произведения, снимаются документальные фильмы, телепередачи, проводятся конференции международного уровня, выставки, вечера памяти, научные семинары. Однако, несмотря на высокий историко-культурный потенциал, идеи джадидизма недостаточно полно представлены в современных СМИ. Это ограничивает возможности популяризации наследия джадидов среди широкой аудитории, особенно молодого поколения. К примеру, в прошлом году впервые в столице открылась мультимедийная выставка «Джади́ды. Письма в Туркестан» (2024). Экспозиция раскрывает историю студентов из Туркестана, отправленных на обучение в Германию. Несмотря на то, что вход на выставку был по доступной цене, а по понедельникам – совершенно бесплатно, новость о данном мероприятии не афишировалась достаточно широко. В основном, публиковались краткие уведомления о начале выставки, вышли короткие репортажи в традиционных каналах СМИ, но не было проведено значимой рекламной кампании, направленной на привлечение молодежной аудитории. В этом контексте для привлечения внимания к исторической ценности выставки и наследию джадидского движения было бы целесообразно продвигать новость в социальных сетях, таких как Instagram, Telegram и Facebook. Если сравнить, ежегодная премия для блогеров (2023) активно рекламируется на различных платформах, что привлекает внимание миллион пользователей в соцсетях, в то время как для продвижения выставки, посвященной такому значимому историческому событию, не было замечено активности, связанной с хештегами или репостами, направленными на популяризацию данной темы.

Почему освещение вопросов джадидизма в современных СМИ и онлайн медиа сталкивается с рядом проблем? Во-первых, ограниченное количество медийных материалов

с углублённым анализом философских и образовательных аспектов джадидизма приводит к упрощению восприятия данного феномена. Во-вторых, недостаточное использование современных PR-инструментов (социальных сетей, инфографики, подкастов) снижает охват и вовлечённость аудитории, особенно молодёжи. В-третьих, отсутствие систематического подхода к интеграции идей джадидизма в образовательные и культурные проекты ограничивает их популяризацию.

Для решения обозначенных проблем предлагается следующие меры:

1. Разработка мультимедийных проектов, направленных на популяризацию ключевых фигур и идей джадидизма, а также проведение конкурсов и фестивалей, ориентированных на молодежную аудиторию, с целью продвижения и расширения истории джадидизма.

2. Привлечение экспертов для создания контента, который сочетает историческую точность и современный язык, что позволит донести идеи джадидизма до широкой аудитории.

Активное внедрение цифровых технологий и социальных платформ для продвижения просветительских идей, а также создание дополнительных цифровых платформ и специализированных Telegram-каналов, на которых будет доступно культурное наследие джадидов (публикации, книги, произведения, выступления и другие материалы).

Если провести сравнительный анализ медиа материалов об истории и развитии джадидизма, можно прийти к следующему выводу:

1. Слабое использование современных PR-инструментов

Идеи джадидизма редко популяризируются через современные медиаформаты, такие как социальные сети, видеоблоги, инфографика, подкасты или сторителлинг. Это ограничивает охват молодой аудитории, которая в основном потребляет контент в цифровом пространстве.

2. Недостаток креативного подхода

PR-кампании по продвижению культурного наследия джадидизма часто лишены эмоциональной составляющей и современного визуального контента. Отсутствуют проекты, которые могли бы вовлечь аудиторию через искусство, кино, сериалы или интерактивные образовательные платформы.

3. Отсутствие брендинга

Нет понятного и запоминающегося «бренда», который бы ассоциировался с прогрессивными реформами, современным мышлением и культурным возрождением.

4. Низкий уровень вовлечённости аудитории

Многие PR-кампании ориентированы на информирование, а не на вовлечение. Отсутствует интерактивность, которая позволила бы аудитории стать активными участниками продвижения джадидизма, например, через образовательные конкурсы, культурные квесты или пользовательский контент.

Проектов, посвященных джадидскому движению в Туркестане, в Узбекистане относительно мало, что можно объяснить несколькими факторами. Данная тема до сих пор воспринимается как достаточно узкоспециализированная и, возможно, не всегда актуальная для широкой аудитории, особенно среди молодежи. Несмотря на важность джадидизма для исторического и культурного наследия региона, тема реформаторского движения и его лидеров часто остается в тени более популярных исторических сюжетов, что сказывается на наличии культурных и образовательных проектов. Важным моментом является и сложность объединения различных исторических и культурных аспектов джадидского движения в мультимедийных проектах, что требует значительных усилий, ресурсов и подхода, сочетающего как историческую достоверность, так и современную форму подачи материала.

Из доступных к широкой общественности платформ и медийных материалов на сегодняшний день в базе Google действует официальный сайт газеты «JADID» — jadid.uz. Идею создания издания поддержал Президент Узбекистана на расширенном заседании Республиканского совета по духовности и просвещению 22 декабря 2023 года (Президент, 2023). Однако, для популяризации газеты и ее онлайн версии необходимо обратить внимание продвижению личной страницы и ее ресурсов в социальных сетях (Instagram, Facebook). С участием лидеров мнений, ученых, молодых блогеров провести различные акции, конкурсы и флешмобы в поддержку идей джадидизма. Еще один пример, в платформе Youtube в открытом доступе имеется трёхсерийный документальный фильм «Джадида. Судьба реформ в Туркестане». Фильм вышел в свет в 2023 году и имеет около 2,5 тысяч просмотров. По сравнению с музыкальными клипами, минимальных просмотр которых превышает более 5-6 миллионов на Youtube, вовлеченность к историческому фильму сильно огорчают. Именно поэтому необходимо рекламировать данный фильм во всех платформах, где сидит молодежь. Премьеры и анонсы запускать не только в государственных кинотеатрах, но и в кинозалах торговых центров, развлекательных комплексов, куда и часто приходит молодое поколение за культурным отдыхом. Было бы уместно увеличить число афиш, плакатов и рекламных баннеров в столице и в регионах, для популяризации имеющихся медийных материалов о джадидизме.

В начале 2024 года, точнее в январе месяце в интернет пространстве появилась новость под заголовком: «Узбекистанский фильм о джадидах «Мечтатели» стал лучшим историческим фильмом декабря на World Film Festival в Каннах» (2024). Однако интервью с режиссером фильма было представлено только на платформе YouTube в формате подкаста, и в традиционных СМИ или на большом экране мы не видели значимого освещения этой личности и его работы. Кроме того, необходимо провести глубокое исследование учебников, созданных джадидами, их структурного состава, критериев подбора текстов, соответствующих возрастным особенностям учащихся, а также методов преподавания (Жабборов, 2023).

В связи с этим, для дальнейшего развития культурных и образовательных инициатив, направленных на популяризацию наследия джадидов, необходимы поддержка со стороны государства, привлечение экспертов и специалистов, а также активное использование цифровых технологий для распространения знаний и повышения интереса к теме среди молодого поколения.

Рекомендации для решения проблем:

- Разработка комплексной PR-стратегии, ориентированной на актуализацию идей джадидизма для решения современных задач.
- Создание мультимедийных кампаний с использованием креативных подходов, цифровых технологий и искусственного интеллекта.
- Проведение мероприятий для вовлечения молодёжи: конкурсов, онлайн-челленджей, интерактивных выставок.
- Интеграция идей джадидизма в массовую культуру через кино, музыку, театральные постановки и другие форматы.
- Формирование сотрудничества между государственными, частными и международными организациями для увеличения ресурсов на продвижение.

Грамотно выстроенный PR может сделать джадидизм не только историческим наследием, но и мощным инструментом для вдохновения новых поколений, способствуя развитию «третьего Ренессанса» в Узбекистане.

Список литературы

В Ташкенте прошла масштабная премия Tehnikum Bloggers Award. (2023). gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2023/12/07/tehnikum-bloggers-award-2023/>. Дата обращения: 07.01.2025.г.

Выставочный проект «Джадида. Письма в Туркестан» открывается в Ташкенте. (2025). gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2024/07/16/jadids/>. Дата обращения: 07.01.25.г.

Гафаров, Н.У. (2013). Джадидизм в Средней Азии в конце XIX в. – начале XX в. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 07.00.02, Душанбе.

Мирзиёев, Ш. (2023). Участникам международной конференции «Джадида: национальное самосознание, идеи независимости и государственности». president.uz. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/6919>. Дата обращения: 07.01.25.г.

Мирзиёев, Ш. (2023). Президент: сфера духовности должна опережать на десять шагов другие сферы, духовность должна превратиться в новую силу, в новое движение! president.uz. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/6941>. Дата обращения: 08.01.2025г.

Мирзиёев, Ш. (2024). О создании Государственного музея наследия джадидов. № ПП-201, lex.uz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/6947382>. Дата обращения: 07.01.2025 г.

Узбекистанский фильм о джадидах «Мечтатели» стал лучшим историческим фильмом декабря на World Film Festival в Каннах. gazeta.uz. URL: https://daryo.uz/ru/2024/01/30/uzbekistanskij-film-o-dzadidah-mectateli-stal-lucsim-istoriceskim-filmom-dekabra-na-world-film-festival-v-kannah?utm_source=chatgpt.com. Дата обращения: 07.01.2025 г.

Halimova, S.A. (2021). Ubaydulla Asadullaxo'jayev va "Sadoi Turkiston". Monografiya. Toshkent: Universitet, 148 b.

Jabborov, N. (2023). Jadidchilikni nega va qanday o'rganishimiz kerak? "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 19-dekabr, 263-son. URL: <https://yuz.uz/news/jadidchilikni-nega-va-qanday-organishimiz-kerak>. murojaat sanasi: 07.01.2025

Об авторе:

АКМАЛОВА Бехруза Олимжоновна — докторант Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

THE ROLE OF PR AND MEDIA IN PROMOTING THE ENLIGHTENMENT IDEAS OF JADIDISM IN UZBEKISTAN: PROBLEMS, CHALLENGES, AND SOLUTIONS

Abstract: The article examines the issues of covering the enlightenment ideas of Jadidism in modern Uzbek media. The main challenges identified include insufficient popularization of the topic among youth, lack of quality multimedia projects, and limited use of digital technologies to promote the legacy of Jadidism. The article proposes ways to address these problems, including creating multimedia and educational projects, engaging experts to develop content that combines historical accuracy with modern formats, and actively using social platforms to increase interest in the topic.

Keywords: Jadidism, cultural heritage, reform movement, popularization, online media, traditional media, digital platforms, promotion, modern formats

About the author:

AKMALOVA Behruza Olimzhonovna — PhD student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan.

“TUJJOR” GAZETASIDA TURKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTI

Nigora Elmurodova,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada birinchi ixtisoslashgan iqtisodiy nashr hisoblangan Tujjor borasida aytilgan fikrlarga e’tibor qaratiladi va gazetada chop etilgan maqolalar asosida tahlil qilinadi. Turkiston aholisi uchun murakkab kechgan bir davrda gazetada jiddiy mavzular yoritilgan. Atoqli jadid ma’rifatparvari M.Behbudiy ham gazeta haqida o‘z fikrlarini bildirgan.
Kalit so‘zlar: tujjor, jadidlar, matbuot, duma, Turkiston

XX asr Turkiston aholisi uchun murakkab kechishi bilan birga, ayni shu davrda mustaqillik ularga kerak ekanligini anglab yetayotgan edilar. Chor ma’murlari tomonidan olib borilgan ruslashtirish siyosati xalq xo’jaligining barcha sohalarida mustamlaka ishlab chiqarish tizimining hukmronligi, ma’muriy tazyiqning tobora kuchayib borishi, mahalliy aholi orasida mavjud tuzumdan norozilik tuyg‘usini kuchaytirdi. Bunda milliy nashrlarda chop etilgan maqolalarning o‘rnini alohida ta’kidlash joiz. “Taraqqiy” va “Xurshid” to’xtatilgandan so’ng, “Tujjor” maydonga chiqdi. Gazeta nashri bilan bog’liq ko‘plab salbiy fikrlarga duch kelamiz. Jumladan, N.Abdudzizova “Tujjor” – qora maslakli tijorat gazetasi. Noshiri Saidazimboyev edi. Uch-to’rt oy qadar davom etgandan so’ng hukumat tarafindin bokitildi (2001). Bu fikrlar gazetaning birinchi sonida muallifning “Matbuot olami” maqolasini o‘qib, mutlaqo haqiqatga zid ekanligini ko‘rish mumkin. To’g’ri “Tujjor”da oldingi gazetalardagidek, tanqidiy va tahliliy maqolalar kamroq bosildi, bu ham muallifning gazetasi oldingi gazetala kabi yopilishidan xavsirashidan deb bilish mumkin. Buni o‘zi ham bosh maqolada bir necha bor ta’kidlagan. Ba’zi o‘rinlarda gazetadan jadidlar ham minbar sifatida foydalangan. Bu maqolalar orqali o’sha davrdagi Turkistondagi murakkab ijtimoiy-siyosiy hayot haqida xulosa qilish mumkin. Bu borada M.Behbudiyning “Duma va Turkiston” maqolasini yaqqol misol sifatida keltirishimiz mumkin. “Rusiya olam islomi, xususan biz Turkistonliklar har vajdin keyin qolkonmiz, vaqf, maktab, madrasa, usule tehsil, tejjorat, sanoat, amaliyoti dini va dunyovi va zamoni eqtesodi moliya va siyosiy... Hamma din keyin qolkonmiz, bu barcha diniy va dunyoviy ishlarni taraqqiy qilodurmoq uchun har birini

to'g'risig'a bahs-munozara va muzokara kerak va agar sukut ila o'tkazilsa, kundin-kung'a tanazzul qilib, har tarafdan siqilib va qisilib, Alloh saqlasun o'n va yigirma po'llardin so'ngra din va maishatimizg'a kub faqurlar kilor, tadriji din va dunyolikda xor va zaifroq bo'lurmiz. Avlodimiz bizg'a la'nat qilor" (Behbudiy, 1907). Maqola shu so'zlar bilan boshlanadi. Bu esa ko'p savollarga oydinlik kiritadi. Turkiston jadidlarining yirik namoyondasi va rahbarlaridan bo'lgan M.Behbudiy "Tujjor" qora niyatli gazeta bo'lganda, u o'z qarashlarini gazeta orqali bayon etmagan bo'lar edi. U butun bilimi va tajribasini, hayotini o'lkadagi mahalliy xalqlarning ma'rifatni egallashlariga, har jihatdan taraqqiy topishlariga, eng muhimi, milliy zulmdan qutulib, ozod va erkin yashashlariga bag'ishladi. Yuqorida ta'kidlaganimiz "Duma va Turkiston" maqolasida Tujjor borasida ham fikr bildirgan: "Benobarin barcha ahle qalam va arbob fekrimizg'a, ashob elm va xabarimizg'a lozemdurke, bizlorg'a kerokluk har bir esloh va choradan jamiyatimizdagi har bir nuqson va illat, moddiy va manaviydan hich yuz o'girmay – Tujjor va boshqa gazetalar vositasi ila bayon qilinsa, to ke o'z kasli (odamiylik) vazifamizni bilib, so'ngra elojig'a kushesh qilsok (harakat qilsak), man ham qo'limdan kelguncha doimiy umumiy dillarimiz to'g'risida yozub turmoqni, bir necha vaqtg'acha ustumg'a olub, ushbu maktubim ila muhtaram Tujjorg'a boshlayman" (Behbudiy, 1907). Behbudiy "Tujjor" kabi gazetalar yordamida, ommani uyg'onishi uchun harakat qilishga chaqirgandek go'yo, chunki u ixtisoslashgan gazeta bo'lsa-da asosiy e'tiborni ommani uyg'otishga qaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuqoridagi kabi maqolalarning berilishi ham buning amaliy isboti, menimcha. Behbudiy bu maqolasida Turkistonliklarning ko'p qonuniy huquqlardan mahrum qilingani haqida kuyunib so'z yuritadi. Uchinchi dumaga saylov qoidasi e'lon qilinib, undan Turkiston va Sibir xalqini vakil yuborishdan mahrum qilinishi adolatsizlik ekanini ta'kidlaydi. Ikkinchi dumaga Samarqanddan vakil bo'lib borgan Toshqulod Xalilov soliqlarni kamaytirish haqida gapirgani, ammo bu chetlashtirish uchun sabab bo'la olmasligini aytgan. Navbatdagi Duma majlisiga Turkistondan ham vakillar qatnashishi kerak ekanligi, qabul qilingan qarorlar ijro etilsa, keyin shikoyat qila olaganliklarini ta'kidlagan. "...har toefani hayot va mamot oyandasi dumag'a bog'liqdur. Holbuki bizlarni dumag'a vakilimiz, mudofaamiz yo'qdur, ha neki biziya zaramizg'a hukm qilsalar saylog'uchi va faryod etguchi bir kishi bo'lsun yo'qdur. Zotan turkistonda bir kishi mu yo'qdur? Bizlarni sukut qilib turgonimiz uchun sig'ar, nodon deb bildilar. Agar yangi zakunlar vaz (joriy) bo'lsa, bizni maktab, madrasa va masjid dorelqazolarimizg'a ya'ni shariatimizg'a xeyli tag'irotlar oyat ulodur. Biz qabul qilmaymiz degan ila foyda bermas, chunki zokun bo'lur. Har ne dag' mustahkam bo'lmasdan

va hukm qaror topmasdan muqaddam etilsa, kerak bas eloj nadur? Iloj shulke Turkistonning bish oblustidag'i katta shaharlaridin bir nafardin deputotni arz-hol yozib, oktyabr oyini ichida Peterburg'ga imperator hazratlarig'a yubormoq kerak". Behbudiy deputatlar borib-kelish vaqtlar va xarajatlarini ham bayon etgan. Uch haftada ular borib kelishi mumkin ekanligi, bu uchun ularga uch yuz so'm yetishini aytgan. Agar bu ishni qilishmasa, qul va bandilar darajasiga tushib qolish mumkinligi va bunga o'zimiz sababchi bo'lamiz deya ta'kidlaydi. Gazeta o'qiydigan mushtariylar aholisi yarim millionga yetmaydigan Yoqut oblastidan sakkiz vakil Peterburgga borgani, Turkistonliklar ularchalik ham bo'la olmaydilar deb kuyunadi: "...Yoqut oblastini yarim millinog'a yetmas fuqarolari ushbu vajdin Peterburg'ga sakkiz vakil yuborubtur. Holbuke, ularni dinsiz, vahshiy dermiz. Biz madaniy va dinlik o'n milyun Turkistonlik xalq ke adad davlat va madaniyat vajidin ulardin yigirma yuz minglar daraja ila kub va balandmiz. Qarab o'lturushimiz na shariat, na ensoniyatg'a va na Alloh va na bandag'a yoqodur. Ey Turkiston musulmonlari, ibrat nazari ila boqing, holimiz nedur? Bugun bu ishg'a sa'y qilmasak, ertga din va maishatimizg'a zarar kelur, so'ngra ilojisiz qolurmiz, deputat yuborayluk, podshohimiz odil va mehribondur. O'n milyun xalq tarafdin borgan deputotlarni noumid va quruq albatta jo'natmaydurlar" (tujjor, 8-son). Yana shuni ta'kidlaydiki, bizdan borgan vakillar ham barcha talablarga javob berishi lozimligi, haq-huquqdan xabardor bo'lish ular oldidagi muhim vazifaligini eslatadi. Yuqoridagi so'zlarning aynan o'zining tilida berishni lozim topdik. Insonlarni ogohlik chaqirib, ularning haq-huquqlarini himoya etishga qaratilgan da'vatning aynan "Tujjor" da berilishi ham ko'plab chigalliklar, o'sha paytdagi og'ir ijtimoiy-siyosiy hayotdan darak beradi. Barcha falokatlar ilmsizlik yuzasidan sodir bo'layotganini aytadi: "Bu yil Peterburg'ga borkonimda Turkiston vakillarini avzo va harakat nopesandona va sukutlaridin biroz ma'lumot oldim. Haqiqiy ayb o'zimizni nodonligimizdandir. Chunki ilmimiz ya'ni elm, seyosat, eqtisod va qonun, ejtimoiyadan butun bixabarmiz. Xayr bixabar ekanmiz, emdi sa'y qiloyluk, o'quyluk, o'rganoyluk. Volo bul turishimiz ila yo'q bo'lurmiz. Rusiyada turib, Rossiya tamaddunidan va elmidan bixabar tursak, albatta manqors (manqurt) bo'lurmiz". Ilmsizlik – millat tanazzuliga sabab bo'lishini mana shu jummalarni o'qib to'liq his etish mumkin. Maqola so'ngida muallif "Vatanimizdan na sado chiqadi?" deya savol nazari ila yakunlaydi. Atoqli jadidi ma'rifatparvari M.Behbudiyning yuqoridagi fikrlari vaziyatning nechog'li murakkabligi bilan birga millatning tobora ilmsizlik botqog'iga botib borayotgani, bu esa insonlar qalbidagi azaliy orzu ozodlikka erishishni yanada qiyinlashtirishini anglatar edi...

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abduazizova N. (2001). Turkiston matbuoti tarixi (1870 – 1917), Toshkent: Akademiya, 238 b.

Do'stqorayev, B. (2009). O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi matbaa-nashriyot uyi.

Behbudiy, M. (1907). Duma va Turkiston, "Tujjor" gazetasi, 8-son, 10 oktyabr.

Muallif haqida:

ELMURODOVA Nigora — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktranti, nigoraelmurodova89@gmail.com

SOCIO-POLITICAL LIFE OF TURKESTAN IN THE "TUJJOR"
NEWSPAPER

Abstract: This scientific article focuses on the views expressed about "Tujjor," considered the first specialized economic publication, and analyzes it based on articles published in the newspaper. Serious topics were covered in the newspaper during a challenging period for the people of Turkestan. The renowned Jadid enlightener M. Behbudiy also shared his opinions about the newspaper.

Keywords: tujjor, Jadids, press, Duma, Turkistan

Muallif haqida:

ELMURODOVA Nigora — PHD student of University of Journalism and Mass Communications, nigoraelmurodova89@gmail.com

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING "TURKISTON MADANIY
MUXTORIYATI" LOYIHASI – MUXTORIYAT UCHUN
KURASH DASTURI

Akbar Elmurodov,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan jadidchilik harakatining ilg'or vakillaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasi tadqiq etilgan. Ushbu loyiha Turkiston o'lkasi va uning boshqaruvi to'g'risidagi jadidlarning tajribasi sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: jadid, avtonomiya, davlat, mustaqillik, chor hukumati, boshqaruv, madaniy, siyosat

XIX asr oxiri – XX asrning dastlabki choragida faoliyat olib borgan Turkiston jadidlariga oid hozirgi davr manbalariga yondashuvlarida bir-biridan farqlanuvchi nuqtai nazarlar uchraydi. Aksariyat mualliflar "jadidlar mustaqillik uchun kurashgan" deb yozsalar, ayrimlari "ular ma'rifatchilik faoliyati bilan cheklangan" deb talqin qilinadi. Yana ba'zi mualliflar "jadidlarning siyosiy

dasturlari chegaralangan, milliy davlatchilikka oid qarashlari o'z nihoyasiga yetmagan", deb yozishadi. Nima bo'lgandayam, jadidlarning katta bir guruhi mustaqillik kurashchisi edi.

Turkiyalik o'zbek olim Temur Xo'ja o'g'li quyidagi fikrni bildiradi: Mahmudxo'ja Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati" deb nomlangan loyihasini o'qib, moziydagi muhim voqeliklarga sababchi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy sabablarni bilish mumkin. Avvalo, Behbudiy o'sha paytdagi Turkiston xalqlari uchun madaniy davlat – madaniy muxtoriyat talab qilgan. Loyihada qayd etilgan moddalarni o'qiganimizda bilamizki, madaniy muxtoriyat bilan birga siyosiy muxtoriyat ham ko'zda tutilgan".

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Markaziy Osiyo feodalizmdan meros bo'lib qolgan qoloq, eski ijtimoiy va siyosiy tuzumda yashaganligi tufayli Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanganligi sababli istibdod zulmidan ozodlikka chiqish uchun harakat qilish eng muhim va zaruriy maqsadga aylandi. Milliy mustaqillik, erkinlik, feodalizmga asoslangan siyosiy tuzumdan qutulish natijasidagina bu maqsadga erishish mumkin edi. Mamlakatni qoldiqlardan xalos etish uchun xonlik va amirliklar o'rniga respublika tuzish, Turkistonni esa Rossiya monarxiyasidan ozod etish lozim edi. Buning ustiga yana eski feodal tuzumni saqlab qilish uchun harakat qilayotgan ijtimoiy-siyosiy kuchlar ham mavjud bo'lib, ular yangi g'oyalarga to'siq edi.

Bu davrda Turkistonda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar qilish uchun siyosiy tashkilot, siyosiy dastur, siyosiy yetakchilar ehtiyojlar mavjud edi. Ularning ichida eng asosiysi - bu siyosiy dastur edi. "Milliy-madaniy avtonomiya" g'oyasi Turkistonda uncha tarqalmagan bo'lsa-da Ismoil Gasprinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy undan Turkiston o'lkasi huquqlarini, ya'ni mustaqilligini qandaydir darajada qo'lga kiritish maqsadida foydalanmoqchi bo'ldi. Behbudiy loyihasida "madaniy" so'zini ishlatishining sababi loyihani ochiq e'lon qilish, uni ochiq targ'ib qilish edi. Agar undan "madaniy" so'zini olib tashlasa, u holda loyiha ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar qilishga taalluqli ekanligi oshkor bo'lib, chor hukumati uni e'lon qilishga ruxsat bermas edi. Demak, mustabid davlat bilan murosas qilish uchun loyihaning mavzusida "madaniy" so'zi ishlatildi.

Aslida "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasi Turkistonda qandaydir darajada siyosiy va boshqaruv islohotlari asosida milliy erkinliklar olish edi. 1907-yil noyabrda Behbudiy tomonidan arab alifbosida o'zbek tilida yozilgan loyiha Peterburgda uchinchi Davlat Dumasidagi musulmonlar fraksiyasiga murojaat bilan boshlanadi. Unda Behbudiy o'zining maqsadi, ularni Turkistonning moliyaviy ahvoli va ehtiyojlari bilan yaqindan

tanishtirishdan iborat ekanligini ekanligini yozadi.

Ikkinchi Davlat Dumasiga musulmonlar fraksiyasi a'zolariga "Turkiston madaniy muxtoriyati" 19 ta sahifadan iborat qo'lyozma holda yuboriladi. Loyiha 75 banddan iborat bo'lib, unda umumiy raqamlangan 9 ta asosiy bo'lim va 4 ta qo'shimcha bo'lim, shuningdek, yana umumiy raqamlangan 25 banddan iborat bo'lgan davlat tuzilishi va uni boshqarish usuli haqidagi bo'limlaridan iborat ekanligi qayd etilgan.

Ikkinchi Davlat Dumasiga Turkistondan T.Adbuxalilov, T.Allabergenov, M.A.Gavrilov, A.P.Drukar, Ya.I.Yegoshkin, A.Kariyev, N.L.Koledzyan (Los-Koledzyan), I.F.Mironov, S.A.Muxamedjanov, V.P.Nalivkin, M. Nurberdixonov, M.T.Tinishpayev kabilar deputat bo'lib saylandi. 1907 yilda saylovga doir qonunlarga o'zgartishlar kiritilganidan keyin ko'pchilik mintaqalar Davlat Dumasida deputat saylashdan maxrum bo'ldi. Jumladan, Turkiston aholisi ham bunday huquqdan maxrum bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, Behbudiy "Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasini parlament muhokamasiga olib chiqish Davlat Dumasining musulmonlar fraksiyasining qo'lidan kelishi qiyin bo'lgan vaziyatda faoliyat yuritmoqda edi.

"Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasini sinchiklab o'rganilsa, unda Turkiston o'lkasini avtonom maqomiga o'tkazish g'oyasi yotadi. Avtonomiya mustaqillik yo'lidagi birinchi qadam, yoki imperiya ichida va tor doiradagi mustaqillik edi. Albatta, loyihaga binoan avtonomiya dastlab Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lishi lozim edi.

Loyihada Turkiston musulmonlari saylov huquqlari, ularni Davlat Dumasiga, boshqa vakillik organlari, shuningdek "Rossiya musulmonlari ittifoqi"da ishtirok etadigan Turkiston musulmonlari vakillarining saylanish tartiblari, ularning huquqiy maqomlari kabi yangi siyosiy boshqaruvga oid qoidalar masalalari joy oldi. Bu albatta, katta imperiyada yashayotgan musulmon aholisiga saylov huquqini beradigan huquqiy asos edi. Chunki, bu huquqlar ilgari Turkiston xalqiga berilmagan edi. Barcha darajadagi saylovlar mustabid hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilardi.

Loyihada Turkiston ma'naviyat va ichki ishlar boshqarmasini tuzish, uning maqomi, vakolatlari va qanday ishlar bilan mashg'ul bo'lishi kabi nizomiy qoidalar shakllantirildi. Unda Qozilik sudlarini isloh qilish, hudud yerlarining tuzishi va undan foydalanish yo'llari, vaqf yerlarini tashkil etish va ta'lim boshqaruvini takomillashtirishga oid qoidalar shakllantirildi. Bu kabi mustaqil hududiy boshqarishga oid huquqlar ilgari Turkiston o'lkasiga hali berilmagan edi.

Albatta, mustamlaka Turkiston uchun uning xalqini istibdod, chorizm hokimiyat organlari tomonidan o'tkazilayotgan zulmdan himoyalash, boshqaruvni adolat prinsiplari asosida amalga

oshirish uchun sud-huquq tizimi shariatga va adolat prinsiplariga asoslanishi kerak edi. Shuning uchun ham Behbudiy Turkistonda sud va boshqaruv ishlarini yaxshilashga muhim e'tibor berdi. Qolaversa, bu masala Turkiston uchun siyosiy muammo edi.

Shuningdek, loyihada Turkistonning boshlang'ich sinf maktablari va madrasalarining xususiylashtirilishi, imperiya ma'muriyatining Turkistondagi ma'naviy-madaniy sohalaridagi ishlariga mustabid hokimiyat aralashmaslikni ta'minlaydigan moddalar joy olgan. Buning mohiyati shundaki, ta'lim xususiylashtirilsa, uni chorizm hukumati emas, balki mahalliy aholi vakillarining o'zi boshqarishlari mumkin edi. Shu bilan birga, loyihada rus alifbosi – kirill harflaridan foydalanishni musulmon odamlarga majburlashni yo'qotishni taklif qiladi.

Jadidlarning, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'limga muhim e'tibor berishining asosiy sababi – Turkiston xalqini siyosiy jihatlardan uyg'otuvchi kuch – bu zamonaviy ta'lim edi. Qolaversa, Turkistonni g'arb davlatlari kabi rivojlanish darajasiga erishish uchun ta'lim berishni rivojlantirish lozim edi. Xalqning siyosiy qarashlarini oshiradigan omil ham – bu bilim va ta'limni isloh etish edi.

Shuningdek, loyihada Turkiston o'lkasidagi mustabidlik asoratlari, uning natijasida paydobo'lgan tub aholi muammolarining yildan-yilga ko'payib borayotganligi, milliy qadriyatlarga zarar yetayotganligi, shunday og'ir davrda milliy ziyolilarning milliy madaniyatni saqlab qolish sohasidagi asosiy vazifalari aks etdi.

Behbudiy loyihada “muxtoriyat” atamasini qo'llagan. “Muxtoriyat” Yevropa davlatlarida “avtonomiya” deyiladi. “Avtonomiya” yunon tilidan olingan bo'lib, “autos” – “o'zi” va “nomos” – “qonun” so'zlarining qo'shilmasidan tuzilgan bo'lib, o'zini o'zi boshqarish, davlatning qandaydir qismini ichki masalalarini o'zi hal etish huquqiga ega bo'lgan hududga nisbatan ishlatiladi. Biroq, bu davrgacha Rossiya imperiyasida millat yoki dinga asoslangan ma'muriy birliklar ma'nosida “avtonomiya” mavjud emas edi. XIX asr oxiri - XX boshlarida Rossiya ma'muriy jihatdan 77 viloyatdan iborat edi. Shuningdek, Rossiyada jami 815 okruglar bo'lib, ular esa volostlarga bo'lingan edi. Rossiyada jami 18012 volosti bor edi. Bundan tashqari, Rossiyada 10 ta general-gubernatorlik bo'lib, jumladan, boshqalardan farqli ravishda Turkiston viloyatlar va viloyatlar ichki ishlar vazirligiga emas, balki harbiy vazirlikka bo'ysungan. O'sha paytda “madaniy muxtoriyat” so'zi Rossiya musulmonlari qurultoylarida so'zga chiqqan vakillar tomonidan ham ilgari surilgani to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Shunday qilib, Turkiston jadidlarining islohotchi madaniy-ma'rifiy harakati yetakchilaridan biri, samarqandlik muftiy Mahmudxo'ji Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati”

loyihasi 1907-yil noyabr oyida 3-Davlat Dumasida musulmonlar fraksiyasiga taqdim etilgan. Sankt-Peterburgda Turkiston musulmonlarining markaziy hokimiyatda vakilligi, mahalliy hokimiyat va sud tizimini isloh qilish, shuningdek, vaqflar tizimi, xalq ta'limi va yerni boshqarish kabi bir qancha asosiy masalalar ko'tariladi.

Ushbu Loyihada bayon etilgan ba'zi fikrlar "Rossiya musulmonlari ittifoqi" partiyasi siyosiy dasturining bandlari bilan mos keladi, bu ham Davlat Dumasidagi musulmonlar parlament fraksiyasi dasturi edi. Ma'lumki, bu dasturning birorta bandi amalga oshirilmagan va musulmonlarning birorta talabi chor hokimiyati tomonidan qondirilmagan. Birinchi rus inqilobi shafqatsizlarcha bostirildi, musulmonlarning barcha talablari qog'ozda qoldi. Mustamlakachi hokimiyatlarning kamsitish siyosati va o'zboshimchaliklari pirovardida 1916-yilda Turkiston xalqlarining rus bosqinchilariga qarshi umumiy qo'zg'olonining boshlanishiga olib keldi.

"Turkiston madaniy muxtoriyati" loyihasi yozilgan davrdagi murakkab va ziddiyatli siyosiy vaziyat e'tiborga olinsa, bunday talablarni qo'yish, yana uni Davlat dumasiga taqdim etish chinakam vatanparvarlikni talab qilganini, Mahmudxo'ja Behbudiy Vatan va millat ozodligi, baxtu saodati yo'lida har qanday sinovga tayyor bo'lganini his etish imkonini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Behbudiy, Mahmudxo'ja. (1999). Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 2-nashri. Toshkent: Ma'naviyat, B 24-25.

Boymirza, Hayit. (2023). Turkiston Rossiya va Xitoy oraliq'ida. Toshkent: Yangi asr avlodi, 528 bet.

Tojimatova, M. (2023). Temur xo'ja o'g'li O'zbekiston uchun qanday noyob va maxfiy hujjatlarni taqdim etdi? yuz.uz. URL: <https://yuz.uz/news/temur-xoja-ogli-ozbekiston-uchun-qanday-noyob-va-maxfiy-hujjatlarni-taqdim-etdi>.

Бехбуди, Махмудходжа. (2023). Проект культурной автономии Туркестана. Введение, перевод и комментарии Ш. С. Камолиддина, транскрипция, словарь и факсимиле Тимура Коджаоглу. Ташкент: Fan ziyosi, C.9.

Камолиддин, Ш. (2017). Документ из архива Исмаила Гаспринского, относящийся к Туркестану, Крымское историческое обозрение, № 1. С.255-256.

Muallif haqida:

ELMURADOV Akbar — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi, elmuradov@mail.ru

MAHMUDKHOJA BEHBUDIY'S "CULTURAL AUTONOMY OF
TURKESTAN" PROJECT – A PROGRAM FOR THE STRUGGLE
FOR AUTONOMY

Abstract: This article examines the "Cultural Autonomy of Turkestan" project by Mahmudkhoja Behbudiy, one of the prominent representatives of the Jadid movement, which played a significant role in the socio-political life of Turkestan at the beginning of the 20th century. This project is studied as the Jadids' experience regarding the Turkestan region and its governance.

Keywords: Jadid, autonomy, state, independence, Tsarist government, governance, cultural, politics

About author:

ELMURADOV Akbar - Independent Researcher at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, elmuradov@mail.ru

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПОТЕНЦИАЛ РЕДАКТОРА:
ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ВЕБ-ПРОГРАММЫ
«TAHRIRCHI.UZ» В РЕДАКТИРОВАНИИ
МЕДИАТЕКСТОВ

Мунира Назарова,

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация: Tahrirchi.uz – это веб-приложение на основе искусственного интеллекта, которое обеспечивает автоматическую проверку и редактирование введенного пользователем текста в режиме реального времени. Его цель – помочь профессиональным редакторам в повышении точности и эффективности их работы. Поскольку этот инструмент был создан для проверки как черновиков рукописей авторов, так и готовых медиатекстов, целью данной научной статьи является определение его эффективности и полезности для отрасли. В статье проводится сравнительный анализ редакторской работы, выполненной опытными редакторами и этой программой корректуры. При сравнении результатов, показанных текстовым редактором tahrirchi.uz на базе ИИ, с потенциалом человеческих редакторов, преимущества и недостатки этой веб-программы для узбекского языка стали очевидными. Программа выявила технические и грамматические ошибки в выбранных образцах текста и предложила альтернативные варианты на узбекском языке. Заключение показало, что общая функциональность корректирующего инструмента на основе искусственного интеллекта tahrirchi.uz превосходит другие программы редактирования на узбекском языке, хотя и не достигает уровня человеческих редакторов.

Kalit soʻzlar: искусственный интеллект, tahrirchi.uz, обработка естественного языка, медиатекст, редакция, редактирование, корректор, редактор

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105>

С быстрым проникновением технологий искусственного интеллекта в нашу жизнь, как и во всех областях, они оказали значительное влияние на сферу СМИ и медиа (He, Zhang, Qi. 2023). По мере развития медиатехнологий внедрение искусственного интеллекта в журналистику, как и в другие области, свидетельствует о революционных изменениях, которые могут произойти в этой сфере в будущем. Сегодня с помощью средств искусственного интеллекта осуществляется написание текстов, их редактирование, подготовка новостных материалов и редакторская деятельность. Это помогает журналистам в создании информационных сообщений, новостей и различного контента в медиаиндустрии (Aissani & et.all., 2023). Исследователи отмечают, что «чем шире распространяется цифровизация мира и становится более доступной через различные мобильные и конвергентные интерфейсы, тем большую ключевую роль играет экран в нашей жизни» (Muratova & et.all., 2024).

Как известно, медиатексты редактируются квалифицированными редакторами перед публикацией в СМИ (Nazarova, 2022). Редакционная деятельность включает в себя комплексную проверку текстов публикаций, а именно: совокупность действий по подготовке материала к публикации с точки зрения его понятности, логичности, актуальности, эффективности, точности и проверяемости, а также стилистического и идеологического соответствия концепции издания или СМИ (Teshabayeva, Israil, 2022).

В научной статье использовались методы сравнения, анализа и качественного исследования. А именно, с целью выявления возможностей и недостатков редактирующих программ на узбекском языке, таких как *tahrirchi.uz* и *savodxon.uz*, в качестве объекта была выбрана статья Тошпулата Тугалова «Литературное наследие», опубликованная в 6-м номере журнала «Шарк юлдузи» за 2024 год в рубрике «Исследование». Рукописный вариант статьи был загружен в программы *savodxon.uz* и *tahrirchi.uz* для редактирования. Полученный результат был сравнительно проанализирован с вариантом, отредактированным редакторами журнала «Шарк юлдузи», и были разработаны рекомендации о том, какие меры необходимо предпринять для повышения редакционного потенциала вышеупомянутых программ.

Общий алгоритм редактирующих программ на основе искусственного интеллекта работает именно на основе упорядоченной системы. То есть программа «читает» текст, обучаясь на данных, введенных в базу лингвистического обеспечения, с помощью машинного обучения (“Machine Learning”/ML). Если в тексте есть ошибка, программа выделяет её. В

усовершенствованных программах вместо неправильного слова предлагается правильный вариант. Процесс редактирования, осуществляемый с помощью автоматизированных программ, дает результат от 0 до 100 процентов в зависимости от степени усовершенствования программы (Sardinha, 2023). «ИИ состоит из двух нейронных сетей: генеративной и дискриминативной. Задача генеративной сети заключается в создании данных, в то время как дискриминативная сеть служит для определения того, похожи ли эти данные на искусственно созданный текст или нет. Генеративная сеть учится генерировать новые данные, пытаясь имитировать данные, созданные человеком. Её цель - сделать данные настолько похожими, чтобы их невозможно было отличить от человеческого продукта. Дискриминативная сеть выполняет функцию судьи. Она рассматривает реальные человеческие данные и данные, созданные генеративной сетью, и выполняет задачу их различения друг от друга» (Buranova, Nazarova 2024). В средствах искусственного интеллекта, редактирующих тексты на узбекском языке, процентный показатель этого процесса значительно ниже, чем в зарубежных программах. Рассмотрим это на примере редактирования текста, выбранного в качестве объекта для научной статьи.

В рукописной версии статьи автор Тошпулат Тугалов написал статью, состоящую из 2777 слов. После того, как статья поступила в журнал «Шарк Юлдузи», она была сокращена редакторами журнала до 1763 слов, а некоторые слова были заменены другими. Следует особо отметить, что стилистическая неловкость в материалах встречается очень редко. Это связано с тем, что известные писатели и поэты, исследователи и журналисты представляют в журнал свои статьи, рассказы и стихи.

Следует отметить, что в программу tahrirchi.uz не поместился весь текст рукописи, состоящий из 2777 слов. Поэтому пришлось редактировать текст, разделив его на две части. Программа показала, что количество слов составляет 2777, как и в редакторе Microsoft Word. Программа Savodxon.uz вместила и отредактировала все 2777 слов, указанных программой Microsoft Word. Однако, в отличие от сайта tahrirchi.uz, она указала количество слов как 3357.

После того, как статья была отредактирована в обеих программах искусственного интеллекта, ошибки, выявленные редакторами журнала «Шарк Юлдузи» были сгруппированы с точки зрения орфографии, грамматики, пунктуации, словоупотребления и стиля, и был получен следующий результат:

	Ошибки	Savodxon.uz	Tahrirchi.uz	Редакторы журнала «Шарк юлдузи»
1	орфография	22 ta	26 ta	20 ta
2	грамматика	3 ta	14 ta	3 ta
3	словоупотребление	0 ta	3 ta	4 ta
4	пунктуация	3 ta	11 ta	5 ta
5	стиль	0 ta	0 ta	30 стилистических ошибок и сокращений

Как видно из приведенной выше таблицы, программа tahrirchi.uz значительно лучше исправляла орфографические, грамматические и пунктуационные ошибки по сравнению с программой savodxon.uz. Даже в тексте, отредактированном людьми-редакторами, результат неплохой. Однако оба инструмента искусственного интеллекта не смогли выполнить стилистическое редактирование текста. Они «не распознали» термины, имена людей и сложные слова. Конечно, основная причина этого заключается в том, что слова из текста не были включены в базу данных этих инструментов искусственного интеллекта. Поэтому инструменты искусственного интеллекта «не смогли распознать» эти слова и отметили их как ошибки. В частности, были неправильно отредактированы термины, псевдонимы и старотюркские слова, такие как Ahlam, hasbi hol, mo'tod, erdi, dame, kulbai vayron, yoraki, ko'han, sinayi, elegiyanamo; а также сложные слова, такие как hayajonbaxsh, ta'sirdorligi, voqeaband, olovqalb.

В процессе автоматического редактирования рукописного текста мы высоко оценили способность программы savodxon.uz к самосовершенствованию. Причина в том, что этот инструмент искусственного интеллекта, как и текстовый редактор Microsoft Word Editor, имеет функцию добавления неизвестных слов и терминов в базу данных программы и формирования личного словаря, что впоследствии помогает программе самосовершенствоваться и улучшать базу данных, расширяя словарный запас. Таким же образом слова или предложения, которые программа «не смогла прочитать», собираются в ее базу данных, и формируется словарный запас. Генератор искусственного интеллекта анализирует собранные данные и предлагает оптимальный вариант редакторам при

последующих проверках. Поэтому при многократном редактировании одного и того же текста могут быть обнаружены новые ошибки. То есть слова, которые ранее не были отмечены как ошибки, могут получить новые варианты редактирования, основанные на оптимизированной базе данных.

Авторы программы Savodxon.uz с целью поддержки постоянных пользователей сайта предоставляют скидки в зависимости от уровня грамотности пользователя на платформе.

Пользователям, достигшим звания «Офицер грамотности» предоставляется скидка 20% при покупке новой подписки, а достигшим звания «Командир грамотности» (“Savodxonlik qo‘mondoni”) – скидка до 40% (10). Несомненно, это будет способствовать увеличению числа пользователей и дальнейшему совершенствованию программы.

Однако для редактирования текста сайт tahrirchi.uz гораздо удобнее, чем сайт savodxon.uz. Это связано с тем, что данная платформа искусственного интеллекта была создана как прототип международной программы Grammarly.com для редактирования текстов на английском языке, которая «обучает» компьютерные модели узбекскому языку на основе текстов, собранных редакторами. Кроме того, на tahrirchi.uz есть отдельное рабочее окно, которое группирует и отображает ошибки, как в Grammarly. Благодаря этому редактор не испытывает трудностей с группировкой ошибок и имеет возможность легко просматривать варианты, предлагаемые программой.

Однако в программе есть один недостаток при редактировании: платформа редактирует весь текст целиком, не разделяя его на абзацы. Это затрудняет редактору параллельное исправление ошибок в рукописи и выделение отдельных абзацев.

Если проанализировать ошибки, выявленные средствами искусственного интеллекта и редактором, то, как мы отметили выше, программа tahrirchi.uz превосходит в обнаружении орфографических, грамматических и пунктуационных ошибок. В частности, программа выявила следующие ошибки, которые не смогли обнаружить savodxon.uz и редактор:

Виды ошибок				
№	Грамматические ошибки	Орфографи-ческие ошибки	Пунктуацион-ные ошибки	Ошибки в употреблении слов
1.	ko'pchilikning	ma'rifatparvarlik	tanqidchi, balki,	xarakterli – fe'l-atvorli
2.	egallagani kishi edi		Shukurovning, ayniqsa	original – asl
3.	vakillarining ijodi		eng og'iri,	
4.	gullab-yashnadi		ham ustoz, ham...	
5.	Shukurovning qaddini		qilganligiga,	
6.	Meni uyda yolg'izman –		tarjima qilib,	
7.	Ijodi bilan shug'ullangan		o'rganar ekan,	
8.			birlashtirib,	

Как видно из таблицы, программа Tahrirchi.uz хорошо выявила ряд грамматических и пунктуационных ошибок, пропущенных редактором.

Учитывая, что редактирование охватывает политические или социальные интересы, можно, конечно, закрыть глаза на орфографические или некоторые пунктуационные ошибки. Однако такие ошибки, отвлекающие редактора от основной цели, снижают качество работы. Ведь задача редактора – максимально повысить воздействие материала, над которым он работает. Редактор берет на себя полную ответственность за работу, которая готовится к публикации, поэтому его оценка может стать окончательным «вердиктом». Редактор отличается от критика-рецензента, который определяет положительные и отрицательные стороны опубликованного произведения, помогает читателю правильно его оценить и дает полезные советы автору для дальнейшей деятельности, именно этими аспектами.

Вернемся к редактированию статьи. В редакционной работе, проведенной через сайт Tahrirchi.uz, были четко и ясно показаны случаи, когда винительный падеж и родительный падеж поменялись местами. Здесь мы видим, что редакторы журнала пропустили эти ошибки. Например, в предложении: “Munaqqid Nuriddin Shukurovning adabiy merosi Serqirra va iste'dodli odamning o'ziga xos jozibasi, davralarga fayz va tarovat beradigan, ko'pchilikni e'tiborini tortadigan betakror fazilatleri bo'ladi” («Литературное наследие критика

Нуриддина Шукурова Многогранный и талантливый человек обладает своеобразным очарованием, неповторимыми качествами, которые приносят благодать и свежесть собраниям, привлекают внимание многих») слово “ko‘pchilikni” («многих») в фразе “ko‘pchilikni e’tiborini tortadigan” («привлекают внимание многих») выделено как грамматическая ошибка в программе tahrirchi.uz. Здесь ошибка отмечена верно. Это связано с тем, что как в прессе, так и в нашей речи мы часто используем винительный падеж там, где должен использоваться родительный падеж. Возможно, поэтому в некоторых случаях даже редакторы пропускают такие ошибки. Однако, поскольку эти предложения были сокращены в рукописи, в опубликованном варианте статьи этой ошибки нет.

Однако в предложении: “Ayniqsa, qardosh xalqlar adabiyoti vakillarini ijodi, asarlarini o‘qib, adabiy jarayonni muntazam kuzatib, serqirra ijod egasi sifatida kamol topadi” («Особенно, читая творчество и произведения представителей литературы братских народов, регулярно наблюдая за литературным процессом, он созревает как многогранный творческий человек») ошибка, связанная с падежом, также пропущена в выпуске журнала. То есть, в этом случае фраза “qardosh xalqlar adabiyoti vakillarini ijodi” («творчество представителей литературы братских народов») должна была быть передана как: “vakillarining ijodi”. Здесь следует отметить ошибку, допускаемую журналистами в грамматике узбекского языка: а именно, использование винительного падежа вместо родительного. Это явление связано с процессом, когда в речевой единице вместо суффикса -ning родительного падежа используется суффикс -ni винительного падежа.

Эта ошибка, пропущенная редактором, к сожалению, присутствует в опубликованной версии журнала. Однако, как уже упоминалось выше, не все программы редактирования могут правильно указать ошибки, связанные с падежами. Например, хотя Savodxon.uz намного лучше других программ, редактирующих тексты на узбекском языке, он не смог обнаружить ошибки, связанные с падежами. Это, конечно, процесс, связанный с правильной разработкой алгоритма программы и размещением большого количества данных в ее базе.

Команда Tahrirchi.uz отмечает, что для разработки программы была создана лексическая база в разрезе частей речи, и воплощена взаимосвязь всех слов (деривативная или инфлективная). На сегодняшний день на рынке цифровых ресурсов этот вопрос является одной из ситуаций, ожидающих своего решения для специалистов узбекского языка.

При разработке программной системы был создан мор-

фологический анализатор, основанный на морфотактических и морфофонемических правилах языка, а модель редактирования орфографии была разработана на основе математического представления формальной грамматики и элементов искусственного интеллекта с участием морфологического анализатора.

В программе не используется технология HunSpell, несовместимая с узбекским языком.

В процессе создания программы были проанализированы практически все слова и выражения в словаре узбекского языка. Важность работы заключается в том, что были разработаны таблицы деривационной зависимости для грамматических составляющих (глаголов, существительных и т.д.) каждого предложения, используемых в лингвистике, коммуникации и литературе. Например, слова «odam» (человек), «odamiy» (человеческий), «odamiylik» (человечность) были включены в одну группу, и были смоделированы три деривационные связи слова «odam». Технические проблемы, возникшие в процессе моделирования, были решены с помощью структуры данных морфологического анализатора. При этом база данных не создается, а аффиксы и правила применяются по мере необходимости на основе математической модели (Fayzullayeva, 2024).

Выявление стилистических ошибок и недостатков в программах, работающих на основе искусственного интеллекта, в частности, в программах, редактирующих тексты на узбекском языке, остается одной из важнейших задач, которые необходимо решить в настоящее время.

На международном уровне современные языковые модели «обучаются» создавать тексты, которые практически неотличимы от человеческих в вопросе стиля. Одной из таких платформ является программа Grammarly.com, которая может предоставлять предложения и рекомендации по стилю в отношении программ, редактирующих тексты на узбекском языке. Однако современные алгоритмы пока не позволяют в достаточной степени контролировать смысл созданного текста.

Поэтому эффективность использования генеративных моделей (т.е. нейронных сетей, создающих тексты и ответы пользователям) в приложениях, используемых в настоящее время большинством пользователей, низкая.

Учитывая, что искусственный интеллект использует две модели: генеративную и фундаментальную, уместно кратко пояснить эти термины.

Генеративная модель – это создание новых текстов, изображений и кодов на основе заданных инструкций.

Фундаментальная модель «читает» коды на основе базы

данных, собранной из различных источников, и используется для выполнения различных задач (Mullayeva, 2022).

Генеративная модель по сравнению с фундаментальной моделью ИИ стала основой технологии новой эры. Программы редактирования текста, которые мы проанализировали выше, также созданы на основе генеративной модели, и чем больше они используются, тем более совершенными становятся.

Редактор должен чётко понимать цель каждого изменения. В редактировании текста работа корректора, то есть исправление, – самая простая работа. Её цель – устранить незначительные ошибки в тексте. Но совершенное редактирование заключается не только в исправлении мелких и на первый взгляд незаметных ошибок. Если материал растянут, применяют редактирование-сокращение, удаляют ненужные детали, повторы. Здесь задача редактора – добиться точности и максимально возможной краткости при подготовке текста к публикации.

Редактирование-обработка включает в себя весь комплекс действий редактора: улучшение композиции, языка и стиля, проверку фактов.

Пересмотр редактирования обычно применяется, когда автор обладает ценными знаниями в своей области, но не обладает литературным мастерством. Редактор должен установить для себя границы исправлений и стараться ограничиться только неизбежными заменами, сокращениями. Однако, учитывая, что почти все авторы рукописей, поступающих в журнал «Шарк юлдузи», обладают литературным мастерством, следует отметить, что работа редакторов издания еще сложнее. Потому что для редактирования работы талантливых писателей, журналистов или авторов требуется, чтобы редактор также обладал сильным потенциалом и квалификацией.

Цель редактирования заключается не в том, чтобы привить автору свой стиль письма, свои принципы и понятия, а в том, чтобы помочь ему понять свою общую позицию, сформировать собственное мнение о тексте и максимально усовершенствовать его.

При работе над текстом редактор должен строго соблюдать действующие правила: правильно вносить изменения, влияющие на содержание рукописи, но способствующие повышению качества произведения, убеждая автора в целесообразности этих изменений.

В редакторской работе вопрос стиля всегда считался одним из первостепенных и наиболее деликатных вопросов. Известно, что в практическом редактировании, то есть в конкретном воплощении результатов аналитического редак-

тирования, обычно используется система, разработанная на основе опыта. Известный специалист по литературному редактированию, профессор К.И. Былинский выделил четыре основных аспекта:

- редактирование-проверка;
- редактирование-сокращение;
- редактирование-обработка;
- редактирование-переработка (Гаймакова, 2001).

Редакторы журнала «Шарк юлдузи» также отредактировали научную статью писателя Тошпулата Тугалова на основе этих четырёх этапов. При этом рукопись, прошедшая процесс редактирования и проверки, сократилась на 1014 слов в процессе редактирования и сокращения. Это не случайно. Обеспечение логической последовательности в рукописях, очищение текста от пустых и общих мыслей повышает качество материала и способствует стилистическому совершенствованию. Как сказал Махмуд Саади, один из самых проницательных редакторов: «Редактирование – это не обрезание мысли автора; редактирование – это открытие пути для идей, которые автор хотел выразить, но не смог сформулировать образно» (Do'st Muhammad, 2006).

«Алгоритм подготовки к работе над редактированием текста может быть представлен следующим образом: причина данных → выбор жанра → определение функции → определение цели → поиск и проверка информации → работа над текстом» (Teshaboyeva, Israil, 2022). Редакторы «Шарк юлдузи» также отредактировали рукопись, основываясь на этом алгоритме, и переработали материал с точки зрения введения и целенаправленности, где нарушалась логическая последовательность.

Рукопись, представленная автором в редакцию, посвящена литературному наследию критика Нуриддина Шукурова, в частности, его поэзии, основное внимание и анализ направлены на творчество писателя. Однако автор начал введение издалека, посвятив семь абзацев творчеству и жизни отца Нуриддина Шукурова – Абдушукура Кори Яхшибоева. Известно, что отклонение от объекта в любой статье или научно-исследовательской работе отвлекает внимание читателя и приводит к неполному пониманию основной цели и задачи. Редакторы журнала «Шарк юлдузи» начали статью с восьмого абзаца, открыв вводную часть статьей «Литературная среда Самарканда постоянно развивается и совершенствуется», опубликованной в газете «Янги Узбекистон» от 8 января 2022 года заслуженным наставником молодежи Узбекистана, кавалером ордена «Эл-юрт хурмати», профессором Муслихиддином Мухиддиновым. По нашему мнению, было не совсем

корректно, что редакторы журнала в процессе редактирования начали три абзаца вводной части статьей другого автора. В данном случае уместнее было бы процитировать статью профессора Муслихиддина Мухиддинова одним абзацем и добавить связующий текст к следующей части статьи. Основная часть статьи начинается с четвертого абзаца: «Нуриддин Шукуров с юных лет воспитывался в литературной среде, где наряду с глубоким познанием классической литературы и современной узбекской поэзии, он также основательно знакомился с творчеством представителей мировой литературы. Особенно он совершенствовался, читая произведения представителей литературы братских народов и регулярно следя за литературным процессом» (Tugalov, 2024).

Разумеется, после сокращения вводной части рукописи было бы неуместно начинать статью непосредственно с этих предложений. Однако, как мы упоминали выше, начинать введение с трех абзацев статьи другого автора также неправильно.

После редактирования рукописи редакторами журнала была обеспечена логическая последовательность, стиль был отшлифован, а читаемость повысилась.

В редактировании текста, особенно при работе с научными статьями, есть один важный аспект, на который редактор должен обратить особое внимание. Это – заголовок научной статьи.

«Заголовок – это языковая единица, указывающая на характер текста, следующего за ним» (Gaziyeva, Holmatova, 2022). Поскольку заголовок является необходимым элементом рукописи, неразрывно связанным с содержанием текста, в его выборе и совершенствовании вместе с автором участвует редактор. Выражая содержание и идею произведения, заголовок может привлечь читателей к теме или оставить их равнодушными. В этом выборе важную роль играют точность и простота, краткость и оригинальность. Заголовок должен максимально точно передавать проблематичность и идею произведения, то есть соответствовать его внутреннему содержанию.

Важно соблюдать ряд требований, которые помогают увеличить смысловую нагрузку заголовка. Все слова, включенные в него, должны нести семантическую нагрузку, однозначно выражать содержание понятий. Опыт показывает, что использование сложных конструкций в названии нежелательно – ключевые слова в них, как правило, находятся далеко друг от друга, что ослабляет их семантическую связь.

В журнале «Шарк юлдузи» заголовок рукописи Тошпулата Тугалова был “Munaqqid Nuriddin Shukurovning adabiy

merosi” («Литературное наследие критика Нуриддина Шукурова») а в процессе редактирования заголовков был сокращен до “Adabiy meros” («Литературное наследие»).

«В структуре научной статьи заголовок является элементом, имеющим коммуникативное значение, а также признается одним из важнейших элементов научного текста» (Екимов, 2023). По мнению В.С. Мартинова, заголовки научных текстов могут включать в себя один или несколько из следующих элементов: объект, предмет, материал, постановку задачи, метод, научное направление, гипотезу, результат, а также форму и жанр научного текста. Как правило, включение таких элементов связано с традиционным пониманием заголовка научной статьи, от которого требуется «максимально полное, точное, однозначное и краткое отражение сути проведенного исследования» (Мартынов, 2008). Конечно, поскольку журнал «Шарк юлдузи» не является сугубо научным изданием, в заголовке, выбранном редакцией для рубрики «Исследование», могут отсутствовать элементы, отражающие объект или предмет, метод или гипотезу текста. Однако, на наш взгляд, целесообразнее было бы сохранить предложенный автором в рукописи заголовок «Литературное наследие критика Нуриддина Шукурова». В этом заголовке более четко выражены как художественный, так и научный аспекты.

Из вышеприведенного анализа также стало ясно, что иногда пропущенные редактором грамматические или орфографические ошибки «улавливаются» в процессе автоматического редактирования. По словам ответственного секретаря журнала «Шарк юлдузи», редактора Дилором Муратовой, на ознакомление с поступившими в редакцию рукописями и проведение первичного редактирования в среднем уходит от двух до четырех часов. Стилистическое редактирование может занять от одного до двух-трех дней. Разумеется, этот процесс также зависит от качества и объема рукописи. В такой ситуации от редактора требуется быть внимательным, глубоко мыслить и анализировать.

В процессе редактирования рукописи важную роль играет редакторский анализ. Редакторский анализ – это, прежде всего, критика, направленная на автора. Его цель – выявить недостатки в материале и, в конечном итоге, усилить достоинства произведения, усовершенствовать его с учетом специфики и возможностей журналистики. С этой точки зрения, направление времени редактора на анализ текста и стиля, а не на корректорскую проверку, способствует повышению качества работы и предотвращению «проскальзывания» некоторых грамматических, орфографических и пунктуационных ошибок. Когда мы загрузили рукопись в программы

редактирования, результат был представлен в течение нескольких секунд. Следующий этап заключался в проверке того, действительно ли ошибочны слова, отмеченные программой как ошибки, и принятии или отклонении предложенных вариантов. На этот процесс нам потребовалось 15 минут. После автоматического редактирования текста мы сэкономили в среднем более трех с половиной часов на процесс стилистического и логического редактирования. Теперь, если этот процесс будет применяться к каждой рукописи, поступившей в редакцию, редактор сможет сэкономить не часы, а дни. В результате основное внимание уделяется качеству, и в журналистике, где производственный процесс напрямую связан с творчеством, создается подлинно творческая среда.

В результате проведенного выше анализа мы пришли к следующим выводам:

В статье искусственный интеллект и генеративные средства редактирования текста были исследованы в сравнении с потенциалом редактора. Редактирование текста с использованием искусственного интеллекта раскрывает взаимодействие технологии и человеческого творчества в совершенно новых аспектах, предоставляя бесчисленные возможности в различных областях. В частности, результаты, показанные программами на основе искусственного интеллекта savodxon.uz и tahrirchi.uz, были сравнительно проанализированы с работой редактора, и были сделаны следующие научные выводы:

- повышается скорость и эффективность;
- ошибки, выявленные с помощью таких программ, как tahrirchi.uz, систематизируются, что помогает сформировать отчет, необходимый для определения KPI издательства;
- незаметные мелкие ошибки: перестановка букв, сомнения в написании х и h, употребление слов и другие подобные грамматические и орфографические ошибки «отлавливаются».

На основе выводов и результатов, полученных в научной статье, были разработаны следующие предложения и рекомендации по совершенствованию текстовых редакторов на основе искусственного интеллекта и эффективному целевому использованию их услуг:

- необходимо изучить и глубоко проанализировать генеративный искусственный интеллект в медиасфере, в частности, программы для редактирования текста на узбекском языке;
- для повышения статуса узбекского языка в мире необходимо популяризировать не только достижения в экономической и социальной сферах, но и результаты научных исследований, созданные изобретения, научные разработки

и программы, а также распространять их через средства массовой информации для повышения эффективности использования этих инструментов;

- эффективное использование инструментов искусственного интеллекта для редактирования текстов на узбекском языке может повысить показатель КРІ в процессе публикации, в частности, при редактировании текста.

Список литературы:

Гаймакова, Б.Д. (2001). Основы редактирования телепередач. Москва: ИПК, С. 4. URL: <http://library.lgaki.info:404/2017/%D0%93%D0%B0%D0%B9%D0%BC%D0%B0%D0%BA%D0%BE%D0%B2%D0%B0%20%D0%91.%20%D0%93.pdf>

Екимов, М.А (2023). Метатекстовые функции заголовков в научной статье, Вестник Череповецкого государственного университета, 6 (117). С. 30–42. URL: https://www.booksite.ru/chgu/2023/vestnik_chgu_6-2023.pdf

Мартынов, В. С. (2008). Структурная и функциональная специфика заголовков письменных текстов, Вестник Самарского государственного университета, 1(60). С. 378. URL: <http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/5408/1/17Kovshar2.pdf>

Aissani, R., Abdallah, R. A., Taha, S., & Adwan, M. N. A. (2023). Artificial Intelligence Tools in Media and Journalism: Roles and Concerns. Conference: 2023 International Conference on Multimedia Computing, Networking and Applications (MCNA), 19–26. <https://doi.org/10.1109/mcna59361.2023.10185738>

Buranova, B.M., Nazarova, M.Yu. (2024). Text generator artificial intelligence and human competence: analysis of text editing programs in uzbek, International Journal of Media and Communications in Central Asia. 6, 36-48. Doi:<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi6.69>

He, Q., Zhang, P., & Qi, H. (2023b). Problem solving and algorithm research of the integration of news media gathering and editing based on artificial intelligence. In Smart innovation, systems and technologies (pp. 43–52). https://doi.org/10.1007/978-981-19-7184-6_4

Sardinha, T. B. (2023). AI-generated vs human-authored texts: A multidimensional comparison. Applied Corpus Linguistics, 4(1), 100083. <https://doi.org/10.1016/j.acorp.2023.100083>

Doimiy foydalanuvchilarga chegirmalar taqdim etiladi. (2024). @savodxon_uz.// URL: https://t.me/savodxon_uz/510

Gaziyeva M., Xolmatova D. (2022). Publisistik matn sarlavhalarining pragmatic va lisoniy xususiyatlari, Journal of Advanced Research and Stability, 12(2). B. 309-316. URL: <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/4958/4476>

Fayzullayeva, I. (2024). Taraqqiyot, qo‘rqaman sendan! Tafakkur, 1(117). B. 38-43. URL: <https://oyina.uz/storage/publications/July2024/e9W7Y5ScwMz4Pc5uYe7m.pdf>

Mullayeva S. (2022). Inha universiteti talabasi yangi dastur yaratdi. www.yuz.uz. URL: <https://yuz.uz/uz/news/inha-universiteti-talabasi-yangi-dastur-yaratdi>

Muratova, N., Sheresheva, M., Buzulukova, E., Valitova, L. (2024). Does the Rise of the Internet

Mean the Decline of Print Books? International Journal of Media and Communications in

Central Asia. 4: 39-59. doi: <https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi4.20>

Nazarova, M. (2022). Televizion axborot dasturlarida sarlavha va ruknlar tahlili va

tahriri. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в

эпоху глобализации, 1(1), 116–122. извлечено из <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5493>

Teshaboyeva, D. Israil, M. (2022) Jurnalistik matn tahriri: til va mahorat, Trjimashunoslar forumi, 2(28). 378-384-bb. doi:<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-28-378-384>

Tugalov, T. (2024). Adabiy me'ros, Tafakkur, (6). 162-168 betlar

Об авторе:

НАЗАРОВА Мунира Юсупова — докторант второго курса базовой докторантуры Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, munira_nazarova1601@mail.ru

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND EDITOR POTENTIAL: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF THE “TAHRIRCHI. UZ” WEB APPLICATION IN EDITING MEDIA TEXTS

Abstract: Tahrirchi.uz is an artificial intelligence-based web application that provides real-time automatic proofreading and editing of user-entered text. Its purpose is to assist professional editors in improving the accuracy and efficiency of their work. Since this tool was created to check both authors' manuscript drafts and finished media texts, this scientific article aims to determine its effectiveness and usefulness for the industry. The article presents a comparative analysis of editorial work performed by experienced editors and this proofreading program. When comparing the results produced by the AI-based text editor tahrirchi.uz with the capabilities of human editors, the advantages and disadvantages of this web application for the Uzbek language became apparent. The program identified technical and grammatical errors in the selected text samples and suggested alternative versions in Uzbek. The conclusion showed that the overall functionality of the artificial intelligence-based proofreading tool tahrirchi.uz surpasses other editing programs in the Uzbek language. However, it does not reach the level of human editors.

Keywords: artificial intelligence, tahrirchi.uz, natural language processing, media text, editing, proofreading, proofreader, editor

About author:

NAZAROVA Munira Yusupova — Second-year basic doctoral student of the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, munira_nazarova1601@mail.ru

JADID MATBUOTIDA XOTIN-QIZLARGA OID NASHRLARNI TASHKIL ETISHDAGI DASTLABKI URINISHLAR

Mahzuna Kamalova,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidlar tomonidan xotin-qizlar nashrlarini tashkil qilishga bo'lgan dastlabki urinishlar, xususan, "Alem-in Nisvan" va "Suyumbika" singari ilk ayollar jurnallarining ta'sis etilishi jarayonlari, asoschilari, muharrirlari, dasturi va ahamiyati borasidagi tadqiqotlar o'rin olgan. Unda jadidlar harakati yo'lboshchisi Ismoil Gaspirali va boshqa ziyolilarning tashabbusi, ilk ayol muharrirlardan Zuhra Akchura Gaspirali hamda Shafiq Gaspiralinining faoliyati haqida ma'lumotlar mavjud. Maqolada ayollar nashrlari tashkil qilinishining o'sha davr uchun zarurati, "Alem-in Nisvan" va "Suyumbika" jurnallarning turk-musulmon mamlakatlarida xotin-qizlar matbuoti rivojlanishida asos bo'lib xizmat qilganligi haqida tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: jadid matbuoti, xotin-qizlar nashrlari, "Alem-in Nisvan" jurnali, "Suyumbika" jurnali, muharrir, dastur

XIX oxiri XX asr boshlarida Chor Rossiyasiga qaram bo'lgan o'lkalarda ayollar davriy nashrlari mavjud emas edi. Bu davrda musulmon ayollarning muammolari vaqti-vaqti bilan faqat "Tarjimon" gazetasi sahifalarida yoritilib turgan. Jadidchilik harakati bosh namoyondasi Ismoil Gaspirali o'zining liberal islohotlaridoirasidaQrimdamusulmonayollaruchunmo'ljallangan, ularning ta'lim olishi, madaniy-ma'naviy jihatdan rivojlanishiga bag'ishlangan maxsus nashr chop etishni maqsad qiladi. U gazetalar orqali Rossiyadagi barcha musulmonlarga murojaat bilan chiqib, ona tilidagi maxsus bosma nashr musulmon ayollarni ma'rifatli qilishning yana bir qulay vositasiga aylanishiga ishonchi komillligini bildiradi (Gankevich, 2000). Ismoil Gaspiralinining bu maqsadi yo'lidagi sa'y-hrakatlarini birinchilardan bo'lib rafiqasi Zuhra Akchura Gaspirali qo'llab- quvvatlaydi. Tadqiqotchilar Zuhra Gaspiralinini Qrim milliy nashriyot sanoati rivojiga ma'naviy va moliyaviy hissa qo'shgan birinchi musulmon ayol sifatida tilga oladilar (Fahretdin, 1986). U "Tarjimon" gazetasi bosmaxonasida texnik ishlar bilan bir qatorda tahririyat ishlarini ham bajargan. "Tarjimon" gazetasi sahifalarida mualliflar ayollar masalasiga faol murojaat qilishlariga qaramay, mustaqil ayollar davriy nashrini yaratish zarurati tobora kuchayib bordi.

Jadid matbuotida ayollar nashrlarini tashkil etishga dastlabki uchta urinish ma'lum. Birinchi urinish XIX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Ismoil Gaspirali dastlab musulmon xotin-qizlarga mo'ljallangan "Tarbiya" ("Terbiye") nomli jurnal loyihasini ishlab chiqadi. Jurnal bosh muharriri sifatida rafiqasi Zuhra Gaspiralinini tayinlashni mo'ljallagan edi. 1887 yil

noyabr oyida Zuhra Gaspirali ichki ishlar vazirligining matbuot ishlari bo'yicha Bosh boshqarmasi (GUDP) boshlig'i Ye. M. Feoktistovga "Tarjimon" gazetasi asosida musulmon ayollar uchun maxsus nashr — "Tarbiya" jurnalini tashkil etishga ruxsat berish iltimosi bilan murojaat qiladi. Zuhra Gaspirali murojaatda shunday deb yozadi: "Musulmonlarni rus hayoti va ilm — faniga yanada muvaffaqiyatliroq, aniqroq yaqinlashtirish uchun musulima ayolga ta'sir o'tkazish nafaqat foydali, balki bevosita zarur deb hisoblagan holda, men hozirgacha buning uchun yagona vosita — bosma nashrdan foydalanmoqchiman" (Chubukchiyeva, 2013). Jurnal Ismoil Gaspirali tahriri ostida oyiga ikki marta tatar tilida nashr etilishi rejalashtirilgan edi. Arizaga quyidagi savollarni o'z ichiga olgan "Tarbiya" jurnalining dasturi ilova qilinadi:

1. Uy xo'jaligi: uy-ro'zg'or va tikuvchilikka oid maqolalar;
2. Uy gigiyenasi: gigiyena va bolalarni parvarish qilishga oid maqolalar;
3. Rus pedagogikasi: rus tili darslari va bolalar uchun savodxonlik;
4. Qisqa hikoyalar: (asl va rus tilidan tarjima qilingan) axloqiy hikoyalar, olimlar va taniqli ayollarning tarjimai holi, latifalar, hikmatli so'zlar va she'rlar (Doğan, 2020).

Loyiha 1887 yilda Matbuot ishlari bosh boshqarmasi tomonidan rad etilgan.

1891 yilda Ismoil Gaspirali xotin-qizlar uchun yana bir davriy nashr ochishga harakat qilgan. Bu "Kadin" ("Ayol") deb nomlanib, "Tarjimon"ga ilova sifatida chop etilishi mo'ljallangan. Ammo ushbu nashr ham Sankt-Peterburg rasmiylari tomonidan rad yetilgan (Gankevich, 2000).

Ismoil Gaspiralinig dastlabki ikki urinishi rad etilganligi ayollar davriy nashrini yaratish rejasini vaqtincha kechiktirdi. Faqat 1905-yildagina senzuraning bekor qilinishi va qonunchilikning liberallasuvi natijasida ona tilida davriy nashrlar yaratish imkoniyati paydo bo'lgandan so'ng Gaspirali bu maqsadini amalga oshirishga kirishdi. 1905-yilning 11-iyulida u Ichki ishlar vazirligiga o'z muharrirligi ostida tatar tilida haftalik "Alem-in Nisvan" ("Ayollar dunyosi") jurnalini chiqarishga ruxsat so'rab murojaat qiladi. U so'nggi o'n yillikda rus maktabi va adabiyotining musulmon jamiyatiga ko'rsatgan madaniy-ma'rifiy ta'sirlari samarali bo'lganligini, endilikda sxolastiklikdan farq qiladigan va klassik shaklga ega bo'lgan yangi tatar davriy nashrlari paydo bo'layotganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, o'lkadagi barcha o'zgarishlar erkaklarga ko'proq ta'sir ko'rsatib, ayollarni tashqi dunyodan yiroqlashib qolganligi, jaholatdan azob chekayotganligini qo'shimcha qiladi. "Ruscha nutq va ruscha kitob tez orada kirib bormaydigan, rossiyalik sayyoh yoki ayol shifokor zo'rg'a yo'l bosib o'tadigan muhitda yangilanish,

taraqqiyot yo'lini faqat matbuot va so'z orqali ochish mumkin" deb yozadi u (Yablonovskaya, 2017). Murojaatnomaga "Alem-in Nisvan" jurnalining dasturini ham ilova qiladi. Dastur quyidagicha:

1. Ayollarning huquqlari, burchlari, mehnati va ta'lim-tarbiyasiga oid hukumat qarorlari va qonunlari;
2. Uy-ro'zg'or ishlari, uy va bolalar gigiyenasi hamda tarbiyaga oid amaliy ma'lumotlar;
3. Xo'jalik ishlari: hunarmandchilik, to'quvchilik, gilamchilik va ipakchilik, tushuntirish chizmalari bilan;
4. Boshlang'ich bilimlardan ma'lumotlar, hikoyalar, romanlar, maqolalar, sayohatnomalar, she'rlar, o'quvchilarning xatlari va savollari, tahririyatning javoblari;
5. Aralash: kashfiyotlar, ixtirolar va ilmiy yangiliklar;
6. E'lonlar (Chubukchiyeva, 2013).

Nashr dasturi "Tarjimon" gazetasining noyabr oyidagi sonida maqola holida e'lon qilinadi. Unda jurnalning noshiri va muharriri Ismoil Gaspirali, tahririyat va idora mudiri uning qizi Shafiq Gaspirali bo'lishi aytilgan edi. Shafiq Gaspirali rus tilini mukammal biladigan, nashriyot ishlarining nozik jihatlarini o'zlashtirgan o'qimishli qiz bo'lgan. "Alem-in Nisvan" jurnali muharriri etib maktabni endigina tamomlagan Shafiq Gaspirali tayinlangan bo'lsada, unga Ismoil Gaspiralining o'zi bosh-qosh bo'ladi.

Jurnal besh yil davomida (1906 yildan 1911 yilgacha) nashr etilgan. Buning sababi jurnal xarajatlarini qoplay olmaganligidir. Jurnal "1910 yildan yana "Tarjimon"ga bepul qo'shimcha sifatida oyda ikki marta qayta nashr etila boshlaydi (Demiryurak, 2014). Tadqiqotchilar "Alem-in Nisvan" jurnalining paydo bo'lishi va uning sahifalarida chop etilgan materiallar Yevropa matbuoti tomonidan qiziqish bilan kutib olinganini ta'kidlaydi. Xususan, nufuzli frantsuz jurnali "Revue du Monde musulman" ("Revue du Monde musulman") nashri jurnalning ayniqsa musulmon ayollar hayotiga bag'ishlanganligi tufayli "Alem-in Nisvan"dan olingan yangiliklardan tez-tez foydalangan" (Yablonovskaya, 2017). "Alem-in Nisvan"ning haqiqiy namunalari hozirda Ukraina, Rossiya va Turkiya kutubxonalarida saqlanmoqda. Parij kutubxonasidan jurnalning bir qancha sonlari topilganligi uning qiymati, geografiyasi va mashhurligidan dalolat beradi.

"Alem-in Nisvan"da milliy o'zlikni asrash, milliy birlik va hamjihatlik g'oyasi maqolalarning bosh mavzusi bo'lgan. Uning sahifalarida ayollar duch keladigan ta'lim muammolari ko'proq yoritiladi va bu borada tashlangan ijobiy qadamlar haqida muntazam xabarlar berib boriladi. Jurnal xotin-qizlar uyushmalari faoliyatiga ham keng o'rin beradi. Shuningdek, jurnal orqali kambag'allarga yordam yig'iladi: qizlar maktablariga o'qituvchilar talab qilinadi. Bundan tashqari, jurnalda turli mamlakatlardagi ayollarning

turmush tarzi, mashhur ayollarning tarjimai holi va portretlari, ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar, yangiliklar va reklamalar joy olgan.

Xotin-qizlarga mo'ljallangan ilk mustaqil nashr "Suyumbika" jurnali bo'lib Qozonda chop etilgan. Unga jurnalist va muharrir Yoqub Haliliy asos solgan. Jurnalning birinchi soni 1913 yil 27 oktyabrda, oxirgisi esa 1918-yil 18-yanvarda nashr qilingan (Giymazova, 2017). Dastlabki yillarda jurnal bir oyda ikki marta chiqarilgan va davr muammolarini, eng muhim kundalik masalalarni yoritgan.

Filologiya fanlari nomzodi, tataristonlik (Tatariston Respublikasi Islom instituti) tadqiqotchi Rafilya Giymazova o'zining "Xonimlarga hadya "Suyumbika" nomli maqolasida Qozon viloyati aholisi, tatar jamoatchiligi mazkur nashrni katta qiziqish bilan kutib olganligini ta'kidlaydi. Maqolada keltirilishicha, 1913-yilda Ij-Bubyi qishlog'ilik dehqon Xaliullinning o'g'li Yoqub Ibrohim (1877-1938) gubernator nomiga tatar tilida ayollar uchun "Suyumbika" nomli jurnal chiqarishga ruxsat so'rab ariza yozadi. 1913 yil 16 sentyabrda u 107161 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan guvohnoma olishga muvaffaq bo'lgan (Giymazova, 2017).

"Suyumbika" jurnali ayollar uchun nashr etilgan birinchi mustaqil jurnal sifatida tarix sahifalaridan o'rin oldi. Jurnal mavzulari xotin-qizlarga xos bo'lgan masalalarni qamrab olgan. Bular:

1) ayollarning huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy va oilaviy ahvolini aks ettiruvchi umumiy mazmundagi maqolalar;

2) dehqon xo'jaligining davr talabiga muvofiq faoliyatini yorituvchi bo'lim;

3) yuridik bo'lim: ayollar uchun muhim bo'lgan huquqiy masalalarga bag'ishlangan maqolalar, yuridik yordamga muhtoj ayollarning savollariga javoblar;

4) xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini shariat nuqtai nazaridan belgilash;

5) xotin-qizlar masalalariga oid tarixiy faktlar va olimlarning fikrlari;

6) ayollarning madaniy va ijtimoiy hayotdagi o'rni haqidagi maqolalar;

7) oziq-ovqat bo'limi: tajribali mutaxassislar tomonidan yaratilgan va sinovdan o'tgan turli retseptlar, uyda qish uchun oziq-ovqat tayyorlash bo'yicha maslahatlar;

8) bolalar, hamshiralar va ayollar uchun uyda tikilishi mumkin bo'lgan kiyim namunalarini ko'rsatadigan moda bo'limi;

9) Hunarmandchilik bo'limi: oddiy va ayni paytda nafis narsalarni yasash usullarini tavsiflash;

10) bolalarni tarbiyalash va tarbiyalash bo'limi;

11) ayollarning shaxsiy gigiyenasi va tashqi go'zalligini himoya qilish bo'yicha maslahatlar;

- 12) gulchilik va bog‘dorchilik;
- 13) adabiyot va san‘at bo‘limi: romanlar, qissalar va hikoyalar;
- 14) tanqid bo‘limi;
- 15) Rossiyada va xorijda yashovchi ayollar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- 16) oxirgi ikki haftadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga umumiy nuqtai nazar;
- 17) o‘quvchilarning savollariga javoblar;
- 18) bayonotlar (Ганкевич, 2000).

XIX oxiri XX asr boshlarida jadidlar tomonidan xotin-qizlar nashrlarining tashkil etilishi harakat doirasidagi katta qadamlardan biri edi. Ayollarining jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga yo‘naltirilgan “Alem- in Nisvan” va “Suyumbika” jurnallarining tashkil etilishi turk-musulmon mamlakatlrida xotin-qizlar matbuoti rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, “Dog‘iston ayoli” (Dog‘iston), “Boshqirdiston qizi” (Boshqirdiston), “Ladi Gor” (Ingushetiya), “Nana” (Ichkeriya Chechen Respublikasi), “Dalbar Xotun” (Yakutiya) (Чубукчиева, 2013), “Yangi yo‘l” (O‘zbekiston), keyinchalik “Saodat” jurnallari xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan nashr sifatida maydonga keldi. Xotin — qizlar matbuoti paydo bo‘lishi ayollarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, gender tenglikni ta‘minlash, ularning ta‘lim olishi, huquqlari va hayotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Demiryurek, Meral. (2014). Müslüman Türk Kadın Dergileri ve ‘Kadın Meselesi’ne Osmanlı ve Rus Emperyal Bakışları: Âlem-i Nisvan, Kadınlar Alemi, Kadın. Modern Türklük Araştırmaları Dergisi, İsmail Bey Gaspıralı, Özel Sayısı Cilt 11, Sayı 4.

Doğan, Hilal. (2020). Alem-i Nisvan Gazetesi (1905-1907), Ankara Yıldırım Beyazıt Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi.

Fahretdin, R. B. (1986). Zehre hanım, Emel, № 153.

Gaspıralı, İ. (2019). Kadınlar. Y. Akpınar (Yay. haz.), İsmail Gaspıralı Seçilmiş Eseleri: II. İstanbul: Ötüken Neşriyat.

Giymazova, R. A. Ханымнарга hədiya «Səembikə» // Gaspyrlar avazy – Exo vekov, 2017. № 1/2.

Abibullayeva E. (2024). Reasons that influenced the closure of the journal “Alem-i nisvan” (“Women’s World”) (On the 170th anniversary of the birth of Ismail Gasprinsky), Tatarstan Academy of Sciences, 11(2). doi: <http://dx.doi.org/10.22378/kio.2021.2.97-114>

Ганкевич, В. (2000). На службе правде и просвещению. Краткий биографический очерк Исмаила Гаспринского (1851–1914). Симферополь: ДОЛЯ. С.19-21. URL: http://www.tataroved.ru/publicat/new/Gasprin_sbornik.pdf



Чубукчиева Л. (2013). Женский вопрос на страницах журнала «Алем-и нисван», «Гасырлар авазы – Эхо веков», № 1/2.

Яблоновская, Н. (2017). Крымскотатарский женский журнал: история и современность, Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского Филологические науки. № 1.

Muallif haqida:

KAMALOVA Mahzuna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti, makhzunakamalova@gmail.com

INITIAL ATTEMPTS TO ESTABLISH WOMEN'S PUBLICATIONS
IN THE JADID PRESS

Abstract: This article examines the early efforts by Jadids to create women's publications in the late 19th and early 20th centuries, particularly focusing on the establishment of pioneering women's journals such as “Alem-in Nisvan” and “Suyumbika,” their founders, editors, programs, and significance. It includes information about the initiative of Ismail Gasprali, the leader of the Jadid movement, and other intellectuals, as well as the activities of the first female editors, Zuhra Akchura Gasprali and Shafiq Gasprali. The article analyzes the necessity of establishing women’s publications during that period and discusses how the journals “Alem-in Nisvan” and “Suyumbika” served as the foundation for the development of women's press in Turkic-Muslim countries.

Keywords: Jadid press, women’s publications, “Alem-in Nisvan” journal, “Suyumbika” journal, editor, program

About author:

KAMALOVA Makhzuna — doctoral student of the University of Journalism and Mass Communication of Uzbekistan, makhzunakamalova@gmail.com

MAJIDIY HAJVIYALARIDA JAMIYAT VA ILLAT TASVIRI

Madina Yuldosheva,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning matbuot tarixiga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim deb topdim. Sababi, o'zbek badiiy publitsistikasi adabiyotshunosligimiz bilan chambarchas bog'liqdir. Va aynan matbuot tarixi orqali biz davr muammolarini hamda kishilar tarixini o'rganishimiz, unda ijod qilgan vakillar asarlarini tahlil qilgan holda nazariy muammo, kamchilik va yutuqlarini tadqiq etish imkoniyatiga erishamiz.

Kalit so'zlar: matbuot, tarix, illat, gazeta, milliy, maqola, g'oya

XX asr birinchi choragi Turkiston xalqi hayotida kutilmagan hodisalarga to'la davr bo'ldi. Jahon va birodarkushlik urushlari, turli xarakterdagi "inqiloblar", dunyoning boshqa xalqlari bilan iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy aloqalar, ruhiy va jismoniy qatag'onlar hamma-hammasi shu qisqa vaqt ichida bo'lib o'tdi. Jadidchilik ham shu davrda shakllandi, rivojlandi va intiho topdi.

Sovet adabiyoti namoyondasi, XX asrning iste'dodli satirik yozuvchisi, sinchkov adabiyotshunos, faol matbuotchi va teatr tashkilotchilaridan biri sifatida e'tibor topgan, siyosiy o'tkir, g'oyaviy mukammal asarlari, publitsistik maqolalari, xususan satirik ijodi bilan "...Sovet Hokimiyatining ichki dushmanlariga tinchlik bermay qo'ygan qudratli kuchga aylangan" yozuvchilardan biri Abdulhamid Majidiy edi.

Abdulhamid Majidiy o'zbek adabiyotining 20-30-yillardagi darg'alaridan biri hisoblanadi. U qatag'onlikning mudxish azoblari girdobida qatl etildi va bor-yo'g'i 38 yil umr ko'rib istiqloq va mustaqillikni orzu qilib o'tgan vatandoshimiz edi.

Istiqloq tufayli esa bunday allomalar ijodiyoti bilan keng tanishish imkoniyati yartildi. Yozuvchi "Abutanbal", "Chaqmoq" kabi taxalluslar ostida she'r va dostonlar, hikoya hamda dramalar, ilmiy, publitsistik maqolalar va felyetonlar bitib el orasida shuhrat topdi. Ijodkor taniqli teatr rejissyori va yirik jurnalist siftida ham tanilgan edi.

Majidiy o'z she'rlarida jamiyatni tanazzul botqog'iga botirayotgan illatlarni tanqid qiladi. Johillikni, zolimlikni, tekinko'rlik va maishatbozlikni millatni xarob qiluvchi jihat sifatida o'z lirikasida har doim tanqid ostiga oladi. Ayni shu ma'rifat va ziyoga intilish she'riyatning nafaqat g'oyaviy, qolaversa, janriy tomonlama ham yangilanishiga katta turtki bo'ldi.

Majidiy hajviyalarida ham ayni shu ijtimoiy hayotni yaxshilash, ma'naviyatni yuksaltirish, jamiyatdagi illatlarni ildizi bilan qo'porib tashash orzusi yetakchilik qiladi. Shu sabab jamiyatda nihoyatda chuqur ildiz otgan illatlarni hajv qiladi. Bu bilan odamlarni ayni illatlardan qochishga, tafakkurini kengaytirishga undaydi.

Ozgina pul topishi bilan bu pulni katta uy qurish orzusiga sarf etayotgan, yosh xotin olish orzusi bilan yashayotgan millatdoshlarining g‘aflat uyqusida qolganidan kuyinadi. Barcha hislarini hajviyalarda tanqid, kesatish, kinoya vositalarda yetkazib beradi:

Pul ko‘paydi, xotin oldim, katta karnay chaldirib,
Hovli soldim, bog‘ oldim ko‘hna kulbam qoldirib.

Voqelikni bayon etishda shoir qahramonning o‘zini gapirtirish usulini tanlaydi. Bu holat asarning ta’sirchanligini, badiiy kuchini yanada oshishiga sabab bo‘ladi. Buni adabiyotshunos olim S.Samariddinov ham alohida ta’kidlaydi: “Shoir satirasida ulug‘ Navoiyga xos gumanistik g‘oyalarni olg‘a surish tendensiyasi, salbiy shaxslar kirdikorlarini o‘z tilidan fosh etishning Maxmurga xos uslubi, nom va laqablar, adreslarini aniq ko‘rsatishning Muqimiy, Miriy Kattaqo‘rg‘oniy va Zavqiylarga mansub ko‘rinishlari mavjuddir” (Sirojiddinov, 1982).

Shoir jamiyatning eng og‘riqli muammolari kulgi ostida tasvirlar ekan, kulgining o‘tkir tig‘i tegishli kishini jarohatlab o‘tadi. Ijodkor she’riyatida kulgi ostida achchiq haqiqat yashaydi, kishini o‘ylashga, tafakkur yuritishga va hatto yig‘lashga majbur qiladi.

Bu kayfiyat “Notavon qizil choyxonalar” she’rida yaqqol namoyon bo‘ladi. She’rda metonimiyadan foydalaniladi. Aslida choyxonalar emas, unda umrini behuda sarf etayotganlar notavonlardir. Bu notavonlarning ilm olish uchun sarflashga aqchalari ham, vaqtlari ham yo‘q. Gazeta, jurnal mavzusini ku gapirmasa ham bo‘ladi. Ularning bu mavzuni eshitishga quloqlari tom bitgan:

*Yangi jurnal-u gazet tinglashga hamma go‘shi kar,
Bir gazetdan bir xabar ko‘rgan kishi yo‘q bir nafar,
Boshqa tashviqot ishi yo‘qlikka qilgandir safar,
Qisqasi, choyxonalarda tarbiyatdan yo‘q asar,
Jahr o‘qish qilg‘uchisi kaklik ila bedonadir.*

Ammo bu choyxonalardan biror bir naf yo‘q. Bu joyda na ma’rifat bor, na go‘zallik. Bu joyda tarbiyadan asar ham yo‘q. Barcha bekorchilarning makoni shu yer. Bu yerda yig‘ilguvchilarning hayotdan biror bir maqsadi, umidi yo‘q. Shu joyda kunlari o‘tsa bo‘ldi. Ular uchun na gazeta qiziq, na jurnal. Shoir bu holatni tanqidiy kulgi ostiga olsada, uning ichidagi afsus, achinish, nadomat kabi hislar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qalb ko‘zi basir, uning ko‘zlarini ochguvchi ilmning esa hech kimga keragi yo‘q. Aslini olib qaraganda esa: “Haqiqatdan ham, dunyodagi har qanday “basta” – muammoni yechuvchi kalit – ilmdir. Majidiy hajviyalarida obrazlar o‘ziga xoslikka ega. Ammo shu bilan bir qatorda uning hajviyalaridagi obrazlar boshqa ijodkorlar ijodida ham uchrashini ta’kidlash joiz. Nafaqat obrazlar, hattoki, mavzuiy

yaqinlik yangi o'zbek she'riyati uchun xos xususiyat deyishimiz mumkin. Boisi davr va muhitning ijtimoiy muammolari, og'riqlari maqsadlarning birligiga, bu esa o'z-o'zidan mavzular va obrazlarning ham bir xilligiga olib keldi. Masalan, ilmsizlik mavzusi, ilm-ma'rifatdan tamoman yiroq xalq obrazi xuddi Majidiydan ham avvalroq Tavallo, Zavqiy, Muqimiy ijodida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan, Tavallo shunday yozadi:

*Jahonda jumla inson ilm qayg'usi ila bo'lsa,
Hamon to'y-maraka deb nafs ila ovoramiz, yo rab.*

Yoxud Zavqiy ijodidagi soxta eshonlar obraziga e'tibor qaratish lozim. Aslida bu obraz ham o'z davri hajviyalari uchun eng mashhur obraz edi deyishimiz mumkin:

*Ishni sen qilding, balog'a qoldilar bechora xalq,
Go'zani san yeb, kesildi bo'zchi yengi, yo eshon.*

Yoxud Muqimiy hajviyalaridagi himmatdan tamoman uzoq, xasis boylar (masalan, Asrorqul) obraziga e'tibor qarataylik:

*Sadqai odam ket-u yuz hayfsan, Asrorqul,
Zahr-ichgan, kiygoning bo'lsun kafan, Asrorqul.*

Ko'rinib turganidek, ma'rifatparvarlik davrida vujudga kelgan obrazlar XX asrning 20-30-yillariga kelib ham o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotmadi.

Buning o'ziga xos aniq sabab va asoslari mavjud edi, albatta. Boisi, "she'rdagi davr tushunchasi ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liqlikdagi inson hayoti bilan belgilanadi. She'riyat insoniyat uchun yaratilar ekan, shoir uchun davr miqyosi zamondoshlari hayoti, inson taqdiri bilan xarakterlanadi; insonning bugungi hayoti, tushuncha va tafakkuri bilan uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi" (Rahimjonov, 1979).

Demak, anglangani kabi obraz davrning talabi va mahsuli o'laroq vujudga keladi.

Afsuski, 30-yillarning ikkinchi yarmida ro'y bergan sotsialistik qonunchilikning buzilishi, adabiyotda paydo bo'lgan "konfliktsizlik nazariyasi" nomi sotidagi harakat natijasida adibimiz Majidiyning ijodiga nuqta qo'yiladi. Uning "Hangoma" nomli hajviy hikoyalar to'plamidagi asarlari "hayotni ataylab buzib ko'rsatish", "sotsialistik tuzumga tuhmat" kabi nohaq ayblovlar bilan qoralaydilar. Uning satirik asarlarini tushunmaydilar. U asarlari orqali ilgari surgan g'oyalarni qoralaydilar. Natijada Majidiy ham boshqa jadidlar singari aybsizlik qurboni bo'ladi va 1939 yilning 13 dekabrda vafot etadi.

Abdulhamid Majidiyning lirikada yaratgan yangi shakl va mazmun uyg'unligi, hajviy hikoyachilikdagi mahorati, mukammal maqolalar va feletonlari, matbuot va jurnalistika tarixiga qo'shgan salmoqli hissasi, tariximizda yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan adiblarimiz ustida olib borgan tadqiqotlari tahsinga sazovordir.

Teatr san'atiga qo'shgan hissasi esa ulkan tahsinga loyiqdir. Biz yoshlar esa bu kabi allomamizning tarixini, hayoti va ijodi ustida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz, nomini tiklash va kelajak avlod uchun yetqizib berishimiz ham ilmiy ishimning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Boboyev, M. (1968). Abdulhamid Majidiy (Abutanbal), "O'zbek tili va adabiyoti" gazetasi, 1-son, 27-bet.

Egamqulova, N. (2021). XX asr boshlari adabiy jarayoni muammolari (1906-1917-yillar o'zbek vaqtli matbuoti misolida). Dissertatsiya. Toshkent, B 119.

Halimova, S. (2021). Ubaydulla Asadullaxo'jayev va "Sadoi Turkiston". Monorafiya. Toshkent, B 82.

Rahimjonov, N. (1979.). Davr va o'zbek lirikasi. Toshkent: Fan, B. 8-9.

Sadriddinov, A. (n.d.). "Turkiston o'lkasi matbaa-noshirlik tarixining o'rganilishiga doir ayrim mulohazalar". Dissertatsiya. B 190.

Sirojiddinov, S. (1982). Abdulhamid Majidiy. Toshkent: G'afur G'ulom. B.120

Muallif haqida:

YULDOSHEVA Madina — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti doktoranti,
yuldoshevamadina87@gmail.com

THE DEVELOPMENT OF SOCIETY AND VICE IN MAJIDI'S SATIRICAL WORKS

Abstract: In this article, I found it necessary to briefly touch upon the history of our country's press. The reason is that Uzbek artistic journalism is closely related to our literary studies. And it is precisely through the history of the press that we gain the opportunity to study the problems of the time and the history of people, to analyze the works of representatives who created in it, to study the theoretical problems, shortcomings, and achievements.

Keywords: press, history, vice, newspaper, national, article, idea

About the author:

YULDASHEVA Madina — PhD student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, yuldoshevamadina87@gmail.com

ABDULLA AVLONIY IJODINING MILLIY UYG'ONISH
DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O'RNINI
(XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOIIY
HAYOT, ADABIY JARAYON TALQINI)

Guljahon Xomidova,
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida shoir, dramaturg, ma'naviyat va ma'rifat homiysi, taraqqiyparvar pedagog, jurnalist, tarjimon va adib Abdulla Avloniy ijodining g'oyaviy-tematik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, asarlarning mavzu ko'lamini va janr xususiyati, poetik obraz tasvirida shakliyl-uslubiy izlanishlar, badiiy ko'chma ifodasida uslubiy o'ziga xoslik va individual tasvir mahorati kabi masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy hayot, jadid, maorif, an'anaviy uslub, uslubi ta'lim, oktyabr manifesti

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi ijtimoiy, adabiy hayot tarixiga nazar tashlasak, jahon sivilizatsiyasi beshigi sanalgan ko'hna Turkiston osmonini qora bulutlar qoplagan yillar bo'lganini his etamiz. Bu yillarda, ya'ni mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan chor Rossiyasi hukmronligi davri Turkistonda istibdodga, xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi, ona-Vatanimizda til, madaniyat, urf-odatlar, milliy qadriyatlar poymol etildi. G'oyat murakkab kechgan bu jarayon mazkur davr adabiyoti va ma'naviyatining asosini belgilaydi. Shuningdek, Chor Rossiyasi bosqini va mustamlakachilik siyosati Turkiston xalqining milliy adabiy-tarixiy taraqqiyotiga to'siq bo'lolmadi, aksincha, vaziyat ma'naviy ijod sohiblari tomonidan milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash va anglatish jarayonini shakllantirdi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining dastlabki bosqichida ma'rifatparvarlik yetakchilik qildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati kuchayib bordi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi xalqni ma'rifatga chorlash, savodsizlikka qarshi kurashish va yangi ta'lim tizimini shakllantirish edi. Abdulla Avloniy ham shu maqsadlarni o'z ijodida aks ettirgan. Jadidchilik shoir ijodiga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning pedagogik asarlari va ma'rifiy yo'nalishdagi she'rlarining shakllanishiga sabab bo'lgan.

Milliy uyg'onish davri Vatanimizda jadidchilik harakati shaklida namoyon bo'ldi. U 1865-yildan boshlanib 1929-yilda harakat namoyandalarini jismoniy tugatishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlari bilan bog'langan bo'lib, uning shakllanish davri 1865-1905-yillar bilan belgilanadi. Adabiy harakat dastlab Qo'qon, Xiva, Buxoro, Samarqandda so'ng Toshkentda rivojlandi. 1916-yilga kelib mazkur harakat namoyandalari "qora xalqni

oqartirmoq va ko‘zini ochmoq chorasiga” (Avloniy) kirishdilar. “1904-yilda rus-yapon urushi chiqib, bizning ham ko‘zimiz ochildi. 1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to‘lqini bizga ham zo‘r ta’sir qildi. Bizning tashkilotimiz siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartmoq va ko‘zin ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazet chiqarmoqni munosib ko‘rib, uyushmaning harakati bilan o‘zbek tilida gazetalar chiqarildi”, (2006) deya ma’lumot beradi Avloniy o‘z tarjimayi holida.

1905-yil voqealari, xususan, 1905-yil 17-oktabr Manifestidan keyin jadidchilik harakati rivojlanish bosqichiga kirdi. 1905-yilgi inqilobiy ko‘tarilishlar behuda ketmadi. Podsho hukumati yon berishga majbur bo‘ldi. 17-oktabr Manifesti e‘lon qilindi. Shaxsning daxlsizligi, vijdon, so‘z, yig‘ilishlar erkinligi ta’minlanishi haqida va’da berildi. Manifest matbuot ishlarining yurishib ketishiga yo‘l ochdi. Rusiyaning barcha yirik shaharlarida bo‘lgani kabi Turkiston shaharlarida ham gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. 1906-yilda Ismoil Obidiyning “Taraqqiy” gazetasi, ko‘p o‘tmay esa Abdulla Avloniy tashabbusi bilan “Xurshid”, “Tujjor”, “Osiyo” gazetalar chiqa boshladi. Bu gazetalar o‘zbek milliy matbuotining dastlabki namunalar bo‘lishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, milliy uyg‘onish (jadidchilik) nihoyatda tez rivojlandi. Milliy uyg‘onish (jadid adabiyoti) mazkur harakatlarning adabiy-badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. U yangi o‘zbek adabiyotini boshlab berdi. Uning avj taraqqiysi 1915-1925-yillarga to‘g‘ri keldi. Shulardan kelib chiqqan holda o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotini ikki bosqichga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi (1865-1905).

Milliy va ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi (1905-1929) (Qosimov, 2002). Bundagi har bir sana muayyan ma’no anglatadi. 1865-yil – Toshkent istilo qilingan sana. 1929-yil esa tarixda jadidchilik harakatining sho‘rolar siyosati tomonidan mahv etilishi sanasi sifatida muhrlangan. Jadid – arabcha so‘z bo‘lib, yangi degan ma’noni anglatadi va bu so‘z 1883-yilda birinchi yangi usul maktabi ochilishi bilan qo‘llanila boshlagan. Jadidchilik – XIX asr so‘nggi choragida Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiladigan turkiy xalqlar orasida paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy harakat nomi. Keng ma’noda ijtimoiy-ma’naviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni ko‘zda tutadi. Jadidchilik Turkiston ijtimoiy fikri taraqqiyotida islomchilik (panislomizm), turkchilik (panturkizm) va mahalliychilik (o‘zbekchilik) ko‘rinishlarida ham namoyon bo‘lgan.

Milliy uyg‘onish davrining yirik namoyandasi Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on

oyinayi hayoti til va adabiyotidir” deb yozganidek, bu davrning ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, birinchi navbatda, uning adabiyotida to’la o’z ifodasini topdi, badiiy adabiyotda tub sifat o’zgarishlar sodir bo’la boshladi:

“Xomam to’ki-yu xuni jigardin g’azaliyot,

Oyinayi har millat erur til-adabiyot” (Avloniy, 2006).

Jadidchilikning ikkinchi davri yuzaga kelish omillari quyidagicha izohlanadi:

- 1) 1904-yilda rus-yapon urushi. Rusiya mag’lubiyati;
- 2) 1905-yilda hukumatga qarshi g’alayonlar. Nikolay II ning tobe millatlarga so’z, matbuot, vijdon erkinligini va’da etuvchi 17-oktabr Manifesti;
- 3) Birinchi jahon urushi va Turkistondagi mardikorlik voqealari;
- 4) 1917-yil 27-noyabrda Turkiston muxtoriyatining e’lon qilinishi va qonga botirilishi.

XX asrning 80-yillari o’rtalaridan boshlangan demokratik oshkoralik va qayta qurish jadidchilik harakati haqida cheklangan holda bo’lsa ham ba’zi haqiqatlarni aytish imkonini berdi. Shu nuqtayi nazardan, 1987-yilda O’zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida, 1989-yilda O’zFA va Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda Turkistonda jadidchilik harakatiga bag’ishlangan sobiq ittifoq miqyosida ilmiy anjumanlar o’tkazildi. Ushbu yig’ilishlarda jadidchilik harakatini hamma ijtimoiy-siyosiy va gumanitar fanlar hamkorligida o’rganish kerakligi ta’kidlandi.

Faqat Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyingina ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda ham tub sifat o’zgarishlar amalga oshirildi: markazdan kelgan andozalar asosida emas, bor haqiqatni aytish, o’z tariximizni o’zimiz yaratish imkoniyatiga ega bo’ldik. Jadidchilik harakati, uning tub mohiyati, buyuk rahnamolari va namoyandalari haqida keng ko’lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu davr adabiyotining xos xususiyatlariga akademik N.Karimov mana bunday bahoberadi: “XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug’ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik ko’p qon to’kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolasizliklar ro’y bergan bo’lmasin, insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi. Bu asrda sodir bo’lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo’lmagan qismlarini yoddan chiqarishga, tarixdan o’chirishga urinish bema’nilikdir. XX asr o’zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o’rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo’lmagan. XX asr o’zbek adabiyoti xalq va jamiyatni o’z ortidan yetaklab, ularni hurriyat va milliy taraqqiyot manzillariga olib borishga intildi va bu intilishda muayyan yutuqlarga erishdi”

(Karimov, 2001).

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi adabiy jarayonlar hamda ijtimoiy voqealar o'ziga xos murakkablik va yangilanishlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda adabiyot faqat badiiy ijod emas, balki jamiyatning turli muammolarini yorituvchi kuchli ijtimoiy omilga ham aylangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida aytish joizki, bu davrda dunyo bo'ylab ijtimoiy-siyosiy voqealar o'ta keskin tus oldi. Xususan, Rossiyada 1905–1907 yillardagi inqilobiy harakatlar jamiyatdagi bosim va norozilikni oshirdi. O'zbekiston va Turkiston o'lkasida mustamlakachilik rejimi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Milliy boyliklarning talon-taroj qilinishi, mahalliy xalqning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlardan mahrum etilishi yozuvchi va shoirlarning asarlarida keng aks etdi. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining “Turkiston qayg'usi” she'rida xalqning og'ir ahvolini va millatni uyg'otishga qaratilgan fikrlarini bayon etdi; Munavvarqori Abdurashidxonov o'z maqola va she'rlari orqali ma'rifat va uyg'onish g'oyalarini keng targ'ib qildi; Abdulla Qodiriy “O'tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlarida milliy o'zlik, tarixiy xotira va ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiqdi; Fitratning “Sayyohning xotiralari” asari esa milliy ong va mustaqillik g'oyalarini targ'ib etgani bilan muhim ahamiyat kasb etdi.

Jadidchilik harakati – bu davrning eng muhim hodisalaridan biri bo'lib, adabiyot va madaniyat sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Demak, jadidchilik:

- 1) jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi;
- 2) mustaqillik uchun kurash olib bordi. (Turkiston muxtoriyati);
- 3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqdi.

Milliy uyg'onish davrida Turkiston hududida jadidchilik harakati ijtimoiy hayotda muhim o'zgarishlarni boshlab berdi. Jadid yozuvchilar ta'lim, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishni maqsad qilgan edilar. Matbuot va nashriyot faoliyati rivojlana boshladi. “Turkiston viloyati gazetasi”, “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna” kabi gazeta-jurnallar ilmiy-ma'rifiy fikrlarni tarqatishda muhim o'rin tutdi.

Jadid asarlarida xalqni uyg'otish va ma'rifatparvarlik bosh mavzu bo'ldi. Masalan, bu davr adabiyotining o'ziga xos muhim xususiyatlari:

1. Ayollar mavzusi va ijtimoiy tengsizlik.

Bu davrda ayollar masalasi ijtimoiy hayot va adabiyotda muhim mavzulardan biriga aylandi. Xususan, ayollarning ta'lim olish huquqi, ularning jamiyatdagi o'rni masalalari ko'tarildi. Ayollar

huquqlari uchun kurash jadid adabiyotida keng o‘rin oldi. Masalan, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, “Boy ila xizmatchi” va “Paranji sirlarining fosh etilishi” asarlarida ayollar huquqlari va ularni jamoatchilik hayotiga jalb qilish zaruriyati yoritilgan. Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?” pyesasida ham ayollar mavzusi va ijtimoiy tengsizlik qalamga olingan.

2. O‘zbek adabiyotidagi modernizatsiya.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida adabiy janrlar kengayib, yangi badiiy usullar paydo bo‘ldi. She‘riyatda yangi ritm va qofiya shakllari rivojlandi. Nasr janri, ayniqsa roman va hikoya, jadal rivojlandi. Misol uchun Abdurauf Fitratning “Hind iqlimi” va “Chin sevish” asarlari o‘z davri uchun modernistik yo‘nalishdagi ijodiy tajribalar hisoblanadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek nasrining boshlanishi sifatida qadrlanadi.

3. Ijtimoiy-siyosiy tazyiqlar va ularning adabiyotga ta‘siri.

Mustamlaka davridagi siyosiy tazyiqlar adabiyotga ham sezilarli ta‘sirini ko‘rsatdi. Masalan, “Turon” gazetasida Abdulla Avloniy muharrirligi ostida chop etilgan “Tarixiy ikki voqea” nomli Mirmuhsin Shermuhamedovning maqolasida Buxorodagi jaholat va mutaassiblik fosh etiladi. Maqola atrofida katta janjal ko‘tariladi va “Ulamo” jamiyati maqoladan qattiq g‘azabga keladi. Ulamolar Avloniyni vazifasidan chetlatishadi. Matbaa egalarining uylariga vakillar yuborib, “Agarda siz Avloniy gazetasin matbaangizda bossangiz, o‘lsangiz sizga janoza o‘qutmasmiz” deb qo‘rqitib, Avloniyni ham gazetadan ketishga majbur qilishadi. Ba‘zi yozuvchilar senzura va ta‘qiblar tufayli asarlarida ramziy obrazlar orqali davr manzarasini tasvirlashdi. Ko‘pgina jadid yozuvchilari, jumladan, Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat va Hamza ijodida ijtimoiy hayot tasviri allegorik timsollar orqali yoritildi va masal janri yanada takomillashdi.

She‘riyatda yangi g‘oya va timsollar uchun yangi shakl va ifoda yaratildi. Eskilariga yangi mazmun singdirildi, ya‘ni g‘azallar faqat ilohiy ishqni madh etibgina qolmadi, balki Vatan ishq, yurt sog‘inchi, ilm-ma‘rifat targ‘ibini kuylash bilan mavzular ko‘lami kengaydi. Davr adabiyotining xos xususiyatlari:

1. Adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishi.

Ma‘lumki, ming yillik mumtoz she‘riyatimiz aruz vaznida yozilgan. Asr boshidagi she‘riyatda ham u yagona va asosiy vazn sanalgan. Barmoq vazni esa Navoiygacha bo‘lgan va undan keyin yaratilgan xalq og‘zaki ijodida uchraydi. Mumtoz adabiyotimizda esa barmoq vaznida yozilgan she‘rlar deyarli uchramaydi. Aruz murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarni keng ommaga yetkazishda uncha qulay emasligi bois XX asr boshlarida adabiyotda barmoq vazni ommalashgan. Xalqona ohang orqali barmoq vaznidagi she‘rlarda ommaga tushunarli bo‘lgan muhim siyosiy vaziyatlar qalamga olingan. Abdulla Avloniy ham muhim

ijtimoiy masalalardan bahs ochuvchi ko'pgina she'rlarini barmoq vaznida yozadi. Shoir barmoq vaznini xalq og'zaki ijodidan yozma adabiyotga olib o'tdi. Avloniyning barmoqdagi ilk she'rlari xalq qo'shiqlariga moslab yozilgan. Masalan, "To'y haqida" she'ri "Reza" kuyidagi xalq ashulasi yo'lida yaratildi:

Otma mani toshlar bilan yor-yor, yor-o'v, Uchib ketay
qushlar bilan yor-yor, yor-o'v (Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2006)

Bu qo'shiqlar shoir tashkil qilgan "Turon" (Turkiston) truppasi ishtirokchilari ijrosida goh spektakllarga singdirib yuborilar, goh antraktlarda ijro etilar, goh milliy konsert dasturlariga kiritilar edi.

2. Yangicha yo'nalishdagi hajvchilik, she'riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi yaratildi.

3. Bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo'lga qo'yilishi, o'qitish tizimidagi yangiliklar. Bu boradagi yutuqlarga Avloniyning qo'lyozma asarlari 1909-1914-yillarda Toshkentdagi "Ilin", "Orifjonov", "Porsev" kabi litografiyalarda chop etilgani misol bo'ladi. Matbuotning yo'lga qo'yilishida Avloniyning "Shuhrat" gazetasidagi faoliyati va boshqa gazetalar nashrida muharrir sifatidagi xizmati beqiyos ekani ma'lum.

4. Tarjimachilik rivoji, Sharq va G'arb adabiyotidan tarjimalar. J. Sharipovning "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar" kitobida L. N. Tolstoy tarjimalari munosabati bilan qadim Sharq folkloridagi ma'lum va mashhur hikoyatlar tarjima etilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy ham Krilovning "G'ayrijins ittifoq", "Tulki ila serka", "Maymun ila ko'zoynak", "It ila yo'lovchi" kabi masallarini she'riy usulda tarjima etgan.

5. Poetik obrazlarning yangilanishi. Masalan, mumtoz adabiyotimizda ming bu davr adabiyotida, jumladan, Avloniy ijodida boshqacha ohang, boshqacha mazmun kasb etdi.

6. She'rlarning sarlavhalanishi. Masalan, Avloniy har bir she'rga sarlavha qo'yadi. Bu undagi kayfiyat va mazmunni ifodalashdan tashqari shoir lirikasining umumiy yo'nalishini belgilaydi. Masalan, "Haqiqat o'lsun bu xayol", "Guftori g'am", "G'alat" kabi she'rlari sarlavhalangan.

7. An'anaviy "Hamd" va "Na't"lar mazmuni va shaklining o'zgarishi. Masalan, Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami juzlari ham odatda, 33 baytli g'azal Alloh madhi (Hamd) va payg'ambarimiz sifatleri vasfi (Na't) esa

8. bandli musamman janri bilan boshlanadi.

XX asr boshlaridagi adabiy jarayonning asosiy yo'nalishlari quyidagicha, ya'ni bu davr adabiyoti quyidagi o'ziga xos g'oyaviy-estetik yo'nalishlar bilan ajralib turadi: Birinchidan, jadid adabiyoti milliy uyg'onish, ta'lim-tarbiya va ma'rifatparvarlik

g'oyalari bilan boyidi. Ikkinchidan, realizm jamiyat hayotini haqqoniy aks ettirishga e'tibor qaratildi. Uchinchidan, romantizm idealistik maqsadlar va milliy o'zlikni anglash istagi bilan bog'liq edi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z asarlarida xalqning savodsizligi va ma'naviy qoloqligini keskin tanqid qildi. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasida ayollarning huquqlari masalasi yoritildi. Cho'lpon o'zining she'rlari va hikoyalari orqali erkinlik va inson huquqlari masalalariga murojaat qildi. Shuningdek, uning "Kecha va kunduz" romani ijtimoiy tengsizlikni aks ettiradi.

Boy madaniy-adabiy merosimizni birlamchi manbalar asosida o'rganish va tadqiq etish, ulardan hozirgi mustaqillik sharoitida ma'naviyatimizni, milliy tarbiyashunosligimizni rivojlantirishda foydalanish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xulosa:

1. Abdulla Avloniy ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari uning ma'rifatparvar shoir va yozuvchi sifatidagi faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Avloniy o'z asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqdi va millatning o'zligini anglash, madaniyat va ma'rifatga intilish masalalariga alohida urg'u berdi.

2. Avloniyning nasriy asarlarida ham o'z davridagi ijtimoiy muammolar, xalqning turmushi va ularning dardlari ifodalangan. U nasrda o'ziga xos uslub yaratib, xalq hayotini tasvirlashda realizmga asoslangan. Nasriy asarlari orqali Avloniy xalqning muammolarini yoritib, o'quvchilarni bu muammolar haqida o'ylashga va ularga qarshi kurashishga chorlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Karimov, I. A. (2009). Adabiyotga e'tibor, ma'naviyatga, kelajakka e'tibor, Toshkent: O'zbekiston, 40 b.

Karimov, I. A. (1998). Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, Milliy tiklanish, Toshkent, 18-avgust soni.

Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat, 176 b.

Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz, Toshkent: O'zbekiston, 485 b.

Mirziyoyev, Sh. M. (2018). Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, Toshkent: O'zbekiston, 592 b.

Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir, Toshkent: Tasvir, 36 b.

Muallif haqida:

XOMIDOVA Guljahon — Namangan davlat universiteti magistranti

THE PLACE OF ABDULLA AVLONI'S WORK IN THE
DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN LITERATURE DURING THE
NATIONAL REVIVAL

Abstract: This master's thesis covers the ideological and thematic aspects of the work of the poet, playwright, patron of spirituality and enlightenment, progressive educator, journalist, translator and writer Abdulla Avloni. In addition, issues such as the scope and genre characteristics of the works, formal and stylistic research in the depiction of poetic images, stylistic originality in the expression of artistic movement and individual image skills are analyzed.

Keywords: Social life, modern, education, traditional style, style of education, October manifesto

About the author:

XOMIDOVA Guljahon — Master's student at Namangan State University

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHNING
O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI

Islom Asilbekov,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) faoliyatida O'zbekistonning o'rni va ahamiyatini tahlil qilinadi. Jumladan, TDTning maqsadlari, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona aloqalar, O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lish tarixi va uning ushbu tashkilotdagi strategik roli haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalaridagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilinadi.
Kalit so'zlar: Turkiy davlatlar tashkiloti, O'zbekiston, Turkiya, iqtisodiy hamkorlik, madaniy aloqalar, siyosiy hamkorlik, mintaqaviy integratsiya.

Turkiya va O'zbekistonni azaldan mushtarak tarix, madaniyat va til bog'lab keladi. Ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik munosabatlari mustaqillik yillarida yana-da mustahkamlandi. Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlatlardan bo'lib, ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o'rnatilgan. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarida keng rivojlanmoqda. O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga (TDT) 2019-yilda a'zo bo'lishi esa bu munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu tashkilot turkiy xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, savdo, transport va madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekistonning tashkilotga qo'shilishi bilan uning mintaqaviy va xalqaro siyosatda tutgan o'rni yana ham mustahkamlandi.

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.105>

Turkiy davlatlar o'zining san'ati, madaniyati, adabiyoti hamda sohaga beqiyos hissa qo'shgan buyuk shaxslari bilan dunyoga mashhurdir. Shu nuqtai nazardan Turkiy davlatlar tashkilotining har bir sammitida madaniy hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bugungi kungacha ham tashkilot doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelmoqda.

O'zbekistonning tashkilotdagi roli haqida gap ketar ekan, Turkiy davlatlar tashkilotining kelib chiqishi haqida to'xtalib o'tish lozim. Tashkilot 2009-yilda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya davlatlari tomonidan tashkil etilgan. TDTning tashkil etilishidan asosiy maqsad:

Turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

Transport va logistika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish;
Madaniy merosni asrash va targ'ib qilish;

Regional barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdan iboratdir. XX asr oxirlarida jahon siyosatida vujudga kelgan butunlay yangi tizimni tashkil etuvchi geosiyosiy shart-sharoitlar va vaziyat, ya'ni turkiy tilda gaplashuvchi O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston singari suveren davlatlarning paydo bo'lishi hisoblanadi. Mustaqillik ular uchun tarixiy aloqalarni qayta tiklash va munosabatlarning yangi shakllarini yaratishga olib keldi.

Turkiy davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-gumanitar sohalardagi o'zaro aloqalarini yo'lga qo'yish va ularni rivojlantirish masalalari ham tashkilotning oldida turgan asosiy vazifalaridan biridir. Avvallari u yoki bu darajada bunday aloqalar bo'lgan, lekin Rossiya imperiyasining Turkistonga kirib kelishi va keyinroq sobiq SSSR turkiy davlatlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishga izn bermagan. O'sha paytda ayrim madaniy-gumanitar sohalarda protokol xususiyatiga ega aloqalar ham faqat markazning ruxsati bilan amalga oshirilgan. Yoki boshqacha aytganda, barcha munosabatlar faqat markazning manfaatlariga bo'ysundirilgan.

Yana bir asosiy sabablardan biri haqida so'z yuritilganda, Turkiyani esga olish, e'tirof etish kerak. Yirik geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan bu davlat bilan ham aloqalar sun'iy tarzda ta'qiqga uchragan edi. Turkiyaning o'zida esa o'zaro aloqalarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha harakatlar dasturi doim mavjud bo'lgan. Birinchilardan bo'lib, mazkur davlatlarning mustaqilligini tan olgan va boshqa mamlakatlarni ham bunga da'vat etgan edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Turkiyaning qavmdosh davlatlar bilan munosabatlarni manfaatlar asosida uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy harakatlari turkiy tilda gaplashuvchi davlatlar kengashini tuzishga olib keldi.

Tashkilotning transformatsiyaga uchragani esa yangi

davrning talab va rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib Turkiy davlatlar tashkilotiga aylantirilishi bo'ldi. Uning doirasida "Turkiy dunyoning qiyofasi – 2040" dasturi ishlab chiqildi (Sultonova, 2021) va uni amalga oshirish platformasi qabul qilindi.

O'zbekistonning TDTga qo'shilishi mamlakat uchun bir qator strategik imkoniyatlarni yaratib beradi (G'ulamov, 2022). Samarqandda o'tkazilgan Sammitda ishtirok etgan TDSHU professori, siyosiy fanlar doktori Jo'rayev Sayfiddin Axmatovichning fikrlariga ko'ra, O'zbekiston dunyoning rivojlangan ellikta davlati qatoriga kirishiga imkon beradigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda jamiyatimizning barcha sohalarda modernizatsiya jarayonlarini kuchaytirish; xalqimizning milliy o'zligi, tarixiy o'tmishi, tili, madaniyati va ma'naviyati bilan bog'liq azaliy qadriyatlarni qo'shimcha vositalar bilan mustahkamlashga keng yo'l ochib beradi (2022).

Xalqaro va mintaqa miqyosdagi ilgari surayotgan tashabbuslari va takliflari hamda do'stona va tinchlikparvar tashqi siyosatini amalga oshirishda yana bir yirik mintaqaviy xalqaro tashkilot orqali qo'shimcha qulayliklarga va imkoniyatlarga ega bo'ladi. Qolaversa, Tashkilot doirasida ko'p tomonlama hamkorlikdan ikki tomonlama rivojlantirish imkoni yaratiladi.

Tashkilotga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlar o'rtasida nafaqat madaniy-ma'naviy aloqalar, balki savdo-iqtisodiy munosabatlarning ham yangi bosqichga ko'tarilishiga hamda o'zaro bordi-keldilar, qardoshlik qadriyatlarini qayta tiklash va mustahkamlashga, rivojlantirishga, vizasiz tartib asosida turistlar oqimini yanada oshirish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, asosiy omillardan biri Istanbulda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi platformasi yaratilganidan keyin Samarqanddagi sammitga a'zo-mamlakatlar rahbarlarining yangi formatdagi birinchi uchrashuvi bo'ladi (Qurbonov, 2022). Qolaversa, bunday salohiyatga va imkoniyatlarni yuqoridagi qadriyatlar asosida bir Tashkilot doirasida jamlash va ijobiy tomonga yo'naltirish hozirgi beqaror geosiyosiy sharoitda strategik ahamiyatga ega. Chunki bunday sharoitda hamjihatlilik va birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hozirgi dunyoda yuzaga kelayotgan noaniqliklarni barcha sinov va tahdidlarni osonlik bilan yengib o'tish hamda mavjud muammolarni yechishga yordam beradi.

O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtiroki mamlakatning iqtisodiy va siyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. TDT doirasidagi hamkorlik nafaqat turkiy davlatlarning birligini mustahkamlaydi, balki xalqaro maydonda ularning rolini oshiradi. O'zbekiston o'zining strategik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va boy madaniy merosi bilan TDTning faol

ishtirokchisi bo'lib, turkiy davlatlar integratsiyasiga katta hissa qo'shmoqda.

Xususan, turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, umumiy moddiy va madaniy merosni asrab-avaylashni o'z oldiga maqsad qilgan — Turk madaniyati xalqaro tashkiloti (TURKSOY) faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Shuningdek, Turk dunyosini tadqiq etish, til va adabiyotini keng o'rganish, ilmiy va ta'lim faoliyatini chuqurlashtirish bo'yicha xalqaro ilmiy markaz ya'ni Xalqaro turk akademiyasi tashkil etilgan. Mazkur akademiya 40 ga yaqin ilmiy-tadqiqot institutlari, tarix va madaniyat markazlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan bo'lib, yuzdan ortiq turkshunos olimlar loyihalarda muntazam ishtirok etib kelmoqda. Akademiya qoshida 5 ta ilmiy muassasa — Tarix va etnologiya markazi, Til, adabiyot va atamashunoslik markazi, San'at va madaniyat markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar marazi, Xalqaro tadqiqotlar markazi faoliyat ko'rsatmoqda (Karimov, 2025).

Bundan tashqari, Turk madaniyati va merosi jamg'armasi ham tashkil etilgan bo'lib, turkiy xalqlar madaniyati va san'atini rivojiga xizmat qiladi. Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan adabiyot va san'at sohasiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi, shoir va san'at sohasi ijodkorlarini nomlarini ulug'lab kelinmoqda. Xususan, qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov yili (2018), qozoq shoiri Abay Kunanbayevning 175 yilligi, shuningdek, boshqa turk dunyosining faxri bo'lgan san'at darg'alarining yubiley yillari nishonlandi (Izattullayev, 2022).

Turkiy xalqlar o'zining qadimiy va boy obidallari bilan dunyo e'tiborini o'ziga jalb etadi. Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan an'ana sifatida a'zo davlatlar shaharlari Turkiy dunyo madaniy poytaxti, deb e'lon qilib kelinadi. Hozirgi vaqtda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi Turkiy universitetlar Ittifoqi faoliyat olib bormoqda hamda Yoshlar festivallari, Turkiy yoshlar lageri va Turkiy davlatlarning yosh diplomatlari uchun kurslar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. 2018-yilda Boku shahrida Turkiy kengashning birinchi talabalar o'yinlari (Turkiya Universiadasi) bo'lib o'tdi. Butunjahon ko'chmanchilar o'yinlarining muntazam o'tkazilishi ham turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi madaniy-tarixiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Madaniy sohada hamkorlikning yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, uning turizmni rivojlantirishdagi hissasi juda katta. Xususan, so'nggi yillarda ayniqsa a'zo davlatlar turizmni rivojlantirish bo'yicha jiddiy ahamiyat qaratishmoqda. Mazkur yo'nalishni mamlakat iqtisodiy o'sishda asosiy tayanch va yo'nalishlarga aylantirishga harakat qilishmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Turkiy davlatlar tashkiloti qardosh xalqlar o'rtasidagi turizmni rivojlantirish ayniqsa katta ahamiyat qaratadi.

Ushbu sohada “Zamonaviy ipak yo‘li” maxsus qo‘shma loyihasi ishga tushirilgan bo‘lib, u a‘zo mamlakatlarning madaniy va tarixiy shaharlariga 14 kunlik sayohatni o‘z ichiga oladi. Tashkilot yoshlarga sayohat qilish, tengdoshlari bilan uchrashish va turli sohalarda zamonaviy va istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Izattullayev, B. (2022). Umumiy madaniy rishtalar – turkiy davlatlar hamkorligining poydevori, xabar.uz. URL: <https://xabar.uz/uz/post/umumiy-madaniy-rishtalar-turkiy-davlatlar-ham?category=madaniyat>

Karimov, F. (2025). Turkiy davlatlar integratsiyasi masalalari va rivojlanish istiqbollari. Культура, отношения, философия туркоязычных народов: история, сегодня и будущее, 1(1), 261–264. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/txmfbtk/article/view/61605>

Sultonova, E. (2021). Turkiy dunyo nigohi – 2040, xabar.uz. URL: <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/turkiy-dunyo-nigohi-2040>

Qurbonov, D. (2022). Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand sammiti haqida, uza.uz. URL: <https://uza.uz/oz/posts/turkiy-davlatlar-tashkilotining-samarqand-sammiti-haqida>

O‘zbekiston va Turkiy davlatlar tashkiloti. Shavkat Mirziyoyev qanday tashabbuslarni ilgari surgan? (2022). daryo.uz. URL: <https://daryo.uz/2022/11/09/ozbekiston-va-turkiy-davlatlar-tashkiloti-shavkat-mirziyoyev-qanday-tashabbuslarni-ilgari-surgan>

G‘ulamov, A. (2022). Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a‘zolikning O‘zbekistonga afzal tomonlari, uza.uz. URL: https://uza.uz/oz/posts/turkiy-davlatlar-tashkilotiga-azolikning-ozbekistonga-afzal-tomonlari_423908

Muallif haqida:

ASILBEKOV Islom Egamberdi o‘g‘li — O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti, asilbekovislom6@gmail.com

THE IMPORTANCE OF MEMBERSHIP IN THE ORGANIZATION OF TURKISH STATES FOR UZBEKISTAN

Abstract: This article is dedicated to analyzing the role and significance of Uzbekistan in the activities of the Organization of Turkic States (OTS). The article provides detailed information about the goals of the OTS, the friendly relations between Turkey and Uzbekistan, the history of Uzbekistan's membership in the organization, and its strategic role within this organization. Furthermore, the prospects for cooperation in economic, cultural, and political spheres are examined.

Keywords: Organization of Turkic States, Uzbekistan, Turkey, economic cooperation, cultural relations, political cooperation, regional integration

About the author:

ASILBEKOV Islom Egamberdi o‘g‘li — Master’s student at the University of Journalism and Mass Communications, asilbekovislom6@gmail.com

TAFAKKUR VA SATIRA: JADID MATBUOTIDAGI GONZO ELEMENTLARI

Nodira Suleymonova, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid matbuoti davrida chop etilgan tanqidiy maqolalar, feleton, pamflet, karikatura va gonzo uslubi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilinadi. Jadid matbuoti XIX asr oxiri va XX asr boshida millatni savodli qilish va jamiyatdagi muammolarni tanqid qilishga qaratilgan ma'rifiy harakat sifatida ko'rib chiqilgan. Gonzo jurnalistikasi esa subyektivlik va shaxsiy tajribaga asoslangan modern jurnalistik uslub sifatida taqdim etiladi. Maqolada ushbu ikki yo'nalishning asosiy tamoyillari, uslublari va ta'sir doiralari o'rganilib, ularning zamonaviy jurnalistikaga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi jurnalistika tendensiyalari va bu ikki yondashuvning zamonaviy shakllari orasidagi bog'liqlik ham ko'rib chiqiladi.

Kalitso'zlar: jadid matbuoti, feleton, pamflet, karikatura, gonzo jurnalistikasi, tanqidiy jurnalistika, subyektivlik, satira, zamonaviy jurnalistika

Jadid matbuoti davrida chop etilgan tanqidiy maqolalar, feleton, pamflet, karikatura va gonzo jurnalistikasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, xususan, jadid matbuotidagi tafakkur va satira orqali gonzo elementlarini aniqlash o'zbek jurnalistikasi uchun topilma bo'ladi. Gonzo jurnalistikasi subyektivlik, shaxsiy tajriba va hissiyotlarni aks ettirishga urg'u beradi. Jadid matbuoti esa milliy uyg'onish davrida xalqni ma'rifatga chorlagan, tanqidiy fikr va satira orqali jamiyatdagi muammolarni yoritgan.

Jadid matbuoti davrida "Taraqqiy" gazetasi millatni jaholatdan chiqarish, ilm-ma'rifatga chorlash maqsadida tashkil etilgan. Bejizga gazetaning birinchi sonida tahririyat nomidan e'lon qilingan maqolada: "Biz musulmonlarni(ng) hurriyatda haqlari bormu? Yo'q! Qarindoshlar, yuz marotaba yo'q!" (Do'stqorayev, 2009) degan so'zlar epigraf sifatida tanlab olinmagan. Bu orqali millatning hurriyat va taraqqiyotdan ortda qolganligi tanqid qilingan. Gazetaning dastlabki sonlarida Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Bizning jaholat – jahli murakkab" maqolasida millatning jaholatda qolishiga asosiy sabab ta'lim-tarbiya usulining zamon talablariga javob bermasligi ekanligini ta'kidlaydi. U o'qitish usulini isloh etish hayotiy ehtiyoj ekanligini uqtiradi. Bunda muallif shaxsiy tajribasi va kuzatuvlari natijasida shaxsiy fikrlarini jamiyat ehtiyoji va manfaati rivoji uchun tanqidiy bildiradi.

Gonzo jurnalistikasi va jadidlar yozgan tanqidiy maqolalar, feleton, pamflet, karikaturalar uslubga xos o'xshashliklar keyingi tahlillarda yaqqol ko'rinadi. Gonzo jurnalistikasi subyektiv yondashuv, shaxsiy tajriba va hissiyotlarni aks ettirish orqali o'quvchiga ta'sir o'tkazadi. Jadid matbuotida ham jadidlar shaxsiy fikr va tajribalarni, tanqidiy yondashuvni qo'llab, jamiyatdagi

muammolarni yoritgan. Masalan, Ismoil Obidiy “Taraqqiy” gazetasida millatning jaholatda qolish sabablarini shaxsiy kuzatuvlari orqali bayon etadi. “Gazetamiz “Taraqqiy” isminda o‘lub, bora-bora jismi ham ismiga muvofiq o‘lub, millatimizni keyin qolmog‘ig‘a, jaholat va g‘aflati oliyda o‘lub, boshqa millatlardan kam darajada qolmog‘ig‘a aslo rozi emasmiz... Binoan alayh gazetamizning najotimizg‘a, dunyo va oxiratda mas‘ud o‘lmoqimizg‘a yolg‘uz ilm bobidir, demak birinchi vazifasidir” (Do‘stqorayev, 2009).

Jadid matbuoti vaqtida e‘lon qilingan tanqidiy, hajviy ruhdagi maqolalar, gonzo uslubida yozilgan materiallar va zamonaviy jurnalistikada obyektivlik susayib subyektivlik birinchi o‘ringa chiqayotgan bir davrda bu uchchalasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish dolzarb mavzu bo‘lib, mualliflarning uslubi, maqsadlari hamda ta’sir doirasini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Jadid matbuoti XIX asr oxiri va XX asr boshida milliy uyg‘onish harakatining ajralmas qismi sifatida shakllandi, bunda jadidlarning tanqidiy maqolalari, feleton, pamflet, karikaturalari ommabop, tushunarli, ta’sirli bo‘lgan. Bu davrda matbuot ma’rifiy targ‘ibotchi sifatida xalqni savodli qilish va ilm-fan rivojiga qaratilgan. Tanqid va satira jihatidan esa jadidlar jamiyatdagi muammolarni ochiq tahlil qilish va ularni tanqid qilish orqali yechim taklif etganlar. Bu borada ilmiy, ziyoli jadidlar o‘z shaxsiy yondashuvlarini erkin fikr va kuzatishlariga asoslangan maqolalar bilan ajralib turganlar. Ismil Obidiy, Munavvarqori, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Qodiriy kabi jadidlar o‘z maqolalarida jamiyatdagi qoloqlikni tanqid qilib, modernizm va ta’lim islohotlarini targ‘ib qiladilar.

Gonzo jurnalistikasi XX asrning 60-70-yillarida Hunter S. Thompson tomonidan ommalashgan subyektiv jurnalistika uslubi hisoblanib, subyektivlik va hissiy yondashuv ya’ni jurnalist o‘z hikoyasining markazida bo‘lib, shaxsiy tajriba orqali voqeani hikoya qiladi (John, 2020). Reallikni buzib ko‘rsatishda yolg‘on yoki bo‘rttirilgan voqealar orqali chuqurroq haqiqatga e’tibor qaratilishga erishgan. Bu yo‘nalish o‘zida eksperimental uslubdan foydalanib, matnda badiiy usullar va ichki monologlardan, sarkazmdan keng foydalandi.

Jadid matbuoti davrida gazeta-jurnallarda chop etilgan feleton, pamflet, karikaturalar va gonzo jurnalistikasidagi uslubga xos xususiyatlar quyidagi jihatlarida bir-biriga o‘xshaydi:

- subyektivlik: ikkalasi ham shaxsiy tajriba va fikrlarni ifodalashga asoslangan.
- jadid matbuotida tanqidiy maqolalar (feleton, pamfletlar): mualliflar o‘z kuzatuvlari va mulohazalarini jamiyatga yetkazgan.
- gonzo uslubidagi maqolalarda: jurnalist voqealar markazida bo‘lgan va his-tuyg‘ularini hikoyaga qo‘shgan.

- tanqidiy yondashuv: har ikkala maqoladagi uslub jamiyatdagi muammolarni ochiq va radikal tarzda tahlil qilgan.
- o'ziga xos uslub: standart jurnalistika chegaralaridan chiqish.

Bugungi jurnalistikadagi tendensiyalar va Gonzo jurnalistikasi hamda jadid matbuotidagi ayrim yondashuvlarining zamonaviy shakllarini tahlil qilish uchun bir nechta yo'nalishlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Subyektiv jurnalistika va blog platformalaridagi tendensiya: bugungi kunda shaxsiy tajriba va subyektiv yondashuv asosida hikoya qilish ommalashmoqda. Bloglar, vloglar va podkastlar bu tendensiyaning yorqin ko'rinishidir (Коновалова, 2012). Misol uchun, O'zbekistonlik bloggerlar "YouTube", "X" yoki "Instagram" ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z shaxsiy hikoyalari, kuzatuvlari va jamiyatdagi muammolarni yoritib, ko'plab auditoriyani jalb qilmoqda. Bu Gonzo jurnalistikasining "jurnalist voqea markazida bo'lishi" tamoyiliga mos keladi.

2. Surishtiruv (Investigative) jurnalistikasidagi tendensiya: zamonaviy jurnalistikada chuqur tahlil va tadqiqotga asoslangan maqolalar muhim o'rin tutadi. Investigativ jurnalistika jamiyatdagi korrupsiya, nepotizm, iqtisodiy jinoyatlar, ijtimoiy muammolar va siyosiy masalalarni ochib berishga qaratilgan. Bunga jahon miqyosida "Panama Papers" yoki "Pegasus Project" kabi surishtiruv kompaniyalari yoki mahalliy miqyosda o'zbekistonlik mustaqil jurnalistlarning iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yorituvchi surishtiruv materiallari misol bo'la oladi.

3. Emojilar va qisqacha kontent(mem)lar satirik va kreativ uslublardagi tendensiya hisoblanib, bugungi jurnalistikada satira, yumor va kreativ yondashuvlarni targ'ib qiladi. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda va yangi platformalarda ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, o'tkir va ta'sirchan kontentlar (masalan, memlar yoki emojilar) auditoriyaning e'tiborini jalb qilishda asosiy vositaga aylangan. Siyosiy yoki ijtimoiy mavzudagi kulgili, ammo mazmunli memlar orqali fikr bildirish ommalashgan. Bu Gonzo jurnalistikasining provokatsion va ijodiy elementlariga mos keladi. Jadid matbuotidagi satirik maqolalarda ham o'sha davrda fikr uyg'otish va muhokama qo'zg'atish maqsadi ko'zlagan.

4. Fuqarolik jurnalistikasi va axborotning tezkor tarqalishidagi tendensiya: fuqarolik jurnalistikasi aholining bevosita voqealarni yoritishida muhim rol o'ynamoqda. Bu uslub orqali oddiy fuqarolar ham jurnalist sifatida faoliyat olib borishi mumkinligini ko'rsatadi (Winston, 2013). Mahalliy voqealar yoki ijtimoiy muammolarni yorituvchi ijtimoiy tarmoq sahifalari fuqarolik jurnalistikasini shakllantirishi uchun qulay platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Jadid matbuotining asosiy maqsadi ham xalqni faollikka undash va ma'rifatni kengaytirish

bo'lgan. Fuqarolik jurnalistikasi bu an'anani texnologiya orqali rivojlantirib, keng auditoriyaga erishmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jadid matbuoti davrida yozilgan tanqidiy maqolalar, feleton, pamflet, karikaturalar va gonzo uslubida talqin qilingan materiallarning har ikkisi o'z davrining inqilobiy uslublarini ifodalagan hamda shaxsiy tajriba va hissiyotlar orqali jamiyatdagi muammolarni yoritishga intilgan.. Jadid matbuotidagi tafakkur va satira elementlari gonzo jurnalistikasining subyektiv yondashuvi bilan hamohangdir. Bu jihatdan jadidlar yozgan feleton, pamflet, karikaturalarni gonzo jurnalistikasining ilk ko'rinishlarisifatidako'rish mumkin. Bugungi zamonaviy jurnalistika esa ushbu an'analarni rivojlantirib, yangi texnologiyalar yordamida kengaytirmoqda. Shaxsiy yondashuv, tanqidiy fikr va eksperimentlarga bo'lgan qiziqish uslub hozirgi zamon auditoriyasini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Do'stqorayev, B. (2009). O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.

John, N. J., Sharma, P. (2020). Gonzo Journalism – An Ethnography Study, International Journal of Science and Research, 9 (8), s. 19. doi: <https://doi.org/10.21275/SR20724100731>

Onuprienko, K.A (2022). “You Are There!”: Immersive Technologies In Journalism Of The Information Society, Actual Issues of Modern Philology and Journalism 1(44). doi:<https://doi.org/10.36622/AQMPJ.2022.81.25.018>

Winston, M. (2013). The Gonzo text – the literary journalism of Hunter Thompson. PhD Thesis, Cardiff University. Item availability restricted. URL: <https://orca.cardiff.ac.uk/id/eprint/53042/>

Wulfe, T. (2008). The Right Stuff, Picador; Second Edition, Revised. 352 p. URL: <https://Thomas Kennerly Wolfe // RoyalLib.com>

Вульф, Т. (2008). Новая журналистика и Антология новой журналистики, <https://Thomas Kennerly Wolfe // RoyalLib.com>

Игошина, О., Носков А. (2014). Место гонзо-журналистики в системе современных СМИ, Электронный ресурс Огарев-online. №5. URL: <https://journal.mrsu.ru/arts/mesto-gonzo-zhurnalistiki-v-sisteme-sovremennykh-smi>

Хорольский, В. (2012). “Новый Журнализм” В США: Проблема Факта И Домысла, Гуманитарные науки, 12(131). С.146-150.

Muallif haqida:

SULEYMONOVA Nodira — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti, suleymonova1224@gmail.com

THOUGHT AND SATIRE: GONZO ELEMENTS IN THE JADID'S PRESS

Abstract: This article analyzes the similarities and differences between Jadid press and gonzo journalism. Jadid press, emerging in the late 19th and early 20th centuries, is examined as an enlightenment movement aimed at educating the nation and critically addressing societal issues. Gonzo journalism, on the other hand, is presented as a modern journalistic style characterized by subjectivity and personal experience. The article explores the fundamental principles, styles, and impact of these two approaches, as well as their influence on contemporary journalism. Additionally, the connection between current journalistic trends and the modern manifestations of these two methodologies is examined.

Keywords: jadid press, fellatio, pamphlet, caricature, gonzo journalism, critical journalism, subjectivity, satire, contemporary journalism

About the author:

SULEYMONOVA Nodira — Master's student at the University of Journalism and Mass Communications, suleymonova1224@gmail.com

THE IMPORTANCE OF FACT-CHECKING FOR JADID NEWSPAPERS

Iroda Farhodova,

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

Abstract: The Jadid movement, emerging in Central Asia during the late 19th and early 20th centuries, aimed to reform education, culture, and society in response to Russian colonialism and the broader currents of modernity. Among its key contributions was the establishment of newspapers and journals that sought to educate and inform the public on progressive ideas, and they played an instrumental role in spreading information. In an era marked by political unrest and social transformation, fact-checking in Jadid newspapers was central to ensuring that the information presented to the public was accurate, reliable, and conducive to reform goals. This paper explores the critical role of fact-checking in the Jadid press and examines the methods used by journalists to ensure the integrity of the information they disseminate

Keywords: fact-checking, jadid, newspaper, public trust

The Jadid movement arose during a period of significant change in Central Asia. As the Russian Empire expanded its reach into the region, local intellectuals responded by advocating for a modernized education system that combined Islamic teachings with Western scientific principles. Central to this intellectual renaissance was the use of the press, which became an important tool for disseminating ideas. Publications like *Shark Yulduzi*, *Turkistan*, and *Mahbub-ul-Khalq* were essential for communicating reforms and engaging the public on issues such as education, governance, and social change. However, the accuracy

of the information presented in these newspapers was not always guaranteed. This was particularly crucial as many of the sources that the Jadids relied upon were from outside their immediate cultural context, including Russian-language newspapers and European publications. Fact-checking, therefore, was not just a journalistic practice but a political necessity.

Fact-Checking Practices in Jadid Newspapers

Fact-checking in the Jadid press was influenced by a variety of factors, including the movement's intellectual grounding in both Islamic scholarship and European Enlightenment ideals. The methods they employed were designed to ensure that the information they published was not only accurate but also aligned with their goals of social and educational reform. Cross-referencing Local and Global Sources: Jadid newspapers frequently drew from both local sources and international outlets, including Russian and Ottoman press, to verify the news. For example, when reporting on political developments or colonial policies, Jadid journalists would compare the information from Russian-language newspapers with accounts from local sources to detect discrepancies and ensure accuracy (Shakirova, 2018). This was especially important in covering the activities of the Russian Empire in Central Asia, as misinformation or propaganda was often spread to justify imperial control.

Use of Scholarly and Scientific Texts: Jadid intellectuals valued scientific inquiry and empirical evidence, drawing from both Islamic scholarly traditions and modern European thought. When writing about topics such as education, healthcare, or social reforms, they would cross-check facts using scientific texts and educational theories from both Eastern and Western traditions (Behnke, 2015). This enabled them to present information that was not only accurate but also innovative and forward-thinking.

Field Reporting and Direct Observation: Given the political constraints of the time and the censorship imposed by the Russian Empire, field reporting and direct investigation were crucial methods for fact-checking. Jadid journalists would often send correspondents to the sites of events, such as social movements, educational initiatives, or instances of political unrest, to confirm the accuracy of the information before publishing it. This method of firsthand reporting was vital in ensuring the credibility of the content presented to the readership (Khalid, 2015).

Peer Review and Intellectual Discourse: The Jadid movement fostered a community of scholars and intellectuals who actively engaged in debates and discussions regarding the news and information being circulated. This network of intellectuals provided a form of “peer review” for the material published in the newspapers. Before articles were printed, they

were often discussed within the circle of reformists to ensure that they met intellectual and journalistic standards (Bauman, 1991). This collaborative approach helped safeguard the reliability of the information and reduced the risk of publishing falsehoods.

The Role of Fact-Checking in Building Public Trust

For the Jadid movement to succeed in its goals of social reform, education, and empowerment, it was essential to maintain the trust of the public. The public had to believe that the information they were receiving was truthful and served their collective interest. Fact-checking was key to establishing this trust. By consistently presenting well-researched, reliable, and accurate information, Jadid newspapers fostered an environment of intellectual trust and credibility. This was particularly important given the political landscape in which the Jadids operated, as misinformation and propaganda from colonial authorities or conservative forces could easily undermine reformist efforts (Shakirova, 2018).

Furthermore, the practice of fact-checking also helped the Jadids counter the spread of misinformation, particularly regarding the progress of modernization in Central Asia. By publishing verified and accurate reports, the Jadid press was able to counter negative portrayals of the reformist movement, thus gaining credibility not only among Central Asians but also among the broader international community.

Legacy of Jadid Fact-Checking Practices

The legacy of fact-checking in Jadid newspapers continues to resonate today. Although modern technology and communication practices have evolved, the emphasis on accurate and reliable information remains central to journalism in Central Asia. The methods of cross-referencing, scholarly engagement, field reporting, and peer review set a high standard for journalistic integrity that still influences contemporary media practices in the region. By prioritizing fact-checking, the Jadids established a journalistic tradition that valued truth and accountability in reporting (Muminov, 2007).

Conclusion. Fact-checking was a crucial element of the Jadid movement's journalistic practices, serving both a political and educational function. The Jadids understood that the credibility of their newspapers was essential for fostering an informed public capable of engaging with modern ideas. Through cross-referencing, field reporting, scholarly engagement, and intellectual discourse, the Jadids ensured that the information they published was accurate and reliable. The legacy of these fact-checking practices continues to influence journalism in Central Asia today, demonstrating the enduring importance of truth in media.

References

- Bauman, Z. (1991). *Modernity and Ambivalence*. Polity.
- Behnke, A. (2015). *The Development of Journalism in Central Asia: A Historical Perspective*. Central Asia Journal.
- Khalid, A. (2015). *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. Cornell University Press.
- Muminov, A. (2007). *Jadid Movement and Journalism in Central Asia*. Uzbek Academy of Sciences.
- Shakirova, G. (2018). *Jadidism and Media in Central Asia: A Critical Analysis*. *Journal of Central Asian Studies*, 15(2), 45-62.

Muallif haqida:

FARHODOVA Iroda — Master's student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,
mrs.mukarramotamurodova@gmail.com

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODIDA IJTIMOY MUAMMOLARNING AKS ETISHI

Malika Jahonova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda jadid adibimiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Bizni kemirguvchi illatlar" maqolasining bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyati, dolzarblilik darajasi yoritiladi. Publitsisning maqolalarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy muammolarni aks ettirish mahorati o'rganiladi.
Kalit so'zlar: jadid, madaniyat, illat, marosim, karnavalizm, milliy o'zlik, millat

Mahmudxo'ja Behbudiyni o'zbek xalqining ma'rifatparvar, jadidchilik harakatining yetakchi namoyondalaridan biri, mahoratli jurnalist, dramaturg bir so'z bilan aytganda, benazir davlat arbobidir. U o'z davrida o'zbek xalqini ma'rifatga, taraqqiyotga, ilm olishga, madaniyatga, milliy uyg'onishga dav'at etuvchi ko'plab tanqidiy ruhdagi maqolalar yaratgan. Shunday talqindagi maqolalaridan biri "Bizni kemirguvchi illatlar" maqolasidir. Muallif maqola sarlavhasiga munosib tarzda, jamiyatning og'riqli nuqtalariga urg'u beradi. Maqolada to'y va a'za marosimlarida millat kishilarining ahmoqona xatti-harakatlari, ilmsizlik oqibati, johillik, jamiyatda birdamlikning yo'qligi, o'zlikdan yiroqlashish kabi bir qator illatlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Maqola yaratilganiga bir asrdan oshgan bo'lishiga qaramay, jadid Behbudiyning o'tkir mulohazalari hamon o'z kuchini yo'qotmagan. Hanuz jamiyatimizda ortiqcha hashamat, dabdababozlik, kim o'zarga to'y marosimlari o'tkazish, isforgarchilik, ta'ziya munosabati bilan katta-katta to'yxonalarda osh berish, ma'rakalar qilish urfda. Maqola mavzusining dolzarbligi ham ayni shundadir. Behbudiyni ta'kidlagan "ikki qattol

dushman” bizning jamiyatimizda hamon yashayapdi. Zamonamiz rivojlanib, turmush darajamiz odimlaganiga qaramay, odamlarda o‘tkinchi orzu- havasga berilish jadal tus olmoqda.

Muallif bizni kemirguvchi illat deganda, tan jarohatini, o‘pka sili bilan og‘rishni nazarda tutmaslikka chaqiradi. Aslida, millatni xonavayron va g‘arib qilguvchi, bizni jahannamga yumalatadigan ikki dushmanlarimiz, bizni kemiruvchi illatlar deya to‘y va a‘za marosimlarini ta’kidlaydi. Maqoladagi har bir jumla chuqur mazmunga yo‘g‘rilgan. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy maqolada millatni jaholatdan xalos bo‘lishga undash maqsadida, ommaga ta’sir etishning muhim elementi hisoblangan diniy qarashlardan foydalangan.

“Atomizdan mehribon Tangrimiz jallu a’lo Qur’oni karimda “O‘z qo‘llaringiz ila o‘zingizni tahlíkaga otmangiz” der” (Behbudiy, 2024).

Maqola davomida Samarqandning Panjakentida Navro‘z bayrami o‘tkazilganligi, saylda paqildoqlar-u mushakbozliklar avjiga chiqqanligi hamda buning oqibatida uch kishi vafot etib, o‘n nafardan ortiq kishi majruh bo‘lib qolganligi haqida so‘z boradi. Darhaqiqat, maqolaning aynan shu joyi sizga zamonamizning “Merry me”, “Gender party”, “My birthday party” yoxud yangi yil bayram kechalarini eslatayotgan bo‘lsa, ajab emas. Shunday holatlar Behbudiydan bir asr keyingi avlod bilan ham yuzlashib turibdi. Bayram-u bazmlarda osmonni boshga qulatgudek mushakbozliklar qilish, portlovchi xususiyatga ega vositalardan foydalanish oqibatida, qanchadan qancha bolalar mayib- majruh bo‘lib qolishayotganini internet nashrlaridagi xabarlar namoyon etib turibdi (2022). Bundan tashqari, maqolada ko‘pkari va uliq chopish odatlari ham yoritiladi. Behbudiy odamlar olomon ichida majruh bo‘lib qolishi mumkinligini va eng achinarlisi hatto, uyida ozuqasi yo‘qlar ot olib, ko‘pkarida unga hindlar kabi e’tiqod qilishi, qo‘lidagi oxirgi chaqasini nodonlarcha shu yilqiga tikishini qoralaydi.

Maqolada jamiyatdagi illatlar vaqt atalmish ne‘matni boy berilishiga, sabab bo‘luvchi jarayonlar tasviri ham mavjud. Ya’ni muallif maqolaning bu qismida xalqimizning hatto o‘n, yigirma chaqirim naridagi to‘y uchun hamma ishini, dehqonchiligini qo‘yib otlashini ta’kidlaydi:

“Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt bo‘ldi-ketdi. Ekin birgina kun keyin sepilgani uchun pishmay qolar. Birgina kun so‘ngra yig‘ilgan uchun yog‘ichga qolib, ba’zi xirmonlar chirib ketar”.

Yoki to‘y marosimlari, a‘za marakalari uchun haftalab hatto oylab vaqtni zoye qilishlar mutlaq nojoiz amal hisoblanadi. Shuningdek, dinimizda ham uch kundan ortiq a‘za tutmaslik buyurilgan.

Maqolaning ta'ziya jarayonlari bilan bog'liq qismiga to'xtaladigan bo'lsak, bugun aksariyat yurtdoshlarimiz marhum birodarlari ruhiga bag'ishlab o'tkazayotgan dafn marosimlari shariat nuqtai nazaridan tubdan farq qilishini anglash mumkin.

“Shariat kitoblaridan “Faroiiz”, ya'ni Xudoni buyrug'i degan kitoblarga “O'lukni molidan avval o'lukga kerakli muvofiq sunnat va isrofsiz kafan qilib, dafn qilmoqqa sarf qilinsun, so'ngra qarzi berilur”. So'ngra ortgan mollarni virasasiga muvofiq shariat taqsim qilinib berilur”.

Rostini aytish kerakki, bugun kunda xalqimiz a'za marakalarida nechog'lik isrofgarchilikka yo'l qo'yishmoqda. Marhumning zimmasidagi qarzini to'lab, ruhini osoyish toptirmoq o'rniga minglab odamga osh berishga, “falon kishilik ehson oshi tarqatdi” degan nomni olishga oshiqishadi.

“Astag'furillo, subhonollo. Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat qilur?”

Ta'kidlash joizki, maqola tili sodda, jumalari mazmundor. Jadid adibimiz ayni haqiqatlarni, jamiyat hayotida necha yillardan beri mavjud bo'lgan illatlarni mahorat bilan so'zga ko'chirgan. Ilm-fan yuksalgani, XXI asr insoniyatga yangicha imkoniyatlar taqdim etganiga qaramay, millatimiz kishilari hanuz hashamatli to'y, ming kishilik maraka oshlari bobida tashabbuskor, yetakchi- ilg'or. Agar millat dardi to'y- tomosha qilish bo'lsa, unda bunday millatning madaniyati, ma'naviyati, o'zligi yo'qoladi, Manaman degan to'y qilaman deb, mehnatining orqasidan topganini sariq chaqa qoldirmay sarf etib, ustiga-ustak qarz ko'tarib, yer-joyini sotib to'y qilguncha, holatidan kelib chiqib, o'ziga zulm qilmasdan ixcham to'y qilish ham mumkin, aslida. Ilmsizlik butun boshli millatni o'zligini, umuminsoniy qadriyatlarini, madaniyatini abgor qilishga qodir. To'y va ta'ziyaga sarf qiladigan pullarimizni, ilm yo'lga, din yo'lga sarmoya etsak, bizning millatda ham rivojlanish yangi bosqichga ko'tariladi. Xalqimiz hayotiga hamjihatlik, milliy manfaat kabi umuminsoniy islohatlar kirib boradi. Maqola bir millatning ertasiga daxl qiluvchi, kelajagini poymol etuvchi illatlarning ta'sirli tasviri bilan, mavzuning dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z asarlari bilan millatni ilm olishga, dunyoyi dunning sarqitlaridan tiyilishga, o'zining madaniyatiga, ma'naviyatiga, o'zligiga munosib bo'lishga, undashi bilan qimmatlidir.

Jamiyatdagi bu illatlar barhayot ekan demak, hali bu dav'atlarning davomi bo'ladi. Qalampir.uz internet saytida e'lon qilingan “To'y bo'lsin-a, to'y bo'lsin” (Abduraimov, 2019) sarlavhasi ostidagi maqola “Bizni kemirguvchi illatlar” ning mantiqiy davomi, zamonamiz matbuotiga ko'chgan ko'rinishlaridan biri desak, adashmagan bo'lamiz. Maqolada muallif Akbarjon Abduraimov bir hamkasbining nafis, naqshinkor

qog'ozda ishlangan to'y taklifnomasi haqida so'z boshlaydi. Haqiqatan, shu bir parcha qog'ozga kibor, hashamat ko'rinishining ko'chgani, to'y marosimlarining eng kichik detali bo'lgan hamda u qadar ahamiyat kasb etmaydigan bu taklifnomalarning shu qadar qiymatlanishi, odamlarimizning to'y musobaqalaridagi yangicha "islohoti" demakdir. Maqola hashamdor taklifnomalar xususida emas, albatta, Behbudiy ta'riflaganidek "to'y, azo ismindagi ikki qattol dushman" haqidadir.

Maqolada mamlakatimizning mustamlakachilik davrlarida qaram millat vakillari va mahalliy zodagonlarning an'analari qorishib, dabdababozlik va isrofgarchiliklarga boy bo'lgan to'ylar o'tkazish urfga kirganligi ta'kidlanadi. Muallif o'z maqolasida ma'rifatparvar jadidimizning ayni "Bizni kemirguvchi illatlar" maqolasiga murojaat qiladi: "O'sha davrda yashab o'tgan millatning jonkuyar farzandi Mahmudxo'ja Behbudiy to'ylarga nisbatan shunday ta'rif bergan edi: "Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxmu maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, sil-ar-iya va maxavliknimi dersiz? Yo'q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh, bevoya, xonavayron va g'arib etguvchi bir dard, biz — turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sorilgon va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalataturgon to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman".

Muallif to'ygacha va to'ydan keyingi zarracha foydasi yo'q marosimlarni tanqid qiladi. Mamlakatimiz viloyatlaridagi noodatiy "udumlarni" tilga oladi. Shuningdek, ta'ziya marosimlari bilan bog'liq ortiqcha tadbirlar millatimizning qon-qoniga singib borayotgani, odamlarda yetarli ilm yo'qligi sabab bunday "udumlar"ga ergashayotganligini ta'kidlaydi: "Marhumlar hurmatiga "yetti", "payshanbalik", "yakshanbalik", "yigirma", "qirq", "hayit", "yil oshi", "pul tarqatish", "mato ulashish" kabi marosimlarni o'tkazish muqaddas Islom dinida buyurilmagan".

Darhaqiqat, to'y va a'za marosimlarini tartibga solishga, dabdababozlik, isrofgarchilikning oldini olishga har qancha urinishlar bo'lmasin, ba'zi odamlar o'z bilganidan qolmaydi. Mahalla faollari to'yga taraddud boshlaganlarning uyiga sarf-xarajatni qisqartirish, ixchamgina to'y o'tkazish maslahati bilan chiqishsa, aksar hamyurtlarimiz quloq osmaydi. Kim o'zarga to'y qilish avj olib borishi, bunday marosimlarni qonun yo'li bilan me'yorda ushlash kerakligini taqazo etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 3-avgust sanasida mamlakatning ziyolilari bilan uchrashuvda to'y va ma'rakalarda amalga oshirilayotgan yuqoridagi holatlarni tanqid qilgan: "Ochig'ini aytadigan bo'lsak, to'y-hashamlar bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar ming-minglab oilalarning nafaqat iqtisodiy ahvoliga, balki, butun hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugun hayotimizda ko'payib borayotgan oilaviy mojarolar, urush-janjallar, ajralishlar, qudalar o'rtasidagi sovuqchilik sabablari ham aksariyat hollarda xuddi shu narsaga borib taqaladi. Eng yomoni, ayrim pul topib aql topmagan, ma'naviy saviyasi past kimsalar to'y-hashamlar, ma'rakalarni o'tkazish bo'yicha musobaqa o'ynab, turli-tuman yangi odatlarni o'ylab topyapti. Bularni eshitib, ba'zan odam hayratdan yoqasini ushlab qoladi" (Mirziyoyev, 2017). Yurtboshimizning tashabbusi bilan Senatning tavsiyaviy ahamiyatdagi "To'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar, marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilishini tartibga solish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi (2019).

Muallif Akbarjon Abduraimov ham uchrashuvda yurtboshimizning kuyunchaklik bilan aytgan bu so'zlari naqadar ahamiyatliligini zamonamizning zamonaviy to'ylari isbotlab turganini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada to'yni qanday o'tkazish insonning erkin huquqlari sirasiga kiradi deya, iddao qiladigan jamiyatning ayrim qatlam vakillariga munosib javob berilgan.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi karnavalizm illati aks etgan O'zbekiston kontentlari xorijliklarning e'tiborini tortdi. Janubiy Koreyaning Cheju Halla Universiteti professori Jeong-Won- Lee "You Tube platformasining (travel content) sayohat kontentida karnavalizm ko'rinishi. "Kwatube" da O'zbekiston kontentlariga e'tibor qaratish" mavzusida tadqiqot olib borgan (Lee, 2024). Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Kwatube" kanalida O'zbekistondagi karnavalizm aks etgan marosimlar jarayoniga aloqador 16 ta video kontent aniqlangan. Karnavalizm millat kishilarining odob- axloq, tartib me'yorlaridan uzoqlashtirib yuborishi, ilmsizlik ortishi, jamiyatda bo'shliq hosil bo'lishi kabi bir qator salbiy ta'sirlarni keltirib chiqarishi ta'kidlanadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugun dunyo ilm-fanning ochilmagan qit'alarini kashf etayotgan bir paytda, biz to'y-tomosha fikri-yodi bilan yashashimiz katta xatodir. Millatimiz o'z milliy mentalitetiga sodiq, o'zligiga munosib avlodlarni tarbiya etmog'i lozim. Buning uchun isrofgarchilikdan, dabdabalardan tiyilib, diqqat-e'tiborimizni ilm egallashga, ta'lim-tarbiya, milliy madaniyat masalalariga qaratishimiz kerak. Har jabhada savodxon, salohiyatli bo'lish, ayni bizning millatga xos. Har ikkala maqolalarning pirovard maqsadida, avvalo, millatni savodxon qilish, o'qitish, ilmiy qilish masalasi turadi. Jamiyatimizdagi asossiz illatlardan xalos bo'lishga intilmasak, ular bizning o'zligimizni "kemiradi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abduraimov, A. (2019). To'y bo'lsin-a, to'y bo'lsin, qalampir.uz. URL: <https://qalampir.uz/uz/news/tuy-bulsin-a-tuy-bulsin-8595>

Behbudi, M. (2024). Yoshlarg'a murojat, Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 117-120-betlar.

Mirziyoyev, Sh. (2017). Endi to'ylarda dabdabaga yo'l qo'yilmaydi - Prezident qarori, sputnik.uz. URL: <https://oz.sputniknews.uz/20170804/Prezident-xalq-murojaatiga-quloq-tutdi-endi-toylarda-dabdabaga-yol-qoyilmaydi-5968238.html>

Pirotexnika vositalaridan aziyat chekkan bolalarning ba'zilar bir umr nogironlikka mahkum bo'ladi. (2022). uza.uz. URL: https://uza.uz/oz/posts/pirotexnika-vositalaridan-aziyat-chekkan-bolalarning-bazilari-bir-umr-nogironlikka-mahkum-boladi_437851

To'y-hashamlarni tartibga solish bo'yicha qat'iy qaror qabul qilindi. (2019). kun.uz. URL: <https://kun.uz/75978387?q=%2F75978387#!>

Lee, J.-won. (2024). The Study on the Representation of Carnivalism in Youtube Travel Content. Focusing on Kwaktube's "Uzbekistan". International Scientific Journal of Media And Communications in Central Asia, (6). doi:<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi6.45>

Muallif haqida:

JAHONOVA Malika Ibodullo qizi — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti, malikahodiyeva08gmail.com

REFLECTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MAHMUDKHOJA
BEHBUDI'S CREATION

Abstract: In this thesis, the importance and level of relevance of our modern writer Mahmudhoja Behbudi's article "Diseases that gnaw at us" in the life of today's society will be highlighted. The ability of publicists to reflect social-political, cultural-educational problems in articles is studied.

Keywords: modernity, culture, illat, ceremony, carnivalism, national identity, nation

About the author:

JAHONOVA Malika Ibodullo qizi — Master's student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, malikahodiyeva08@gmail.com

XALQARO JURNALIST IJODIY USLUBINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI VA JADID MATBUOTI DAVRIDA XALQARO JURNALIST FENOMENI

Otabek Sagdullayev,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Xalqaro jurnalistika zamonaviy axborot maydonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu soha global miqyosda ijtimoiy-siyosiy voqealarni yoritish, xalqlar o'rtasidagi axborot almashinuvini ta'minlash, madaniy muloqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro jurnalist ijodiy uslubining shakllanishi esa bir qator omillar, jumladan, jurnalistning tajribasi, maqsadi, auditoriyasi va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlariga bog'liqdir. Mazkur maqolada xalqaro jurnalist ijodiy uslubining asosiy xususiyatlari va shakllanish omillari, shuningdek, jadid matbuotida xalqaro jurnalist yoki muxbir faoliyati qanday shakllangani borasida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqaro jurnalist, xalqaro muxbir, jadid matbuoti, jadidlar

Bugungi globallashuv davrida xalqaro jurnalistikaning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Xalqaro jurnalistlar dunyo bo'ylab axborotni yetkazishda nafaqat axborot uzatish vositasi, balki turli madaniyatlarni bir-biriga bog'lovchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladilar. Shu bois, xalqaro jurnalistning ijodiy uslubi va uning shakllanish xususiyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro jurnalistning ijodiy uslubi, avvalo, madaniyatlararo farqlarni anglash va hurmat qilishdan boshlanadi. Jurnalist bir mamlakatdan ikkinchisiga safar qilish chog'ida turli tillar, an'analar va urf-odatlariga moslashishi lozim. Shu sababli, xalqaro jurnalistning uslubi madaniy moslashuvchanlikka asoslanadi. Xalqaro jurnalistikaning eng muhim tamoyillaridan biri xolislikdir. Jurnalist o'z maqolalari va reportajlarida tarfkashlik qilmasligi, voqealarga haqqoniy yondashishi zarur. Bu tamoyil ijodiy uslubda so'z va ifoda tanlashda ham aks etadi.

Xalqaro jurnalistning ijodiy uslubi turli manbalar bilan ishlashni talab qiladi. Bunga mahalliy va xalqaro axborot agentliklari, ijtimoiy tarmoqlar va ekspertlar bilan muloqot kiradi. Manbalarni tekshirish va tasdiqlash usuli uslubni shakllantiruvchi muhim jihatdir. Jurnalistning ijodiy uslubi tahliliy yondashuvga asoslangan bo'lsa, u axborotni chuqurroq tushuntira oladi. Tahliliy materiallar o'quvchilarni voqealarning sabab va oqibatlarini tushunishga undaydi.

Xalqaro jurnalist ijodiy uslubi bu – jurnalistning voqealarni yoritishdagi o'ziga xos yondashuvi, til va ifoda vositalarini tanlash mahorati, hamda axborotga nisbatan shaxsiy pozitsiyasi bilan belgilanadi. Uslubning asosiy vazifasi – xalqaro auditoriyani qiziqtirish va ularga muhim ma'lumotlarni yetkazishdir. Xalqaro jurnalistning ijodiy uslubi quyidagi omillar bilan ajralib turadi va shakllanib boradi:

- til va ifoda vositalari: xalqaro jurnalist sodda, lekin mazmunli tildan foydalanishi zarur. Qisqalik va aniq ifoda – xalqaro maqolalar uslubining muhim qismidir.
- o‘ziga xos fikrlar: jurnalist global voqealarga yangi, o‘ziga xos yondashuvni taklif etishi lozim. Bu uslubning asosiy jihatlaridan biridir.
- madaniy kontekstga moslashish: Xalqaro mavzularni yoritishda turli mamlakatlar va mintaqalarning madaniyati, an‘analari va qadriyatlarini hisobga olish kerak (Berglez, 2008).

1. Professional bilim va tajriba. Xalqaro jurnalistning uslubi, avvalo, uning kasbiy malakasi va tajribasiga bog‘liq. Turli mamlakatlarda ishlash, global voqealarni kuzatish va yoritish tajribasi jurnalistga mavzuni chuqurroq tushunishga va uni o‘quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Shuningdek, xalqaro jurnalistika yo‘nalishida maxsus ta‘lim olgan jurnalistlar uslubni shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lishadi.

2. Maqsadli auditoriya. Xalqaro jurnalist o‘z materiallarini qaysi auditoriya uchun tayyorlayotganini aniqlab olishi kerak. Masalan: Ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritishda professional yoki siyosiy bilimga ega auditoriyani hisobga olish zarur. Madaniyat va san‘at sohasidagi maqolalar keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, sodda va qiziqarli tilda yozilishi kerak.

3. Axborot manbalaridan foydalanish. Ishonchli va turli manbalardan foydalanish xalqaro jurnalist uslubining muhim jihatlaridan biridir. Manbalarning xilma-xilligi jurnalistga mavzuni ko‘p qirrali yoritish imkonini beradi. Xalqaro mavzularda ishlaydigan jurnalistlar, odatda, quyidagi manbalarga tayanadi:

- Xalqaro yangiliklar agentliklari (“Reuters”, AP, “UzA”, “Dunyo” va boshqalar kabi);
- Diplomatiya va hukumat vakillari bilan suhbatlar;
- Tadqiqotlar, hisobotlar va statistik ma‘lumotlar (2025).

4. Axborot yetkazish texnikasi. Global voqealarni yoritishda jurnalistdan interaktiv va innovatsion usullardan foydalanish talab qilinadi. Misol uchun, multimedia vositalarini jalb qilish, intervyularni video shaklida taqdim etish yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xalqaro auditoriya bilan samarali aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

Xalqaro jurnalistning ijodiy uslubini shakllantirishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, til va madaniy to‘siqlar: jurnalist yoritayotgan voqea joyining tili va madaniyati haqida yetarli bilimga ega bo‘lmasligi mumkin. Axborotga bo‘lgan cheklovlar: ayrim davlatlarda senzura yoki cheklangan axborot muhitida ishlash xalqaro jurnalist faoliyatini qiyinlashtiradi. Ijtimoiy va siyosiy bosimlar: xalqaro jurnalistlar ko‘pincha siyosiy bosim yoki xavfsizlik bilan bog‘liq

muammolarga duch keladi (Berglez, 2008).

Yigirmanchi asr boshlarida jadidlar orasida xalqaro masalalarga qiziqqan va xalqaro miqyosda ma'lumot tarqatgan shaxslar bo'lgan. Ularning ba'zilar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy matbuot bilan ishlamagan bo'lsa-da, o'z davri uchun xalqaro jurnalistika ruhida faoliyat bilan shug'ullangan. Masalan, Abdurauf Fitrat o'z davrining eng taniqli jadidlaridan biri bo'lib, Istanbulda o'qigan. U o'z asarlari orqali xalqni uyg'otishga va xalqaro masalalarda fikr tarqatishga intilgan. Bu davrda rus tili va rus madaniyatini targ'ib qilish ham Fitrat ma'rifatparvarligi yo'nalishining muhim tarmogi bo'lgan. Bunday qarashlar uning o'zi tashkil etgan va muharrirlik qilgan "Hurriyat" gazetasida keng targ'ib etiladi. Xalqaro adabiyot va madaniyat haqida maqolalar yozgan, o'sha davrda xalqni xalqaro jarayonlarga yaqinlashtirishga harakat qilgan. Turkiyada o'qib yurgan kezlari "Sayha" ("Chorlov"), "Sayyohi hindi", "Munozara" kabi asarlari ayni xalqaro jurnalist faoliyati bilan bir xil kechmasada, ammo jadid matbuoti uchun muhim qadamlar bo'lgan deya olamiz. Keyinchalik uning "Yashasin turklik, yashasin Islom", "Hind ixtilolchilari", "O'g'izxon", "Abo Muslim" kabi ishlarida ham erkin fikrlik, dunyoqarashning boyligi hamda vatandoshlariga yangilik berish borasidagi qarashlari ham o'rin olgan.

Xalqaro jurnalist sifatida bo'lmasada, xalqni ma'rifatli qilish yo'lida yana bir jadidimiz o'zining keskin va o'tkir maqolalari bilan mashhur Munavvarqori Abdurashidxonov xalqaro siyosiy va madaniy o'zgarishlarni kuzatib, mahalliy gazetalarda shu mavzularni yoritgan. "O'zbek milliy matbuotining paydo bo'lishini ham Munavvarqori faoliyatisiz tasavvur qilish mumkin emas. 1906-yildan "O'rta Osiyoning umrguzorligi" maqolasi "Taraqqiy" gazetalarda adabiy xodim bo'lib ishlab yurganida chop etiladi. Shu yili noshir va muharrir sifatida "Xurshid" gazetasini tashkil etgan. "Shuhrat" (1907), "Tujjor" (1907), "Osiyo" (1908) gazetarini g'oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan" (2025). Munavvarqori "milliy maktab" asoschisi bo'lib qolish bilan birga chet elga bolalarni o'qishga yuborish masalasini ham yechishga intildi. Atrofiga mahalliy boylarni yig'ib, fond tashkil qiladi hamda tirishqoq yoshlarni bilim olib kelish uchun xorijga o'qishga jo'natadi.

Munavvarqori Abdurashidxonov mustamlakachilarga qarshi kurash davomida xorij matbuoti bilan hamkorlik qilish yo'llarini ham izlab topadi. Bunda unga maslakdoshlari Saidnosir Mirjalilov, Ubaydulla Xo'jayev, Tolibjon Musaboyev va boshqalar faol yordam beradilar. "Milliy ittihad" tarqatilgach, mustamlakachilarning faoliyatini xorij matbuoti orqali fosh qilishga o'tiladi. Bu sohada ular Maskovdagi eski tanishlardan foydalanib, Parijda yashayotgan Mustaf Cho'qayevga mahalliy

rus va o'zbek matbuoti yuborib turadilar, hatto Angliyaga maxsus odam yuborib ayrim muammolarni hal etishga urinadilar" (2025). Jadidlarning yangi usul maktablari, turli guruhlarini tashkil qilish, fond-mablag'lar yig'ishdek loyihalari, kitob-darsliklarni yaratishlari va boshqa ko'plab ishlari Turkiston ravnaqi hamda matbuoti rivoji uchun bo'lgan. Bu yo'lda yana M. Behbudiy, A. Avloniy, A. Qodiriy, G'. Yunus, F. Xo'jayev, I. Davron, S. Alizoda, I. Obidiy, Botu, S. Muhammad, I. Ibratdek zabardast matbuotchilari, jurnalistlar, nashrlar, yozuvchi va davlat arboblarning mehnati muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xalqaro jurnalist ijodiy uslubi – bu global voqealarni aniq, sodda va ishonchli yoritishga yo'naltirilgan maxsus mahoratdir. Uslubni shakllantirish jurnalistning bilim darajasi, tajribasi, axborot manbalaridan foydalanish qobiliyati va auditoriyaning ehtiyojlarini tushunishiga bog'liq. Kelgusida ushbu sohada innovatsion texnologiyalardan kengroq foydalanish va madaniy xilma-xillikni inobatga olish xalqaro jurnalistika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bo'lib qoladi. O'zbekiston tajribasida esa xalqaro jurnalist xususiyatlarini o'rganishda jadid matbuotiga murojaat qilish, uning boy tajribasini o'rganish hamda uning hozirgi va kelajak faoliyatini tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy texnologiyalar nafaqat xalqaro balki mahalliy jurnalistlarning ijodiy uslubini o'zgartirdi. Onlayn platformalarda ishlash, multimediya formatlaridan foydalanish va tezkor axborot uzatish uslubi keng tarqaldi. Jurnalistlarning matn, video, foto va grafik materiallardan foydalanishi ularning uslubini boyitadi. Xalqaro jurnalistlar ekologiya, inson huquqlari, migratsiya va ijtimoiy tenglik kabi global masalalarni yoritishda o'z uslublarini takomillashtiradilar. Bu mavzularni o'quvchilarga yetkazishda hissiyotli, ammo dalillarga asoslangan yondashuvdan foydalaniladi. So'nggi yillarda podkastlar, interaktiv maqolalar va hujjatli reportajlar xalqaro jurnalistikaning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Ushbu formatlar ijodiy uslubning dinamik va qiziqarli bo'lishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdurauf Fitrat Hayoti va Ijodi. (2025). Tafakkur.net. URL: <https://tafakkur.net/abdurauf-fitrat.haqida>. Murojaat sanasi 10.01.2025.

Jadidizm. (1988). Ensiklopedik lug'at. I. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. B. 271.

Munavvarqori Abdurashidxonov. (2025). Jadid.uz. URL: <https://jadid.uz/jadids/munavvarqori-abdurashidxonov/>. Murojaat sanasi 10.01.2025.

Zohidova. Y. (2023). Zamonaviy xalqaro televideniye fanidan nazariy mashg'ulot uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 100 b.

Berglez, Peter. (2008). What Is Global Journalism? *Journalism Studies*. 9(6). PP. 845–858. doi: <https://doi.org/10.1080/14616700802337727>. Date of application: 10.01.2025.

Kalyango, Y. J. & Mould, D. (2014). *Global Journalism Practice and New Media Performance*. Palgrave Macmillan; 1st ed. Springer. 281 p. ISBN 9781137440563.

Muallif haqida:

SAGDULLAYEV Otabek — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF THE CREATIVE
STYLE OF THE INTERNATIONAL JOURNALIST AND THE
PHENOMENON OF THE INTERNATIONAL JOURNALIST IN THE
MODERN PRESS ERA

Abstract: International journalism is an integral part of the modern information field. This field serves to cover social and political events on a global scale, to ensure the exchange of information between peoples, and to develop cultural dialogues. The formation of the creative style of an international journalist depends on a number of factors, including the journalist’s experience, purpose, audience, and opportunities to use information resources. This article analyzes the main characteristics and factors of formation of the creative style of an international journalist, as well as how the activity of an international journalist or reporter was formed in the modern press.

Keywords: International journalist, international correspondent, modern press, modern people

About the author:

SAGDULLAYEV Otabek — Master’s student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING BOSIB O‘TGAN YO‘LI

Zebo Ibragimova,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqola Samarqand jadidlarining yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati haqida. Unda adibning matbuotda ishtirok etishi, muharrirlik faoliyati, shuningdek, “Bir vafolik zaifa xususida”, “Padarkush” kabi asarlari, “Do‘stlikmi, dushmanlikmi?”, “Bizni kemiruvchi illatlar” kabi maqolalari va shaxsiyati to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, matbuot, “Oyina”, milliy o‘zlik

Turkistonda tug‘ilib, keyinchalik shu yurt jadidlarining yo‘lboshchisiga aylangan, birinchi o‘zbek dramaturgi, milliy teatr asoschisi, noshir, publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiyning millat, yurt oldida qilgan ishlari taqsimiga sazovor. Ularning nomi turkistonlik jadidlar orasida birinchi bo‘lib ichki Rossiya, hatto xorijiy mamlakatdagi istiqloqlar tomonidan siyosiy arbob sifatida e‘tirof etilgan (Do‘stqorayev, 2009).

Mahmudxo‘ja Behbudi ijodi, bosib o‘tgan yo‘li ilm ahli uchun izlanish, o‘rganish va turli muzokaralarga sabab bo‘ladi. Chunki, bevaqt vafoti tufayli ular haqidagi bor ma‘lumotlar yo‘qolgan, o‘zlari ham ilmiy-avtobiografik maqola yozib qoldirmagan. Uning faoliyatiga nazar tashlagan kishilar asosan Hoji Muin, Sadridin Ayniy va boshqalarning “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Известия ТипоЦИК”, “Buxoro axbori” gazetalarida, “Inqilob”, “Uchqun”, “Maorif va o‘qitg‘uvchi”, “Наука и просвещение”, “Shu‘lai inqilob” jurnallarida bosilgan xabar va maqolalariga asoslanadi (Ahmad, 2024).

Hazrat Behbudiyning hatto, tug‘ilish sanasi haqidagi fikrlar ham turli xil. Sadridin Ayniy va Hoji Muin maqolalarida Behbudi tavallud sanasi hijriy 1291 sana 10 zulhijja deb beradi. Hijriy yilni milodiyga o‘tkazishda turli qarashlar mavjud. Jadidshunoslarning bir qismi bu 1874-yilga to‘g‘ri keladi desa, ikkinchi yarmi 1875-yil deb hisoblaydi (Karimov, 2022). Masalan, S.Ahmedov “1873-yil mart oyi”ni, A.Aliyev, B.Qosimov, Sh.Turdiyev esa 1875-yilni to‘g‘ri deb hisoblaydi. Sirojiddin Ahmad asarida Behbudi tug‘ilish sanasi va joyi “1874-yil 30-yanvar, Samarqand shahri Yomini mahallasi” (Ahmad, 2024) deb ko‘rsatsa, B.Do‘stqorayev “1875-yilda 19-yanvar Samarqandning Baxshitepa qishlog‘i” deb ma‘lumot beradi. (Do‘stqorayev, 2009). Fikrimizcha, aniq bir hujjat topilgunga qadar hijriy yilnigina ko‘rsatish yoki uni milodiyga o‘tkazishda aniq usuldan foydalanish zarur hamda aytilayotgan fikrni aniq va rad etib bo‘lmas faktlar bilan isbotlagan ma‘qul.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning otasi Sultonxo‘ja (Samarqanddagi madrasalardan birida tahsil olib islom

qonunshunoslik ilmini o'rgangan va o'ziga "Behbudxo'ja" ya'ni "xo'jalarning jannati vorisi" deb laqab olgan) nasab jihatdan Xo'ja Ahmad Yassaviyga qarindosh, (Ahmad, 2024) onasi – mufti Odil Mansur o'g'lining singlisi bo'lgan. Onalari haqida ma'lumot yo'q (Karimov, 2022).

Hoji Muinning yozishicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 6–7 yoshligida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib, hat-savod chiqaradi. Otasi unga Qur'onni yod oldirtiradi va 3–4 yil ichida hatm qiladi. 15 yoshga kirganda tog'asi Mulla Odil huzurida o'qishni davom ettirib, arab tili, sarf, nahvdan "Kofiya", "Sharhi Mullo", mantiqdan "Shamsiya", fiqhdan "Muhtasar ul-viqoya"ning birinchi daftarini va "Hoshiya"ni o'rganadi. Keyinchalik, Samarqand muzofati Chashmaiob bo'lusida qozi bo'lgan tog'asi Muhammad Siddiqning qoshida mirzalik qiladi. Ikki yil qozixona ishlari, fiqh ilmi, meros taqsimi va boshqalar bilan shug'ullanadi. Keyin Kobud bo'lusining qozisi mulla Zabirning qozixonasiga mirzolikka kirib, 1–2 oy o'tmay muftiylikka o'tadi va 1916-yilgacha shu yerda fatvo ishlari bilan mashg'ul bo'ladi (Muin, 2005).

Hijriy 1311-yil Sharofat ismli qiz bilan oila quradi. Birinchi farzandi vafot etgach Mas'udxo'ja, Maqsudxo'ja, Matlubxo'ja ismli uch o'g'il va Surayyo (Parvina) ismli bir qizli bo'ladi. Shuningdek, ularning Kobut volostida 10 desyatina yerga egalik qiladi (Ahmad, 2024).

1900-yil farzand dog'ini yengillatish uchun haj safariga chiqadi. Xo'ja Baqo hamrohligida Istanbul, Misr, Hijozga boradi. Qaytganida, Turkiya, Arabiston va Misrdan talaygina kitob va to'plamlar olib keladi. Horiydagi sayohati davomida dunyoning rivojlangani, zamon bilan hamnafas, shiddat bilan ketayotganini ko'radi, ahvolni Turkiston bilan solishtiradi. Zamon ilmini egallash, milliy o'zlikni anglash, hurriyat uchun kurashish, zero "Haq olinur, berilmas"ligiga iqror bo'ladi.

Shundan so'ng, yangi usul maktablarini ochish, ular uchun darsliklar yozish, kutubxona, milliy sho'ba tuzish, jamiyatdagi illatni ko'rsatib beruvchi drama yozish va jamiyatga oyna vazifasini bajaruvchi jurnal ochish, bundan tashqari, milliy muxtoriyat tuzish harakatini boshlab yubordi.

Mahmudxo'ja Behbudiy matbuotni haqiqiy minbarga aylantirdi. 1903-yildan unda faol ishtirok etdi. Hoji Muinning ta'kidicha, 18 ta nashrda Mahmudxo'ja Behbudiyning 200dan ortiq asarlari chop etilgan (Behbudiy, 1923). "Turkiston viloyatining gazetasi", "Taraqqiy", "Shuhrat", "Tujjor", "Samarqand", "Vaqt", "Ulfat", "Siroti mustaqim", "Sho'ro", "Irshod", "Toza hayot", "Mehnatkashlar tovushi", "Najot", "Tarjumon", "Islom dunyosi" kabi nashrlar shular jumlasidan. Maqolalarda davr muammolari: ta'lim, islom mohiyatini tushunish, tarix, siyosat, til, milliy

o'zlik kabilar ko'tarilgan. Muallifning yurakdan yozgani har bir satrdagi xasrat, iztirob va kuyunishdan ko'rinib turadi. Ularning yozilganiga 100 yildan oshgan bo'lsa ham, o'z dolzarbligi, ahamiyatini yo'qotmagan.

“Ikki emas to'rt til kerak” sarlavhali maqolada: “Biz turkistoniylarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy” kerakligini, ularni o'rganish davr talabi ekanligini ta'kidlaydi. Ko'p tillarni bilish avvalo insonning o'zi, undan so'ng ish faoliyati uchun muhim. Ingliz, rus, arab va ona tilini yaxshi bilish bugungi davr talabidir.

Adib millatning fikriy o'sishi, o'zligini anglashi, turli bid'atlardan qutulishi, o'z yeriga egalik qilishi va erkin zamon ilmini o'rganishiga qaratilgan fikrlarini o'z maqolalarida jonlantirdi. Masalan: “Do'stlikmi, dushmanlikmi?” maqolasida bolaning o'qishiga imkon bermasdan, uni yugurtaklikka qo'ygan, gimnaziyada o'qigan bolani kofir degan xalqni tanqid qiladi. “Bizni kemiruvchi illatlar”da esa “To'y va taziya sarf qilinaturgan oqchalarimizni biz, turoniylar ilm va din yo'liga sarf etsak, anqarib ovro'paliklar taraqqiy etarmish va o'zimizda, dinimizda obro'y va rijov topar” degan fikrni ilgari suradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy “Hozir bizning jihodimiz fikr, gazet va basirat hamda ittifoq ila bo'lur” deydi va o'zi ham gazeta nashr qilishga qaror qildi. 1908-yilda Samarqandda milliy gazeta uchun boshlangan harakat, 1913-yilda 9-aprelda o'z natijasini berdi. “Samarqand” gazetasining birinchi soni 1913-yil 16-aprelda dunyo yuzini ko'rdi (Do'stqorayev, 2009). Nashrda ma'rifatparvar ziyolilar faol qatnashdi, hazratning maqolalari nashr etildi, viloyatdagi ijtimoiy ahamiyatga ega ishlar yoritildi, illatlar tanqid qilindi, shuning uchun ham tez oradan mushtariylarning e'tibor va e'tirofiga sazovar bo'ldi. Taniqli adib va jadid namoyondasi Abdulla Avloniy “Samarqand” gazetasi haqida “...elu xalqning ko'zini ochishga bois bo'ldi” deb ta'kidlagan.

Undan so'ng ilk milliy jurnal – “Oyina” (1913-yil 20-avgust) tashkil qilindi. Mazmun va maslak yo'nalishidan “Samarqand”ning davomi bo'ldi. Jurnalda nashr qilingan maqolalar asosan maktab va maorif islohi, illatlar, ortiqcha urf-odatlariga qarshi tanqid, munosabatlar, milliy tarix, adabiy-badiiy asarlar va til masalalari mavzularida bo'lgan. Qamrovi keng: ichki Rossiya va xorijda ham mutolaa qilingan. 68-soni 1915-yil 15-iyunda chiqqach, muallifning kasalligi vaj qililib, chiqishdan to'xtagan. Jurnal o'z nomiga mos holda, Turkistonning ahvolini oynadek hamyurtlariga ko'rsat olgan.

“Padarkush” dramasida xalqning bir illatini va agar unga qarshi chora ko'rilmasa, nihoya qanday bo'lishini ko'rsatib berdi. 1911-yil yozilgan drama, 1912-yil “Turon” gazetasida bosilgan va Samarqand, Buxoro va Toshkentda teatr sahnalarida ijro etilgan.

Shuningdek, adibning “Bir vafolik zaifa xususida”

asarini bilmaydiganlar ham topiladi. Unda turmush o'rtog'iga sadoqatli bo'lgan ayol atrofdagilar tomonidan kamsitilish va xo'rlanishga uchraydi. Unga nomusini pullashini, yoki vafot etishi mumkinligini bot-bot takrorlashadi-yu, lekin, hech yordam qo'lini cho'zishmaydi. Bu asar aholining jamiyatda bo'layotgan voqealarga befarqligi, qay darajada tubanlashganini ochiq-oydin ko'rsatdi.

Hoji Muin ustozining shaxsiyati haqida yozar ekan, "Mahmudxo'ja Behbudiyl halim, ziyrak, g'oyat zakovatli va quvvai hofizasi zo'r bo'lganidek, so'zga-da nihoyat darajada usta edi" deya ta'riflaydi. Shuningdek, uning "...xalqqa to'la va faol foyda yetkizmoq uchun qo'limdan kelgancha cholishaman" so'zlaridan maqsadini ko'rsatib beradi (Muin, 2005).

Mustamlaka hukumat bunday hur fikrli, milliy o'zligini anglagan, shuningdek boshqalarni ham "zaharlayotgan" kishini e'tibordan chetda qoldirishi mumkin emas. Ularning harakati, har bosgan qadamini hufiyalar chor hukumatga yetkazib turgan. Qulay fursat tug'ilishi bilan Mahmudxo'ja Behbudiyni yo'q qilish maqsad qilingan edi.

Bolsheviklar hokimiyatni egallagach, aholining ziyoli qatlamini tozalashni boshlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiyl ham Favqulodda kommissiya ayg'oqchilarini nazaridan chetda qolmaydi. Ular Turkistonga chetdan yordam so'rash uchun chiqib ketmoqchi bo'lganida, 1919-yil Shahrisabz bekligida qo'lga olinib, taxminan ikki oy o'tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlanadi. Bir necha kundan so'ng Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan yordamchisi Nuriddinxo'ja Og'aliq Ahmadxo'ja o'g'li tomonidan zindon yaqinidagi "podsholik chorbog'i"da o'ldiriladi (Mirsaidova, 2024).

Hazrat vafotidan so'ng Topildi Rahmonberdi o'g'li "Marhum Behbudiyl haqidagi xotiralarim", Sadriddin Ayniy "Behbudiyl Afandini esga tushirib, qatl va qatlgohga xitoban", "Behbudiyl ruhiga ithof", Abdurauf Fitrat "Behbudiylning sag'anasin izladim" she'rini, Cho'lpon "Mahmudxo'ja Behbudiyl xotirasiga" nomli marsiyalarni yozgan (2025).

Behbudiyl hayotini yoritishda Ahmad Aliyev, Solih Qosimov, Naim Karimov, Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Sirojiddin Ahmedov, Shuhrat Rizayev, Zaynobiddin Abdirashidov kabi ko'plab jadidshunos olimlarning hissasi katta, ularning izlanishlari, yozgan asarlari tufayli hazratga yanada yaqinmiz, ularning maslagini maqsadimizga aylantirdik.

Mahmudxo'ja Behbudiyl yurti, millati, vatandoshlarining ilmi, hur va fikriy o'sgan, mustaqil bo'lishini xohlardi, shu yo'lda umrini, so'ngida jonini ham fido qildi. Ular haqiqiy millat qahramonidir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Ahmad, Sirojiddin. (2024). Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshkent: Info capital books, 456 b.

Behbudiy, Mahmudxo'ja. (1923) Zarafshon gazetasi. 25-mart, 32-soni. URL: <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>

Do'stqorayev, Boybo'ta. (2009). O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. Toshkent: G'afur G'ulom, 380 b.

Karimov, Naim. (2022). Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent: Akademiya, 320 b.

Mirsaidova, Nilufar. (2024). Mahmudxo'ja Behbudiy – buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi, Tamaddun nuri jurnali, 113–118 b.

Muin, Hoji. (2005). Tanlangan asarlar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi N.Namozova. Toshkent: Ma'naviyat, 176 b.

Muallif haqida:

IBRAGIMOVA Zebo — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti

THE PATH OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI

Abstract: The article is about the life and activities of the leader of Samarkand Jadids, Mahmudhoja Behbudi. It is written about the writer's participation in the press, editorial activity, as well as his works such as "On the subject of loyalty weakness", "Padarkush", "Friendship or hostility?", "The vices that gnaw at us" and his personality.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, press, "Oyna", national identity

About the author:

IBRAGIMOVA Zebo — Master's student at the University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

SAID RIZO ALIZODANING TA'LIM VA MA'RIFAT YO'LIDAGI HARAKATLARI

Xurshida Akbarqulova,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid matbuotining ma'rifatparvar publisistlaridan biri Said Rizo Alizoda ijodida ta'limiy va ma'rifiy masalalarning yoritilishi va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jadid, matbuot, hurriyat, tafakkur, millat, ma'rifatparvar, taraqqiyot, muallim, publitsistika, maktab, ta'lim, gazeta

XX asr boshlarida milliy matbuotning shakllanishi bir qator faol muharrirlar jamoasini shakllanishiga imkon berdi. Said Rizo Alizoda ham Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Ubaydulla Asadullaxo'jayev kabi o'z zamondoshlari bilan bir qatorda milliy matbuotimizning yuksalishiga salmoqli hissa qo'shgan ma'rifatparvarlardan biri hisoblanadi. U diniy va

dunyoviy ilmlarni yaxshi egallagan, muallim, tilshunos olim va tarjimon, buyuk ma'rifatparvar va mohir publitsist edi. Asarlari Markaziy Osiyo hamda Afg'oniston, Turkiya, Eron, Pokiston va Ozarbayjon kabi bir qancha davlatlarda chop etilgan. Said Rizo Alizoda "Turkiston xabarlar", "Kambag'allar o'qi", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Buxoroi sharif", "Turon", "Samarqand ovozi" gazetalarida, "Mashrab", "Mulla Mushfiqiy" jurnallarida tanqidiy maqolalari, felyetonlari bilan qatnashib turgan (Halimova, 2024). U asosan Bahlul, Zambur, Ranjbar, Bog'ishamoliy, Shapaloq, S.A. kabi taxalluslar ostida ijod qilgan.

Publitsist "Oyina" jurnalida chop etilgan "Har millat o'z tili ila faxr etar" maqolasida har bir millat o'z tilini ko'z qorachig'iday asrashi lozimligini uqtiradi: "Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo'qoturmiz. Milliyatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta yo'qolur. Bas, bizga tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadir" – (1914) deya tilimizga e'tiborli bo'lishga undaydi. Davr arboblarni dunyoga keltiradi. Arboblarning davrni yaratadi. "Hamma bu badbaxtliklarni razolat, qashshoqligiga safolat biz turkistonliklarni qoplab olishi sababi zamona madrasalarini udumi va maktablarini sitamu faqirligidadir, – deb yozadi Said Rizo Alizoda "Oyina" majallasining 1913-yil 15-noyabrida bosilgan "Maktab va madrasalar islohoti bizga zarur" maqolasida. – Hamma basirat arboblari oshkor va voze'durkim, har bir millat va har bir toifaning ravnaqi maktab siyosatining ravnaqi va islohotiga bog'liqdir. Samarqand va uning atrofida 150 mingdan ortiq nufuzi bo'lib, qancha tojir, sudgar, qancha mag'ozachi va kontorchi bor? Qayerda do'xtir, muallim, muhandis, munshiy, ki bizga nonu suvday zarurdir" (as-Salom, 2000). Said Rizo Alizoda o'z zamondoshi Mahmudxo'ja Behbudiy bilan doim hamfikir bo'lgan. Ularning Turkiston maorifchiligi, milliy matbuoti, yangi usul maktablari ochish yo'lidagi maqsadlari ham bir xil edi. Shunday xayrixohlardan biri Ismoil Gaspirali ham 1904-yilda Samarqandga kelib, Said Rizo Alizoda bilan tanishib suhbatlashadi. Uning yangi usul maktablarini ochish haqidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlaydi va o'z maslahatlarini beradi. Shundan keyin Said Rizo Alizoda 1905-yil 18 yoshida Samarqandda yangi usuldagi maktabini tashkil qiladi. U 20 dan ortiq yetimlarni o'z qaramog'iga olib ta'lim beradi. Samarqandda yashovchi mahalliy rusiyazabon aholiga o'zbek va tojik tillarini o'rgatuvchi maxsus kurslar tashkil qilgan. U o'zining katta qizini ham ta'lim olishi uchun rus maktabiga bergan. Keyinchalik u K.D. Ushinskiy, L.N. Tolstoy tajribalariga tayanib, Ismoil Gaspiralinig "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" asaridagi g'oyalari asosida "Birinchi yil" deb nomlangan "Alifbe" kitobini yaratib, o'quvchilarga

bepul tarqatdi. Bu asar “harf-tovush” tamoyili asosiga qurilgan bo‘lib, 96 sahifadan iborat edi. Asar o‘quvchilarga o‘zbekcha tovush-harflarni o‘rgatishga mo‘ljallangan 90 soatlik darsni o‘z ichiga oladi. “Saodat asri” romani ham bor. 1924-yildan “Zarafshon” nashriyotida mudirlik qiladi. 30-yillarda Samarqand pedakademiya-sida arab va fors tillaridan dars beradi. Jadid maktablari uchun “Ilmi hisob” darsligini yaratadi (2022). Ma’rifatparvar olim “Nizomnoma” va “Risolatul etti-hodiya” asarlarida eski maktab tizimining zaif tomonlarini tanqid qilib, yangi usulda o‘qitishning samarali jihatlari-ni ta’riflaydi. Shuningdek, maktablarning ichki tartibi, o‘quv jarayoni va o‘qituvchilar uchun qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan nizomlar, zamonaviy fanlarni o‘rganish, til, adabiyot va boshqa dunyoviy bilimlarni ta’lim jarayoniga joriy etish kerakligini ta’kidlaydi. Said Rizo Alizoda o‘zbek adabiyotida nafaqat tilshunos olim balki mohir tarjimon sifatida ham juda katta obro‘ga ega bo‘lgan shaxsdir. U o‘z asarlarida tarjima san’atini yuqori darajada namoyon etgan. Uning tarjimalari til boyligi, ifoda tiniqligi va o‘zbekcha so‘zlashuv uslubiga mosligi bilan ajralib turadi. Said Rizo Alizoda adabiy-badiiy tarjimada faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki muallifning maqsad va his-tuyg‘ularini ham o‘ziga xos tarzda ochib bergan. Shu bois, uning tarjimalari nafaqat o‘quvchilar, balki adabiyotshunoslar tomonidan ham yuqori baholanadi. Mohir tarjimon “Kapitan qizi”, “Boris Godunov”, “Dubrovskiy”, “Yevgeniy Onegin”, “Tirilish”, “Revizor”, “Ochilgan qo‘riq”, “Sement”, “Po‘lat qanday toblandi” asarlarini ruschadan o‘zbek, fors, tojik tillariga o‘giradi, fransuzchadan Moler, Mopassan, inglizchadan Epton asarlari tarjimasiga qo‘l uradi. (Qur’oni karimning ayrim oyatlarini fransuz tilga o‘girgani haqida ham ma’lumotlar bor). Ibn Sino, Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy, Navoiy asarlaridan rus tiliga tarjimalari ham tahsinga loyiq ish edi (2013). Said Rizo Alizoda o‘z faoliyati davomida jamiyatni ta’lim va madaniyat yo‘nalishida yuksaltirish uchun katta hissa qo‘shgan. Afsuski, barcha jadid namoyandalari kabi buyuk ma’rifat darg‘asi qatag‘on qilingan. 1945 yilda Vladimir shahridagi turmada o‘pka kasalligi bilan vafot etgan. Hozirda Said Rizo Alizoda merosi o‘rganilmoqda. Samarqand shahrida uning uy-muzeyi tashkil etilgan. Jadid ziyolisining muharrirlik va publisistik merosinin to‘la tadqiq etish olimlarimiz zimmasidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- as-Salom, G‘. (1992). Uni “Og‘o” der edilar, Turkiston gazetasi 1992.
as-Salom, G‘. (2000). Fozil inson qissasi. Risola. Samarqand.
Do‘stqorayev, B. (2009). O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi Toshkent:
G‘.G‘ulom nomidagi matbaa-nashriyot uyi.
Halimova, S. (2024). Jadidlar publitsistikasi.

Qosimov, B. (2004). Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti. Toshkent: Maʼnaviyat.

Samarqandda maʼrifatparvar olim, jurnalist va tarjimon Said Rizo Alizoda tavalludining 135 yilligi keng nishonlanadi. (2022). Samarqand. zarnews.uz. URL: <https://zarnews.uz/uz/post/samarqandda-taniqli-marifatparvar-olim-jurnalist-va-tarjimon-said-rizo-alizoda-tavalludining-135-yilligi-keng-nishonlanadi>

Umirov, S. (2006). Said Rizo Alizoda – Samarqandlik mutafakkir, Hurriyat gazetasi.

Muallif haqida:

PRIMQULOVA Xurshida — Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi, xurshidaburxonovna1@gmail.com

SAID RIZO ALIZODA'S ACTIVITIES IN THE FIELD OF EDUCATION AND ENLIGHTENMENT

Abstract: This article analyzes the coverage of educational and enlightening issues in the work of Said Riza Alizadeh, one of the enlightening publicists of the modern press, and his role in the development of society, based on examples.

Keywords: Jadid, press, freedom, thought, nation, enlightener, development, teacher, journalism, school, education, newspaper

About the author:

PRIMQULOVA Xurshida — Student of the Faculty of Print Media and Publishing, University of Journalism and Mass Communications, xurshidaburxonovna1@gmail.com

MILLAT MA'RIFATI VA BEHBUDIYNING TA'LIMGA QO'SHGAN HISSASI

Dilnavoz Rizayeva,

Oʻzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxoʻja Behbudiyning taʼlim sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Jadid maktablari tashkil etilishi, matbaa va nashriyot faoliyati, shuningdek, til va adabiyot rivojiga qaratilgan saʼy-harakatlari ochib berilgan. Uning taʼlim sohasidagi islohotlari milliy ongni shakllantirish, madaniy rivojlanish va jamiyat taraqqiyotiga koʻrsatgan taʼsiri nuqtayi nazaridan oʻrganiladi. Maqolada Behbudiyning gʻoyalarining bugungi kun uchun ahamiyati alohida taʼkidlangan.

Kalit soʻzlar: Mahmudxoʻja Behbudiyning, jadid maktablari, matbaa faoliyati, milliy taʼlim, oʻzbek adabiyoti, jadidchilik harakati

Jadidlar publitsistikasi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda paydo boʻlib, milliy uygʻonish harakatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻldi. Bu davrda jadidlar oʻz maqolalari orqali jamiyatni isloh qilish, maʼrifat tarqatish va milliy ongni uygʻotishga intilishgan.

Jadid publitsistikasi o'z zamonida xalqning ma'naviy uyg'onishi, ijtimoiy-siyosiy ongining shakllanishi va milliy istiqlol g'oyalarining ilk manbai sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Jadid publitsistikasi xalqni bilim olishga, zamonaviy ilm va fanni o'zlashtirishga undagan. Ushbu harakatning yorqin namoyondalari bo'lgan ijodkorlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Cho'lpon va ko'plab boshqa ma'rifatparvarlarni sanash mumkin. Ularning boy ilmiy va adabiy merosi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Masalan, Abduqayum Qosimov, Muhammadjon Shukurov, Hamid Sultonov, Hamidulla Boltaboyev, Zahiriddin Isomiddinov, Olimjon Hoshimov, Begali Qosimov kabi olimlar o'zbek jadid adabiyotining tarixi, faoliyati, publitsistikasi va taraqqiyoti haqida fundamental ishlar qilgan. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodi, ta'lim va tarbiya bilan bog'liq faoliyati, muharrirlik va tarjimonlikka oid jihatlari ko'plab tadqiqot va izlanishlarga sabab bo'ldi.

M.Behbudiy o'zining zahmatli hayot yo'li, sermahsul ijodi va fojiali taqdiri bilan ham har bir vatandoshimiz uchun ibrat maktabidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida o'tgan asrning 20-yillaridayoq mahalliy matbuotda Sadridsin Ayniy, Hoji Mu'in, Vadud Mahmud, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan edi. Shuningdek, Behbudiyning hayot yo'li va ijodini o'rganishda etnograf G.Andreyev, Ahmad Zaki Validiy To'g'onning "Esdaliklar"i va turkiyalik tadqiqotchi Ibrohim Yorqinning ma'lumotlari muhim manbalar sirasiga kiradi (Hasanov, Irzayev, 2014).

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo'lib, uning ma'rifatparvarlik va ijtimoiy islohotchilik faoliyati bilan tarixda alohida o'rin tutadi. U ta'limni ijtimoiy taraqqiyot va madaniy yuksalishning asosiy omili sifatida qarab, yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va zamonaviy bilimlarni tarqatishga katta hissa qo'shgan. Uning ta'lim sohasidagi harakatlari jamiyatda ma'naviy va madaniy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratgan. Uning ta'lim sohasidagi faoliyatida eng muhim hissalaridan biri jadid maktablarini tashkil qilishidir. Behbudiy an'anaviy maktablarning ta'lim tizimi jamiyatning taraqqiyoti uchun yetarli emasligini tushunib yetgan va yangi usuldagi maktablarning zarurligini ta'kidlagan. Bunday maktablarda zamonaviy fanlar (matematika, geografiya, tarix) va xorijiy tillarni o'rgatishga katta e'tibor qaratilgan. Uning fikricha, bunday ta'lim yosh avlodning ongli, ilg'or va zamonaviy jamiyatga mos ravishda shakllanishiga yordam beradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy matbaa va nashriyot faoliyatini rivojlantirishda ta'limning o'rni beqiyos ekanligini yaxshi tushungan. U Samarqandda "Turon" nomli matbaani tashkil etib,

darsliklar, o'quv qo'llanmalari va turli ma'rifiy kitoblarni nashr etgan. Uning "Risolai zaruriya" asarlari yangi usulda ta'lim berish yo'nalishida katta qadam bo'lib, o'z zamonasining muhim o'quv qo'llanmalari sifatida tanilgan. Samarqand shahri yaqinidagi Halvoyi va Rajabamin qishloqlaridagi yangi maktablar uchun "Risolai asbobi savod"(1904), "Risolai jug'rofiyai umroniy"(1905), "Risolai jug'rofiyai Rusiy"(1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy"(1906), "Kitobat ulatfol"(1908), "Amaliyoti islom"(1908), "Tarixi islom"(1909) kitoblarini yozib, chop ettirdi. Shu bilan birga geografiya va tarix fanlari uchun xarita tayyorlab, bosmadan chiqaradi (Haydarov, 2020). Behbudiylar matbaachilik faoliyati orqali ta'lim uchun zarur adabiyotlarning keng ommaga yetib borishiga erishgan. U maktab o'quvchilari uchun maxsus darsliklar tayyorlab, ularni arzon narxlarida tarqatishga alohida e'tibor qaratgan.

Behbudiylar o'zbek tili va adabiyotiga alohida e'tibor qaratgan. U o'z maqolalarida o'zbek tilining rivoji va uni ta'limda qo'llash zaruriyatini ta'kidlagan. Uning faoliyatida til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki milliy identifikatsiyani shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaralgan (Abdirashidov, Egamqulova, 2019). Milliy adabiyotni targ'ib qilish orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish va ularda milliy g'ururni shakllantirishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, u chet el adabiyotini tarjima qilish orqali jahon bilimlarini o'zbek yoshlariga yetkazishga intilib, ularning bilim saviyasini oshirishga hissa qo'shgan. Uning adabiy va tilshunoslik faoliyati orqali milliy o'zlikni anglash jarayonida ta'limning o'rni yanada aniqlandi.

Behbudiylarning ta'lim sohasida amalga oshirgan ishlari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Uning jadid maktablari va zamonaviy ta'lim usullariga asoslangan yondashuvlari bugungi o'zbek ta'lim tizimida ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiylarning ta'lim sohasidagi faoliyati uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini namoyon etadi. Uning jadid maktablari, matbaa faoliyati va ilg'or g'oyalari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kungacha ham ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Behbudiylarning ta'limga bo'lgan yondashuvlari millatning ma'naviy tiklanishi va rivojlanishida asosiy poydevorlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda ham bu g'oyalar yosh avlodning ma'naviy kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek jadidlari yoritgan til, din, millat va maorif masalalari hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdirashidov Z., Egamqulova N. (2019). Mahmudxo'ja Behbudi va uning jurnali "Oyna". Toshkent: Muharrir, B.106.

Hasanov, B., Irzayev, B. (2014). M.Behbudi hayoti va faoliyatining o'rganilishi. M.Behbudii merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: Mumtoz so'z, B. 63.

Haydarov. A. (2020). "Zarafshon"ning Behbudiysi, maqolalar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Haydarov. A. Toshkent: "Sahhof" nashriyoti, B.33.

Muallif haqida:

RIZAEVA Dilnavoz — O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi, dilnavoz0227@mail.ru

NATIONAL EDUCATION AND BEHBUDI'S CONTRIBUTION TO
EDUCATION

Abstract: This article analyzes Mahmudhoja Behbudi's activities in the field of education. It explores the organization of Jadid schools, printing and publishing endeavors, as well as efforts aimed at developing language and literature. His educational reforms are examined from the perspective of shaping national self-awareness, cultural development, and their impact on societal progress. The article particularly emphasizes the relevance of Behbudi's ideas for the present day.

Keywords: Mahmudhoja Behbudi, Jadid schools, printing activities, national education, Uzbek literature, Jadid movement

About the author:

RIZAEVA Dilnavoz — student, Media Design program, University of Journalism and Mass Communications, dilnavoz0227@mail.ru